

**O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI OLIY TA'LIM, FAN VA
INNOVATSIYALAR VAZIRLIGI
BUXORO DAVLAT UNIVERSITETI**

O'zbek tili va adabiyoti kafedrası

**MA'RIFAT RAJABOVA
ZILOLA AMONOVA**

O'ZBEK ADABIYOTI TARIXI
(XIII – XV asrning birinchi yarmi)
(o'quv qo'llanma)

Toshkent-2024

KBK 84.(50'zb)2.567 R-35

UO'S 744.766.724.45.182.24 R-35

Mazkur o'quv qo'llanmada XIII asrdan XV asrning birinchi yarmigacha bo'lgan o'zbek adabiyoti tarixi va uning yirik vakillari ijodiy merosi tahlil qilingan. Qo'llanma O'zbekiston respublikasi oliy o'quv yurtlari 60111400 – o'zbek tili va adabiyoti, 60230100 – filologiya va tillarni o'qitish (o'zbek tili) hamda 60230300 – matnshunoslik va adabiy manbashunoslik yo'nalishidagi talabalar uchun mo'ljallangan bo'lib, undan oliy o'quv yurtlari filologiya fakultetlarida o'zbek mumtoz adabiyoti fanini, shuningdek, maxsus kurslarni o'qitishda, adabiyot tarixi bo'yicha ma'ruza matnlarini tuzishda samarali foydalanish mumkin.

O'ZBEK ADABIYOTI TARIXI

(XIII – XV asrning birinchi yarmi)

(O'quv qo'llanma)

Ta'lim yo'nalishi: 60111400 – o'zbek tili va adabiyoti
60230100 – filologiya va tillarni o'qitish (o'zbek tili)
60230300 – matnshunoslik va adabiy manbashunoslik

Mas'ul muharrir:

H. Safarova - filologiya fanlari nomzodi, dotsent

Taqrizchilar:

D.Q.G'ayipov,

Urganch davlat universiteti professori, filologiya fanlari doktori.

D.T.Sodiqova,

Buxoro davlat universiteti dotsenti, filologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori(PhD).

O'zbekiston respublikasi oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar vazirligi

Buxoro davlat universitetining 2024-yil, 11-noyabrdagi 711-U sonli buyrug'iga asosan nashr etishga ruxsat berildi. Ro'yxatga olish raqami 711-21.

© **FAN ZIYOSI-2024**

© **Muhammad To'ra bosmaxonasi**

KIRISH

Mustaqillik yillarida mamlakatimiz ta'lim tizimida jiddiy o'zgarishlar ro'y berdi. Respublikamizda "Kadrlar tayyorlashning Milliy dasturi" qabul qilinib, uni bosqichma – bosqich amalga oshirishga kirishildi. Davlat ta'lim standarti va boshqa me'yoriy hujjatlar asosida o'quv dasturlari tubdan yangilanib, o'quv rejasiga yangi fanlar kiritildi. Ajdodlarimiz yaratgan ma'naviy-madaniy merosni yaxlit holda o'rganish davlat siyosati darajasiga ko'tarilishi asrlar davomida yaratilgan boy ma'naviy merosga, uning jahon xalqlari madaniyati va adabiy-badiiy tafakkuri taraqqiyotiga qo'shgan hissasini to'g'ri baholash imkonini berdi. Ayniqsa, milliy ma'naviy merosimiz tarkibida katta mavqega ega mumtoz adabiyot namunalaridan yosh avlod kamoloti yo'lida keng foydalanishga ayricha e'tibor berildi. Zero, *"bizning havas qilsa arziydigan buyuk tariximiz bor, havas qilsa arziydigan ulug' ajdodlarimiz bor. Havas qilsa arziydigan beqiyos boyliklarimiz bor. Va men ishonaman, nasib etsa, havas qilsa arziydigan buyuk kelajagimiz, buyuk adabiyotimiz va san'atimiz ham, albatta, bo'ladi"*¹.

Sharq adabiyoti tarkibida o'z mavqeyiga ega o'zbek mumtoz adabiyoti va uning zabardast vakillari asarlarida tarannum qilingan umumbashariy g'oyalar madaniy, adabiy va tarixiy qadriyatlarimizni tiklanishida, ayniqsa, yosh avlod ma'naviy kamolotini ta'minlashiga beminnat xizmat qiluvchi manba hisoblanadi. Inchunin, *"Bu bebaho boylik yangi va yangi avlodlar uchun donishmandlik va bilim manbayi, eng muhimi, yangi kashfiyotlar uchun mustahkam zamin bo'lib xizmat qilishi, shubhasiz"*² bo'lgani bois o'zbek adabiyotining atoqli ijodkorlarning ijod laboratoriyasini o'ziga xos badiiy an'ana sifatida o'rganish va o'rgatish mumtoz adabiyotimiz targ'ibining keng qulay yo'lidir.

"O'zbek adabiyoti tarixi" kursidan tayyorlagan mazkur o'quv qo'llanmada mumtoz adabiyotimizning XIII asrdan XV asrning birinchi yarmigacha, ya'ni Alisher Navoiyga qadar bo'lgan

¹ Adabiyot va san'at, madaniyatni rivojlantirish – xalqimiz ma'naviy olamini yuksaltirishning mustahkam poydevoridir. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh.Mirziyoyevning O'zbekiston ijodkor ziyolilari vakillari bilan uchrashuvdagi ma'ruzasi // Xalq so'zi. – 2017. – 4 avgust.

² O'zbekiston Respublikasi Prezidentining «O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi huzurida O'zbekistondagi Islom madaniyati markazini tashkil etish chora-tadbirlari to'g'risida» 2017 yil 23 iyundagi PQ-3080-son qarori.

namoyanlari hayoti va ijodi, ularning badiiy mahorati, soʻz qoʻllash va obraz yaratishdagi oʻziga xosligi kabi qator muammolar bilan birga talabalarni umuminsoniy qadriyatlar va milliy maʼnaviyatimiz ildizlariga hurmat va muhabbat ruhida tarbiyalash asosiy maqsad qilib qoʻyilgan.

BIRINCHI MAVZU:
AHMAD YASSAVIY HAYOTI VA IJODI

Reja:

1. Ahmad Yassaviyning hayoti va ijodi.
2. "Devoni hikmat" va uning nusxalari. Hikmat adabiy janr sifatida.
3. Shoir hikmatlarida shariat va tariqat ahkomlari talqini.
4. Hikmatlarning badiiyati

TAYANCH TUSHUNCHALAR:

- | | |
|---------------------------|-------------------------------------|
| ▪ <i>Ahmad Yassaviy</i> | ▪ <i>nafs</i> |
| ▪ <i>tasavvuf</i> | ▪ <i>ishq</i> |
| ▪ <i>Yassaviylik</i> | ▪ <i>Muhammad</i>
<i>(s.a.v)</i> |
| ▪ <i>hikmat</i> | ▪ <i>Mansur Halloj</i> |
| ▪ <i>jahriya</i> | ▪ <i>sharob</i> |
| ▪ <i>zikr</i> | ▪ <i>parvona</i> |
| ▪ <i>ibodat adabiyoti</i> | |

Ahmad Yassaviy - turkiy tasavvuf she'riyatining tamal toshini qo'yg'an so'fiy shoir. Turkiy xalqlar ma'naviyatining yorqin yulduzi sifatida asrlar osha o'z merosi bilan xizmat qilib kelmoqda. Bu borada mashhur usmonli turk shoiri Yahyo Kamolning atoqli olim Muhammad Fuod Ko'prulizodaga aytgan fikrlari o'rinli sanaladi. U "Ahmad Yassaviy kimdir? Merosining sir-asrori nedur? Shuni bir chuqur o'rganing. Millatimizning asoslarini ana o'sha joyda topursiz!", - degan ekan. Ahmad Yassaviy adabiy merosida turkiy xalqlar turmush tarzi, tarbiyasi bilan bog'liq asosli mulohazalar berilgan.

Xoja Ahmad Yassaviy Turkistonda Yassi yaqinidagi Sayram shahrida taxminan XI asrning 2-yarmida tug'ilgan. Otasi Shayx Ibrohim javonmardlik tariqatiga mansub nufuzli zotlardan bo'lgan. Onasi Muso Shayxning qizi Oysha xotun bo'lib, u Yassaviy yoshligida vafot etgan. Ahmad Yassaviy 7 yoshida otasidan ham ajraladi. Yosh Ahmadning tarbiyasi bilan opasi Gavhar Shahnoz mashg'ul bo'ladi. Ma'lum muddatdan so'ng, u opasi bilan Yassiga ko'chib boradi va Arslon boboga shogird tushadi. Bu bilan bog'liq so'fiy-shoir hikmatlarida „Yeti yoshda Arslon bobom izlab topdim...“, deydi. Arslon Bob vafotidan so'ng, islomiy ilmlarni mufassal o'rganish uchun

Buxoroga boradi. O'sha zamonlarda Buxoro Movorounnahrning ilm-ma'rifat markazlaridan biri edi. Yassaviy u yerda davrining mashhur mutasavvif va hadis olimi Yusuf Hamadoniya murid tushadi va zohiriy hamda botiniy ilmlarni egallaydi. Qolaversa, Buxoroda u arab tili bilan bir qatorda fors tilini ham chuqur o'rganadi. Forsiy tilda yaratilgan tasavvufiy asarlarni mutolaa qiladi. Yusuf Hamadoniya dargohida Xoja Abduxoliq G'ijduvoniya, Abdulloh Barqiy, Xoja Hasan Andoqiylar bilan birga hamsuhbat bo'lib, ilm egallagan. Yusuf Hamadoniya hayotligida Yassaviy uning uch muridi bila bir qatorida xalifalikka erishgan. Bular Xoja Abdulloh Barraqiya va Xoja Hasan Andoqiyni o'limidan keyin u bir muddat xonaqoh shayxi sifatida faoliyat ko'rsatgan. Ma'lum muddatdan so'ng, u yerdagi muridlarini to'rtinchi xalifa Xoja Abdulxoliq G'ijduvoniya topshirib, Turkiston-Yassiga qaytadi.

Ayrim manbalar Ahmad Yassaviyning Buxorodan qaytgandan so'ng uzoq muddat yashamasdan o'n yil keyin vafot etganligini qayd etadi. Chunki uning o'limi turli manbalarda 1166-67-yil deb ko'rsatilgan. Ammo manqabaviy rivoyatlarga ko'ra shayx 125 yil yashagandir. Lekin Ahmad Yassaviy qachon tug'ilib va qancha yosh umr kechirgan degan savolga qaytarilgan javoblar har xildir. Tadqiqotchilardan ba'zilar Yassaviyning yer ostiga kirgani 63 yoshga to'g'ri keladi, desa, ayrimlari 73, yana boshqalari esa 85 yil yashagan deb hisoblashgan. Taniqli qirg'iz adibi Ch. Aytmatov xalq rivoyatlariga tayanib Yassaviy 125 yil yashagan deydi.

Uning hayoti va ijodi haqidagi tarixiy hujjat va ma'lumotlar ko'p emas. Aksariyati manqabaviy xarakterdagi ma'lumotlar ekanligini qayd etish lozim. Masalan, Hasanxoja Nisoriyning «Muzakkirul-ahbob» tazkirasida Xoja Ahmad Yassaviy va Arslonbob o'rtasidagi xurmo voqeasi hikoya qilinadi³.

Ahmad Yassaviy shaxsi va tariqati haqida mufassal bo'lmasada, e'tiborli ma'lumotlarni bir qancha manbalarda ko'rish mumkin. Masalan, Alisher Navoiyning «Nasoyimul-muhabbat» tazkirasida Xoja Ahmad Yassaviy haqida quyidagicha ma'lumot beriladi: *“Turkiston mulkining shayxul-mashoyixidir. Maqomoti oliy va mashhur, karomati mutavoli va nomahsur ermish. Muridu as'hobi g'oyatsiz va shohu*

³ Nisoriy H. Muzakkiri ahbob. Tarjimon hamda so'zboshi va izohlar muallifi Ismoil Bekjon. – Toshkent: A.Qodiriy, 1993. – B. 269

*gadoning irodat va ixlosi ostonida nihoyatsiz ermish. Imom Yusuf Hamadoniy q.s.ning ashobidindur. Xoja Abduxoliq G'ijduvoniy q.s. bila suhbat tutubdur va Xoja Abdulloh Barrahiy va Xoja Hasan Andoqiy q.r. bilaki, ham Imom Yusuf Hamadoniy r.t. muridlaridurlar. Imom qaysi biyik marotibg'a etibdurlar, musohib bo'lubdur va ro'zgor mashoyixidin ko'p buzurgvorlar aning tarbiyatini topibdurlar... Va aning mazori Turkistonda, Yassi degan yerdaki, aning mavlid va manshaidur voqe' bo'lubdur va Turkiston ahlining qiblayi duosidur"*⁴.

Xoja Ahmad Yassaviy haqida ma'lumot beruvchi yana bir manba Faxruddin Ali Safiyning "Rashahotu aynul-hayot" asaridir. Mazkur asar Xoja Ahror Valiyning hayoti va faoliyati bilan bog'liq ma'lumotlarni qamrab olgan bo'lsa-da, unda boshqa so'fiy-shayxlarning ham tarjimai hollari berilgan. Jumladan, Xoja Yusuf Hamadoniy haqida fikr yuritib, so'ng Xoja Ahmad Yassaviy sulolasi haqida to'xtalab o'tilgan⁵. Shuningdek, ko'pgina olimlar XV- XVI asrdagi siyosiy va ijtimoiy voqealarni yoritishda «Rashahot» asariga murojaat qilganliklarini ham aytish lozim.

Yana bir qator ilmiy, adabiy, manqibiy asarlar borki, ular Yassaviy hayoti va uning tariqatiga oid qonun-qoidalarni yoritishda ahamiyatli sanaladi. Bularga Sulaymon Boqirg'oniyning "Boqirg'on kitobi", Mavlono Sayfiddin Quyluqiyning "Nasabnoma", Fazlulloh Isfahoniyning "Mehmonnomayi Buxoro", Sulton Ahmad Haziniyning "Javohir ul abror im anvojil bihor", Shayx Muhammad Olim Siddiqning "Lamahot min nafahot ul quds" kabilarni misol qilish mumkin.

Ahmad Yassaviy va uning hikmatlari turkiy xalqlar hayotiga kuchli ta'sir o'tkazgan. Shuning uchun so'fiy-shoir hikmatlari va faoliyatiga doir bir qator tadqiqotlar amalga oshirilgan. Masalan, usmonli turklarda Ahmad Yassaviy faoliyati va hikmatlar tadqiqi hamda uning turkiy xalqlar hayotidagi o'рни haqida birinchilardan bo'lib ilmiy tadqiqot olib borgan olim Muhammad Fuod Kuprulzodadir. Turkiyada yassaviyshunoslikning taraqqiyoti YUNESKO qarori bilan 1993- yilni – "Yassaviy yili" deb e'lon qilinganligi bilan bog'liq deyish mumkin. Chunki, 1993- yil Turkiyada "Yassaviy yili" juda keng miqyosda nishonlangan va shu munosabat

⁴ Alisher Navoiy. Насойим ул-мухаббат. МАТ. ХҲІІ јилд. – Т.: Fan, 2001. –В.420.

⁵ Safiy Faxruddin Ali. Rashahotu aynil-hayot. Nashrga tayyorlovchi va izohlar muallifilari M.Hasaniy va B. Umrzoq. – Toshkent: Abu Ali Ibn Sino nomidagi tibbiyot nashriyoti, 2004.

bilan bir qator ilmiy tadqiqotlar yaratilgan, turli xalqaro darajadagi ilmiy anjumanlar o'tkazilgan. Bu borada Mahmud As'ad Jushon, Hasan Komil Yilmaz, Najdat Nilmaz kabilarning xizmatlarini alohida ta'kidlash lozim.

O'zbek adabiyotshunosligida yassaviyshunoslikka doir tadqiqotlar XX asrning birinchi choragida boshlandi. Chunki «reaksion ijodkor» sifatida qaralgan Yassaviy hayoti va ijodi sho'ro davrida kam bir tomonlama o'rganilgan edi. Shunday bo'lsa-da, yurtimizda A.Sa'diy, A.Fitrat, I.Mo'minov, E.Rustamov, O.Usmon, I.Haqqulov, N.Komilov kabi olimlar tomonidan Ahmad Yassaviy hayoti, ijodi va tariqatining ayrim qirralarini yorituvchi tadqiqotlar amalga oshirilgan. Bulardan Abdurahmon Sa'diy "Yassaviy kim edi?" (1922) maqolasida Yassaviy adabiy maktabi haqida fikr yuritgan. Abdurauf Fitrat "Yassaviy maktabi shoirlari to'g'risida tekshirishlar" maqolasida (1928) Yassaviy tariqatidan ilhomlangan bir qator ijodkorlar nomini sanaydi va ularning ijodiga doir ilmiy mulohazalarini o'rtaga tashlaydi.

Mustaqillik yillarida yassaviyshunoslikda e'tiborga loyiq ishlar amalga oshirildi. Bu davrda ilk marotaba taniqli olim I.Haqqulov tomonidan Yassaviy ijodi doktorlik dissertatsiyasi obyekti sifatida tadqiq etilgan, shuningdek, "Devoni hikmat" nashrlari, "Devoni hikmat"ning qo'lyozma va toshbosma nusxalari tadqiqoti, O'zR FA Sharqshunoslik institutidagi Xoja Ahmad Yassaviy hikmatlarining qo'lyozma katalogining chop etilganligiga ham to'xtalib o'tadi.

Olim Nodirxon Hasanning "Yassaviylikka doir manbalar va "Devoni hikmat" deb nomlangan doktorlik dissertatsiyasi⁶ yassaviyshunoslikka oid ko'plab masalalarning yoritilganligi bilan muhim ahamiyat kasb etadi.

Bundan tashqari, o'zbek mumtoz adabiyotida hikmatnavislik an'anasi va tadriji hodisasi yuzasidan monografik tadqiqot amalga oshirildi⁷.

Yassaviylik tariqati hamda unga tegishli ilmiy-adabiy manbalarining xorijda o'rganilishiga bag'ishlangan ilmiy tadqiqotlarning amalga oshirilishi, so'nggi o'n yillikda o'zbek

⁶ Hasanov N. D. Yassaviylikka doir manbalar va Devoni hikmat: Filologiya fanlari doktori dis. – T.: 2017. – B. 282.

⁷ Mannopov I. O'zbek mumtoz adabiyotida hikmatnavislik an'anasi va tadriji: Filologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD) dis. – Farg'ona, 2019. – B. 151.

yassaviyshunosligi erishgan eng katta yutuq sifatida alohida qimmat kasb etadi⁸.

Bu kabi qator limiy tadqiqotlar yaratilgan bo'lsa-da, hali yassaviyshunoslikda o'z yechimini kutayotgan masalalar talaygina.

Xoja Ahmad Yassaviy o'zbek mumtoz adabiyotida hikmat deb atalgan yangi janrga asos soldi. "Devoni hikmat" Ahmad Yassaviyning hikmatlarini o'z ichiga olgan majmua hisoblanadi. Asarning asl nusxasi saqlanmagan. Ammo uning qo'lyozma va toshbosma nusxalari usmonli turk, qozoq, tatar va o'zbek xalqlari orasida keng tarqalgan. XIX asrdan boshlab Toshkent, Kogon, Qozon, Istanbul, Buxoro shaharlarida bir necha bor nashr etilgan. Masalan, 1904-hamda 1912-yillarda Qozon shahrida bosilgan "حکمت دیوان" toshbosma nusxalarini aytish mumkin. 1904-yildagi toshbosma kirish qismi, "Faqrnoma" 146 ta hikmat hamda munojotdan iborat. Kitobning umumiy hajmi 262 betni tashkil qiladi. 1904-yilda Qozon shahrida bosilgan toshbosma hikmatlari turkiy tilda bo'lishiga qaramay uning birinchi beti, ya'ni kitobning nomi va u haqidagi ma'lumotlar tatar tilida kirish qismi esa eski o'zbek yozuvida fors tilida berilgan. 1912-yildagi Qozon toshbosmasida esa 149 ta hikmat keltirilgan. Mazkur nusxa 1904-yildagi nusxaning to'ldirilgan varianti deyish mumkin.

Ahmad Yassaviy adabiy merosida turkiy xalqlar turmush tarzi, tarbiyasi bilan bog'liq asosli mulohazalar berilgan. Ulug' so'fiy shoir ijodida islom va tasavvuf g'oyalari izchil yoritilgan. Shoir islom va tasavvuf obrazlari talqiniga ham katta e'tibor qaratadi. Masalan, Iso, Muso, Ayyub, Muhammad kabi islomiy obrazlar; Mansur Halloj, Ibrohim Adham, Boyazid Bistomiy kabi tasavvufiy timsollar turkiy she'riyatga Yassaviy tomonidan oilb kirilgan. Shu jihatdan ham Yassaviy turkiy tasavvuf she'riyatining asoschisi sifatida e'tirof etiladi.

Ma'lumki, tasavvuf ta'limoti mohiyati istilohlar bilan birgalikda, obrazlar orqali ham yoritiladi. Ayniqsa, tasavvuf shayxlarining nomlarini talmeh qilish bilan ularning g'oyalariga ham ishora qilinadi. Ayni holatni Ahmad Yassaviy hikmatlarida ham ko'rish mumkin. Uning she'rlarida bir qator payg'ambarlar nomi zikr

⁸ Ismoilov Q. Markaziy Osiyo tasavvuf tariqatlarining xorijda o'rganilishi (yassaviylikka oid ingliz va o'zbek tillaridagi tadqiqotlarning qiyosiy tahlili) : Filologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD) dis. – Andijon, 2023. 150 b.

etiladi. Shular orasida Muhammad alayhissalom alohida mavqe egallaydi:

Ilhom indi Haq taolo rahmatidin,
Xojam sundi ushbu vahdat sharbatidin.
Bo'lduq emdi ul Muhammad ummatidin,
Qol ilmimiz holg'a badal bo'ldi, do'stlar.

Tasavvuf ta'limoti islom dini zamirida shakllanganligi barchamizga ma'lum. Shu bois, so'fiylarning aksariyati shariat va tariqat talablarini bir-biri bilan bog'lab, o'zaro uyg'unlikda ifodalaydilar. Xuddi shunday jihat Ahmad Yassaviy ijodi uchun ham xarakterli sanaladi. So'fiylar nazdida ilhom, ya'ni haq ishq va uning vasliga erishish borasidagi kuchli ishtiyoq hamma narsadan muhim. Shuning uchun ilhomning etishi – bu Allohning inoyati va rahmati orqali yuzaga keluvchi ruhiy holatdir. Yassaviy ham bunga alohida urg'u beradi. Vahdat sharbatidan sunmoq-ichmoq deganda, tasavvufdagi tavhid maqomi nazarda tutiladi. Bu ilmi vahdat yoki ilmi tavhid deb yuritiladi. Vahdat – tavhid bu Alloh bilan birlik hosil qilishdir. Bayt mazmuniga e'tibor qaratsak, avvalo, so'fiylikka ilk qadam bu ilhom, ammo bu ham Allohning rahmati ekanligi ta'kidlangan. "Xojam sundi ushbu vahdat sharbatidin",- misrasida esa Alloh o'z rahmati ila vahdat sharbati, ya'ni oshiqning qalbi ishq ilhom bilan to'ldirilganligiga urg'u bergan. Keyingi misralarda esa qol ilmi hol ilmiga badal bo'lganligi xususida fikr yuritilgan. Qol va hol ilmlari tasavvufda alohida mavqega ega bo'lib, ular o'zaro uzviy bog'liq bo'lish bilan birga, bir-birini taqozo ham etadi. Qol ilmi – bu zohiriy ilmlar majmuyi. Ya'ni sezgi organlari orqali egallash, o'qib o'rganish mumkin bo'lgan ilmdir. Hol esa murakkab ilm bo'lib, so'fiyning orifligi, qol ilmi takomillashib qalbi orqali his etiladigan holat sanaladi. Hol maqomini egallagan so'fiy tasavvur va taxayyulda Alloh jamolini mushohada eta boshlaydi. Aynan hol maqomi vahdat-ul vujudga eltuvchi zinalardan biridir. Qolaversa, hol ilohiy rahmatning nuzul bo'lishi hisoblanadi. Yana bir baytga diqqat qaratsak:

Uchmoh ichra o'run bergay qayu jong'a,
Kimki toat birla ishlab chiqsa tongg'a.
Isrofilni suri kirs qayu jong'a,
Biz Muhammad ummatimiz, biling, do'stlar.

Ushbu bandda ham payg'ambarimizning nomlari zikr etilgan bo'lib, albatta, bundan yuksak g'oyaviy-badiiy maqsad anglashiladi. Uchmoh – bu jannat so'zining eski turkiy tildagi shaklidir. Misrada kimki tongga qadar toat bilan mashg'ul bo'lsa, unga jannatdan o'rin berilishiga ishora qilingan. Ibodat va riyozat masalasi Yassaviy she'riyatining asosiy mazmunini tashkil etadi, desak mubolag'a bo'lmaydi. Zero, Ahmad Yassaviy ijodi ibodat adabiyotining shakllanishida asos sanaladi. So'fiy shoir mazkur baytda muqarrab farishtalardan biri Isrofil alayhissalom nomini talmeh sifatida zikr etgan.

Yassaviy hikmatlarida nafaqat ma'no rang-barangligi, balki obrazlar xilma-xilligi ham ko'zga tashlanadi. Bu esa alohida mazmun-mohiyat kasb etadi. Muqaddas kitoblarda to'rt asosiy farishtalar va ularning o'zlariga xos bo'lgan vazifalari haqida ma'lumotlar keltirilgan. Aynan, Isrofil farishtaga xoslangan vazifa bu qiyomat payti kelganda sur chalish sanaladi. Ushbu misraning mantiqiy davomi sifatida misra so'ngida esa biz Muhammad alayhissalom ummatlari ekanligimiz alohida ta'kidlangan. Bunga sabab, qachonki Isrofil farishta birinchi marta sur chalganida, yer yuzidagi jamiki maxluqot bu dunyoni tark etadi, ikkinchi marta chalinganda esa barcha o'liklarning tirilishi aytiladi. Barcha insonlar tirilib mahshargohda yig'ilganida birinchi bo'lib Muhammad alayhissalomning ummatlari chaqiriladi, bu misra orqali ayni shu haqiqatga ishora qilinadi.

Ahmad Yassaviy ijodida *zokir va zikr* juda ko'p bora tilga olingan masalalardan biridir. Ayniqsa, zokir timsoli alohida yuksak tasavvufiy ma'no yuklangan obrazlardan sanaladi. Quyidagi baytda zokir obrazining mohiyati yoritilgan:

Ondin so'ngra Haq nurin zokirlarga sochorlar,
Maloiklar saf to'lub, arra boshlar doimo.
Muhabbat sharobini qo'lg'a olib Muhammad,
Zokirlarg'a sunubon, soqiy bo'lur doimo.

Haq nuri bu hidoyat yo'li ekanligi bir necha tasavvufiy manbalarda ta'kidlangan. Alloh o'zining hidoyat nurlarini, avvalo, zokirlarga sochadi. *Zokir so'zining istilohiy ma'nosi* "Allohni zikr qiluvchi, yod oluvchi, eslovchi" degan ma'nolarni anglatadi. Hatto, farishtalar ham saf tortib, arra zikr qilishlari alohida ta'kidlangan. Arra zikri Yassaviy tariqatiga xos zikr hisoblanib, jahriya zikrni

anglatadi. Zikr va zokir obrazlaridan Ahmad Yassaviy o'z hikmatlarida juda ko'p o'rinlarda foydalangan. Chunki tasavvufda zokirlik nafsni poklash va vahdatga erishishda katta ahamiyat kasb etadi. Zikr va zokirlik haqida bir qancha tasavvifiy asarlarda batafsil ma'lumotlar berilgan. Hatto, taniqli yozuvchi S.Siyoyevning "Ahmad Yassaviy" tarixiy-biografik asarida zikr xususida alohida bob ajratilgan bo'lib, unda zikrning qanday jarayon ekanligi, zokirlik xususiyatlari yuqori pafosda yuksak badiiy mahorat bilan ochib berilganligini ham ko'rish mumkin. Xususan, Ahmad Yassaviy: "Zikr – jonning rohati",- deb ta'riflagan. Bundan tashqari, buyuk so'fiy zikrning turlarini ham alohida sanab o'tgan. Zikr tariqat yo'liga kirgan solik uchun kundalik vazifa bo'lishi, qalban his etib hamisha Allohni eslash kerakligi demakdir. Shundan so'ng, zokirga Haq o'z nurlarini sochishi yuqoridagi baytda o'z aksini topgan. Zokir uchun nur ul-hudo sochilibgina qolmay, maloiklar, ya'ni farishtalar ham saf bo'lib turishadi, zokir qalbiga Rasuli Akramning o'zlari ishqning sharobini – vahdat mayini quyishlari misralarda ko'tarinki ehtiros bilan aytiladi. Zikrning xosiyatlari va uning nechog'lik inson kamoloti uchun ahamiyatligi haqida oyat, hadislarda ham dalillar mavjud: "...Allohni zikr etish bilan qalblar orom olur",-deb aytiladi muqaddas kitob Qur'oni Karimning "Ra'd" surasida. Bundan tashqari, hadislarda ham zikr qiluvchi kishi va zikr qilmaydigan kishi tirik va o'lik insonga qiyoslangan (Muttafaqun alayh). Nafaqat tasavvuf yo'liga kirgan solik, balki har bir kishi hamisha Allohni yod etmog'i lozimligi ko'pgina manbalarda o'z aksini topgan. Keyingi misralarda esa zikrning foydalari xususida fikrlar yanada ravshanlanib borib, Haq nuri, Muhammad alayhissalomning soqiy bo'lib, oshiq qalbini ishq sharbati ila to'ldirishi bu zokir uchun ulkan saodat ekanligi ta'kidlangan. Ahmad Yassaviy aksariyat hikmatlarida payg'ambar obrazini nihoyatda yuksak ehtirom bilan tilga oladi va muhim g'oya tashuvchi obraz sifatida tasvirlaydi:

Davr davri Ahmad, xoyr ul-bashar Muhammad,
Dunyovu ding'a sarmad, shar'i bayon emasmu?

"Devoni Hikmat"dagi deyarli barcha she'rlarda Payg'ambar nomi tilga olinadi. Sulton ul-orifin Rasulullohni poklik timsoli, ibrat va namuna qilib ko'rsatadi. Har bir ishda ergashmoq lozimligini hamisha ta'kidlaydi. Yuqoridagi misralarda ham Muhammad

alayhissalom yashagan davrlari eng yaxshi davr ekanligi, butun bashariyat uchun xayr- ezigulik davri bo'lganligini e'tirof etadi.

Ahmad Yassaviy hikmatlarida ideal inson, komil shaxs deganda aynan Muhammad alayhissalomni namuna qilib ko'rsatganligini bir qancha hikmatlar tahlilidan anglash mumkin. Tasavvuf yo'lini tutgan solik, avvalo, shariatni o'rganib, so'ng keyingi bosqichlarga o'tishi lozim, buning uchun dastlab payg'ambar sunnatini qunt bilan egallashi, u kishiga ergashmoq kerakligi, eng mukammal axloq payg'ambar axloqi ekanligi Ahmad Yassaviy she'rlarida yuksak badiiy mahorat bilan ifodalanganini ko'rish mumkin. So'fiy ijodkor hikmatlarining markazida aynan Muhammad alayhissalom obrazi turishi yuqoridagi namunalarning tahlilidan yaqqol namoyondir. Ahmad Yassaviy o'z she'rlarida hadislar orqali Muhammad alayhissalomning go'zal fazilatlarini muhabbat va jo'shqinlik bilan ta'riflar ekan, nafaqat tasavvuf yo'lidagi solik, so'fiylar, balki barcha insoniyatga namuna sifatida ko'rsatib bergan.

Ma'lumki, tasavvuf XI asrdan beri Sharq shoirlarini o'ziga maftun etib kelgan. Shu munosabat bilan tasavvuf she'riyati yuzaga keldi. Uning talaygina istilohlari bilan birga, o'ziga xos qahramonlari ham shakllandi. Jumladan, tasavvuf she'riyatining markaziy qahramonlaridan biri Mansuri Hallojdir. U – o'zining “Anal - Haq” (Men haqman) g'oyasi bilan butun dunyoga tanilgan siymo. Uning bu g'oyasidan ilhomlanmagan tariqat ahlini hamda shoirni Sharq mumtoz adabiyotida topish dushvor. Ta'kidlash lozimki, Mansur Halloj nomini turkiy she'riyatda Ahmad Yassaviy olib kirdi. So'fiy-shoir hikmatlaridan boshlab, Halloj va uning “Anal - Haq” g'oyasi zikr etildi:

Man yigirma olti yoshda savdo qildim,
Mansur sifat diydor uchun g'avg'o qildim,
Pirsiz yurub, dardu holat paydo qildim,
Ul sababdin Haqqa sig'inib keldim mano .

Bilamizki, Yassaviy hikmatlarida yosh bilan bog'liq ruhiy holat ifodasi izchillik bilan beriladi. Mazkur she'rda ham 26 yosh bilan bog'liq holat berilgan. Shoir “diydor uchun g'avg'o” qilishini, ya'ni jahd qilishini ta'kidlar ekan, bu urinishi esa Mansur Halloj singari ekanligini e'tirof etadi. Yassaviy shayx Mansur nomini tilga olib, undagi diydortalablik va bu yo'ldagi sidq, jazbani alohida ta'kidlaydi.

Zero, Mansur Halloj tasavvuf olamida jazba yoʻnalishida mashhur boʻlgan siymolardan biridir. Yassaviy Hallojning ishq yoʻlidagi jasoratini ham oʻz hikmatida etirof etadi:

Qirq toʻrtimda muhabbatning bozorinda,
Zori qilib yigʻlab yurdum gulzorinda,
Mansur sifat boshim berdim ishq dorinda,
Zoti ulugʻ Xojam, sigʻinib keldim sango.

Shu oʻrinda Halloj bilan bogʻliq quyidagi rivoyatni eslash joizki, “ishq dori”ning mohiyatini anglashga yordam beradi. Halloj xibsda ekanligida Imom Shibliy uning huzuriga kelib: “Ey Mansur, sevgi-muhabbat nedur?” deb soʻrabdi. “Bugun soʻrama, erta kelgʻil”, – debdi Mansur. Ertasi uni qatl ettirish uchun bir maydonga olib boribdilar. Oʻsha yerda Shibliy ham bor ekan. Shunda u Imomga: “Ey Shibliy, sevgi-muhabbatning avvali yonmoq, oxiri dorga osilmoqdir”, – dedi. Koʻrinayotirki, Yassaviy Hallojning ishq yoʻlidagi jasoratiga, mardligiga maftun boʻlgan va ishq bobida oʻzini Mansur sifat boʻlishini orzu qilgan:

Ayo doʻstlar, pok ishqini qoʻlgʻa olib,
Bu dunyoni dushman tutib yurdum mano,
Yaqom tutub, hazrat tabo sigʻinib kelib,
Ishq bobida Mansur sifat boʻldum mano.

Soʻfiy-shoir oʻz mulohazalarini davom ettirib, Hallojning Haqqa boʻlgan oshiqligini, bu yoʻlda koʻp malomatlarga qolganligi ham oʻz hikmatida yoritgan:

Haq yoʻlida oshiq boʻlib Mansur oʻtti,
Belin bogʻlab, Haq amrini mahkam tutti,
Malomatlar, ihonatlar koʻb eshitti,
Ey moʻminlar, man ham Mansur boʻldum mano.

Mazkur hikmatda Yassaviy Hallojning “Haq amrini mahkam tutganligi”ni ham taʼkidlagan. Darhaqiqat, Mansur Halloj Qurʼoni Karimni oʻn ikki yoshida toʻla xatm qilgan, yaʼni yod olgan. Ahli sunna val jamoa tarkibidagi (Hanafiya, Shofeʼiya, Hanbaliya, Molikiya) toʻrt mazhabda oʻz azimati bilan amal qilgan. Fikrimizning isboti sifatida Abdurahmon Jomiyning “Nafohat ul-uns” asaridagi bir hikoyatga eʼtibor qaratsak. Naql qilinishicha, Mansur Halloj etmish muridi bilan bir tunda Bayti Makdisga etib boradi. Qarashsa, hammayoq zim-ziyo, qandillar oʻchgan. “Bu qandillar qachon

yonadi?”- deb so‘rashganda, “saharga yaqin”, deyishibdi. Shunda Halloj “Sahargacha hali ancha vaqt bor-ku”, deya shahodat barmoq bilan ishorat qilib “Alloh” deganida to‘rt yuz qandil birdaniga charog‘on bo‘lib ketgan ekan. O‘sha yerdagi rohiblar undan “ Sen qaysi dindansan?” deb so‘raganlarida, “Hanafiy mazhabidanman. Muhammad alayhissalom ummatiman. Hanafiylarning ham eng kichigiman...” deya javob bergan ekan.

Mansurning bu so‘zlaridan ko‘rinadiki, u o‘z diniga, ya’ni islomga nihoyatda sadoqatli, qalbida bu dinga bo‘lgan buyuk ehtirom, muhabbat jo‘sh uradi. Bu uning rohiblarga bergan javobidan yaqqol ko‘rinadi. Shu bois ham Yassaviy “Belin bog‘lab, Haq amrini mahkam tutti”, deydi. Ammo “Malomatlar, ihonatlar ko‘b eshit”ganligiga urg‘u berib, o‘zini bevosita Mansur maslagini qo‘llaganligini ta’kidlab, “Man ham Mansur bo‘ldum mano”, deydi.

Darhaqiqat, Halloj ilohiy ishq bobida shohliq martabasiga erishgan edi. Uning nomi va ishq yo‘lidagi jasorati – o‘z zamonidan boshlab, to hozirga qadar tillarda doston. Halloj va uning “Anal - Haq” g‘oyasidan ilhomlanmagan ahli tariqat yoki ijodkor bo‘lmasa kerak, desak mubolag‘a bo‘lmas. Ana shulardan biri Turkiston mulkining shayxul-mashoyixi Ahmad Yassaviydir. So‘fiy-shoir, asosan, Hallojning yo‘li to‘g‘ri ekanligini, ammo uni hech kim anglamaganligini ta’kidlaydi. Hallojning g‘oyasini tushunmaganlarni esa johillar deb qoralaydi. Ayni shu jihatlarga e’tibor qaratilgan ayrim hikmatlarinigina tahlilga tortdik. Ammo Yassaviy ijodida Halloj va uning maslagi haqida bitilgan hikmatlar talaygina.

Ahmad Yassaviy hikmatlarida *talab, ishq, shariat, tariqat, zuhd, zohid, ko‘ngil, orif, oshiq* kabi tasavvufiy masalalar ham chuqur talqin etilgan. Ana shundy tasavvuf istilohlaridan biri faqr va faqrlikdir. •

Faqir - (arabcha: فقير — kambag‘al) moddiy yoki ma’naviy jihatdan muhtoj odam. Kambag‘al (fuqaro)ga, ya’ni ijtimoiy jihatdan nochor odamlarga g‘amxo‘rlik qilish zarurligi Qur’oni karimda, sunna va pandnoma asarlarida alohida ta’kidlanadi. Zohidlik va so‘fiylik "kambag‘allik" ("faqr", "fuqr")ni keng targ‘ib qilgan. "Faqir" deyilganda "darvish" va "so‘fiy"lar tushunilgan. Shoirlar, mualliflar, xattotlar ham o‘zlarini kamtarlik bilan faqir deb atashgan. Shuningdek, faqir – moddiy jihatdan muhtoj, nochor, kambag‘al, qashshoq odam ma’nosini ham ifodalaydi. Ba’zi kishilar (shoirlar, mualliflar, xattotlar)

"men" soʻzi oʻrnida oʻzlarini kamtarlik bilan faqir deb atashgan. Yassaviy hikmatlarida esa, tasavvufiy mohiyat ifodasi sifatida berilgan:

Gʻaniy aytur: "Rizong uchun xayr qilduq,
Taom berib yaxshilardan duo olduq,
Faqir, miskin, etimlarni holin soʻrduq..."
Yigʻlab yurgil, koʻz yoshini riyosi yoʻq.
Alloh aytur: "Ori, qilding xayru saxo,
Xalq ichida qilding hama, barcha riyo,
Riyo ishni, valloh, qabul qilmam aslo...
Yigʻlab yurgil, koʻz yoshini riyosi yoʻq.

Hikmat tahliliga eʼtibor qaratsak, gʻaniy aytadi; sening rizoying yoʻlida xayr-ehson qildik, taom berib yaxshi kishilardan ularning duosini oldik. Faqir, zulm koʻrganlarning holini soʻradik, xabar oldik, Bu holingdan pushaymon boʻlib tavba qilib yigʻlagin, chunki koʻz yoshlari chin qalbdan chiqadi. Tangri aytadi: "Toʻgʻri xayr-u saxovatlar qilding", ammo xalq ichida barcha oshkora savoblar riyo uchundir. Tangri riyo ishlarni also qabul qilmaydi. Aytish lozimki, qallda chiqqan yoshlarning riyosi yoʻq, shu sababdan tavba qilib yurgin, shoyadki, Alloh nazariga tushsang, deydi shoir. Baytdan anglashiladiki, inson nimaniki oʻz chirkin maqsadlari, kibr, manmanlik, takabburlik yoʻlida xoʻjakoʻrsinga savob qilar ekan bularning bari RIYODir. Shu sababan Alloh taollo bunday bandalaring qilgan savobaridan ham mahrum etadi, unday insonning iymoni zaiflashadi. Bunday ogʻir gunohdan esa qutqarib turuvchi yagona najot farishtasi qalbdan toʻkilgan koʻz yoshlaridir. Shu sababli ham yagona najot bu-TAVBAdir.

Yuqoridagi bayt tahlillaridan ham koʻrinib turibdiki, Ahmad Yassaviy insonlarni hech ham kibr va nafs talablariga yengilmaslikka chorlab, "nafsni kaltaklab oʻtadi". Bu uning hayot tarzi, yashashidagi asosiy shiori edi.

Xulosa qilib aytganda, buyuk soʻfiy-shoir xalqni katta savoblariga sherik boʻlmoqlikka undaydi. U ana shunday xalqona toʻrtliklari orqali jamiyat, bashariyat qalbidan joy ola oldi. Yassaviy ijodida ezgu fazilatlarning, olijanib xususiyatlarning hikmatlar qaʼriga singdirilgani insoniyatni kamolotga yetaklashda muhim ahamiyat kasb etuvchi adabiy xazinadir.

Mavzuni mustahkamlash uchun savol va topshiriqlar:

1. Ahmad Yassaviyning tarjimai holi haqida nimalarni bilasiz?
2. Shoir haqida tarixiy manbalarda qanday ma'lumotlar saqlanib qolgan?
3. Ahmad Yassaviy haqida xalq orasida ko'plab rivoyatlar tarqalgan. Shulardan qaysilarini bilasiz?
4. Alisher Navoiyning "Nasoyim ul-muhabbat" asarida Ahmad Yassaviy haqida keltirilgan parchani lug'at yordamida tahlil qiling, unda muallif urg'u bergan jihatni izohlang.
5. Ahmad Yassaviy turkiy adabiyotda qaysi janrning shakllanishiga asos soldi va bu bilan bog'liq qanday ilmiy tadqiqotlarni bilasiz?
6. Ahmad Yassaviy ijodiy merosining o'rganilishiga doir qanday tadqiqotlarni bilasiz?
7. Shoir hikmatlarining o'rganilishi va nashrlari haqida to'xtaling.
8. Yassaviylik tariqati, uning tartib-qoidolari haqida nimalarni bilasiz?
9. Ahmad Yassaviy o'zining falsafiy, diniy-irfoniy, axloqiy g'oyalarining targ'ibi uchun qaysi she'riy janrlarni tanladi?
10. Shoir hikmatlarining yetakchi mavzulari haqida fikr yuring, fikringizni misollar asosida izohlashga harakat qiling.
11. Ahmad Yassaviy hikmatlarida qanday tasavvufiy istilohlar va timsollar qo'llangan?

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. O'zbek adabiyoti tarixi. V jildlik. I jild. –T.: Fan, 1977.
2. O'zbek mumtoz adabiyoti namunalari. II jild. (XIV–XV asrning boshlari). Tuzuvchi, izoh va sharhlar muallifi: filologiya fanlari doktori, professor Nasimxon Rahmon. –T.: Fan, 2007.
3. Rahmonov N. O'zbek adabiyoti tarixi. (Eng qadimgi davrlardan XY asrning birinchi yarmigacha). "Sano-standard" nashriyoti. 2017.
4. Vohidov R., Eshonqulov H. O'zbek mumtoz adabiyoti tarixi. – T.: O'zbekiston Respublikasi Yozuvchilar uyushmasi Adabiyot jamg'armasi nashriyoti, 2008.
5. Nasafiy. Xoja Ahmad Yassaviy. –T.: Adabiyot va san'at, 1993.

6. Fitrat A. Tanlangan asarlar. 2-jild. Ma'naviyat nashriyoti. – T.: 2000.
7. Yassaviy A. Devoni hikmat. – Toshkent: G'afur G'ulom, 1992.
8. Yassaviy A. Hikmatlar. – Toshkent: Adabiyot va san'at, 1991.
9. Yassaviy A. Devoni hikmat (Yangi topilgan namunalar). – T.: Movarounnahr, 2004.
10. Yassaviy A. Devoni hikmat. – T.: Movarounnahr, 2006.
11. Yassaviy A. Devoni hikmat. – T.: Navro'z, 2018.
12. Haqqul I. Ahmad Yassaviy . – T.: G'afur G'ulom, 2001.

IKKINCHI MAVZU

PAHLAVON MAHMUD HAYOTI VA IJODI

Reja:

1. Pahlavon Mahmudning hayot yo'li.
2. Pahlavon Mahmud ruboiylarida tasavvuf g'oyalarining badiiy ifodasi.
3. Shoir ruboiylarining badiiyati.

TAYANCH TUSHUNCHALAR:

- | | |
|-----------------------|------------------|
| • <i>Pahlavon</i> | • <i>nafs</i> |
| • <i>Puryoyvaliy</i> | • <i>ishq</i> |
| • <i>tasavvuf</i> | • <i>ko'za</i> |
| • <i>futuvvat</i> | • <i>tuproq</i> |
| • <i>javonmardlik</i> | • <i>sharob</i> |
| • <i>mardlik</i> | • <i>parvona</i> |
| • <i>ruboiy</i> | |

Pahlavon Mahmud XIII asr o'rtalarida (taxminan 1247-1248-yillarda) tug'ilgan. U ma'naviyatimiz tarixida yengilmas pahlavon, hassos shoir, mashhur avliyo sifatida nom qoldirgan. Pahlavon Mahmud tarjimayi holiga doir juda oz ma'lumotlar yetib kelgan. Jumladan, Shamsuddin Somiyning "Qomusul-a'lam", Lutf Alibek Ozarning "Otashkadayi Ozariy", Kamoliddin Husayn Fanoiyning "Majolis un-ushshoq", Alisher Navoiy "Nasoyim ul-muhabbat" singari mo'tabar manbalarda u haqdagi ma'lumotlar uchraydi. Bundan tashqari, "Hazrat Pahlavon hikoyatlari", "Manoqibi Pahlavon Mahmud" kabi risolalarida shoir nomi tilga olinadi. Biroq mazkur

risolalarda Pahlavon Mahmud bilan bog'liq voqealar yarim diniy, yarim afsonaviy tarzda keltirilgani sababli bu manbalardagi dalillar, ma'lumotlarga ilmiy jihatdan tayanib bo'lmaydi.

Pahlavon Mahmudning otasi asli urganchlik bo'lib, mo'g'ullar istilohi davrida ona shahrini tark etib, Xivaga ko'chib keladi. Ular Xiva shahriga yaqinlashganlarida yo'lda, Qiyot qishlog'ida farzand dunyoga keladi. Unga Mahmud deya ism qo'yishadi. Shuning uchun tazkiralarda uning tug'ilgan joyi sifatida Xivaq shahri e'tirof etiladi. U jismonan baquvvat, aqlan yetuk, ma'naviy-axloqiy jihatdan barkamol inson bo'lib yetishadi. Pahlavon Muhmud juda kuch-quvvati va matonati bilan tanilgan, kurash san'atining mashhur ustalaridan biri hisoblangan. Shuning uchun ham u ham jismonan, ham ma'nan "pahlavon"ligi sababli Puryoyvaliy nomi bilan shuhrat qozonadi.

"G'iyos ul-lug'ot"da yozilishicha: "Puryoyvaliy – Pahlavon Mahmud Xorazmiyning laqabi bo'lib, bu so'z ba'zan zo'rxona⁹ pahlavonlarining sardori, kurash san'atining ustasi bo'lgan pahlavonlarga nisbatan ham qo'llaniladi. Zo'rxonaga kirishdan avval har qanday kurashchi Pahlavon Mahmud xoki poyini tavof qiladi. Shu jihatdan, Puryoyvaliy so'zini *"aziz va mukarram"* ma'nosida ham istifoda etadilar"¹⁰. Yoqubjon Is'hoqovning yozishicha, bunday laqab javonmardlar jamoasining boshlig'iga berilgan. Mahmud Puryoyvaliy sifatida tilga olinishi uning chindan ham javonmardlar peshvosi bo'lganligini tasdiqlaydi. Bu nom shoirning qator ruboiylarida ham taxallus bo'lib keladi.¹¹ Uning pahlavonligi Eron, Hindiston kabi ko'plab Sharq mamlakatlariga yoyiladi. Xorazm, Movarounnahr, Eron, Xuroson, Hindiston va boshqa mamlakatlarda polvonlar bilan kurash tushib, bu musobaqalarida hamisha zafar quchgan, bir umr kuragi yerga tegmagan.¹²

Mahmudning ajdodlari hunarmand bo'lishgan. Otasi po'stindo'zlik va telpak tikish bilan shug'ullangan. Alisher Navoiy "Nasoyim ul-muhabbat" tazkirasida Pahlavon Mahmud to'g'risida shunday yozadi: "Pahlavon Mahmud Pakkayor quddisa sirruhu Xevaqdindur va laqabi mashhur puryorg'adur. Ba'zi Pakkayor debdurlar, ammo xevaqlik kishidin tahqiq va tasxih qildi, Pakkayorg'a

⁹ Zo'rxona – polvonlarning mashq o'tkazadigan xonasi. Bu so'z pahlavonlar uyushmasi, ittifoqi ma'nosida ham ishlatiladi.

¹⁰ Muhammad G'iyosuddin. G'iyos ul-lug'ot. Iborat az 3 jild. Jildi 1. – Dushanbe: "Adib", 1987. S. 164.

¹¹ Ochilov E. Pahlavon Mahmud. - T.: "O'zbekiston". 2013. 4-b.

¹² O'zbek adabiyoti tarixi. 1-tom, T.: 1978, 189-b.

qaror topdi, ya'ni barchag'a Pakkayor qassobning o'g'lidur. Kurashchilikda saromad bo'lib, azim shuhrat tutubdir. Yashurun suluk va riyozati ham bor ermish, andoqki, fayz olamidin ko'nglig'a choshni yetgan ermish. Ta'bi ham xo'b ermish va nazm aytur ermish"¹³. Alisher Navoiy ma'lumotlariga ko'ra, uning otasi po'stindo'zlik bilan birga qassoblik bilan ham shug'ullangan. Mahmud ham ota kasbini davom ettiradi. U avval oila davrasida, keyin shahardagi yetuk ulamolar huzurida ilmu adabni o'rganadi. Mantiq, falsafa, riyoziyotdan saboq oladi. Ko'nglida she'riyatga havas uyg'onadi.

Alisher Navoiy "Nasoyim ul-muhabbat"da Pahlavon Mahmud shaxsi bilan bog'liq yana bir voqeani keltirib o'tadi: "Hinduston azimati qilib bordi. Hind mulki podshohining bir kurashchisi bor erdi, Pahlavonni aning uchun tilagan ermishki, aning bila kurashga solgay. Bu so'zni Pahlavon bila muloqot qilg'ondin so'ngra izhor qilib, muqarrar andoq bo'lmishki, tongla xaloyiqny majmu' qilib kurashganlar. Kechasi Pahlavon o'z qoidasi bila niyozmandona mazorot tavofig'a borib, nomurodlig' bajo kelturadurganda ko'rubdurki, bir buzurg mazorda yarim kecha bir qari zaifa ko'p tazallum va tazarru' bila Tengriga munojot qilib yolboradurkim, Xudoyo, bu kelgan pahlavon kurashchi ma'rakasidin mening o'g'lumni sharmanda chiqarmag'aysen! Pahlavon bilibdurki, ul kurashchining onasidur, o'zi bila muqarrar qilibdurki, tongla ul kurashchi iligida yiqilg'ay. Tonglasi podshoh ulug' ma'raka yasab, Pahlavonni tilab, ul kurashchi bila kurashga solg'onda, Pahlavon o'zi bila muqarrar qilg'ondek, bir-ikki hamla talashgandin, so'ngra harif iligida yiqilur"¹⁴. Ko'rinib turibdiki, Alisher Navoiy keltirgan hikoyatda Pahlavon Mahmud shaxsidagi javonmardlikka urg'u berilgan.

"Manoqib"dagi xabarga ko'ra, Pahlavon Mahmud Hindiston xalqi tomonida turib, Hindiston dushmanlariga qarshi jangda ishtirok etibdi. Jang payti o'z jonini xatarga qo'yib bo'lsada, Hind shohi Ray Ropoy Cho'pani o'limdan qutqaradi. Shunda shoh Pahlavon Mahmudning bemisl bu jasorati, mardligini taqdirlamoqchi bo'lib: "Tila tilagingni!", debdi. Pahlavon Mahmud: "Ey buyuk shoh! Bundan ancha yillar muqaddam mening vatandoshlarim – xorazmiylar bu

¹³ Navoiy A. Nasoyim ul-muhabbat. MAT. XX jildlik. XVII jild. – T.: Fan, 2001. 294-b.

¹⁴ Navoiy A. Nasoyim ul-muhabbat. MAT. XX jildlik. XVII jild. – T.: Fan, 2001. 295-b.

yerga asir qilib olib kelingan. O'shalarni ozod etsangiz. Birdan bir tilagim shu!", debdi. Shoh hayron bo'lib: "Ey himmati baland pahlavon! Agar yarim davlatimni tilaganingda edi, uni gap-so'zsiz senga in'om qilgan bo'lurdim. Agar sohibjamol qizimni o'z nikohingga olmoqni so'raganingda edi, seni o'zimga kuyov etib, toju taxtimni senga bag'ishlagan bo'lurdim. Zero, jasorating ulkan mukofotga munosibdir. Mayli, tilagingni bajo keltirdim. Vatandoshlaring ozod! Ularni Xorazmga borgunlaricha yegulik oziq-ovqat, kiyim-bosh, ulov bilan ta'minlashni ham buyuraman!", debdi. Pahlavon Mahmud shohga qarab quyidagi ruboyisini o'qibdi:

O'z nafsiga kim bo'lsa amir, uldir – mard.

Xam o'zgaga bo'lmasa haqir, uldir – mard.

O'tmak sira mag'lubni tepib mardlik emas,

Tutsa qo'lidan zabunni er, uldur – mard.

Shoir ruboyisini eshitgan shoh qoyil bo'lib, unga sarpo va ulov in'om qilibdi¹⁵.

Pahlavon Mahmud Hindistondan o'z vatandoshlarini olib, Xorazmga qaytgan. Mo'g'ul-totor bosqinchilariga qarshi jangda shahid bo'lgan vatandoshlari qabri ustida shoir o'z mablag'i hisobidan maqbara qurdirgan va u yerni obod ziyoratgoh etgan"¹⁶.

Pahlavon Mahmud haqida ko'plab afsonalar va hikoyalar tarqalgan. Uning g'ayritabiiy kuchi va jasorati haqida ko'plab rivoyatlar bor.

Pahlavon Mahmud 1322- yilda vafot etgan. Pahlavon Mahmud vasiyatiga ko'ra shogirdlari uni o'zining po'stindo'zlik do'koniga dafn etganlar. Keyinchalik uning qabri ustida muhiblari maqbara qurdirgan. Maqbara devorlariga, peshtoqlariga shoirning ruboiylaridan namunalar yozib qo'yilgan. Pahlavon Mahmud maqbarasi atrofida Xorazm xonlaridan Abdulg'ozixon, Shohnyozxon, Muhammad Rahimxon I, Temurg'ozixon va boshqalar vasiyatlariga ko'ra dafn qilingan.

Ma'lumki, javonmardlik o'rta asrlarda jamiyatning hunarmandlar, o'rta qatlam aholisining manfaatlarini ko'zlab maydonga chiqqan ta'limot sanaladi. Shuning uchun javonmardlik tariqati oddiy, ezilgan mehnatkashlar tomonidan qo'llab-

¹⁵ <https://kh-davron.uz/kutubxona/multimedia/buyuk-ajdodlarimiz-pahlavon-mahmud-marifiy-film.html>

¹⁶ Sadriddin Salim Buxoriy. Buyuk xorazmiylar. - T.: Yozuvchi, 1994.9-b.

quvvatlangan. Bu tariqatning vakillari oddiy xalq ichidan chiqqan hunarmandlar, sipohiylar, ko'chalarda tomosha ko'rsatuvchi xalq teatrlari vakillari, pahlavonlar, qiziqchilar va boshqa toifalardan tashkil topgan. Taniqli tasavvufshunos olim, prof. N.Komilov javonmardlikni "mardlik dasturi" deb ta'riflaydi.

Alloma Said Nafisiy "Tasavvuf sarchashmasi" asarida *"Futuvvat – javonmardlik guruhining ulug' peshvolaridan biri mashhur shoir Pahlavon Mahmud Xorazmiydir"*, deya unga yuksak baho beradi.

Ma'lumki, futuvvat ahillari hayotda biror hunar orqasida kun ko'rishni afzal deb bilganlar, pahlavonlik Yaratgan tomonidan xalqqa xizmat qilish uchun berilgan qudrat, shoirlik ma'rifat yo'lidagi buyuk rag'bat, deb e'tirof etishgan. Demak, Mahmud Piryo'valiyning butun taqdiri tasavvuf, futuvvat, javonmardlik g'oyalari bilan mustahkam bog'langanligini uning hayot yo'li ham ko'rsatadi.¹⁷

Pahlavon Mahmud moddiy ne'matlar va jismoniy kuchdan ko'ra ma'naviyat va ichki kamolotni ustuvor deb bilgan. Uning fikricha, voqelikni haqiqiy anglash va hayotiy hikmatlarni topish uchun inson, avvalo, o'zini anglashi lozim. Bunday g'oyalarni o'zining purma'no ruboiylarida badiiy talqin qildi.

Pahlavon Mahmud ijodni tadqiq qilgan adabiyotshunos To'xtasin Jalolov shunday deb yozgan edi: "Pahlavon Mahmud she'riyatda ham, falsafada ham Xayyomning zakovatli davomchisidir. Fors adabiyotida Xayyomdan so'ng faqat ruboiy yozgan boshqa bitta ham shoir yo'q. Bu hol turkiy xalqlar adabiyotida ham ko'rinmaydi. Abdurahmon Jomiy, Alisher Navoiy, Fuzuliy, Bobur va boshqa ko'p shoirlar ruboiyda o'z kuchini sinab ko'rgan bo'lsalar-da, bu janr ularning ijodida asosiy o'rin tutmagan. Pahlavon Mahmud esa butun umr fors-tojik tilida ruboiy yozgan. Shunday qilib, Pahlavon Mahmud Umar Xayyomning oddiy takrorlovchi yoki unga ergashib ruboiy yozgan shoir emas. U o'zining she'riyatda tutgan o'rni, takrorlanmas obrazlari, original o'xshatishlari va badiiy vositalari, mushohada kuchi bilan ham butunlay boshqacha pozitsiyada turadi. Pahlavon Mahmud bu jihatlari bilan ham fors ruboiynavisligida o'ziga xos mavqeyini egallaydi"¹⁸.

¹⁷ <http://www.adolatgzt.uz/society/5541>

¹⁸ Jalolov T. Pahlavon Mahmud Piryo'vali. –T.:

Pahlavon Mahmud – ruboiynavis shoir. U o‘zining falsafiy qarashlarini ruboiy janrining xususiyatlaridan kelib chiqib badiiy talqin qildi. Uning ruboiylari tarjima qilish borasida ham o‘zbek adabiyotshunosligida qator ishlar amalga oshirildi. Bunda adabiyotshunos To‘xtasin Jalolovning alohida xizmatlari bor. Shu bilan birga olim To‘xtasin Jalolov Pahlavon Mahmud hayoti va ijodini birinchilardan bo‘lib tadqiq qildi, ruboiylarini izlab topdi, tarjima qilib, nashr etdi. Shoir tarjimayi holiga doir ma’lumotlarga oydinlik kiritdi. T.Jalolov 1962- yilda Pahlavon Mahmud ruboiylarini alohida kitob holida nashr ettirdi. Olimning “Shoir merosini izlab”, “Mardlik va odamiylik taronalari”, “Sayyor ruboiylar xususida” nomli maqolalari ham Pahlavon ijodi tadqiqiga bag‘ishlangan¹⁹.

Fors-tojik adabiyotining bilimdonlari M.Mo‘inzoda, A.Boqiy, Ulfat, Vasfiy hamda iqtidorli shoir va mohir tarjimon Matnazar Abdulhakimlar shoir ruboiylarini tarjima qilib, xalqimizning bebaho xazinasiga aylantirdilar. Ayniqsa, M.Abdulhikim shoirning 400 dan ortiq ruboiylarni to‘plab, tarjima qilib, nashr ettiradi va “Yaldoni yoritgan nur”, “Iymon tuhfası” risolalari keng jamoatchilikning e’tirofiga sazovor bo‘ldi. Pahlavon Mahmud ijodini tadqiq va targ‘ib qilishda M.Abdulhakimning xizmatlari beqiyosdir²⁰.

J.Mahmudov *“Pahlavon Mahmud hayoti va adabiy merosining matnıy tadqiqı”* mavzuidagi nomzodlik dissertatsiyasini himoya qildi. Tadqiqotchi Pahlavon Mahmud tarjimayi holiga doir ba’zi bir ma’lumotlarga oydinlik kiritishi bilan birga, shoirning lirik merosi, mavzular olamini tasnif qilib, g‘oyaviy-badiiy jihatdan tahlilga tortdi. Bundan tashqari, J.Mahmudov tadqiqotining muhim jihati shundaki, u O‘zbekiston Respublikasi Fanlar akademiyasi Abu Rayhon Beruniy nomidagi Sharqshunoslik instituti qo‘lyozmalar xazinasida “Ruboiyoti Pahlavon Mahmud” nomi ostida saqlanayotgan 11 ta qo‘lyozmani qiyosiy o‘rganadi va shoirning 110 ta ruboiysini aniqlashga muvaffaq bo‘ladi. Bundan tashqari, olim Pahlavon Mahmudga nisbat berilgan “Kanz ul-haqoyiq” masnaviysidan parcha, bir necha qit’a va fardlardan namunlarini dissertatsiyaga ilova tarzida keltirib o‘tadi.

Pahlavon Mahmud ruboiylarining tarjima qilinishida olim Ergash Ochilovning alohida xizmatlari bor. Ergash Ochilov shoirning

¹⁹Ochilov E. Pahlavon Mahmud. - T.: “O‘zbekiston”. 8-bet.

²⁰ <https://ok.ru/group/56642336850002/topic/155377570294610>

200 ga yaqin to'rtliklarini ruboiy vaznida tarjima qiladi. Albatta, bu tarjimondan katta mehnatni talab qiladi. Tarjimada vaznning saqlanishi, albatta, ohangni berishi bilan birga undagi falsafiylik va g'oyaning yetkazib berishga ham ko'maklashadi.

Pahlaviy Mahmud o'z ijodi bilan tasavvuf ta'limotining g'oyalarni targ'ib qildi. Shuning uchun uning she'riyatida so'fiylik timsoli va atamalaridan ko'p qo'llangan. Shoir Allohga muhabbatni, dunyoviy ne'matlardan voz kechishni, haqiqat izlash, ilohiy birlik mavzularini o'z ijodida targ'ib qildi. Uning so'fiyona qarashlari Kubroviya tariqati bilan bog'liq. *"Pahlavon Mahmud ruboiylarini o'qigan kishi o'zini qandaydir ma'naviy pokiza, ruhiy tetik va ulug'vor his etadi, chunki ruboiylarida shu ruh singdirib yuborilgan, – deb yozadi T.Jalolov... – bu pokiza ruh tarixda futuvvat yoki javonmardlik nomi bilan mashhur bir oqimning, bir ijtimoiy tabaqaning dasturilamalidir"*²¹.

Uch yuz Ko'hi qofni kelida tuymoq,

Dil qonidan bermoq falakka buyoq.

Yoinki bir asr zindonda yotmoq, -

Nodon suhbatidan ko'ra yaxshiroq.

Shoir ruboiyda murakkab ruhiy holatlar va kechinmalarni ifodalash uchun jonli, ramziy tasvirlardan foydalanadi. Lirik qahramon parchalamoqchi bo'lgan *"Uch yuz Ko'hi qof"* tasviri uning moddiy dunyo cheklovlarini yengib o'tish va yuksak ruhiy holatlarga erishish istagini anglatadi. "Dil qonidan falak"ni bo'yashi lirik qahramonning ichki iztiroblari, haqiqat izlashdagi fidoyiligidan dalolat beradi. Oxirgi ikki misrada shoir o'zining axloqiy qarashlarini ifodalaydi. Nodonlarga suhbatdosh bo'lishdan ko'ra "bir asr zindonda yotmoq"ni afzal deb ta'riflaydi.

Ishq biyobonida yurmoq ham mushkul,

Undan oyoq yig'ib turmoq ham mushkul,

Hammadan mushkulroq shuki, har joyda

Yoring ma'lum, lekin ko'rmoq ham mushkul.

Tasavvuf adabiyotining yetakchi mavzusi ISHQ. Ishq ilohiy bo'ladimi, majoziy ishq sanaladimi unga yetish mashaqqat. Yuqorida keltirilgan ruboiyda lirik qahramoning ishq yo'lida duch keladigan ichki kurashi

²¹ Жалолов Т. Мардлик ва одамийлик тароналари (Учинчи нашрига сўзбоши) // Пахлавон Махмуд. Рубойлар. – Тошкент: Ф.Ғулом номидаги Адабиёт ва санъат нашриёти, 1979. 26-бет.

tasvirlangan. Shoir buni tasvirlash uchun “ishq biyoboni” istiorasidan foydalanadi. “Ishq yo’li” sahroga o’xshaydi, unga borishga qaror qilganlar uchun mashaqqat va sinovlarga to’la. Diqqat qilsak, ruboiyning ikkinchi baytida Allohning hamma yerda borligi, biroq uning ko’zga ko’rinmasligi bilan bog’liq Qur’oniy oyat mazmuni singdirilgan. Shuning uchun shoir “Eng qiyini, U har yerda bor, lekin uni ko’rish, ushlash, anglash qiyin”, deydi. Bunday tasvirlar bilan shoir Allohni anglash, his qilish uchun ma’lum bosqichlarni bosib o’tish kerakligini uqtiradi. Demak, shoir nazdida Iloh visoliga erishish jasorat, sabr-toqat va fidoyilikni talab qiladi.

Tuproq to’shagida yotgan ko’p ko’rdim,
Yer qora bag’riga botgan ko’p ko’rdim,
Yo’qlik olamiga ko’z tashlaganda,
Kelmagan ko’p ko’rdim, ketgan ko’p ko’rdim.

Ruboiyda inson umrining mazmuni xususida fikr yuritilgan. Bu g’oya tasviri uchun tasavvuf she’riyatida ko’pincha hayot va o’lim tazodidan foydalanilgan. Diniy manbalarada ham, tasavvuf ta’limotida ham inson tuproqdan yaralgan, yana tuproq bo’lishi bilan bog’liq qarashlar ta’kidlangan. Ruboiyning dastlabki baytida insonning zaifligi va oxir-oqibat “tuproq to’shagida”, “qora yer bag’riga” qaytishi bilan bog’liq falsafiy mushohadalar talqin qilingan.

Pahlavon Mahmud badiiyat jihatidan yetuk ruboiylar yaratdi. U tasavvufiy g’oyalarni ifodalashda ramz-u timsollardan mahorat bilan foydalandi. Quyidagi ruboiyda *quyosh*, *oy*, *Zuhra*, *tong* timsolaridan foydalanib, ajoyib tasvirni yaratgan:

Ufqni qizartdi qon yig’lab quyosh,
Oy tirnadi yuzin, Zuhra yuldi bosh,
Tong motamida tun qaro kiyinib,
Yoqasin chok etdi qilolmay bardosh.

Quyoshning botishi ufqni qonga bo’yadi. Bundan Oy va Zuhro nola qilib, yuzini tirnadi, sochini yuldi. “Tong motami”da tun motam tutib, qora kiydi va yoqasini chok qildi. E’tibor bersak, har bir misrada tashxis san’atining go’zal namunasini yaratgan shoir, oddiy tabiat hodisasidan o’zining falsafiy qarashlarini badiiy ifodalash uchun mahorat bilan foydalangan. Shoir bu tasvirlar bilan inson umrining o’tkinchiligi, umr g’animatligiga ishora qiladi.

Pahlavon Mahmud ma'naviy va tasavvufiy g'oyalarni ifodalashda ko'pincha *sharob*, *ko'za*, *kosa*, *mahbub* timsollaridan foydalangan. Buni quyidagi ruboiyda ham ko'rishimiz mumkin:

Gurkiragan olov – dilim yo'ldoshi,
To'lqin urgan daryo – ko'zlarim yoshi.
Ko'zagarlar yasayotgan har ko'za –
Ko'hna do'stlar xoki – qo'li yo boshi.

Lirik qahramonning ko'ksida ehtiros yoki iztirob olovi yonib, ichki yonish tuyg'usini yuzaga keltiradi. Ko'z yoshlari bo'ronli daryoning to'lqinlari kabidir. Shoir bunday mubolag'ali tasvir orqali lirik qahramoning eng chuqur hissiy og'riqlarini tasvirlaydi. Ikkinchi baytda shoir fikr tasdig'i uchun *ko'zagar va ko'za* timsolidan foydalanadi. Ko'zagarlar uzoq o'tgan birodarlarining tuprog'idan ko'zada yasamoqda.

Bu satrlar Pahlavon Mahmud she'riyatiga xos teran tasavvufiy g'oya bilan sug'orilgan. *Olov*, *ko'z yoshlar*, *ko'zalar* - bularning barchasi tasavvufiy ma'noga ega bo'lib, inson vujudining tuproq bo'lishi, ruhi esa Iloh bilan birlashishiga ishoradir.

Tasavvuf adabiyotining muhim mavzularidan biri nafs sanaladi. Pahlavon Mahmud ruboiylarida ham mazkur mavzuga ko'p bora murojaat qilingan.

O'z nafsingga bo'lg'in amir, shunda mardsan,
O'zgalarga bo'lma haqir, shunda mardsan,-
Yiqilganni tepib o'tish mardlik emas,
Aftodaga bo'lsang dastgir, shunda mardsan.

Ruboiyda "kim mard" degan savolga javob qaytarilgan. Ya'ni nafsini yenggan, o'zgalarni yomonlik qilmagan, yiqilganni tepib o'tmay, uning ko'nglini olgan kishi marddir. Demak, insonning haqiqiy kuchi rahm-shafqatda va zaiflarga yordam berishida namoyon bo'ladi. Bu satrlarda inson axloqiy jihatdan takomillashtirishga undaydigan mardlik haqida fikr yuritilgan. Boisi, inson vujudida jismoniy va ma'naviy kuch mavjud. Ular o'rtasida mutanosiblik zarur. Bu mutanosiblik insonning o'zgalarga nisbatan rahm-shafqatida ko'proq namoyon bo'ladi.

Pahlavon Mahmud ruboiylarining o'ziga xos xususiyatlaridan yana biri, ularda savol-javol shaklidan foydalanish ko'zga tashlanadi. Albatta, bunday usuldan foydalanish kitobxonni

hushyorlika chorlashi va ruboiyda qo'yilgan muammoning aniq va lo'nda ifodasini berilishi bilan ahamiyatlidir:

So'rdim: "Bu hayot ma'nisi ne, jonona?"

"Yo sham, – dedi, – yo bulut va yo parvona".

So'rdim yana: "Dunyoga ko'ngil qo'ygan kim?"

"Yo go'l, – dedi, – yo mast o'sha, yo parvona

Bu go'zal satrlarda Pahlavon Mahmud falsafasi va poetikasi bilan hamohang bo'ladigan hikmatli va ta'sirli ko'rsatmalar mavjud. Hayotning ma'nosi haqidagi savolga qisqa, ammo lo'nda javoblar beriladi: *sham, bulut, parvona*. Har uchla tashbeh orqali hayotning qisqaligi, o'tkinchiligi ta'kidlanadi. Dunyo moliga ko'ngil bog'laganlar kim? Hayotning asl qadrini anglay olmaganlar yo go'l, mast, *parvonaga* o'xshatilgan.

Bu ixcham, ammo o'rinli javoblar Pahlavon Mahmud she'riyati uchun xos bo'lgan timsol va falsafiy ohanglar bilan to'yintirilgan. *Sham, bulut, parvona* inson hayotining o'tkinchiligini, *go'l, mast, parvona* esa borliqning asl mohiyatini yo'qotib, dunyoviy lazzatlarga berilgan inson timsolini ifodalashga xizmat qilgan. Bunday tashbehlar, paradoksal hukmlar o'quvchida hayot, uning sirlari va yashirin haqiqatlari haqidagi falsafiy tushunchalarni uyg'otishga yordam beradi.

Xulosa qilib aytanda, Pahlavon Mahmud o'z ruboiylari orqali tasavvufning asosiy tamoyillari – ma'naviy poklanishga intilish, dunyoviy ne'matlardan voz kechish, Ilohiy birlikni izlash kabi g'oyalarni faol targ'ib qiladi. Uning she'riyatida axloqiy qadriyatlarning shakllanishiga ta'sir ko'rsatgan insoniy axloq, mehr-oqibat va adolat mavzulariga alohida e'tibor berilgan.

Mavzuni mustahkamlash uchun savol va topshiriqlar:

1. Pahlavon Mahmudning tarjimai holi haqida nimalarni bilasiz?
2. Shoir haqida tarixiy manbalarda qanday ma'lumotlar saqlanib qolgan?
3. Pahlavon Mahmud haqida xalq orasida ko'plab afsonalar va hikoyalar tarqalgan. Buning sababini qanday izohlaysiz?
4. Alisher Navoiyning "Nasoyim ul-muhabbat" asarida Pahlavon Mahmud haqida keltirilgan faslni tahlil qiling, unda ilgari surilgan g'oyaga munosabat bildiring.

5. Nega Pahlavon Mahmud “Puryoyvaliy” taxallusi bilan shuhrat qozongan?
6. Pahlavon Mahmud ijodiy merosining o‘rganilishiga doir qanday tadqiqotlarni bilasiz?
7. Shoir ruboylarning o‘rganilishi va tarjimalariga doir qanday tadqiqotlar mavjud?
8. Pahlavon Mahmudning javonmardlik tariqatiga munosabatini izohlab bering.
9. Pahlavon Mahmud o‘zining falsafiy, diniy-irfoniy, axloqiy g‘oyalarining targ‘ibi uchun nega ruboiy janrini tanladi?
10. Shoir ruboiylarining yetakchi mavzulari haqida fikr yuring, fikringizni misollar asosida izohlashga harakat qiling.
11. Pahlavon Mahmud ruboiylarida qanday ramz -u timsollar qo‘llangan?

Foydalanilgan adabiyotlar.

1. O‘zbek adabiyoti tarixi. V jildlik. I jild. –T.: Fan, 1977.
2. O‘zbek mumtoz adabiyoti namunalari. II jild. (XIV–XV asrning boshlari). Tuzuvchi, izoh va sharhlar muallifi: filologiya fanlari doktori, professor Nasimxon Rahmon. –T.: Fan, 2007.
3. Rahmonov N. O‘zbek adabiyoti tarixi. (Eng qadimgi davrlardan XY asrning birinchi yarmigacha). “Sano-standard” nashriyoti. 2017.
4. Vohidov R., Eshonqulov H. O‘zbek mumtoz adabiyoti tarixi. – T.: O‘zbekiston Respublikasi Yozuvchilar uyushmasi Adabiyot jamg‘armasi nashriyoti, 2008.
5. Y. Is`hoqov. Pahlavon Mahmud haqida mulohazalar. “O‘zbek tili va adabiyoti”, 1971. 2-son, 20-25-betlar.
6. Ochilov E. Pahlavon Mahmud ruboiylarida futuvvat g‘oyalari. “O‘zbek tili va adabiyoti», 1999, 2-son, 21-28-betlar.
7. Sadriddin Salim Buxoriy. Buyuk xorazmiylar. - T.: Yozuvchi, 1994.

UCHINCHI MAVZU:

NOSIRIDDIN RABG‘UZIY VA UNING “QISASI RABG‘UZIY” ASARI

Reja:

1. Qisasi Rabg‘uziy” - o‘zbek nasrining nodir namunasi.
2. “Qisasi Rabg‘uziy”ning kompozitsion tuzilishi.
3. Asarning ilohiy-irfoniy manbalari.

TAYANCH TUSHUNCHALAR:

- | | |
|----------------------|------------------|
| • "Qisasi Rabg‘uziy" | • hikoyat |
| • “Qisas ul-anbiyo” | • g‘azal |
| • nasr | • latifa |
| • nazm | • rivoyat |
| • qissa | • to‘rtlik |
| • Qur‘on | • savol va javob |
| • Hadis | • hikmat |
| • pag‘ambar | |

O‘zbek mumtoz adabiyoti tarixida o‘z o‘rniga ega bo‘lgan adib Nosiriddin Rabg‘uziy haqiqda juda oz ma‘lumotlar saqlanib qolgan. Manbalardagi ma‘lumotlarga qaraganda, u XIII asrning oxiri XIV asrning boshlarida Xorazmning Raboti o‘g‘uz degan joyida tug‘ilgan. Undan bizgacha yagona "Qisasi Rabg‘uziy" asari yetib kelgan. Mazkur asarda muallif o‘zi haqida quyidagilarni qayd qilib o‘tadi: *"...bu kitobni tuzgan, toat yo‘lida tizgan, ma’siyat yobonin kezgan, oz ozuqliq, ko‘p yozuqliq Raboti o‘g‘uz qozisi Burhon o‘g‘li Nosiruddin..."*. Keltirilgan ma‘lumotlardan ayonlashadiki, adibning oti Nosiruddin bo‘lib, otasi Burhoniddin Raboti o‘g‘uzning qozisi bo‘lgan. Rabg‘uziy taxallusini tanlashi ham adibning yashagan joy bilan bog‘liq. Ko‘rinadiki, Nosiriddin Rabg‘uziyning "Qissasi Rabg‘uziy"dek asarini yaratishiga u tarbiyalangan oila muhitining ta’siri bo‘lgan.

Muqaddimada aytilishicha, asar Xorazmda Raboti o‘g‘uz degan joyning qozisi Burhonuddin o‘g‘li Nosiruddin tomonidan musulmon dinini qabul qilgan e’tiborli mo‘g‘ul beklaridan hisoblangan Nosiruddin To‘qbug‘aning iltimosiga ko‘ra hijriy 709 (milodiy 1309-1310) yilda yozilgan: *“Ammo ba’d, bu kitobni tuzgan, to‘at yo‘linda tizgan, ma’siyat yobonin kezgan, oz ozuqlug‘ , ko‘p yozuqlug‘ Rabot*

o'g'uzining qozisi Burhon o'g'li Nosiruddin urug'i, satarallohu alayhi as - salomata va rahima shiyabahu andog' aytur ... Toj ul - umaro va muhibbul - ulamo beklar urug'i, yigitlar arig'i, ulug' otlig', qutlug' zotlig', ezgu xulqlig', islom yorig'liq, mo'g'ul sanilig', musulmon dinlig', odamiylar inonchi, mo'minlar quvonchi, himmati adiz, aqli tegiz begimiz Nosiruddin To'qbug'a sabbatallohu alo dinil - islom va salomuxu"²².

Ko'rinib turibdiki, "Qissasi Rabg'uziy" Raboti o'g'uzning yangi begi To'qbug'aning iltimosiga ko'ra, bir yillik tinimsiz mehnat natijasida, 710-yil hijriy, milodiy 1309- yilda yoziladi.

Ma'lumki, islom mintaqa adabiyotida payg'ambarlar tarixiga bag'ishlangan "qissa"lar yaratish an'ana tusini olgan. Bu qissalar yig'indisiga "Qisas ul-anbiyo" deb nom berilgan. Buni Rabg'uziyga qadar yaratilgan shu tipdagi asarlar ham tasdiqlaydi. Rabg'uziy asarni yozishda Qur'on karimdan, Abu Is'hoq Nishopuriyning forscha "Qisas ul-anbiyo"sidan, Vahb ibn Munabbihning arab tilidagi "Ka'b ul-axbor" (mil.728) asaridan foydalangan. Shuningdek, Sharqda yaratilgan va mashhur bo'lgan "Qisas ul-anbiyo" faqat shulardan iborat emas. Saxi bin Abdulloh at-Tustariy (mil. 896), Muhammad bin Abdulmalik al-Musabbihiy al-Xoroniyy (mil. 1029) ham arab tilida "Qisas ul -anbiyo" yozganlar²³.

Nosiriddin Rabg'uziy asarning yaratilish sabablari to'g'risida muqaddimada quyidagilarni yozadi: ... *payg'ambarlar qissalariga g'oyat rag'batim bor. Tekma yerda, tekma kim ersada bo'linur ba'zisi mustaqim bor, ba'zisi nomustaqim. Bir anchasi muqarrar va bir anchasi mubattar bor. Bir ozining so'zlari kesuk bor, bir ozining maqsudlari o'ksuk. Emdi saning zimmangdin chiqq'an, qalamungdin oqgan, kitobatma saning, iboratma saning bo'lub "Qisas ul – anbiyo" bo'lsa, o'qumoqq'a keraklik, o'granmoqqa yarog'lig' bo'lg'ay erdi, teb iltimos yanglig' ishorat bo'ldi ersa nechama o'zumni ul ishga loyiq, ul amalga muvofiq ermasin teb, bu og'ir ishga ugradimiz. Izi azza va jalladan tamom bo'lg'ug'a tavfiq tilab kitob boshladimiz*".²⁴ Demak, Rabg'uziyning ta'kidlashicha, unga qadar yaratilgan "Qisas ul-anbiyo"larning "*ba'zisi mustaqim (to'g'ri, haqiqiy)* bor, ba'zisi nomustaqim. Bir onchasi (bir qanchasi) muqarrar (puxta, tugal) va bir onchasi mubattar (notugal) bor. Shuni nazarda tutgan bek To'qbo'g'a

²² Burhonuddin o'g'li Nosiruddin. Qisasi Rabg'uziy.-T.: "Yozuvchi". 1990. 11-b.

²³ Raxmonov N. O'zbek adabiyoti tarixi. T.: "Sano-standart" nashriyoti, 2017. -232-b.

²⁴ Burhonuddin o'g'li Nosiruddin. Qisasi Rabg'uziy.-T.: "Yozuvchi". 1990. 11-b.

adibdan “o‘qimoqg‘a keraklik, o‘rganmakka yarog‘liq” payg‘ambarlar qissalaridan iborat asar yozib berishini so‘ragan. Demak, Rabg‘aziy ana shu maqsadda qo‘liga qalam olib, “Qissasi Rabg‘uziy”dek asarni yozishga jazm qiladi va bunday maqsadni shunday fodalaydi: *“Bunda maqsad payg‘ambar qissasi erdi va lekin odamdan burunoq yaratilgan bor uchun andin boshlasamiz foydasi ortiqroq bulg‘ay, deb tartib uza yaratilganlardan og‘oz qildimiz. Ertakliga ung‘ay, istakliga tebray bo‘lsin teb “Qisasi ar-Rabg‘uziy” ot berdimiz”*. Nosuriddin Rabg‘uziy asarning yozilish tarixi haqida quyidagicha ma‘lumot beradi:

Ushbu tugattim bu kitobni, ey yoronlar, yer yuzi,
Bir yil ichra kechdi oning yoy, qishi, yozi, kuzi.
Oy qo‘pordim, uzum uzdim, so‘zni tuzdim tunla men,
Erta turdum, xoma urdum, emganib tun-kunduzi.
Yetti yuz o‘n yilgakim bitildi bu kitob,
Tug‘mish erdi ul ugurda Hut-saodat yulduzi.²⁵

Nosuriddin Rabg‘uziy ushbu asarni bir yillik tinimsiz ijodiy mehnati natijasida vujudga keltirganini she‘riy parchada e‘tirof etadi. Hijriy 710 - yilning Hut oyida kitob nihoyasiga yetkazilgan. Hut hijriy-shamsiy taqvimning so‘nggi oyi sanaladi. Buni milodiy hisobga aylantiradigan bo‘lsak, 1332-yilning fevral- mart oylariga to‘g‘ri keladi. Biroq ayrim ishlarda, jumladan, E. Fozilov “Qisasi Rabg‘uziy” kitobiga yozgan so‘z boshisida asar hijriy hisob bilan 710-yilning Hut oyi va melodiy hisob bilan 1310-yilda yozilgan, deya ta‘kidlaydi” (Nosuriddin Rabg‘uziy. Qisasi Rabg‘uziy. Birinchi kitob. Toshkent, 1990, 7-bet).²⁶

Xalq orasida “Qisas ul-anbiyo” (“Payg‘ambarlar haqida qissalar”) nomi bilan ham mashhur bu asarning eng qadimiy qo‘lyozma nusxasi XIV asrning 40-yillarida ko‘chirilgan. E.Fozilovning ma‘lumotiga ko‘ra, bu nusxa Britaniya muzeyida saqlanadi.

Xuddi shu nusxaning faksimelesini 1948-yilda sharqshunos K.Gronbek Kopengagenda nashr ettirgan. Shuningdek, asarning XVI asrda ko‘chirilgan ikki qo‘lyozma nusxasi ham mavjud. Ularning biri Sankt - Peterburgda va yana biri Toshentda saqlanadi. “Qisasi Rabg‘uziy”ni adabiy asar sifatida maxsus tadqiq etgan. I.Ostonaqulovning fikricha, bu nusxalar ham notugal bo‘lib, ulardan

²⁵ Burhonuddin o‘g‘li Nosiruddin. Qisasi Rabg‘uziy.-T.: “Yozuvchi”. 1990.

²⁶ Vohidov R. Eshonqulov H. O‘zbek mumtoz adabiyoti tarixi. 107-b.

ayrimlarining bosh va oxirgi varaqlari tushib qolib, yo'qolgan. Bunday holatni asarning O'zbekiston Respublikasi Fanlar akademiyasi Abu Rayhon Beruniy nomidagi Sharqshunoslik instituti xazinasida saqlanayotgan o'ndan ortiq nusxalari, shular ichida nisbatan qadimiyroq hisoblangan 7397, 11537, 11202-raqamlari ostida saqlanayotgan qo'lyozmalarida ham ko'rish mumkin.

“Qisasi Rabg‘uziy”ning Londonda saqlanayotgan nusxasi yuqorida sanab o‘tilgan qo‘lyozmalarning barchasidan qadimiy bo‘lib, hijriy 740 - milodiy 1340-yilda, hali asar muallifi hayotligi davrida kitobat qilingan. “Qisasi Rabg‘uziy”dagi Yusuf alayhi salom qissasini tadqiq qilgan olim H. Safarovaning fikricha, shu nusxa kotibining Rabg‘uziy zamondoshi ekanligi bilan ahamiyatlidir²⁷. Asar turli davrlarda, turli saviyadagi kotiblar tomonidan ko‘chirilgan. Shu sababli asar tili va uslubida o‘zgarishlar bo‘lgan.

Asar tadqiqiga bag‘ishlangan ishlar XIX asr oxirlari va XX asrning boshlarida amalga oshirila boshlangan. “Qisasi Rabg‘uziy”dan ayrim parchalarning ruscha tarjimasi, ba’zi lingvistik sharhlar bilan P. M. Melioranskiy, S. Y. Milov, N. F. Katanov, N. F. Ostroumov kabi olimlar tomonidan o‘quvchilar hukmiga havola qilingan.

Mamlakatimiz Mustaqillika erishgandan so‘ng mumtoz asarlarga munosabat o‘zgardi. Jumladan, “Qisasi Rabg‘uziy” ikki kitobdan iborat shaklda nashr qilindi. Mazkur nashrning afzalligi shundaki, unda ilk bor oyatlar, hadislar, arabiy iboralarning izohlari berib o‘tilgan²⁸.

“Qisasi Rabg‘uziy” 72 qissadan iborat. Bu qissalar hajm jihatidan bir-biridan farq qiladi. Jumladan, Shis, Muso, Solih, Yusuf haqidagi qissalar hajm jihatidan ancha katta. Har bir qissa tarkibida hikoyat, g‘azal, latifa, rivoyat, to‘rtlik, savol va javob, hikmat, hadislar o‘rin olgan.

Asar an‘anaga muvofiq hamd, na’t bilan boshlanadi. Hamdda Allohning buyuk mo‘jizasi sifatida insonni ulug‘ va mukarram qilib yaratganligi ta’kidlanadi. Na’tda butun olamlarning Yaratilishiga Muhammad (s.a.v) sabab ekanligini asoslash uchun Qur’on karimdagi “Agar sen bo‘lmaganingda edi falaklarni yaratmagan bo‘lur edim” oyati keltirib o‘tilgan. Albatta, buning o‘ziga xos sabablari bor.

²⁷ Safarova H. Yusuf – go‘zallik timsoli. – T.: Islom universiteti nashriyoti, 2003. 5-b.

²⁸ Burhonuddin o‘g‘li Nosiruddin. Qisasi Rabg‘uziy.-T.: “Yozuvchi”. 1990.

Boisi, payg'ambarimiz nafaqat butun insoniyatni hidoyatga boshlash uchun yuborilganlar, balki, u kishi "ulug' axloq" sohibi edilar. Bu esa butun insoniyat uchun ibrat namunasi edi.

Asar muqaddimasidan so'ng qissalar keltiriladi. Qissalar nasrda bo'lib, kechinma va xulosalar nazmda berilgan. Asarning "*Val-qavlu fis-samovati val-arzi*" nomli faslida Allohning buyuk qudrati bilan yaralgan olam tasviri shunday keltiriladi: "*Xabarda andog' kelur: Yakshanba kuni ko'klarni yaratti, dushanba kuni oyni, kunni, yulduzlarni yaratti, falak ichinda to'rutti, seshanba kuni olam xalqidan qush-qurtlarni, farishtalarni yaratti, chorshanba kuni suvlarni yaratti, yerlarni, bulutlarni chiqardi, yig'ochlarni, o't-yemlarni yaratti, undirdi. Ro'zilarni ulashturdi. Panjshanba kuni ujmoh (jannat), tamug'ni (do'zax, jahannam), rahmat va azob farishtalarini, hurlarni yaratti. Azina (juma) kun Odamni yaratti. Shanba kuni narsa yaratmadi. Bu qamug' (barcha) narsalarni taqi ming muncha narsalarni ko'z yumib ochg'uncha yaratg'u yarog'i bor erdi...*"²⁹

"*Sifati as-samovat*" deb nomlangan faslida yetti qat osmon, undagi farishtalar tasviri o'rin olgan. Bu yetti qat osmon Rafiq, Ruqcha, Qaydam, Mo'un, Ratqo, Zaxo, Aribo degan nomlar bilan atalgan. "*Sifati as-arzina*" faslida yetti qat yer osti farishtalari haqida ma'lumotlar beriladi. Yetti qat yer osti: Ramko, Julza, Arqa, Xarna, Malso, Sijjin, Ajibo deb atalishi aytiladi.

Keyingi fasl "*Qissayi Odam sifat alayhis-salom*" haqida bo'lib, Alloh Odamni xalq qilishi bilan bog'liq voqealar tasviri beriladi. Alloh Jabroilga xitob qilib, yer yuzidan bir hovuch tuproq olib kelish tayinlandi. Yer unga tuproq bermadi. So'ng Isrofil tuproq olmoqchi bo'ldi. Yer unga ham tuproq bermadi. Keyin Makoil keldi. Yer unga ham tuproq bermadi. Azroil esa tuproq oldi. U yerga "sening nolangdan ko'ra, Allohning yorlig'i azizroq" deydi. Yerdan tuproq olib yuqoriga ko'tarildi. Shunda Alloh Azroilga sening ko'ngling qattiq ekan, shu bois senga odamlar jonini olishni topshiraman deydi. Allohning odamni tuproqdan yaratishining sababi, tuproqning kamtarligidir. Chunki u barcha narsalar Odamni mendan yasa deganida, tuproq mendan yasama, chunki men munosib emasman, deydi. Tog' ham, ko'k ham, dengiz ham mendan yarat, men azizman deya kibrga beriladilar. Odam yaralgach, Havoni uning qovurg'asidan

²⁹ Burhonuddin o'g'li Nosiruddin. Qisasi Rabg'uziy.-T.: "Yozuvchi". 1990. 12-b.

yaratildi. Alloh ko'rkni (chiroyni) yuz ulush qilib, to'qson to'qqiz ulushini Havoga berdi. Qolgan bir ulushini boshqa narsalarga berdi.

Aqlli bo'lgani bois farishtalarga Allohdan Odamga sajda qilish yorlig'i keldi. Faqat Azozilgina sajda qilishdan bosh tortdi. Azozil men nurdan yaralganman, tuproqdan yaralgan Odamga bo'ysunmayman, deydi. Shunda undan Azozil ismini olib, Iblis deb atay boshladilar. Aslida tuproq o'tdan a'lo, ortiq edi. O't o'g'ri bo'lib, hamma narsani yutib yo'q qiladi. Ammo tuproqqa bir hovuch bersang, u narsani yuz qilib qaytaradi.

Odam va Havo jannatda yurgan paytida, Iblis ularga ziyon yetkazish uchun jannatga kirmoqchi bo'ladi. Lekin jannat darvozasi oldida qo'riqchilar bor. Shunda ilonni og'ziga Iblis kirib oladi. Uni tovus qanotlarini yozib yashiradi. Shu uchun ular jannatdan quviladilar. Shu aybi uchun ilon tuya singari oyoq bilan yurishdan, chiroyli tanadan mahrum bo'ladi. Sudralib yuradigan, naqshinkor tani yo'qolib, sovuq qiyofaga kirib qoladi. Iblis Havoni taqiqlangan meva-bug'doyni yeyishni, agar esa jannatda qolishini, o'lmaydigan bo'lishini aytib, aldab, ko'ndiradi. So'ng Odam ham bug'doyni yeydi. Yegandan keyin luqmasi kekirdagida qoldi. Shu tariqa Odam va Havo jannatdan quvildilar. Odam Hindistonda Anjalus otlig' yerda Sarandib tog'iga tushdi. Havo Jidda tog'iga tushdi. Iblis Basraga tushdi. Odam bilan Havo bir-birini ikki yuz yil yig'lab izladilar. Odamning tomgan yoshlaridan o't-yem, achchiq-suchuk undi. Havoning ko'zi yoshi tomgan yerdan ud, qalanfir, sunbul, hino, o'sma undi. Ikkisi ikki yuz yildan keyin Arofat tog'ida uchrashdilar. Odam bilan Havodan bir necha avlod tug'ildi.

Mazkur faslda 7 misradan iborat she'r keltirilgan bo'lib, uni nasriy tasvirning nazmiy ifodasi deyishimiz mumkin.

Haq yaratti tangsuq Odamni tafiz yer ko'rkidin,
O'zga surat tuzdi andog' ajun ichra ilkidin.
Taxtini ko'turub farishta ujmoh ichra kivurub,
Tezginurda chiqmadilar hargiz aning erkidin.
Chiqdi Havo birla bo'lub xush tanazzum qildilar,
Ichtilar ujmoh sharobin, yedilar et erkidin.
Bildi asmo ilmini ul etu berdi belguluk ,
Barcha tillar birla so'zlar tozi forsiy turkidin.
O'rkadi besh yuz yil anda jufti birla ovunub,

Ichdi sharbat sig'raqinda edi ne'mat tarkidin .
Mundi ujmohning buroqin kezdi aning tegrasin,
Hulla kizdi egniga ham boshg'a urdi burkidin.
Ozdi Iblis makri birla biruk erdi yolg'uzin,
Ikki bug'doy edi chiqdi sakkiz ujmoh mulkidin³⁰.

Ta'kidlash kerakki, diniy qissalarning bayonida xalq og'zaki ijodining ta'siri yaqqol sezilib turadi. Bu jihatdan Sulaymon payg'ambar, Luqmon Hakim to'g'risidagi qissalar juda xarakterlidir. Ayniqsa, Sulaymon alayhis-salom haqidagi qissada uning payg'ambarlik sifatidan ko'ra podshohlik shon-shavkati, dabdabasi bilan bog'liq tasvirlarga keng o'rin berilgan.

Sulaymon payg'ambar to'g'risidagi qissa mazmuni quyidagicha: Podshohlik Sulaymonga otasi Dovud payg'ambardan meros qoladi. Sulaymon payg'ambarning podshohligi hammadan ortiq edi. Naql borki, hazrat Dovud Sulaymonni taxtga chiqarib xalqqa xalifa qiladi. Go'yo Xudo farmoni bilan u barcha hayvonot-u parrandaning tilini biladi. Sulaymon kecha-kunduz munojot qilib, Xudodan menga hech kimda bo'lmagan mulk bergin deydi. Xudodan farmon bo'lib, ey Sulaymon, hamma podshohlarning jonini olaman, yer yuzida sandan boshqa podshoh bo'lmaydi, deydi. So'ng Sulaymon Mag'ribdan Mashriqqa podshoh bo'ladi, dev-u pari, ins-jinslar uning farmonida edi.

Sulaymon alayhis-salom haqidagi qissaning boshqa qissalardan yana bir farqli jihati shundaki, qissa tarkibida mustaqil mazmundagi hikoyatlar keltirilgan. Bunga "Sulaymon bilan mo'r", "Sulaymon va Bilqis" kabi hikoyalarni misol qilib keltirish mumkin.

"Qissasi Rabg'uziy" badiiyat jihatidan ham nodir asar hisoblanadi. Asarda turli tasviriy vositalardan o'rinli foydalanilgan. Xalq og'zaki ijodiga yaqin bo'lgan tasvirlarni "Qisasi Rabg'uziy"da uchratishmiz mumkin. Asarda shunday tasvir bor: *"Amalqa qabilasining odamlari uzun bo'yliq, bo'yi uch yuz qari (ch), ko'ksi yetti qari(ch) edi. Bani Isroil ularga o'n ikkita baquvvat baland bo'yliq kishilardan elchi yubordi. Ular ancha yurib bir kishining bog'iga kirib uzum yeb tursa, egasi kelib qoladi. Ularni tutib oltitasini bir yengiga, oltitasini bir yengiga solib podshohga olib borib, yengini yerga qoqadi.*

³⁰Burhonuddin o'g'li Nosiruddin. Qisasi Rabg'uziy.-T.: "Yozuvchi". 1990. 15-b.

U yerdagilar hayron bo'lib, bu nechuk qulliq-oyoqliq qurtlar deb kaftlariga olib tomosha qiladilar."

Luqmoni hakim qissasida hozirjavoblik va donoliklik ulug'lanadi. Qissa hajman kichik bo'lsa-da, unda har qanday yaxshilik mukofotsiz, yomonlik esa jazosiz qolmasligi bilan bog'liq o'lmas g'oya o'z ifodasini topgan: *"Hikoyatda kelmish, bir kun xojasi Luqmonni bug'doy ekkali izdi. Luqmon borib arpa ekti. Xojasi aydi: "Bug'doy ek tedim, ne uchun arpa eking?" Luqmon aydi: "Arpa eksa bug'doy unmasmu?" Xojasi aydi: "Unmas". Luqmon aydi: "Andag' bo'lsa sen ham yomonliq ekib yaxshiliq umid etmagil"*³¹.

Ilohiy-irfoniy manbalarda ham, mumtoz adabiyot namunalarida ham tilga, so'z qudratiga alohida urg'u berilgan. Xuddi shunday holni "Luqmoni hakim" qissasida ham ko'rishimiz mumkin: *"Luqmong'a xojasi aydi: "Borg'il, bir qo'y bo'g'uzlab etindin qayu yaxshiroq ersa manga kelturgil". Qo'yni bo'guzladi, tili birla yurakin olib keldi. Xojasi so'rdi: "Bularni naluk kelturdung?" Aydi: "Qo'yda tildin, yurakdin yaxshiroq yo'q. Agar yovuz ersa tildin, yurakdan yovuzroq yo'q"*.

Yuqorida keltirilgan iqtiboslardan "Qisasi Rabg'uziy" ga xos yana bir xususiyat ko'zga tashlanadi. Rabg'uziy o'zbek nasrida ilk bor dialoglardan mahorat bilan foydlangan. Dialoglar muallifning asosiy g'oyaviy maqsadini yorqin va tasirchan ifodalash uchun xizmat qilgan.

"Qisasi Rabg'uziy" o'zbek nasrining ilk namunasi bo'lsa-da, undagi she'riy parchalar muallifning shoirlik iqtidoridan darak beradi. Asarda nazm-u nasrning qorishiq kelishi, birinchidan, folklordagi dostonlar shaklining saqlanishiga olib kelgan bo'lsa, ikkinchidan, asarning badiiyatiga ijobiy ta'sir ko'rsatgan omil sifatida baholash mumkin. Ayniqsa, "Yusuf" qissasida bahor faslining go'zalligini, tabiat ko'rkini tasvirlovchi she'riy matn g'azal janrining ilk namunasi sifatida e'tirof etib kelinmoqda:

Kun hamalg'a kirdi ersa, keldi olam navro'zi,
Kechti Bahmon zamharir qish, qolmadi, qori, muzi.
Kun kela ming ko'rki ortib, tirilur o'lmish jahon,
Tong pazirlab naqshi birla bezonur bu yer yuzi.
Nayshakarlar minbarinda to'tiqush majlis tutar,
Qumri, bulbul mehri bo'lub un tuzar tun kunduzi.

³¹ Burhonuddin o'g'li Nosiruddin. Qisasi Rabg'uziy.(ikkinchi kitob)-T.: "Yozuvchi". 1990. 74-b.

Lola sig'roqin icharda sayrar derub sanduvoch
Turna un tortib o'tardi sakrashur boqlon qo'zi.
Ko'kda turlab qo'l solishur quvg'u, qoz, fil, qormug'och.
Yerda yugrub guft olishur tosh, tiyn, qish kunduzi.
Bir yag'iz yer ko'k mingizlik yashnogay maydon bo'lib,
O'g'rashur oytek chechaklar tegrasinda yulduzi.
Huri ayn uchmoq ichinda eng solib tahsin qilur,
Yoz uza mundog' g'azalni aytsa Nosir Rabg'uziy³².

Rabg'uziy g'azalda go'zal tashbeh, jonlantirish, qarshilantirish kabi badiiy vositalardan mahorat bilan foydalangan. Albatta, asarda keltirilgan she'riy parchalar mumtoz lirik janrlarning tadrijiy taraqqiyotini belgilashda muhim ahamiyatga ega.

“Qissasi Rabg'uziy” o'zbek nasrining nodir namunasi. Asarning tili o'ziga xos bo'lib, qo'llangan badiiy tasviriy vositalar asar badiiyati ta'minlash uchun xizmat qilgan. Asarning ko'p sahifalarida keltirilgan Qur'oni karim oyatlari, Hadisi sharif namunalari iqtibos san'atini hosil qilishi bilan birga, fikr tasdig'i uchun xizmat qilganligini ko'rishimiz mumkin. “Iqtibos san'atining paydo bo'lishi va rivojlanishining muhim omili – Qur'oni karim va payg'ambarimiz (s.a.v.) hadisi shariflarini jamiyat ma'naviyatining ajralmas qismiga aylangani, odamlarning ongiga singdirilgani va kundalik hayotning hamma sohalarida dasturulamal kabi qo'llanilganidadir”.³³

“Qisasi Rabg'uziy” asarida hadislar o'zgarishsiz, asliyatda (arab tilida) berilgan. Bunda muallif o'zining u yoki bu fikrini tasdiqlash uchun hadislarga murojaat qiladi. Muallif ulardan o'zi ilgari surayotgan g'oyasining qabul qilinishida e'tirozga o'rin qoldirmaslik uchun foydalanadi. Namuna sifatida quyidagi iqtibosni keltirmoqchimiz: *“Olti kunda aning uchun yaratti, qullarig'a ta'lim qildi, man qodirliqim birla ev, esh qilmazman. Sizlar ojizliqingiz birla evmadin, oshiqmadin aqruluq birla esh qiling teb. Qola Rasulullohi (a): al-ajalatu min ash-shayton va atta'ani min ar-Rahmon. (Allohning elchisi dedi: shoshilish shaytonning ishi va shoshilmaslik Rahmonning ishidur).*³⁴

³² Burhonuddin o'g'li Nosiruddin. Qisasi Rabg'uziy.-T.: “Yozuvchi”. 1990. 103-b.

³³ Davlatov O. A.Navoiy she'riyatida Qur'on oyatlari va hadislarining badiiy talqini. Fil. fan. nom. ... diss. – Samarqand, 2017. 17-b.

³⁴ Rabg'uziy Nosiruddin Burhonuddin. Qisasi Rabg'uziy. Birinchi kitob. –T.: Yozuvchi, 1990. 12-b.

Umuman olganda, Nosiruddin Rabgʻuziyning “Qisasi Rabgʻuziy” asari adabiyotimiz tarixidagi badiiy nasrning ilk va nodir namunasidir. Asarda muallif diniy syujet va voqea-hodisalar tasvirini berishni maqsad qilib qoʻygan boʻlsa-da, ularga ijodiy yondashadi. Shu orqali oʻzining ilohiy-irfoniy, ijtimoiy - siyosiy, maʼrifiy qarashlarini asar magʻziga singdirib yuboradi.

Mavzuni mustahkamlash uchun savol va topshiriqlar:

1. Nosiriddin Rabgʻuziyning tarjimai holi bilan bogʻliq qanday maʼlumotlar saqlanib qolgan?
2. Nosiruddin Rabgʻuziy “Qisasi Rabgʻuziy” asarining yaratilishi haqida asarda qanday maʼlumotlarni qayd qiladi?
3. “Qisasi Rabgʻuziy” asarining tarkibiy tuzilishi haqida gapirib bering.
4. “Qisasi Rabgʻuziy”ning ilohiy manbalarga uygʻunligini misollar bilan asoslashga harakat qiling.
5. Asarning badiiyatiga doir xulosalaringizni misollar bilan asoslab bering.
6. “Qisasi Rabgʻuziy”da Sulaymon paygʻambar obrazi qanday tasvirlangan?
7. “Qisasi Rabgʻuziy”dagi Yusuf qissasini soʻzlang, uning diniy manbalarga uygʻunligiga eʼtibor qarating.
8. “Qisasi Rabgʻuziy”ning oʻzbek adabiyotidagi oʻrni va ahamiyatiga baho bering.
9. Asarning tadqiqiga bagʻishlangan qanday ishlar amalga oshirilgan?

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Oʻzbek adabiyoti tarixi. V jildlik. I jild. –T.: Fan, 1977.
2. Oʻzbek mumtoz adabiyoti namunalari. II jild. (XIV–XV asrning boshlari). Tuzuvchi, izoh va sharhlar muallifi: filologiya fanlari doktori, professor Nasimxon Rahmon. –T.: Fan, 2007.
3. Rahmonov N. Oʻzbek adabiyoti tarixi. (Eng qadimgi davrlardan XY asrning birinchi yarmigacha). “Sano -standard” nashriyoti. 2017.

4. Vohidov R., Eshonqulov H. O'zbek mumtoz adabiyoti tarixi. – T.: O'zbekiston Respublikasi Yozuvchilar uyushmasi Adabiyot jamg'armasi nashriyoti, 2008.
5. Ahmedov B. Tarixdan saboqlar. –T.: "O'qituvchi", 1994.
6. Mallayev N. O'zbek adabiyoti tarixi. –T.: "O'qituvchi", 1976.
7. Nosuriddin Burhoniddin Rabg'uziy. Qisasi Rabg'uziy. Birinchi kitob. –T.: "Yozuvchi", 1991 .
8. Nosuriddin Burhoniddin Rabg'uziy. Qisasi Rabg'uziy. Ikkinchi kitob. –T.: "Yozuvchi".1992 .
9. Safarova H. Hazrati Yusuf – go'zallik timsoli. –T.: Toshkent Islom universiteti nashriyoti. 2003.
10. Haqqul I. Hadis haqiqati va talqin xilma-xilligi. "O'zbek tili va adabiyoti", 1996, 4-son, 23-25-betlar.

TO'RTINCHI MAVZU:

XORAZMIY HAYOTI VA IJODI

Reja:

1. Xorazmiy ijodiy merosining o'rganilishi.
2. "Muhabbatnoma"- noma janrining ilk namunasi.
3. "Muhabbatnoma"ning janriy tarkibi, badiiy xususiyatlari.

TAYANCH TUSHUNCHALAR:

- | | |
|------------------|-----------------|
| • "Muhabbatnoma" | • mahbuba |
| • "Hikoyat" | • ishq-muhabbat |
| • noma | • g'azal |
| • Oltin O'rda | • masnaviy |
| • oshiq | • fard |
| • ma'shuq | |

Xorazmiy o'zbek mumtoz adabiyotining yirik namoyandalaridan biridir. Bu iste'dodli ijodkorning hayoti va faoliyati, adabiy meros haqidagi ma'lumotlar juda oz yetib kelgan. Xorazmiy haqida ma'lumot beruvchi yagona manba uning "Muhabbatnoma" asaridir. Asarning "Muqaddima"si va qisman "Xotima"sida Xorazmiy hayotiga doir ishoralar berilgan.

"Xorazmiy" shoirning taxallusidir. Shoir qo'llagan taxallus uning xorazmlik ekanligidan dalolat beradi. Xorazmiyning yoshlik

yillari, o'qish davri va ilk ijodiy faoliyati Xorazmda o'tdi. "Muhabbatnoma"ga ilova qilingan she'riy "Hikoyat"ida qayd etilishicha, Xorazmiy bir necha Sharq mamlakatlariga sayohat qilgan. Turli xalqlarning hayoti bilan tanishgan. "Hikoyat" fors-tojik tilida bo'lib, uning o'zbek tiliga qilingan nasriy nasriy bayonini quyidagicha: *"Menda Shomga safar qilish fikri tug'ilib, yo'lga chiqqan yili otliq ham bo'ldim, ayov ham yurdim. Qo'limda hassa, oyog'imda kovushim bor edi, qay holatda bo'lmayin, vaqtim xush edi. Birov suv berar, birov non berar edi, kema dilbarlar zulfidek parishon edi. Tavakkal qilib dengizdan o'tdim. Rum (Turkiya)ni boshdan-oxir kezib chiqdim. So'ngra Shomga yo'llanma berdilar. Tayfur mulkidan Shomga yo'l oldim. O'rtog'im bor edi, hur kishi edi, yoshu poku sayidzoda edi... Sulaymon chumolilarga hamtovoq bo'lgani singari, suvimizni sho'r yoki shirinligidan qat'iy nazar, baham ko'rar edik... Goho gulga, goho tikanga duch keldik, tekislik hamda tog'liklarda bo'ldik..."*³⁵ O'zbek mumtoz adabiyotining yirik tadqiqotchisi N. M. Mallayev "Muhabbatnoma"ning so'ngida keltirilgan forsha hikoyani bevosita Xorazmiyning tarjimayi holi bilan bog'lab talqin qilgan³⁶.

Xorazmiyning to'liq nomi biror bir qadimiy manbada qayd qilinmagan. Biroq yigirmanchi asrda yaratilgan "Tazkirayi Qayumiy"da shoir Nozim Xorazmiy deb tilga olingan: "Bu kishini Nozim Xorazmiy deb yuritiladurki, o'zining "Muhabbatnoma" nomli yirik asari bilan XIV asrning buyuk klassik yodgori bilan tanilmishdur. Shoirning tarjimayi holigina emas, hattoki, nomi ham zamonamizda ma'lum bo'lmadi. Lekin asari mo'tabar kitobdur. Bu asar ham Oltin (O'rda) hukmdorlari davrida yozulmish qadimgi asardur. O'zi Xorazmli bo'lgan va Oltin O'rdada yurgan o'zbek shoiridur"³⁷.

"Muhabbatnoma"ning ikki nusxasi - arab va eski uyg'ur-turk yozuvidagi nusxalari bor. Asarning eski uyg'ur-turk yozuvidagi nusxasi hijriy 835- (mil. 1432) yili Yazd shahrida Mir Jaloliddinning buyrug'i bilan ko'chirilgan. Asar 14 varaqqa joylashtirilgan. Asarning asl nusxasi 7914-raqami ostida Britaniya muzeyida saqlanadi. Asarning fotonusxasi esa Sankt-Peterburgdagi Sharqshunoslik institutining kutubxonasida 15-raqami ostida va Sankt-Peterburgdagi

³⁵ Muborak maktublar. G'.G'ulom nomidagi Adabiyot va san'at nashriyoti, – T.: 1987. 39-b.

³⁶ N. Mallayev. O'zbek adabiyoti tarixi. T.: "O'qituvchi" 1976. 227-228-betlar.

³⁷ Po 'lotjon Domullo Qayyumov. Tazkirayi Qayyumiy. T.: 1998, 22- b.

Tilshunoslik institutida N-777 raqami ostida saqlanadi. Ingliz olimi Ch. Ryo bu qo'lyozmani birinchi bor tavsif qilganda (Ch. Rieu. Catalogue of the Turkish manuscripts in the British Museum, p.288a.), Muhammad Xo'jabekni Andxud, Shivirg'on va Balx shaharlarining hokimi Muhammad Xo'jabekning aynan o'zidir, deb aytgan edi. Ammo V.V.Bartold bu shaharlar hech qachon Oltin O'rda davlatiga kirmagan, deb aytadi. Qolaversa, asarning arab yozuvidagi nusxasida Muhammad Xo'jabek Jonibek xonning tayanchi deb ko'rsatiladi.³⁸

Asarning arab yozuvidagi ikkinchi nusxasi XVI asr boshlarida (1508-1509-yillarda) ko'chirilgan bo'lib, Britaniya muzeyida 7914-raqami ostida saqlanadi. "Mazkur nusxaning eski uyg'ur-turk yozuvidagi nusxadan farqi shundaki, birinchidan, bu nusxaga forscha matnlar ham joylashtirilgan. Ayrim o'rinlarda baytlar va she'rlarning tartibi o'zgartirilgan, ba'zi grammatik shakllar, so'zlardagi farqlar ham ko'zga tashlanadi".³⁹

Hazrat Alisher Navoiygacha bo'lgan o'zbek mumtoz adabiyotining atoqli namoyondasi Xorazmiyning "Muhabbatnoma" asari XX asrning yigirmanchi yillaridan boshlab sharqshunoslar e'tiborini o'ziga tortgan. Mazkur asar turli darslik va to'plamlardan o'rin olgan. Jumladan, atoqli olim Natan Mallayevning "O'zbek adabiyoti tarixi" darsligida⁴⁰ "Muhabbatnoma"ga bag'ishlangan maxsus maqola mavjud. "O'zbek adabiyoti tarixi" besh tomligining birinchi jildi o'zbek madaniyati va adabiyotining eng qadimgi davrlaridan boshlab XV asrning ikkinchi yarmiga qadar bo'lgan tarixiga bag'ishlanadi. Mazkur kitobdagi Xorazmiy hayoti va ijodiga bag'ishlangan maqola taniqli olim Yoqubjon Is'hoqov tomonidan tayyorlangan. 1950-yilda S.Qosimov Xorazmiy "Muhabbatnoma"ga bag'ishlab nomzodlik dissertatsiyasini himoya qildi.

O'zbek adabiyoti tarixida noma janrining nodir namunalari "Muhabbatnoma", "Latofatnoma", "Dahnoma" va "Taashshuqnoma"ning to'liq matni M.Abduvohidova, H.Muxtorova, B.Qosimxonov, O.Jo'rayev kabi olimlarning fidoiyligi bilan ilk marta

³⁸ Rahmonov N. O'zbek adabiyoti tarixi.-T.: "Sano-standart" nashriyoti, 2017. 325-b.

³⁹ Yuqoridagi manba, 326-b.

⁴⁰ N. Mallayev.O'zbek adabiyoti tarixi. T.: "O'qituvchi" 1976. 227-240-betlar.

1987-yilda "Muborak maktublar"⁴¹ sarlavhasi ostida Gʻafur Gʻulom nomidagi adabiyot va saʼnat nashriyotida chop etildi.

Xorazmiy "Muhabbatnoma"ning aksariyat qismini Sirdaryo boʻyida yozganligini eʼtirof etadi. Asarning yozilgan joyi masalasiga kelganda, tadqiqotlarda Sirdaryo boʻyidagi Sigʻnoq shahri tilga olinadi⁴². "Muhabbatnoma" Oltin Oʻrda hukmdorlaridan boʻlgan Muhammad Jonibekning (1342-1357) Sirdaryo muzofatidagi amaldori Muhammad Xoʻjabekning iltimosiga va taklifi bilan qish faslida ijod etilganligi asarda shoir tomonidan quyidagicha bayon etilgan:

Tabassum qildi, aytdi ey faloni,
Ketgil bizga loyiq armugʻoni.
Koʻngil bahrinda koʻp gavharlaring bor,
Ochunda porsiy daftarlaring bor.
Muhabbat nardini koʻplardin oʻtdung,
Shakartek til bila olam tutding.
Tilarmankim bizning bila til paydo,
Kitobe aylasang bu qish qotimda.
Kim ush yeltekk kechar ayyomi foni,
Jahonda qolsa bizdin armugʻoni.
Qabul qildim yer oʻpdim, aytdim, ey shoh!
Eshiking tuprogʻi – davlatli dargoh.
Kuchum yetmishcha koʻp xizmat qiloyin,
Jahonda ezgu otingni yoyayin
Bukun tongqa tikin may noʻsh qilgʻin,
Badiha bu gʻazalni chosh qilgʻil⁴³.

"Muhabbatnoma"ning kompozison qurilishi oʻziga xos. Asarda oʻn bir noma mavjud. Nomalarning turli oʻrinlarida 6 ta gʻazal va har bir nomada bitta masnaviy keltirilgan. "Xotima"da "gʻazal", "Munajat", "Qitʼa", "Xotimat ul kitob", hikoyat va "Iltimosin aytur" qismlari hamda bir fard bilan tugaydi. Koʻrinib turibdiki, "Muhabbatnoma" xilma-xil janrlardan tashkil topgan asardir.

"Muhabbatnoma"ning ("Hikoyat" bilan birga) 317 bayti oʻzbek tilida, 156 bayti fors-tojik tilida bitilgan boʻlib, goʻyo asar shiru-shakar usulida yozilgandek taassurot uygʻotadi. Buni fors-tojik tilidagi nomalarning xotimalovchi bayti sifatida keltirilgan oʻzbek tilidagi

⁴¹ Muborak maktublar. Gʻ.Gʻulom nomidagi Adabiyot va sanʼat nashriyoti, – T.: 1987.

⁴² Oʻzbek adabiyoti tarixi. 1-tom. T.: 1978, 187-bet.

⁴³ Muborak maktublar. Gʻ.Gʻulom nomidagi Adabiyot va sanʼat nashriyoti, – T.: 1987. 11-12-betlar.

naqarotda ham ko'rishimiz mumkin: Mana "Sakkizinchi nomasin aytur"dan olingan "masnaviyga" e'tibor beraylik:

Ayo ey soqiyi, navoda bar xez,
Ba yoron ko'hna may dar komi jon rez.
Ki may sozad maro jon az tobu-tab
Magar binshinad in otash bon-on ob.
Sabirdin yaxshi yoqdir pesha qilsin,
Bu yo'lda sabr yoq andesha qilsin.

Asarning asosiy qismini nomalar tashkil etadi. Shoir asarni boshida o'n noma qilib yozmoqchi bo'lganligi, keyin esa yana bir noma qo'shganligi adabiyotshunoslar tomonidan ta'kidlanadi. Demak, asardagi jami nomalar 11 ta. Bu haqda muallifning o'zi ham ta'kidlab o'tadi:

Bu yerga yetti so'z ta'xir bo'ldi,
Burun o'n dedim, ul o'n bir bo'ldi.⁴⁴

"Muhabbatnoma"ning yetakchi mavzusi – ishq-muhabbat. Asardagi ishq dunyoviy mohiyatga ega. Shoir insonning insonga bo'lgan sevgisini kuylaydi, uni e'tirof qiladi, inson umrining g'animatligiga alohida urg'u beradi. "Muhabbatnoma"da hayot mahbubasi (ma'shuqa) jannat hurlaridan ustun qo'yiladi:

Soching bir torina ming hur yetmas
Yuzungning nurina ming nur yetmas
Agar bersa suyurgab Haq taolo
Kerakmas sensiz firdavsi a'lo

Ma'shuqa hur-parilardan ham ko'rkli. Hatto, osmon farishtalari ham unga oshiq.

Ko'ngulga jondin ortiqroq keraksen,
Pari-yu hurdin ham ko'rkli rak sen.
Farishta ko'rsa bo'lg'ay sizga moyil,
Sizingdek kimda bor shakl-u shamoyil.

Lirik qahramon (oshiq) jannat hurlari deb yoridan voz kechmaydi, u jannatda ham o'z yori bilan birga bo'lishni istaydi, yorsiz jannat uning ko'ziga do'zax bo'lib ko'rinadi.

Sumantek orazing guldur tikansiz,
Menga do'zax erur – uchmaq sensiz.

⁴⁴ Muborak maktublar. G'.G'ulom nomidagi Adabiyot va san'at nashriyoti, – T.: 1987. -35 b.

Yorning husn-jamoli olamga quyoshdek nur taratadi:

Agar kun tug'masa ham yoqtu qilgay,
Yuzing nuri bu dunyoning saroyin.

Shunga ko'ra, quyosh xijolat bo'lib, butun tun betiga chodir tortib
oladi:

Zi sharmi ro'i tu xurshidi xovar,
Kashad dar sar zi shab to subh chodar.

Bihisht lolazorning qizilligi ham yorning qizil chehrasi tufaylidir:

Bihishti lolazor az g'ozai tust,
Jahon andar, jahon ovoza tust.

Yor Masihdek bemorlarga shifo, o'liklarga jon bag'ishlaydi. Shoir
Masihning "qudrati" va "mo'jizakor"ligini zaminiy insonga ko'chiradi:

Qamuq ko'rluklar uzra podshosen,
Masih anfosliq, Yusufliqosen.

Shoir baytma-bayt yor tasvirini kuchaytirib boradi. Ma'shuqa
shunchalik ko'rkam va dilbarki, uni ko'rgan tarso (butparast), hatto,
sanam (but)idan ham voz kechadi. Shoir bu bilan qanoatlanmay
"sendek inson hali vujudga kelmagan", deydi.

Seni kechar ko'rsa tarso sanamdin.
Vujudga kelmadi sendek adamdin.

Xorazmiy tasvirlagan ma'shuqa nafaqat tashqi ko'rinishi bilan go'zal,
balki aqli va donishmandligi hamda bilimi bilan ham go'zaldir:

Bilik bilmak ichinda javohiriy sen,
Vale husn ichra javhardin ariysenu.

Bunday yor, hatto, Aflotunni ham maftun qilib, uning inon-
ixtiyoridan ustun chiqadi:

Gar Aflotun sening ishqingga tushsa,
Berur elga qamuq tadbir-u royin.

Oshiq – irodali inson. U ishq yo'lidagi mashaqqatlardan
qo'rqmaydi, qiyinchiliklarga sabr qiladi. Shu bois hijron iztirobi va yor
iltifotsizligidan voz kechmaydi, o'z ishqiga sodiq bo'lib qoladi:

Ko'ngulga o'zganing mehrin yovutman,
Yiroqliq birla men sizni unutman.

Lirik qahramon umidsizlikka tushmaydi, yorning visoliga
erishib, baxt-saodatga muyassar bo'lishiga ishonadi:

Erurman vaslingga doim talabgor,
Negakim tun uzun bo'lsa tongi bor.

Topilgay maqsudim topqungda bori,
Saodat qilsa Xorazmiyga yori.
Og'ir uyquchi baxtim necha yotqay,
Visoling shashriqidin ham tong otqay.

Shunday qilib, Xorazmiy "Muabbatnoma"da dunyoviy sevgini kuyladi, husn-jamoli va aql-odobi bilan kishini maftun qiluvchi yorni ta'rif qildi, hassoslik bilan sevgining zavq-shavqini, visol shodligi va hijron iztirobini tasvirladi.

Xorazmiy nazdida ma'shuqa – pari ruxsorlarning eng ko'rklisi. Uning yuzi – Navro'z, qoshi bayram oyi. Bilamizki, navro'z so'zining lug'aviy ma'nosi "yangi kun", "kun" demakdir. Demak, yorning yuzi quyoshga, uning qoshi esa – bayram oyiga qiyoslangan. Bayram oyi deganda, navro'z bayrami nazarda tutilgan.

Pari ruxsorlarning ko'krabo'yi,
Yuzing – Navro'z-i qoshing-bayram oyi.

Ko'rinib turibdiki, asar tarkibidagi noma va g'azallarda ma'shuqaning husni-jamoli o'ziga xos o'xshatishlar, go'zal va chiroyli tasvirlar bilan ta'riflanadi. Hatto, asarda keltirilgan nomalardan ikkinchi nomagina "Tong nasimiga murojaat" bilan boshlanadi. Qolgan nomalar ma'shuqaga murojaat bilan boshlanishida ham muallifning asl maqsadi ayonlashadi.

"Muhabbatnoma" masnaviy yo'lida, aruzning hazaj (hazaji musaddasi maqsur – mafoiylun, mafoiylun, mafoil) bahrida yozilgan.

Mavzuni mustahkamlash uchun savol va topshiriqlar:

1. Noma janriga xos xususiyatlar nimadan iborat?
2. "Muhabbatnoma"da shoir tarjimaiy holiga doir qanday ishoralar mavjud?
3. "Muhabbatnoma"ning yaratilishi haqida nimalarni bilasiz?
4. Asarning nusxalari haqida ma'lumot bering.
5. Asarning kompozison tuzulishini gapirib bering.
6. "Muhabbatnoma"da ma'shuqa tasvirida qo'llagan badiiy tasviriy vositalar haqida ma'lumot bering.
7. "Muhabbatnoma"da dunyoviy ishqning ta'rifiga misollar keltirib, sharhlang.
8. Asarda qanday janrdagi she'rlar mavjud?

9. Shoir ma'shuqa obrazini tasvirlashda qanday tasvirlardan foydalangan?
10. "Muhabbatnoma"dagi oshiq obraziga ta'rif bering.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. O'zbek mumtoz adabiyoti namunalari. II jild. (XIV–XV asrning boshlari). Tuzuvchi, izoh va sharhlar muallifi: filologiya fanlari doktori, professor Nasimxon Rahmon. –T.: Fan, 2007.
2. Rahmonov N. O'zbek adabiyoti tarixi. (Eng qadimgi davrlardan XY asrning birinchi yarmigacha). "Sano -standard" nashriyoti. 2017.
3. Vohidov R., Eshonqulov H. O'zbek mumtoz adabiyoti tarixi. – T.: O'zbekiston Respublikasi Yozuvchilar uyushmasi Adabiyot jamg'armasi nashriyoti, 2008.
4. Jamolova M. O'zbek adabiyotida noma janri. T.: Fan. 1992.
5. N. Mallayev. O'zbek adabiyoti tarixi. T.: "O'qituvchi" 1976.
6. O'zbek adabiyoti tarixi. V jildlik. I jild. –T.: Fan, 1977.
7. Muborak maktublar. G.G'ulom nomidagi Adabiyot va san'at nashriyoti, –T.: 1987.

BESHINCHI MAVZU:

SAYFI SAROYI HAYOTI VA IJODI

Reja:

1. XIV asr oxiri va XV asr boshlarida adabiy jarayon.
2. Sayfi Saroyi – lirik shoir.
3. "Guliston bit-turkiy" - erkin-ijodiy tarjima namunasi.
4. "Suhayl va Guldursun" dostoni.

TAYACH TUSHUNCHALAR:

- | | |
|------------------------|------------------------|
| •mumtoz she'riyat | •badiiyat |
| •adabiy tur va janrlar | •mavzu |
| •noma | •obraz |
| •g'azal | •"Suhayl va Guldursun" |
| •ishq-muhabbat | |

XIV asr oxiri va XV asr boshlari O'rta Osiyo xalqlari tarixi, madaniyati, san'ati va adabiyoti rivojida alohida bir davrni tashkil

qiladi. Bu davrda san'atning barcha sohalarida, jumladan, badiiy adabiyotda katta muvaffaqiyatlarga erishildi, iste'dodli san'atkorlar va shoirlar yetishib chiqdi. Badiiy adabiyot taraqqiyotida Xorazmiy, Sayfi Saroiy, Haydar Xorazmiy, Amiriy, Yaqiniy, Sayid Ahmad kabi qator shoirlar qoldirgan badiiy yaratmalari mumtoz adabiyotimiz ravnaqiga munosib hissa bo'lib qo'shilishi bilan birga, shu davr adabiyotini o'rganishda muhim manba bo'lib xizmat qildi. Badiiy adabiyotning yetakchi mavzusi bo'lgan ishq-muhabbat, hayotsevarlik ulug'landi, zulm va zo'ravonlik, vafosizlik qoralandi. Bu davrda adabiy tur va janrlar takomilida ham o'zgarishlar kuzatildi. Munozara, noma, tuyuq, qasida janrlarida oid yaratilgan asarlar turkiy adabiyotning keyingi davr adabiyotiga o'zining ijobiy ta'sirini o'tkazdi.

Bu davrda g'azal janrining go'zal namunalari yaratildi. Nosiruddin Rabg'uziyning "Qissasi Rabg'uziy" asarida turkiydagi ilk namunasi sifatida qayd etilgan g'azal bu davrga kelib yetakchi janrga aylandi. G'azal janrining mavzu doirasi kengaydi.

XIV asr oxiri va XV asr boshlarida yashab, ijod qilgan Xorazmiy, Xo'jandiy, Sayfi Saroyi, Qutb, Durbek, Haydar Xorazmiy, Amiriy, Yaqiniy, Atoyi, Sakkokiy, Lutfiy kabi iste'dodlar orqali turkiy adabiyot mumtozlik darajasiga ko'tarildi. Ular ishq - muhabbatni ulug'lash orqali hayot va inson umrining g'animatligini, vafo va sadoqat, saxiylik, himmat kabi insoniy g'oyalarni targ'ib qildilar. Ilohiy – irfoniy, axloqiy-ma'naviy qarashlarni ramziy-majoziy timsollarda badiiy tasvirlash orqali adabiyotni xalqqa yaqinlashtirdilar. Ayniqsa, xalq og'zaki ijodidagi o'lmas g'oyalar lirik janr namunalari o'zi xos tarzda badiiylashtirildi. Xalq tiliga mansub bo'lgan iboralar, badiiy til elementlari, maqol va matallar lirik asarlarni, ayniqsa, g'azal janrining takomilida beminnat xizmat qildi.

XIV asr oxiri va XV asr boshlari she'riyatida lirik qahramon kechinamalari, oshiqning ruhiy holati, ma'shuqaning "zulmi" orqali jamiyatdagi ayrim ijtimoiy-siyosiy voqealarga, hukmron doiralarning salbiy xususiyatlarini tanqid qilish ham kuzatiladi. Bu esa she'riyatning hayot bilan hamnafasligini ta'minlash uchun xizmat qildi.

XIV asr oxiri va XV asr boshlari turkiy adabiyot tarixida noma janrining taraqqiy etganligi mazkur davrning ijobiy jihatlaridan biridir.

Xorazmiy "Muhabbatnoma" asari bilan turkiy adabiyotda noma janriga asos soldi. Shu asar ta'sirida Xo'jandiyning "Latofatnoma",

Sayid Ahmad ning “Taashshuqnoma”, Yusuf Amiriynig “Dahnoma” asarlari yaratildi. Xorazmiy “Muhabbatnoma”sining tuzilishi, vazni, masnaviy shakli boshqa nomalarda ham an’ana sifatida saqlanib qoldi.

Bu davrda turkiy adabiyotda juda uzoq tarixiy taraqqiyot yo’lini bosib o’tgan munozara janrida ham asarlar yaratildi. “Munozara – tortishuv, fikr olishuv ma’nolarini bildiradi. Munozarada turli narsa, hodisa, tushuncha, holat va boshqalar konfliktga kirishadi. Obrazlar ko’pincha ramziy mohiyat kasb etib, munozara qiladilar. O’zbek yozma adabiyotida bu janr XIV asr oxiri va XV asrning birinchi yarmidan taraqqiy qildi”⁴⁵.

Munozara - “fikrlar kurashi” shaklida yozilgan badiiy asar. Munozarada turli narsa, hodisa, tushuncha, holat va boshqalar konfliktga kirishadi. Obrazlar ko’pincha ramziy mohiyat kasb etib, munozara qiladilar. Munozaraning hissadan hissa chiqarish yoki muallifning muayyan masala haqidagi xulosasi bilan tugallangan shakllari ham bo’ladi. Asadi Tusiyning (XI asr) “Kecha va kunduz munozarasi”, “Nayza va yoy munozarasi”, Amiriyning “Bang va Chog’ir orasidagi munozara” (XV asr), Yaqiniy “O’q va yoy orasidagi munozara” (XV asr), Fuzuliyning “Bang-u boda”, “Sihat va maraz” asarlari munozaraning namunalari. Hozirgi zamon o’zbek she’riyatida ham bu janrda asarlar yaratilgan (Sulton Jo’ra, “Tinish belgilar majlisi”)⁴⁶.

Bu janrning ilk namunasi Maxmud Koshg’ariyning “Devonu lug’atit -turk” asarida Yoz va Qishning munozarasi shaklida uchraydi. Yusuf Amiriyning “Bang va Chig’or”, Ahmadiyning “Sozlar”, Yaqiniyning “O’q va yoy” kabi asarlar munozara janrining go’zal namunasi.

Umuman olganda, XIV asr oxiri va XV asr boshlari o’zbek mumtoz adabiyoti mavjud an’analar zahirida rivojlandi. Bu rivojlanish keyingi asrlar taraqqiyoti uchun zamin bo’lib xizmat qildi.

Sayfi Saroyi XIV asr o’zbek mumtoz adabiyotini rivojida muhim o’rin egallagan ijodkorlardan biridir. U 1321-yilda Xorazm viloyati Sariqamish qishlog’ida hunarmand-qurolsoz oilasida

⁴⁵ O’zbek klassik she’riyati janrlari. O’qituvchi. – T.: 1979. 142-b.

⁴⁶ O’zME. Birinchi jild. – T.: 2000. www.ziyouz.com.

dunyoga keladi. Mo'g'ullar istilosi tufayli vatanini tark etgan shoir Oltin O'rda (Saroy shahri), Misr va Turkiyada yashagan.

O'zbek adabiyotshunoslida Sayfi Saroyi ijodiy merosiga doir qator tadqiqotlar yaratilgan⁴⁷.

Sayfi Saroiy adabiyotimiz tarixida fors, arab tili, adabiyoti, tarixi va xalq og'zaki poetik ijodini mukammal o'rgangan ijodkor. U lirik shoir va tarjimon sifatida tanilgan. Adabiyotshunoslarning ta'kidicha, bizgacha shoirning adabiy merosining oz qismi yetib kelgan. Uning 10 dan ortiq g'azali, qasida, qit'a, ruboiy, "Suhayl va Guldursun" dostoni hamda Sa'diy Sheroziy "Guliston" asarining erkin-ijodiy tarjimasi sifatida yaratilgan "Gulistoni bit-turkiy" asari yetib kelgan.

Sayfi Saroyining lirik merosi hajm jihatidan katta emas. Shu bois, ular devon shaklida tartib berilmagan. Ta'kidlash kerakki, Sayfi Saroyidan bizgacha yetib kelgan lirik she'rlari miqdor jihatidan oz bo'lsa-da, ular mavzu jihatidan rang-barangligi, go'zal tashbehlar, obrazli ifodalari bilan ajralib turadi. Uning "Ko'ngul", "Topulmas", "Ko'zlaring", "Taolalloh zehi surat", "Ul yuzi oy", "Yangi oy", "Qamar yuzingdin", "Erur", "Tutar", "Meningtek nechalar hayron", "Ko'rinur" kabi g'azallari mumtoz g'azalchilikning go'zal namunasi hisoblanadi. Nomlari qayd qilingan lirik she'rlarning o'ziyoq Sayfi Saroyi badiiy mahorati, ularning mavzular olami haqida ma'lumot berish uchun yetarlidir.

Sayfi Saroyi g'azallarida shakl va mazmun uyg'unligi, tanlagan badiiy tasviriy vositalarning estetik zavq uyg'otishi, quyma iboralar, mubolag'ali tasvirlar shoirning yuksak iste'dodidan darak beradi. U she'r va shoirlik uchun yuksak iste'dod kerakligini yaxshi anglagan. Shuning uchun bo'lsa kerak, qalam ahllarini "bulbul" va "zog"larga ajratadi, ijodkorlar oldiga qo'yiladan talablarni boshqalarga ham eslatib turadi. U "Shoirlar ta'rifida" degan masnaviysida ijodkorlarga quyidagicha ta'rif beradi:

⁴⁷ Давронов Н.А. Сайфи Саройи (жизнь и творчество). АКД, Т., 1968. Сайфи Саройи. Ўзбек адабиёти тарихи, V жилдлик, I жилд. Т., 1977, 221-235-бетлар. Раҳманов В. Узбекские переводы «Гулистан»а Саади Ширази. АКД. Самарканд, 1968. Sharopov J. Qutb Xorazmiy va Sayfi Saroyi tarjimalari haqida. «O'zbek tili va adabiyoti», 1965, 2-son, 47-53- betlar.

Jahon shoirlari, ey gulshani bog',
Kimi bulbuldurur so'zda, kimi zog'.
Kimi to'ti tegin chaynar shakarni,
Kimi lafzi bilan o'rtar durarni.
Kimining so'zlari mavzunu shirin,
Kimining loyiqi ta'rifi tahsin.
Kimi o'zganing ash'orin menim der,
Kimi hayvon kabi shalg'am cho'pin yer.
Kimi ma'ni tuzub vaznin tuzotur,
Kimi vaznin buzub, san'at kuzotur⁴⁸.

Sayfi Saroyi g'azaliyotining yetakchi mavzusi ishq-muhabbatdir. G'azallarida oshiq lirik qahramon sifatida namoyon bo'lar ekan, uning ruhiy iztiroblari, qalb tug'yonlari orqali ishq va muhabbat muammolari badiiy talqin etiladi. Bu muammo zaminida shoir o'zining ijtimoiy, siyosiy, falsafiy, adabiy-estetik qarashlarini singdirib yuboradi.

Shoir lirikasining asosiy qahramoni *oshiq, ma'shuq va raqibdir*. Bu jihatdan uning "*Ul yuzi oykim, jahonning jonidur*" misrasi bilan boshlanuvchi g'azali ahamiyatlidir. G'azal dunyoviy muhabbat haqida bo'lib, unda ma'shuqning go'zal tasviri keltirilgan.

Shoir mahbubani ta'riflar uni "*jahonning joni*", "*xo'blarining xoni*" sifatida madh etadi. Bu bilan kifoyalanmagan shoir uning zulfini jannat bog'ining rayhoniga, ko'zlarini olamni asir qiluvchi fitnagarga qiyoslaydi:

Ul yuzi oykim, jahonning jonidur,
Bu zamona xo'blarining xonidur⁴⁹.
Yosamin tan, qomati sarvi ravon,
Zulfi jannat bog'ining rayhonidur.
G'amzasining oltina olam asir,
Ko'zlari davri qamar fattonidur.

Mumtoz she'riyatda ma'shuqa ta'rifida uning ko'zi, kiprik hamda qoshlariga alohida e'tibor qaratiladi. Agar yuqoridagi baytda uning ko'zi fitna qiluvchi sifatida tasvirlagan bo'lsa, keyingi baytda

⁴⁸ Sayfi Saroyi. She'rlar. Guliston. T.: G'. G'ulom nomidagi adabiyot va san'at nashryoti. 1968. 33-b.

⁴⁹ Sayfi Saroyi. She'rlar. Guliston. T.: G'. G'ulom nomidagi adabiyot va san'at nashryoti. 1968. 12-b.

kiprigi oshiq jonini nishonga oluvchi o'qga, kamon qoshi esa jahonni qurbon qiluvchi sifatida tasvirlanadi:

Kirpugining o'qina jonlar nishon,
Qoshi yoyining jahon qurbonidur.
Shams aning har kun yaqosinda tugar,
Ul sababdin bu jahon nuroniydur.
Ko'rgali Sayfi Saroyi qul ani
Haq taolo sun'ining hayronidur.⁵⁰

Sayfi Saroyi ma'shuqaning go'zal tasvirini berar ekan, o'z pandlarini ham g'azal baytlarida singdirib boradi. Ya'ni ma'shuqa qanchalik latofatli va fuzunkor bo'lmasin, bularning barchasi o'tkinchi, deydi shoir.

Alo, ey dilbari manzur, bu ko'rkingga bo'lub mag'rur,
Ko'ngullar qilmag'il ranjur, kechar bu husn davroni.

Bu ta'kid orqali esa lirik qahramon ma'shuqaning vafo va sadoqatidan umidvor bo'ladi. Ma'shuqa orqali insonlarga hayot g'animat ekanligini, shuning uchun "xaloyiqning sevar joni" bo'lishga da'vat etadi.

Bu muddatni g'animat bil, bu fursatda vafolar qil,
Bu izzat birla bo'l ko'b yil, xaloyiqning sevar joni.

Sayfi Saroyi lirik merosida badiiy san'atlar ham bevosita ma'shuqaning husn-u latofatini vasf qilish uchun xizmat qildirilganligi kuzatiladi. Ma'lumki, Yusuf alayhissalom mumtoz adabiyotimizda go'zallik timsoli. Haq ma'shuqaga nafaqat Yusuf husnini ehson (baxshish) qildi, balki uning davlati va shon-shuhrati (mafzar)ni bergan. Birgina baytda talmeh va tadrij san'ati shoir muddaosi uchun xizmat qilgan:

Bu kun Yusuf jamolini qilibtur Haq senga baxshish,
Na baxshish, baxshishi davlat, na davlat, davlati mafzar.

Sayfi Saroyi g'azallarida so'z o'yinidan ham mahorat bilan foydalanilgan:

Dilbarimning zulfi sunbul, chehrasi *gulzor erur*,
Bo'yina oshiq sanubar, yuzina *gul zor erur*.

Baytda *gulzor* / *gul zor* so'zlari orqali so'z o'yini qilingan. Ma'shuqa zulfi sunbulga, yuzi gulzorga qiyoslanar ekan, ikkinchi

⁵⁰ <https://kh-davron.uz/kutubxona/uzbek/sayfi-saroyi.html>

misrada uning yuziga gul zor ekanligini ta'kidlash orqali ma'shuqa ta'rifining go'zal namunasi hosil qilingan.

Shoir g'azallarida ijtimoiy muhitdan norizolik, zamona "xo'b"lari jabridan shikoyat ohanglari ufurib turgan baytlar ham ko'zga tashlanadi. Hatto, shoir "xo'blar jafosi"ni oshiqning ishq yo'lida "fano" bo'lishiga bois ekanligini ta'kidlaydi:

Tortib zamona xo'blarining javrini mudom,
Ko'rdungmi hech birinda bulardin vafo ko'ngul.

Sayfi Saroyini bu qaro qinda bog'lasang,
Xo'blar jafosi birla bo'lursan fano, ko'ngul.

Sayfi Saroyi g'azallarida ma'shuqadan ozorlanish, jabr ko'rish natijasida undan shikoyat ohanglari ham o'ziga xos tasvirlarda namoyon bo'ladi. Fikrimizni shoirning quyidagi g'azali tasdiqlaydi:

Bu falak nechun meni doim **qaro qinda** tutar,
Bu otim Sayf o'ldug'uchunmi **qaro qinda** tutar?

Qanda bir erdam eri bo'lsa oni ko'zdan solib,
Tekma bir erdamsiz erni ko'z qaroqinda tutar.

So'zlarimning javharin orif ko'rub, qadrin bilib,
Ko'p baholi dur bekin doim quloqinda tutar.

Ol bilan **oldi** ko'ngul mendin bir oy yuzli malih,
Kim muanbar xoli asvad **ol** yangoqinda tutar.

Husn ichinda yo'q naziri, lekin ul joni jahon
Doimo oshiqlarini ishtiyoqinda tutar.

Odati budur hamisha bevafo ma'shuqaning,
Kim aning vaslin tilasa, ul firoqinda tutar.

Bu falak javri bekin Sayfi Saroyi bag'rini
Ul yuzi oy hajr o'tining ihtiroqinda tutar⁵¹.

⁵¹ Sayfi Saroyi. She'rlar. Guliston. T.: G'. G'ulom nomidagi adabiyot va san'at nashryoti. 1968. 16-b.

7 baytli mazkur gʻazal ramali musammani mahzuf vaznida yozilgan. Gʻazalning xalqonaligini taʼminlagan omil unda sof turkiy soʻzlarning hamda tajnis sanʼatidan foydalanganligidadir.

Gʻazalning birinchi baytida lirik qahramon oʻziga oʻzi “Nega falak meni doim qiyinchilikda tutadi” degan savol bilan murojaat qiladi. Ikkinchi misrada javobni oʻzi beradi: “Balki ismim Sayf (qilich) boʻlganligi uchun **qaro qinda** tutar”. Shoir baytda soʻz oʻyinidan (tajnis) mahorat bilan foydalangan. Birinchi misradagi “**qaro qin**” “qiyinchilik”, ikkinchi misradagi “pichoq qini” maʼnosida qoʻllangan.

Gʻazalning ikkinchi baytidagi **erdam** – odob, yetuklik; **erdamsiz** – odobsiz maʼnolaridagi soʻz. Baytda tavziʼ (tovushlar ohangdoshligi) va tazod sanʼatidan foydalanilgan. Maʼshuqa shunday vafosizki, odobli (sadoqatli) oshiqqlarni koʻzdan yiroq tutib, vafosizlarni esa “koʻz qarogʻi”da aziz tutadi.

Gʻazalning uchinchi baytida shoir orif obraziga murojaat qiladi. Haqiqiy ishq sohibining yashash tarzi, har bir soʻzi orif uchun ibrat. Shuning uchun orif oshiqning har bir soʻzini qimmatbaho dur kabi qulogʻida tutadi. Orif – aqlu – donishda yetuk, maʼrifat nuri bilan qalbi poklangan, pok niyat, pokiza axloqli inson.

Toʻrtinchi baytda uch oʻrinda “**ol**” soʻzi qoʻllangan. **Ol** - hiyla, firib; **oldi** - feʼl; **ol** - qizil. Tajnis soʻzlar orqali maʼshuqaning oy yuzli, qizil yanoqli va hiylagarligiga urgʻu berilgan.

Shoir gʻazalning keyingi baytlarida maʼshuqani “jahonning joni”, husnda tengsiz (naziri yoʻq) deb taʼriflaydi. U oshiqqlarini firogʻida tutib, jabr qiluvchidir. Shoir bu taʼkidlar orqali ishqning iztirobli va azobli yoʻlini, haqiqiy oshiqning esa bu yoʻldagi sabr-bardoshi va matonatini badiiy ifodalaydi. Ishq-muhabbat masalasi shoir lirikasida eng goʻzal tuygʻular, ruhiy kechinmalar, ohorli tasvirlar orqali aks etgan.

Sayfi Saroyi gʻazallari oʻzining ohangdorligi, sodda va oʻynoqiligi bilan ham ajralib turadi. Buning asosiy omili shoir gʻazallarining turkiy sheʼriyatda koʻp qoʻllanuvchi bahrlarda yozilganligidir. Uning gʻazallari hazaj, ramal bahrlarda yozilgan boʻlib, bu bahrlar turkiy til xususiyatlarini oʻzida ifodalashi bilan ajralib turadi.

Sayfi Saroyining “Gulistoni bit-turkiy” asari. Taʼkidlash kerakki, sharq adabiyotida oʻziga xos anʼanalar shakllangan boʻlib, bu anʼanalar adabiyotlarni bir-biriga bogʻlashi bilan birga milliy

adabiyotlar taraqqiyotini ta'minlagan muhim omil bo'lib xizmat qilgan. Mana shunday an'analardan biri tarjimachilik edi. Natijada turkiy tilga tojik, eron, ozarbayjon, hind, arab kabi xalqlarning badiiy, ilmiy, tarixiy asarlari tarjima qilindi. Mana shunday tarjima asarlar sirasiga Nizomiy Ganjaviyning "Maxzan ul-asror", "Xusrav va Shirin", "Haft paykar", Shayx Sa'diyning "Guliston", "Bo'ston", Nuriddin Abdurahmon Jomiyning "Bahoriston", "Yusuf va Zulayxo", hind adabiyotining nodir namunasi "Kalila va Dimna", arab ertaklari asosidagi majmuasi "Ming bir kecha"larini kiritishimiz mumkin.

Shayx Muslihiddin Sa'diy "Guliston" asarining erkin - ijodiy tarjimasi Sayfi Saroyi tomonidan amalga oshirildi. Muallif tarjima asarga "Guliston bit-turkiy" deb nom berdi (1390/91). Ta'kidlash kerakki, mumtoz adabiyotimizda qo'llanadigan "tarjima" so'zini zamonaviy adabiyotshunosligimizdagi tarjima asarlarga nisbatan qo'llanadigan termin sifatida tushunmasligimiz kerak. Boisi, mumtoz adabiyotda "tarjima" asar deb ta'kidlagan asarlar sof tarjima hisoblanmaydi. O'tmishda amalga oshirilgan tarjima asarlarga tarjimonlar erkin-ijodiy yondashganlar, unga jiddiy yangiliklar kiritganlar. Natijada orginal asarlar yuzaga kelgan. Sayfi Saroyining "Gulistoni bit-turkiy" asari ham ham ana shunday asarlardan biridir.

"Guliston bit-turkiy" asarining jahon bo'yicha birdan-bir nusxasi Leyden universiteti kutubxonasida saqlanmoqda. Sayfi Saroyining "Gulistoni bit-turkiy" asariga oid ma'lumotlar XX asrning boshlarida ilm ahliga ma'lum bo'lgan. "1915-yili Turkiyada nashr qilinadigan "Milliy tatabbular majmuasi" jurnalida venger olimi Tori Yozef Sa'diy "Guliston"ining turkiy tilga eski bir tajimasi Gollandiyadan topilgani to'g'risida xabar beradi. 1950- yili Amsterdamda tibbiyot tarixiga oid Xalqaro anjumanda ishtirok etgan professor Faridun Nafiz Uzluk Leyden universiteti kutubxonasidagi mazkur qo'lyozma bilan tanishib, fotonusxasini oladi va 1954-yili Anqarada kichik kirish so'z bilan qo'lyozmaning faksimilesini nashr ettiradi. Qo'lyozma yaxshi saqlangan, ammo xatolari ko'p. Faridun Nafiz Uzlukning aytishicha, qo'lyozma Sayfi Saroyining dastxatidir. Qo'lyozmaning birinchi sahifasida forsha va turkiycha yettita she'r bor. She'rlarning mualliflari ham, dastxatlari ham har xil. Birinchi to'rtlik Mahmud Gulistoni degan shoirniki bo'lib, Iroqdan mag'lubiyatga uchrab qochib kelgan shahzoda Ahmadga

bag'ishlangan. Qo'lyozmaning uchinchi sahifasida mazkur tarjimani Saroy shahridan Sayfi otlig' kishi amir Tayxasga bag'ishlagani to'g'risida aytiladi. To'rtinchi sahifadan Sa'diy "Guliston"ining tarjimasi boshlanadi. So'ng Sayfi Saroyi tarjimani to'xtatib, o'z she'rlarini qo'lyozmaga kiritadi. Keyin mazkur asarni tarjima qilish sabablarini bayon etadi. Qo'lyozmaning 11-14-sahifalarida Sayfi Saroyi 87 baytdan iborat she'rini keltiradi. Qo'lyozmaning oxirgi sahifasida Sayfi Saroyining 13 baytdan iborat she'ri keltirilgan bo'lib, tarjima tugallangan sana ko'rsatilgan. Bu she'rdan ma'lum bo'lishicha, "Guliston" tarjimasi tamomlangan paytda (hijriy 793-yilning shaval oyi – milodiy 1391-yilning avgust oyi) Sayfi Saroyi 70 yoshda bo'lgan".⁵²

Sayfi Saroyi tomonidan Sa'diyning "Guliston" asarining tanlanishining o'ziga xos sababari bor, albatta. Chunki Sa'diyning asari o'tmishda darslik vazifasini o'tashi bilan birga, O'rta Osiyo xalqlarining madaniy hayotida muhim rol o'ynagan asar sanalgan. Asarda XIII asrdagi jamiyat hayotining eng muhim tomonlari o'z ifodasini topgan. Sa'diy "Guliston"ini tarjimasining keyingi asrlarda ham davom etganligi, albatta, uning shuhratidan darak beradi. Mazkur asar XIX asrda Xorazm adabiy muhitida Ogahiy tomonidan, XX asrning boshlarida Toshkentda Murod Xoja Solih Xoja o'g'li tomonidan ham tarjima qilingan.

"Guliston"ning tarjimoni prozaik hikoyalarda originalga amal qilgan, she'rlarni tarjima qilishda esa anchagina erkinlikka yo'l qo'ygan. Sayfi Saroyi tarjimasini mashhur sharqshunos G'. M. Aliyev tomonidan Sa'diyning "Guliston"ini sinchiklab qilingan analizi (Са'ди, Гулистон, Кртический текст, перевод предисловие и примечания Г. М. Алиева, М., 1959 г.) shuni ko'rsatadiki, Sayfi Saroyi o'zining tarjimasida nodir qo'lyozmadan foydalangan. Bu hol Sayfi Saroyi tarjimasini faqat o'zbek va boshqa turkiy xalqlar uchungina emas, balki eron va tojik xalqlari adabiyoti uchun ham qimmatli yodgorlikka aylantiradi".⁵³

Sayfi Saroyi asarning yaratilishi bilan bog'liq qaydlarini "Muqaddima"da shunday bayon qiladi: "Ilk yoz kunlaridan bir kun bo'ston ichinda gullar orasinda bir necha zarif olimlar bilan o'turub,

⁵²Raxmonov N. O'zbek adabiyoti tarixi. T.: "Sano-standart" nashriyoti, 2017. 274-b.

⁵³ Sayfi Saroyi. She'rlar. Guliston.-T.:G'. G'ulom nomidagi badiiy adabiyot nashriyoti,1968. 4-b.

insho ilmından bahs qilib, abyoti gʻarib va ashʻori ajib oʻqudum esa ul olimlarning ulusi aruz ilmında bir mushkul baytning taqattuʻin savol etti. Filhol javobin eshitib aytti: “Ey adibi gʻarib, senga bir muvofiq nasihatim bor. Qabul qilsang, xayr boʻlgʻay”. Ayttim: “Buyurung”. Aytti: “Shayx Saʻdiy “Guliston”ini turkiy tarjima qilsang, bir sohib – davlat er otina, yodgoring jahonda qolsun deb”.⁵⁴

Saʻdiy va Sayfi Saroiyning tarjima asarini solishtarganda ular oʻrtasida maʼlum bir farqlar borligi kuzatiladi. Jumladan, Saʻdiy asarining tarkibi quyidacha: *“Muqaddima”, Ollohga hamd, Sheroz hukmdori “Muzaffariddin ibn Zangi ibn Saʻd ibn Abu Bakr” madhi, “Guliston” kitobining sababi taʼlifi bayoni*” tarkibiga kirgan amiri kabir *Abu Bakr bin Abu Nasr vasfi, “xizmati vazirda voqeʻ boʻlgʻon qusuming uzri va ixtiyori uzlatning sababi bayoni.”*

Sayfi Saroyi tarjima asarga erkin munosabatda boʻladi. Shu bois debochasida oʻzgarishlar qiladi. Jumladan, u asar debochasida oltmish misradan iborat masnaviyni keltiradi. Mazkur masnaviyda “Guliston” asarining jamiki fazilatlarini bayon qiladi: “Asarda gʻaroyibotlar mavjudligi, bunday gʻaroyibotlar, hatto, “Xusrav va Shirin”da ham yoʻq ekani, asarning “latoif bogʻi”, “maʼni gulistoni” sifatlarga boy ekanini yuqori pardalarda taʼriflaydi.

Masnaviyda Saʻdiy asarini taʼriflash bilan birga oʻz davrining ijtimoiy masalalariga ham urgʻu beradi. Juda koʻp nomdor hukmdorlar oʻtib ketdi. Ularning yaxshi ishlarigina mangu qoldi, - deydi shoir:

Eygu oti qolsa erning yaxshiroq,
Soʻngra qolgʻincha toʻli oltun ravoq.
Yodgori qolsa kimning eygu ot,
Oʻlmas ul er kimda boʻlsa bu sifot.⁵⁵

Mana shu misralardan keyin fikr tasdigʻi uchun “lutfu axloqu karam koni”, “din-u dunyo, davlati zoti sharif” boʻlgan Tayxosbekning taʼrifini keltiradi:

Bu sifatli er bukun xayri kasir,
Misr ichinda bor bir orif amir,
Eyguluktur dam-badam elga ishi,
Johu davlat, fathu nusrattur eshi.

⁵⁴ Sayfi Saroyi. Sheʼrlar. Guliston. T.: Gʻ. Gʻulom nomidagi adabiyot va sanʼat nashriyoti. 1968. 7-b.

⁵⁵ Sayfi Saroyi. Sheʼrlar. Guliston.-T.:Gʻ. Gʻulom nomidagi badiiy adabiyot nashriyoti,1968. 46-b.

Lutфу axlohu karam koni durur,
Eygu oti doimo, tilda yurur.
Dinu dunyo, davlati zoti sharif,
Ma'rifatning ma'dani o'zi zarif.
Bu Guliston ziynati Tayxosbek,
Hojib ul-hujjob sultona xos bek.
Har biriga jon bekin elga yarar,
O'lturub yorg'u yozarda qil yorar.

Masnaviy davomida Sayfi Saroyi amir Tayxosbekni zakovatda tengsizligini, elparvarligi va saxiyiligini ta'riflar ekan, uni Hotam Toyga qiyoslaydi.

Haq taolo davlatin qilsun ziyod,
Dinidin olsun tana'um birla dod.
Ey malak surat, malik nusrat ayon,
Jud ichinda Hotimi Toyi zamon.
Badri davlat olama qutlu yuzung,
Kim bilik bahri o'zung, javhar so'zun...
Ko'rmadim orif, nazaring javhariy,
Durri ma'niyga mubassar mushtariy.⁵⁶

Shoir masnaviy so'ngida asarni amir Tayxosbekka bag'ishlaganini bayon qiladi:

Nazm etib ko'rkli duolar zotinga,
Tong hadiya kelturubman otingga.
Ul hadiya bu kitob erur mufid,
Jumla alfozi to'lu ma'niy jadid,
O'zina bo'lub muborak bu kitob,
Doim olsun naf' mundan shayxu shob.
Eygu oti yodi birla ko'b zamon,
Toza bo'lsun bu Gulistoni jinon.
Bu Guliston bog'boni ul adib,
Kim Saroyi Sayf erur nazmi g'arib.

Sayfi Saroyining "Guliston bit turkiy" asari 8 bobdan iborat. Ular quyidagicha nomlangan:

Avvalgi bob: salotin siyrati ichinda turur.
Ikkinchi bob: fuqaro axloqi ichinda turur.
Uchinchi bob: qanoat fazilati ichinda turur.

⁵⁶Sayfi Saroyi. She'rlar. Guliston.-T.:G'. G'ulom nomidagi badiiy adabiyot nashriyoti,1968. 46-b.

To'rtinchi bob: sukut foydasi ichinda turur.
Beshinchi bob: ishq dag'i yigitlik sifati ichinda turur.
Oltinchi bob: qariliq dag'i zaiflik sifati ichinda turur
Yettinchi bob: tarbiyat ta'siri ichinda turur.
Sakkizinchi bob: suhbat adablari ichinda turur.

Har bir bobda hikoyatlardan so'ng mav'iza mazmunidagi she'riy parchalar keltirilgan. Har ikkala asardagi "Avvalg'i bobdagi" dastlabki hikoyatni keltiramiz:

Sa'diy «Guliston»idan: Eshitdimki, bir podshoh bir asirni o'ldirishga farmon berdi. Sho'rlik asir hayotdan umidi uzilib, podshohni boplab so'kishga boshladi. Zeroki: "Kishi jondan umid uzgani zamon, ko'nglida borini etadi bayon" degan xalq maqoli bor.

Qochishning iloji bo'lmasa agar,
Qo'l bilan xanjarning damidan tutar.
Nochor qolgan kishi zo'r berar tilga,
Mag'lub bo'lgan mushuk tashlanar itga.

Podshoh: "U nima deyapti?" deb so'radi. Sofdil vazirlaridan biri: "Ey podshohi olam: «Har kimki g'azabin ichiga yutar, u gunoh qilganning gunohin o'tar», deyapti", deb javob berdi. Podshohning rahmi kelib, asirni avf etdi. Sofdil vazirning payini qirqib yuradigan ikkinchi vazir gapga aralashib dedi: "Bizning mavqeyimizda bo'lgan odamlar podshoh huzurida faqat rost so'zlashlari lozim. Bu asir podshohni haqorat qildi va sha'niga yomon gaplar aytdi". Podshoh bu so'zni eshitib qosh-qovog'ini solib dedi: "Sen aytgan rost gapdan ko'ra uning yolg'oni menga ko'proq ma'qul tushdi, chunki uning yolg'oni xayrixohlik yuzasidan aytilgan edi, seniki esa jinoyatga boshlash uchun aytildi, donishmandlar: «fitna qo'zg'atuvchi rostdan, maslahatli yolg'on yaxshi», deganlar.

Shohlarga o'z gapin o'tkazgan kishi
Lozimdir yaxshi gap topib aytishi⁵⁷.

«Guliston bit turkiy»dan:

Bir sulton bir asirni o'lturmakka buyurdi. Ul bechora tiriklikdan umidin kesib, sultong'a so'kti. Masalda kelib turur: har kim jondan el yuvg'ay, ne kim ko'ngulda bo'lsa tilina keturgay.

She'r

Zarurat holatinda kim qocharg'a tobmasa bir yo'l,

⁵⁷ Sa'diy. Guliston. –T.: G'. G'ulom nomidagi Badiiy adabiyot nashriyoti, 1968. 21-22-b.

Yurub qarshu eli birlan tutar iti qilichni ul.

«Izo yaisa-l-insonu tola lisonuhu Kasinnavrin magʻlubin yasulu al-al-kalbi»⁵⁸.

Sulton soʻrdikim; "U oʻlumli kishi ne aytur?" Vazirlardan bir oqil vazir aytti: «Sulton yoshi uzun boʻlsun! Bu miskin aytur: «Val-koziminal-gʻayza val-ofina anin- nosi vallohu yuhibb-ul – muhsinina».⁵⁹

Sulton muni eshitti esa, yozuqundan kechib ozod qildi. Ul vazirning dushmani bir vazir bor edi. Ul aytti: "Bizim jinsimizga loyiq degul, sulton xidmatinda yolgʻon soʻzlamak". Ul yozuqli sultongʻa soʻkti, yaramas soʻzlar soʻzladi.

Sulton ul vazirdan malul boʻlub aytti: «Muning yolgʻon soʻzi sening toʻgʻri soʻzungdan yaxshiroq turur, aning uchunkim, aning soʻzining binosi maslahat uza turur dagʻi sening soʻzung binosi gʻaybat uza turur.

Sheʻr

Fitna yuzli rost soʻzdan boʻl yiroq,
Maslahatli yolgʻon andan yaxshiroq.
Oqil ul soʻzni yerinda soʻzlagay,
Ham javobini munosib koʻzlagay.
Kim muxolif boʻlsa sulton soʻzina,
Kelturur ul koʻb balolar oʻzina.⁶⁰

Har ikki manbadan keltirilgan hikoyaning asosi - diniy manbalarga borib taqalishi yaqqoq koʻzga tashlanadi. Paygʻambarimiz Muhammad (s.a.v) "Odamlarni sulhga keltirish, arazlashganlarni yarashtirish uchun gapirilgan yolgʻon gapning zarari yoʻqdir"⁶¹ degan hadislaridagi gʻoya hikoyatlar magʻziga singdirilgan. Har ikkala hikoyatning ikki oʻrnida shoirning xulosasi sifatida sheʻriy parcha keltirilgan. Biroq Sayfi Saroyi asaridagi sheʻriy parchalarni Saʻdiyning qalamiga tegish matnning tarjimasi deyish qiyin. Hikoyatlardagi sheʻriy mantlar hajmi bir – biridan farq qiladi.

Sayfi Saroyi Saʻdiy "Guliston"dagi ayrim parchalarni tushirib qoldiradi, baʼzi sheʻrlarini ijodiy qayta ishlaydi, baʼzida oʻzining va zamondoshlari qalamiga mansub sheʻrlarini kiritadi. Bundan

⁵⁸ Tarjimasi: Inson tiliga kelar har narsa, agar noumid boʻlsa muroddan, Yengilgan mushuk hamla etgandek itga.

⁵⁹ Tarjimasi: Jannat gʻazabni yutkuvchilarnikidir va odamlar gunohin kechiruvchilarnikidir.

⁶⁰ Saʻdiy. Guliston. –T.: Gʻ. Gʻulom nomidagi Badiiy adabiyot nashriyoti. 49-bet.

⁶¹ Axloq-odobga oid hadis namunalari. –T.: "Fan", 1990. 124-b.

tashqari, ayrim she'riy parchalarni tarjima qilmay, o'z holicha qoldiradi.

Har ikkala asarning shuhratini ta'minlagan muhim omil – ularda Qur'oni karim oyatlari, Hadislardan iqtibos keltirilishi bilan birga xalq maqollari-yu obrazli iboralaridan unumli foydalanilganidadir.

“Suhayl va Guldursun” dostoni. Mazkur asar o'zbek dostonchiligi tarixida o'ziga xos o'ringa ega. Doston uchun xalq afsonasi “Guldursun” asos bo'lgan bo'lsa-da, unda real tarixiy voqealar, ya'ni Amir Temurning Xorazmga yurishi voqealari tasvirlagan. Demak, doston real voqea tasviriga bag'ishlangan. Bu haqda muallif shunday yozadi:

Emas afsona chin ushbu bitilmish,
Bu chin afsonatek ishqda yetilmish.
Aytting og'labon davrim jafosin,
Bir erning qissasi, axchi vafosin.
Temur Urganja tortib keldi lashkar,
Ko'rub ko'z ko'r, bo'lub qoldi quloq - kar.
Qo'zutti jang bilan olamda to'fon,
Oqitti suv tekin yer uzra ko'p qon.
Ekinchi evlari yoqildi o'tqa,
Bunday sovrildi, tuproq bo'ldi bo'tqa ...

Amir Temur bilan Oltin O'rda xoni To'xtamish o'rtasida ayosiz jang bo'ladi. Bu jangda To'xtamishxonning ko'p askarlari asirga olinadi. Muallif bu jangning ayanchli tasvini berar ekan, juda ko'p insonlarning qoni daryo bo'lib oqdi, deydi. Asirlar qatorida To'xtamishning o'g'li Suhayl ham bor edi. Dostonda Suhayl juda bahodir hamda Yusuf husnli yigit tarzida ta'riflanadi. U zindonga tashlanadi. Suhayl zindonga tashlanganidan keyin tush ko'radi. Tushida bir parivash qiz bog'da yurgan emish, Suhayl esa bog'da qizga atab gullar terib yurgan emish. Qiz Suhaylning ko'ngliga otash tashlab qochib ketibdi. Qizning ortidan yuguribdi-yu, ammo bir chuqurga yiqilib tushibdi. Suhayl uyg'onib ketib, bu tush ekanini anglabdi.

Kanizaklari bilan sayrga chiqqan Guldursun zindondagi Suhaylni ko'rib qoladi. Kechasi zindonga kelib, hushsiz yotgan

Suhaylni qutqaradi. Ikkovlon qumli sahroga yo'l oladilar. Bu shunday sahro ediki, do'zax alangasi singari kuydirar edi.

Alar ko'p yurdivu sahrog'a kirdi,
Gunashdin sahro uzra do'zax erdi.

Ochlik va suvsizlik ularni toliqtiradi. Guldursun yurolmay yiqiladi. Suhayl suv va yegulik izlab uzoqdan ko'ringan qishloqqa yo'l oladi. Qaytib kelsa, Guldursun o'lib qolgan bo'ladi. Bu fojiaga chiday olmagan Suhayl jasoratli yori jasadi ustida:

Menga yaxshi bukun yor bilan o'lmak,
Na lozim g'am bilan dunyoda qolmak, - deb o'ziga pichoq sanchib o'ldiradi.

Doston 19 baytli debochadan tashqari, *“Suhaylning chohda yotmishi”*, *“Suhaylning tush ko'rmishi”*, *“Shoh qizi Guldursun Suhaylni ko'rg'oni va uni sevib qolgonin bayoni”*, *“Guldursun chohga tushub, Suhayl bilan so'zlashgoni”*, *“Suhayl bilan Guldursunning chohdan chiqib qochganlari bayoni”* kabi fasllardan iborat.

Sayfi Saroyi Suhayl va Guldursinning sevgisini ta'rifini berar ekan, Layli va Majnun voqealariga ishora qiladi. Bu bilan esa ular o'rtasidagi ishq va muhabbatning darajasiga urg'u beradi. Sayfi Saroyi insoniy muhabbatni Suhayl va Guldursun munosabatlari orqali ulug'laydi.

Xulosa qilib aytganda, Sayfi Saroyi lirik g'azallari bilan mumtoz g'azalchiligimiz xazinasini boyitgan bo'lsa, *“Guliston bit turkiy”* hamda *“Suhayl va Guldursun”* asarlari bilan o'ziga qadar shakllangan adabiy an'analarni davom ettirdi. Betakror yaratmalari bilan o'zbek mumtoz adabiyoti taraqqiyotiga o'zining munosib hissasini qo'shdi.

Mavzuni mustahkamlash uchun savol va topshiriqlar:

1. XIV asr oxiri va XV asr boshlaridagi ijtimoiy – siyosiy hayot haqida nimalarni bilasiz?
2. Shu davrdagi lirik tur, janrlar taraqqiyoti va adabiy aloqalar haqida gapirib bering. Bu davrda qaysi janrlar yetakchilik qilgan?
3. Shu davrda yaratilgan noma janriga oid qaysi asarlarni bilasiz?
4. Sayfi Saroyi tarjimayi holi bilan bog'liq qanday ma'lumotlar saqlanib qolgan?

5. Sayfi Saroyining lirik merosining mavzular olami haqida nimalarni bilasiz?
6. Sayfi Saroyi gʻazallarining badiiyatini misollar orqali izohlang.
7. “Guliston bit-turkiy” qanday asar? Uning yaratilishi bilan bogʻliq nimalarni bilasiz?
8. “Suhayl va Guldursun” dostoni qanday real veqea tasviriga bagʻishlangan?
9. Dostonda qanday gʻoyalar ilgari surilgan?
10. “Suhayl va Guldursun”dostoning badiiyati haqida soʻzlang.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Oʻzbek mumtoz adabiyoti namunalari. II jild. (XIV–XV asrning boshlari). Tuzuvchi, izoh va sharhlar muallifi: filologiya fanlari doktori, professor Nasimxon Rahmon. –T.: Fan, 2007.
2. Rahmonov N. Oʻzbek adabiyoti tarixi. (Eng qadimgi davrlardan XY asrning birinchi yarmigacha). “Sano -standard” nashriyoti. 2017.
3. Vohidov R., Eshonqulov H. Oʻzbek mumtoz adabiyoti tarixi. – T.: Oʻzbekiston Respublikasi Yozuvchilar uyushmasi Adabiyot jamgʻarmasi nashriyoti, 2008.
4. Sayfi Saroyi. Sherʼlar. Guliston. –T.: 1968.
5. Sayfi Saroyi. Suhayl va Guldursun. Kitobda: Uch bulbul gulshani. Oʻzbek sheʼriyati boʻstoni. Gʻ. Gʻulom nomidagi ASN, – T.: 1986.
6. Oʻzbek adabiyoti tarixi. 5 tomlik. 1-tom. –T.: 1977.
7. Saʼdiy. Guliston. –T.: Gʻ. Gʻulom nomidagi Badiiy adabiyot nashriyoti, 1968.

OLTINCHI MAVZU:

YUSUF AMIRIY HAYOTI VA IJODI

Reja:

1. Yusuf Amiriy hayoti va ijodi.
2. Yusuf Amiriy - lirik shoir.
3. Yusuf Amiriyning “Dahnoma” asarining yaratilishi, kompozion tuzilishi.
4. “Dahnoma”da oshiq va maʼshuq obrazlari tasnifi.

TAYANCH TUSHUNCHALAR:

- | | |
|-------------------------|-------------------|
| • Noma | • she'riy hikoyat |
| • "Dahnoma" | • noma |
| • "Chog'ir va Bang" | • fard |
| • "Tazkirat ush-shuaro" | • Ishq |
| • hamd | • oshiq |
| • na't | • ma'shuq |

Yusuf Amiriy XV asrning birinchi yarmida Hirotda yashab, ijod qilgan ijodkor. U yashagan davr Boysunqur Mirzo hukmronligi edi. U turkiy va forsiy tilda ijod qilgan. Shoirning bizgacha bitta devoni hamda "Dahnoma", "Chog'ir va Bang" munozarasi yetib kelgan.

Alisher Navoiy o'zning "Majolis un-nafois" asarida Yusuf Amiriy haqida quyidagi ma'lumotlarni qayd qilib o'tadi: *"Mavlono Amiriy - turk erdi va turkcha she'ri yaxshi voqe' bo'lubdur, ammo shuhrat tutmabdur. Va bu bayt aning "Dahnoma" sidindur:*

*Ne yemakdin, ne uyqudin solib so'z,
Yemakdin to'yub uyqudin yumub ko'z*⁶².

"Tazkirat ush-shuaro" muallifi Davlatshoh Samarqandiy "Mavlono Yusuf Amiriy sulton Shohruh Mirzo zamonida katta shuhratga erishgan shoirlardan biridir. U oddiy hayot kechirgan, aytishlaricha, amirlar va mashhur amaldorlar unga g'amxo'rlik ko'rsatganlar. Buyuk xoqon Shohruh sulton va uning ulug' avlodlari, amaldorlari sha'niga Yusuf Amiriy ko'p qasidalar bitgan. Sulton Boysunqur mirzo sharafiga bitilgan quyidagi qasida ham unikidir:

Delam bedard giriftor gasht dar game u,

Magar kunad shohi olam belutf dar monash", - deb yozadi.

O'zbek mumtoz adabiyoti janrlari takomilida Yusuf Amrining alohida o'rni bor. Boisi, Yusuf Amiriyga qadar tartib berilgan devonlar faqat g'azallardan iborat bo'lsa, uning lirik merosi tarkibida g'azal bilan birga *tarje'band*, *tuyuq* kabi lirik tur namunalari uchraydi. Shoir g'azal bilan birga tuyuqning go'zal namunalari ham yaratib, bu janrning takomiliga munosib hissa qo'shdi. Jumladan,

⁶² Navoiy Alisher. Majolis un-nafois. MAT. XX jildlik. XIII jild. – T.: Fan, 1997. 16- b.

Gar desam, bog'i visoling **nori bor**,
Olma deb achchig'lab aytur: **Nori bor!**
Ishq naxli ko'z yoshimdin suv ichib,
Bargu borini shararlig' **nori bor**.

Tuyuq janriga xos xususiyatlardan biri uning ramali musaddasi mahzuf (maqsur) (foilotun/foilotun/ foilun) vaznida yozilishidir. Bundan tashqari, tuyuqlarda tajnisli so'zning ishlatilishi bu janrning asosiy belgisi sifatida ta'kidlanadi. Biroq tajnis ishtirok etmagan tuyuqlar ham mavjudki, ularni to'rt misrali she'rlardan farqlash uchun asosan vazn xizmat qiladi.

Yusuf Amiriyning yuqorida keltirilgan tuyug'ida "nori" so'zi tajnisni hosil qilgan. Birinchi misrada "*azob, qiyinchilik*", ikkinchi misrada "*nari bor*", to'rtinchi misrada "*o't, olov*" ma'nolarda kelgan.

Tuyuq janri, asosan, ishqiy mavzuda yozilgan. Yuqoridagi tuyuqda ma'shuqa visolidan umid uzgan oshiq holati tasvirlangan bo'lsa, quyidagi tuyuqda ma'shuqaning "*noz o'qidan*" "*jarohatlangan*" lirik qahramon kayfiyati badiiy talqin etilgan.

Jilva aylab sakraturda sarkash **ot**,
Noz o'qin javlon etib jonimg'a **ot**.
Itlaring xaylig'a xizmat ayladim,
Qo'ydilar ahli vafo deb manga **ot**.

Mazkur tuyuqda "ot" so'zi tajnisli so'z bo'lib kelgan. Birinchi misrada "hayvon", ikkinchi misrada "otmoq", to'rtinchi misrada "ism" ma'nosida kelgan.

Yusuf Amiriyning bizgacha "Dahnoma", "Chog'ir va Bang" munozarasi hamda lirik g'azallari yetib kelgan. Lirik asarlarida ijtimoiy-falsafiy qarashlari bilan ishq-muhabbat haqidagi mushohadalari ham o'zining badiiy ifodasini topgan.

Yusuf Amiriy merosida g'azallar soni ko'p bo'lmasa-da, badiiy barkamolligi bilan e'tiborni tortadi. Shoir g'azallarida hayotsevarlik ulug'lanadi, vafosizlik, zulm qoralanadi. Ma'shuqa vaslidan umidvorlik oshiq ko'ngliga taskin beradi. Lirik qahramonning maqsad muddaosi, ezgu niyatlari zamirida shoirning ishq, hayot, yaxshilik va yomonlik haqidagi qarashlari o'zining badiiy ifodasini topadi. "*Xayoling xayli, ey jonim charog'i*" misrasi bilan boshlanuvchi

gʻazalida qoʻllangan quyma iboralar, tamsil sifatida tanlangan hayotiy holatlar, shu bilan birga xalqona ohang Yusuf Amiriyning turkiy gʻazalchilikda oʻziga xos uslubga egaligidan dalolat beradi.

Xayoling xayli, ey jonim charogʻi,
Turur koʻzumdavu koʻnglumda dogʻi.

Shoir gʻazalning ikkinchi baytida xalqda ishlatiladigan “koʻzi chiqsin” qargʻishidan foydalanadi. Oshiq maʼshuqadan boshqani koʻrmaydi. Shuning uchun yor yuzi oshiqning koʻziga aylangan. Uni koʻra olmagan raqibning esa koʻzi chiqsin, deydi shoir. Mumtoz adabiyotda raqib obraziga koʻp murojaat qilinadi. Bu obraz orqali jamiyatda uchrab turadigan badbin kishilarning xususiyatlari tasvirlanadi. Ular oshiq va maʼshuq oʻrtasida toʻsiq, ularning muhabbatiga rahna soluvchi.

Yuzung koʻrar koʻzumdur, gar raqibing,
Koʻra olmas oni chiqsin qarogʻi.

Keyingi baytda “zulf” va “koʻngil” orqali (sinekdoxa – qism orqali butunni ifodalash) maʼshuq va oshiq obraziga ishora qilingan. Bilamizki, zulf jingalak boʻladi. Shoir zulfning ana shu holatidan mahorat bilan foydalangan. U boshdan oyoq egri boʻlgani uchun koʻngil bilan kelisha olmaydi, deydi shoir.

Qachon zulfung koʻngul birlan tuzolgay,
Kim, egridur aning boshtin-ayogʻi.

Gʻazalning keyingi baytida shoir oshiqning holatini badiiy ifodalash uchun yana hayotiy holatni misol qilib keltiradi. Oshiq oʻz holini maʼshuqa oldida qanchalik oshkor qilmasin, u eshitmaydi. Bu xuddi rubobning oʻz kuyini oʻzi eshitmagani kabidir.

Figʻonimni rubob oligʻa, ey doʻst,
Ne aytoyin chu eshitmas qulogʻi.

Mumtoz sheʼriyatda maʼshuqa koʻzi jon oluvchi, fitna qoʻzgʻotuvchi sifatlari bilan taʼriflanadi. Xalqda “koʻz koʻzga tushganda mehr paydo boʻladi” degan naql bor. Xuddi ana shu xalqona qarashdan oshiqning holatini tasvirlash uchun foydalanilgan. Maʼshuqa koʻzi oshiq koʻngliga mehr tuxmini sepmadi, u sepkan mehr urugʻi ekindan, yaʼni oshiq koʻnglidan yiroq tushgan. Shoir bu bilan maʼshuqaning oshiqqa nisbatan eʼtiborsizligi, uning muhabbatini nazar pisand qilmaganligiga ishora qiladi.

Ko'zung ko'ngulda ekmas mehr tuxmin,
Ajab yo'q, tushmadi ekin yirog'i.

G'azal maqta'sida shoir yana ma'shuqa zulfiga murojaat qiladi. Zulf mumtoz she'riyatda ko'p qo'llanuvchi timsol. Zulfning ma'nosi sochdir, u o'tmish adabiyotida *gesu, turra yoki kokil* deb ham atalgan. U ma'shuqning go'zalligini namoyon qiluvchi uzv bo'lishi bilan birga, tasavvuf she'riyatida moddiy dunyo timsoli sifatida ham qo'llanadi. Ma'shuqa Amiriyning oldidan o'tdi, zulfning xushbo'y bo'yidan uning ko'ngli parishon (mushavvashdur) bo'ldi:

Amiriy olidin to o'tti ul zulf,
Nasimidin mushavvashdur dimog'i.

Shoir lirikasida g'azalnavislikda mavjud an'anaviy tasvir vositalariga murojaat qilish bilan birga, o'ziga xos tasvirlar yaratilgani ham kuzatiladi.

Yusuf Amiriy g'azallari hajmi asosan 7 baytlidir. G'azallarining tili sodda va shirali. Qo'llangan qofiya va radiflar ohangdorlikni ta'minlashi bilan birga asosiy g'oya targ'ibiga bo'ysundirilgan.

Yusuf Amiriy lirikasida 11 baytli g'azal ham mavjud. "*Vafo to bo'ldi jononimg'a maxsus*" misrasi bilan boshlanuvchi mazkur g'azali aruzda yozilgan bo'lsa-da barmoq vaznli she'rlar kabi 11 bo'g'indan iboratdir. Bu esa uni xalq she'riyatiga yaqinlashtirgan.

Vafo to bo'ldi jononimg'a maxsus,
Jafovu javr erur jonimg'a maxsus.

Xirom-u jilvavu noz-u malohat,
Erur sarvi xiromonimg'a maxsus.

Guliston bo'ldi ko'nglum lola yanglig',
Vafo dog'i gulistonimg'a maxsus.

Kecha tong otqucha ko'nglum chekar oh,
Erur bu sham' vayronimg'a maxsus.

Ko'ngul konidadur la'ling xayoli,
Bu gavhardur Badaxshonimg'a maxsus.

G'amingda ishq ranji rohatimdur,
Bu darding o'ldi darmoning'a maxsus.

G'ubori to'tiyoyi xoki poying,
Bo'lurmu chashmi giryoning'a maxsus.

Kerak shahdin gado holini so'rmoq,
Bu davlat keldi sultoning'a maxsus.

Ko'ngul xushtur visol ummidi birla,
Bu malham dog'i hijroning'a maxsus.

Shahidi nozi mujgoning erurman,
Bu xanjardur mening qonimg'a maxsus.

Erurman ishq mulkining Amiri,
Junun avboshi darboning'a maxsus⁶³.

Hazaji musaddasi mahzuf vaznda yozilgan mazkur g'azalda ohangdorlikni ta'minlanishida qofiya bilan birga radif ham xizmat qilgan. **Radif** - qofiyadan keyin takrorlanib keluvchi so'z. Yuqoridagi g'azalda "maxsus" so'zi radif sifatida kelgan. Mazkur so'z she'rga musiqiylik va ritmik ohang baxsh etgan. Bundan tashqari, g'azalda ilgari surilgan g'oyani bo'rtirib tasvirlashga xizmat qilgan. **Maxsus** - xos degan ma'noni anglatadi.

Vafo to bo'ldi jononimg'a maxsus,
Jafovu javr erur jonimg'a maxsus.

G'azalning dastlabki bayti vafo va jafo tazodi bilan boshlanishi bejiz emas. Shoir ana shu qarama-qarshilik dialektikasi orqali o'z qarashlarini badiiy ifodalaydi. Oshiq qanchalik vafodor bo'lmasin ma'shuqa ishqidan yetadigan ozorlar uning jabr-u jafosiga sabab bo'ladi. Vafo qilishlik oshiqqa xos bo'lsa ham ishqning jabru jafosi uning joniga maxsusdir.

Mumtoz she'riyatda ma'shuqning xiromi (yurishi), noz-u malohati yuqori pardalarda vasf qilinadi. Uning go'zal qomati sarv (tik

⁶³ O'zbek mumtoz adabiyoti namunalari. II jild. (XIV–XV asrning boshlari). Tuzuvchi, izoh va sharhlar muallifi: filologiya fanlari doktori, professor Nasimxon Rahmon. –T.: Fan, 2007. 255-b.

o'suvchi daraxt)ga qiyos qilinadi. Yusuf Amiriy g'azalning ikkinchi baytida ma'shuqa go'zalligining shu jihatiga e'tibor qaratadi:

Xiromu jilvav-u noz-u malohat,
Erur sarvi xiromonimg'a maxsus.

Lirik qahramon xirom qilib yurishlik, nozli jilva va malohatlilik mening sarvi xiromonimga xosdir, deyishi bilan uning go'zalligiga maftun bo'ladi. Buni g'azalning keyingi baytida yana mubolag'ali tasvirlaydi.

Guliston bo'ldi ko'nglum lola yanglig',
Vafo dog'i gulistonimg'a maxsus.

Baytda oshiq ko'ngli gulistonga qiyoslangan. Bu guliston lolalar bilan bezangan. Lolazor bilan bezangan guliston qip-qizil bo'ladi. Shoir baytda ishqqa duchor bo'lgan oshiq ko'ngli va guliston (lolazor) o'rtasidagi o'xshashlikni asos qilib oladi. Bilamizki, lola yaproqida dog'lar bo'ladi. Shoir ana shu dog'larni oshiq ko'nglidagi "vafo dog"lariga o'xshatadi.

Kecha tong otqucha ko'nglum chekar oh,
Erur bu sham' vayronimg'a maxsus.

Xalqda "ohidan o't chiqdi", "ohi ko'kka yetishdi" kabi mubolag'ali iboralar mavjud. Shoir oshiq ishqining kuchliligini yuqoridagi baytda "tong otquncha oh tortmoq" iborasi bilan ifodalaydi. U shunday oh tortdiki, undan chiqqan o't (sham') uning vayronasini yoritdi. Oshiq bundan shikoyat qilmaydi, balki bu kuyish uning vayronasiga xosdir. "Vayrona" so'zini oshiqning kulbasi hamda uning "vujudi" ma'nosida ham tushunish mumkin.

Ko'ngul konidadur la'ling xayoli,
Bu gavhardur Badaxshonimg'a maxsus.

Mumtoz ijodkorlar ma'shuqaning qizil labini la'lga qiyos qilishadi. Yusuf Amiriy ham shu an'anani davom ettirib, go'zal tasvir yaratgan. **La'l** - qizil rangli qimmatbaho tosh. Uning eng a'lo na'vi Badaxshon tog'larida hosil bo'lar ekan. Shuning uchun ko'pincha mumtoz ijodkorlar la'l so'zi bilan birga Badaxshon toponimini birga qo'llashadi.

Badaxshon la'l – qimmatbaho toshga makon bo'lgani kabi ma'shuqaning labi (la'li labi) oshiqning ko'ngil konida gavharga aylangan.

G'amingda ishq ranji rohatimdur,
Bu darding o'ldi darmoning'a maxsus.

Haqiqiy oshiq ishqni dardiga darmon deb biladi. Ishq g'ami oshiqning darmoni uchun maxsusdir. Bu darddan u rohatlanadi.

G'ubori to'tiyoyi xoki poying,
Bo'lurmu chashmi giryoning'a maxsus.

Xokisorlik – haqiqiy oshiqlik belgisi. Xalqda eng aziz narsa nisbatan “ko'zga to'tiyo qilmoq” iborasi ishlatiladi. Shoir baytda shu iboradan mahorat bilan foydalangan. Oyog'ingni xoki mening chashmi giryonimga ya'ni, yoshlar oqib turgan chashma - ko'zlarimga to'tiyo bo'larmikan?, – deydi shoir.

Kerak shahdin gado holini so'rmoq,
Bu davlat keldi sultonimg'a maxsus.

Xokisorlik keyingi baytda shoh va gado tazodi orqali yana yuqori pardalarga ko'tariladi. Oshiq o'zini gado, ma'shuqani shoh sifatida tasvirlaydi. Shohning gado (faqr)lar holidin xabar olib turishi real hayotdagi holat hisoblanadi. Ana shu reallikni oshiq hamma sultonga nasib qilmasligini ta'kidlaydi.

Bayt ma'nosini Yusuf Amiriy yashagan davr bilan ham bog'lab tahlil qilish mumkin. Ya'ni shoir sulton Shohruh Mirzo davrida yashadi, shohdan juda ko'p muruvvatlar ko'rdi. Bunday saxovat mening sultonimga xos deyish bilan shohlarni muruvvatli, xalq holidan xabardor hukmdor bo'lishga chaqirish g'oyasi ham yashiringan bo'lishi mumkin.

Ko'ngul xushtur visol ummidi birla,
Bu malham dog'i hijroning'a maxsus.

Oshiq har qanday holatda ham visoldan umid uzmaydi. Visol umidi uning qalbidagi hijron dog'iga malham.

Shahidi nozi mujgoning erurman,
Bu xanjardur mening qoning'a maxsus.

Ma'lumki, mumtoz she'riyatda ma'shuqa mijgoni (kiprigi) oshiqning qotilligiga sababchi bo'luvchi xanjarga o'xshatiladi. Yusuf Amiriy ham shu an'ana davom ettirar ekan, o'ziga xos yondashgani va orginal tasvir yaratganini ko'rishimiz mumkin. Ya'ni bu xanjardan halok bo'lgan oshiq o'zini shahid hisoblaydi. Shahd o'lim topgan kishining esa Alloh huzuridagi martabasi ulug' bo'lishi diniy manbalarda ta'kidlangan.

Erurman ishq mulkining Amiri,
Junun avboshi darboning'a maxsus.

Baytdagi **junun** - devonalik, jinnilik dardi. Avbosh – bezori, yo'lto'sar, bebosh. Baytda qo'llangan jununlik – devonalik, jinnilik dardi jismoniy nuqson emas, balki ilohiy ishq natijasidir. Lirik qahramonning jununi ma'shuqa ishq tufaylidir. **Junun avboshi**– ishq ahli. Ishq mulki amirining darvozasini esa “junun avboshi”lari qo'riqlaydilar, ular Amir ostonasini qo'riqlash uchun maxsusdir.

G'azal maqta'sida original tasvir yaratilgan. Shoir baytda iyyom san'atidan mahorat bilan foydalangan. Amiri so'zi orqali shoirning taxallusiga hamda ishq mulkida amirligiga ham ishora mavjud.

Diqqat qilsak, an'anaviy ishq tasviri uchun tanlangan mavzu, badiiy tasviriy vositalar Yusuf Amiriy mahorati tufayli go'zal badiiy yaratmaga aylangan g'azalning vujudga kelishiga omil bo'lgan.

Yusuf Amiriyning **“Sharobi noz to bazm ichra ruxsoringni ol etmish”** misrasi bilan boshlanuvchi g'azali hazaj bahrining musamman shaklida yozilgan. G'azalda “ol ruxsorli” ma'shuqa ta'rifi turli badiiy san'atlar orqali obrazlantirilgan. “Ol yuzli” ma'shuqaning go'zalligidan gul bargining infiol (xijolat), sarvning esa xijolatdan boshini ko'tarmasligi tashxis san'ati orqali ifodalangan.

Sharobi noz to bazm ichra ruxsoringni ol etmish,
Xijolat bargi gulni poymoli infiol etmish.
Ko'tarmas boshini sarvi sihi bori xijolatdin,
Xiromi noz to gulshanda ul zebo nihol etmish⁶⁴.

Mumtoz she'riyatda ko'p qo'llanuvchi san'atlardan biri talmehdir. Talmeh shoirga bir ishora bilan chuqur ma'noni ifodalash imkonini beruvchi san'atdir. U istiora, tashbeh kabi san'atlardan farqli o'laroq ijodkorga tarixiy yo afsonaviy voqealarga, mashhur asarlar va qahramonlar obraziga ishora qilish va shu yo'l bilan o'z fikrini ifodalash imkonini beradi.

Ma'lumki, Farhod-u Shirin, Layli-yu Majnun obrazlari xalq og'zaki ijodidagi an'anaviy, afsonaviy obrazlar bo'lib, ular bilan bog'liq turli tarixiy ma'lumotlar, afsona, ertak, rivoyat va qo'shiqlar yetib kelgan. Bu obrazlar yozma adabiyotga ko'chib, ishqiy mavzularning badiiy talqinida har bir ijodkor tomonidan ma'lum maqsadlarga bo'ysundirilgan. O'zbek she'riyatining asoschisi hazrat Alisher Navoiy

⁶⁴ <https://kh-davron.uz/kutubxona/uzbek/yusuf-amiriy.html>

“Layli va Majnun” dostonida asl ismi Qays boʻlgan yigitning yor ishqidan oʻrtanishi uni telbalik koʻyiga solishi badiiy yoritilgan. Lekin bunda Qaysning ishq aslida Allohga qaratilgan boʻlib, Layli timsolida uning tajallisini koʻradi. Shu haqiqiy ishq hajri, yordan ayriliq azobi oshiq yigitni telbalikka giriftor qiladi. Ishq dardi tufayli telba (jinni, devona) holatiga tushib qolgan Qaysni hech kim, hatto, ota-onasi ham anglay olmaydi. Hamma uni Majnun, yaʼni jinni deb atay boshlaydi.

Yusuf Amiriyning mazkur gʻazalida talmeh sifatida tilga olingan Majnun orqali ham ishq tufayli telba (devona) boʻlgan lirik qahramonning ruhiy holatiga urgʻu beriladi. Oshiq holati Majnunga qiyoslanadi, uning hazin koʻngli maʼshuqa ishtiyoqida qush kabi parvozga shay.

Boʻlub Majnun, kiyiklar suhbatini ixtiyor etmon,
Meni devonani to vola bir vahshi gʻazol etmish.
Hazin koʻnglum qushi parvoz etar koʻyung havosida,
Oʻqungdin par chiqorib, har taraf jismina bol etmish⁶⁵.

Maʼlumki, badiiy adabiyotda Jamshid jomi va Iskandar oynasi timsollariga koʻp murojaat qilingan. Jamshid – Eronning afsonaviy shohlaridan. Badiiy adabiyotda koʻpincha Jamshidning sehrli jomi qalamga olinadi. Goʻyo unda Jamshid oʻz zamonida istagan odam va joylarni koʻra bilar ekan. “*Iskandar oynasi*”ga yuklatilgan badiiy vazifa ham xuddi Jamshid jomi kabidir. Jomi Jam bilan Iskandar koʻzgusi koʻngli timsoli sifatida ham talqin qilinadi. “Singʻan safol” – koʻchma maʼnoda siniq koʻngil, xoksorlik timsoli. Lirik qahramon qismati “singʻan safol” timsoli orqali berilgan. Lirik qahramon “jomi Jam”ga ishq sharobini qoʻyib, koʻngli “Iskandar koʻzgusi”dek pok boʻlsa ham dayr (dunyo) uning qismatini kemptik qilgan, yaʼni uning koʻngli “singan safol” kabidir.

Netay gar jomi Jam birla Skandar koʻzgusi boʻlsa,
Bukun dayr ichra soqiy qismatim singan safol etmish⁶⁶.

Navbatdagi baytda shoir hayotiy hodisa tasviridan foydalanadi. Har oyning boshida yangi bir hilolning paydo boʻlishi tabiiy hodisa. Shoir oyning shaklini oʻz koʻngliga hamda maʼshuqaning qoshiga oʻxshatadi.

⁶⁵ <https://kh-davron.uz/kutubxona/uzbek/yusuf-amiriy.html>

⁶⁶ <https://kh-davron.uz/kutubxona/uzbek/yusuf-amiriy.html>

Falak har oy boshinda bir hilolin oshkor aylar,
Magar ko'nglum kibi yuz uzra qoshingni xayol etmish⁶⁷.

Ma'lumki, mumtoz adabiyotda ko'ngil ulug'lanadi. Boisi, u Allohning tajalliy qiluvchi maskandir. "Ko'ngul – she'riyatning asosiy obrazlaridan biri. Sharq shoirlari inson taqdiridan bahs yuritish, oliy tuyg'u va fazilatlarini ulug'lash, ishq va oshiqlik sirlarini kashf etishda, asosan, ko'ngulga tayanganlar"⁶⁸. Ko'ngil so'zi asosida juda ko'p iboralar yaratilgan. Ana shunlardan biri "ko'ngli yarim" degan ibora. Bu ibora, asosan, hayotda mashaqqat tortgan, buning evaziga yetarlicha "mukofotlanmagan" kishi nazarda tutiladi. Oshiqning ham "ko'ngili yarim", chunki u ma'shuqa visolidan, marhamatidan mahrum. Shoir oshiqning yarim ko'ngilini ma'shuqaning qoshiga o'xshatadi.

G'azalning keyingi baytlarida bemor oshiqning "notavonu bemajol, oshuftahol", ma'shuqaning esa "berahm qotil"ligi ta'kidlanadi:

Dema holim ko'rub: "Ne vajhdin betob erur ko'nglung?"
Muhabbat dardi oning notavon-u bemajol etmish.

Tamannoyi sari zulfing tushub boshimg'a hayronman,
Junun ko'yida bu savdo meni oshuftahol etmish.

Hazar aylangiz, ey ushshoq, ul berahm qotildin,
Bukun qish bo'rkini egri qo'yub zebi jamol etmish.

Meni jonim olurg'a, ey ajal, ko'p chekmagin zahmat,
Ki, bir so'z birla la'li manga o'lmoki mahol etmish...⁶⁹

O'n bir baytli mazkur g'azal so'ngida shoir inson kamolotining asosi muhabbatdir degan xulosani ta'kidlaydi. Shuning uchun maqta'da muhabbatni pir, ya'ni solikni kamolga yetkazuvchi ustoz sifatida ta'riflaydi. Bunday pirga shogird tushgan solik esa kasbi kamolga yetishi uqtiriladi.

Amir olamg'a bersa ishq irshodin tong ermaskim,
Muhabbat pirig'a xizmat qilib, kasbi kamol etmish⁷⁰.

⁶⁷ <https://kh-davron.uz/kutubxona/uzbek/yusuf-amiriy.html>

⁶⁸ Bozorova N. Alisher Navoiy g'azallarida ko'ngul obrazi. "Badoyi' ul-bidoya" devoni asosida. Fil.fan.nom. ...dis. avtoref. –T., 2004. 16-b.

⁶⁹ <https://kh-davron.uz/kutubxona/uzbek/yusuf-amiriy.html>

Xulosa qilib aytganda, Yusuf Amiriy turkiy adabiyotda gʻazalnavislik anʻanasini oʻziga xos uslubda davom ettirdi. Shoir adabiy merosi oʻzidan keyingi mumtoz adabiyot taraqqiyoti uchun beminnat xizmat qildi.

Yusuf Amiriy “Dahnoma” (1429) asari bilan noma janrini rivojlantirdi. Dahnoma” asari jami 46 katta-kichik boblarga boʻlingan boʻlib, unda masnaviy yoʻlida bitilgan oʻnta nomadan tashqari, gʻazal, fard va hikoyatlar mavjud. “Dahnoma”da nomalar 30 baytdan, gʻazallar 7 baytdan iborat.

“Dahnoma” anʻanaga muvofiq *Tangriga hamd, Paygʻambarga naʼt bilan boshlanadi. Shundan soʻng Boysungʻur Mirzoga qasida, soʻngra bir sheʼriy hikoyat, kitobning yozilish sababi, yoʻlda bir sohibjamolga roʻbaroʻ boʻlgani, munosabatning boshlanishi va mahbubning noma yozgani va nihoyat, oshiq va maʼshuqaning oʻnta nomasidan iborat.*

Tangriga hamd bobida Allohning insonni tuproqdan yaratganligi, olti kunda olamni yaratgani, Nahid (Zuhro) yulduzini - cholgʻuchi, Bahrom (Mars) sayyorasini - botir qilganini, Mushtariy (Yupiter) sayyorasini - ilm ishiga yuborganini, Tir (Merkuriy) sayyorasini - kotib qilganini badiiy ifodalaydi.

Naʼt bobida esa Muhammad a.s.ning paygʻambarlik sifatlariga urgʻu beriladi. Alloh Rasulini “elchilik taxtining egasi”, “mamlakatlarning toʻlin oyi” deb taʼriflaydi. Mazkur bobda paygʻambarimizga berilgan buyuk karomat - meʼroj voqeasi haqida ham soʻz boradi. U kishini Buroq otiga minib, toʻqqiz qavat osmondan oshib oʻtishlari bilan bogʻliq tasvirlar keltirilgan.

Asarning Boysungʻur Mirzo madhiga bagʻishlangan bobida shoir uni yuqori pardalarda vasf qiladi. Boysungʻur Mirzo Shohruh Mirzoning uchinchi oʻgʻli. Tarixiy manbalarda taʼkidlanishicha, u ilmparvar shaxs boʻlib, turli sohaning yetuk mutaxassislarini oʻz atrofida toʻplab, ilmiy muhit yaratgan. Buni Boysungʻur Mirzo saroyidagi ilm va sanʼat ahllari shaʼniga bitilgan quyidagi madhiyadan ham bilsa boʻladi.

Eshigi zufununlarning makoni,
Zamiri barchaning ilm oshiyoni.
Kechib ollida yuz turluk dahoyiq.

⁷⁰ <https://kh-davron.uz/kutubxona/uzbek/yusuf-amiriy.html>

Maorif birla anvoi haqoyiq.
Biri hay'at riyozidin terib gul,
Biri hikmat shifosidin berib mul.
Biri iqlidus ashkolin hal etib.
Biri ko'k jadvalinda madhal etib.
Biri fiqh ichida asrab maqomin,
Biri mantiq sori eltib kalomin.
Biri jufri huruf iqlimida Qof,
Biri tarix maydoninda avsof.
Biri ash'or bahrinda suv sochib,
Biri advor rudinda so'z ochib...⁷¹

Ko'rinib turibdiki, Yusuf Amiriy Boysung'ur Mirzoni ta'riflashda tarixiy ma'lumotlarga suyanadi. Shu bois, uning himmatli ekanligiga alohida urg'u beradi. Uni yulduzlar halqasidagi oy, Zuhro yulduzi - cholg'uchi; Boysung'ur Mirzo esa majlisni qizituvchi, ko'p fanlarni biluvchi olim ekanini madh qiladi.

Boysung'ur Mirzoning himmatligini quyidagicha ta'riflaydi:

Yetib el dardina ortuq biligi,
Yopib faqr egnini ochuq aligi.
Ulusni qutqarib mehnat kunidin,
O'lukni uyg'otib yarmoq uni din.

Asarda Boysung'ur Mirzo madhidan so'ng bir she'riy hikoyat keltradi. **Hikoyatning mazmuni quyidagicha:** "Bir arab cho'lda bir ko'lmakka duch kelib qolibdi. U bu suv zamzam suvidan ham afzal, deb, xayol qilib: "Buni endi nima qilsam ekan, kimga olib borsam ekan" deb, Horunga olib borishga qaror qilibdi. U ko'zadagi suvni ko'targanicha, shaharga yo'l olibdi. Arab go'yo o'z xayolida, meni xuddi Xizr kabi kutib oladilar, axir, qo'limdagi suv oddiy suv emas, hayot suvi-ku, degan o'y bilan ketaveribdi. U Horunning huzuriga yetib kelib, qo'lidagi suv to'la ko'zani beribdi. "Ey shohim, men bir arabman, sahroda yovvoyi eshaklar-u kiyiklardan boshqa hamrohim yo'q. Oyu yillar ko'z yoshlarimni daryo-daryo qilib to'kib, Tangridan tilay-tilay mana shu yomg'ir suvini topdim. Bu suvning shirin ta'mi ta'ma og'zini yopadi. Shuni o'zim ichmay, siz - janobi oliylariga keltirdim. Axir, siz sultonlarning sultonisiz. Endi menga bu suv tufayli obro' orttirib bersangiz". Horun uning gapini eshitib bo'lgach,

⁷¹ Muborak maktublar. G'.G'ulom nomidagi Adabiyot va san'at nashriyoti, – T.: 1987.65-b.

tabassum qilibdi va hurmatini joyiga qo'yib bir zumda boy qilibdi. Horun xizmatkorlaridan biriga: "Bu odamni olib boringlar, idishini to'ldirib, pul beringlar", deb amr qilibdi.

Arab bilsaki, o'sha yerdan Dajla daryosi oqib o'tarkan. Horun o'z himmati va murruvatini yana bir bor namoyon qilibdi. Bir ko'za suv olib kelgan arabni mulzam qilmabdi.

Yusuf Amiriy Boysung'ur Mirzo madhidan so'ng bu hikoyatni keltirishi bejiz emas. Boisi, muallif uni saxiylik va muruvvatda, mehr va shafqatda Xorun ar-Rashidga qiyos qiladi.

Keyingi bob "*Kitobning yozilish sababi bayoni*" bo'lib, asarning yozilishi jarayoni bilan o'quvchini tanishtiradi. Shoirning ta'kidlashicha, bir do'sti uni uyiga taklif qiladi. Uning uyiga borganda, bir talay Iso nafas ulfatlar to'plangan: surohiy (may idishi)dan ko'ngillari shod bo'lgan, bir-birlariga gap bermay, hikoyalar so'zlaydi.

Ayog' ichib, o'pub otlandim ondin,
Bag'oyat xurramu forig' jahondin.
Boshimdin eltibon may nash'asi xush,
Berib yuz she'r bahri tundu⁷² purjush⁷³.
Mubarro⁷⁴ bo'lubon dinu dunyo g'amidin,
Chiqib ya'ni takalluf olamidin.
Ko'ngulda jilva berib xo'blarni,
Sog'inib yertagi mahbublarni.

Ma'lumki, may – ilohiy ishq, ilohi fayzdan sarxushlik ramzi. Demak, shoirga asarni yozishiga ilhom bergan narsa ilohiy ishq.

Shundan so'ng "*Yo'lda bir sohibjamolga ro'baro' bo'lgani bobī*" da bir mahbubaga yo'liqib, uning go'zalligiga mahliyo bo'lgani, u bilan qilgan suhbat hikoya qilinadi. Mahbubaning ishqida kuyib-yongan oshiq saboga: "Men - oshiqning tilidan noma yetkazsang, o'sha oynning manzilidan meni xabardor qilsang", deb iltimos qiladi. Sabo uning iltimosiga bajonidil rozi bo'ladi. Shundan keyin oshiqning sabo orqali ma'shuqaga yozgan birinchi maktubi keltirilgan.

Asar o'nta nomadan iborat. Tuzilishi jihatidan ham Xorazmiyning "Muhabbatnoma"siga o'xshash. Ammo ular o'rtasida ma'lum bir o'rinlarda tafovvut borligini ko'rishimiz mumkin. Jumladan, "Muhabbatnoma"da bir o'rinda, ya'ni asarning xotimasida

⁷² tund - achchiq, gazali ; asov, sarkash, sho'x;

⁷³ zavqli, shod, hayajonli

⁷⁴ xoli, ozod, hiron narsaga yo 'liqmagan

fard keltirilgan bo'lsa, "Dahnoma"dagi har bir nomadan so'ng g'azal, so'ngra fard keltirilgan.

Yusuf Amiriy "Dahnoma"si an'anaviy sevgi-muhabbat mavzusida yaratilgan bo'lib, unda tasvirlangan voqealar orqali sevgi va muhabbat, vafo va vafodorlik, halollik, rostgo'ylik, sabot, matonat g'oyalari ilgari surilgan. Asarning lirik qahramoni oshiq. Oshiq - kamtarin va sadoqatli, u sevgi iztiroblarini mardona yengib, ma'shuqa visoliga intiluvchi, sabotli, matonatli. Oshiq ishq ishi oson emasligini, ko'p to'siq va g'ovlarni yengib o'tish orqaligina ma'shuqa visoliga yetish mumkin ekanligini his etadi. Shuning uchun ham ma'shuqaning dastlabki g'azali javobidan tushkullikka tushmaydi. Aksincha, o'z sevgilisiga fidoiyligini qayta-qayta ta'kidlaydi.

Men ul bulbul emasman, ey gulandon,
Ki bir dam bargsiz tongayman orom.
Kuyar parona jondin qayg'u emas,
Kishi parvonadan xud o'ksuk emas.
Men ul kunkim g'aming so'zini tuzdim,
Seni dedim, ko'ngulni jondin uzdim.

Oshiq ishq yo'lida Majnundek sargardon. Shirin visoli ilinjida g'am tog'ini qoporgan Farhoddek mashaqqatlarga uchragan bo'lsa ham o'z niyatidan yuz o'girmaydi, unga sodiq qoladi. Oshiq o'zining ana shunday yuksak insoniy fazilatlari tufayli ma'shuqa maylini qozonadi, uning shomi subhga, tuni kunduzga, g'ami shodlikka, ayrilig'i visolga aylanadi. Shoir talqinidagi oshiq qiyofasida muhabbatga sadoqat, qiyinchilik va mashaqqatlardan chekinmaslik, maqsadga intilish, poklik, to'g'rilik kabi fazilatlar ulug'lanishi bilan birga bunday hislarga ega bo'lgan shaxs, albatta, o'z oldiga qo'yan ezgu maqsadiga yetishi aks ettiriladi. Bu shubhasiz, oshiq obrazining xarakterini belgilash bilan birga uning katta tarbiyaviy estetik qimmatini ham oshiradi. Umuman, "Dahnoma"da oshiq sadoqat, vafodorlik kabi g'oyalarni ifodalovchi obrazdir.

Asarda bir qadar keng va atroflicha tasvir etilgan qahramonlardan biri ma'shuqa obrazidir. "Dahnoma"da tasvir etilgan ma'shuqa favqulotda go'zalligi bilan birga, so'zga chechan, hozirjavob, aqlli qiz. U hayotga aql - zakovat bilan qaraydi. U oshiqning maktubidan dastlab g'azablanadi, lekin maktublar vositasi

bilan oshiq chekayotgan iztiroblarni to'g'ri his qiladi. Shuning uchun ham g'azabni lutfga almashtirib, oshiqqa javob yozadi.

Asarda tasvirlangan ma'shuqa o'zgaruvchan obraz bo'lib, uning xarakteri, xususan, oshiqqa bo'lgan munosabati voqealar jarayonida o'zgarib, rivojlanib boradi. Oshiq o'zining ma'shuqaga bo'lgan sof, samimiy sevgisi, chin dil so'zlari, ma'shuqaning ta'naomiz, achchiq so'zlariga xushnavolik bilan javob qaytarishi tufayli ma'shuqa dilini ma'lum darajada o'ziga rom etadi. Shuning uchun ma'shuqa asta – sekin oshiq ishqiga moyil bo'la boshlaydi. Endi u oshiqqa yurakdan achinadi, uning dardiga hamdard, alamga alamkash bo'ladi.

Xulosa qilib aytganda, Yusuf Amiriy “Dahnoma” asari bilan adabiyotimiz tarixida nomachilik taraqqiyotiga munosib hissa qo'shdi. U mumtoz noma janrini poetik jihatdan rivojlantirdi. Bu esa Yusuf Amiriyning salohiyatli ijodkor bo'lganligidan dalolat beradi.

Mavzuni mustahkamlash uchun savol va topshiriqlar:

1. Yusuf Amiriy haqida qaysi manbalarda ma'lumotlar saqlanib qolgan?
2. Yusuf Amiriyning lirik janrlar takomilidagi xizmatlari nimada ko'rinadi?
3. Shoir lirikasida qanday mavzu yetakchilik qiladi?
4. Yusuf Amiriyning munozara janridagi qanday asarlari mavjud?
5. “Dahnoma” qanday asar? Asarning yaratilishi bilan bog'liq fikrlaringizni bayon qiling.
6. “Dahnoma”ning tuzilishi haqida ma'lumot bering.
7. “Dahnoma”ning kompozitsion tuzilishi boshqa nomalardan farq qiladimi?
8. “Dahnoma”dagi Boysung'ur Mirzo ta'rifiga oid bobni tahlil qiling. Bobda tasviriy vositalarni qo'llashdagi shoir mahoratiga baho bering.
9. Asarda keltirilgan she'riy hikoyada qanday g'oya ilgari surilgan?
10. Nomalardagi oshiq va ma'shuq obrazlarining ruhiy holatiga ta'rif bering.
11. Yusuf Amiriy “Dahnoma”sining o'zbek adabiyoti tarixidagi ahamiyati nimada ko'rinadi?

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. O'zbek mumtoz adabiyoti namunalari. II jild. (XIV–XV asrning boshlari). Tuzuvchi, izoh va sharhlar muallifi: filologiya fanlari doktori, professor Nasimxon Rahmon. –T.: Fan, 2007.
2. Rahmonov N. O'zbek adabiyoti tarixi. (Eng qadimgi davrlardan XY asrning birinchi yarmigacha). “Sano -standard” nashriyoti. 2017.
3. Vohidov R., Eshonqulov H. O'zbek mumtoz adabiyoti tarixi. – T.: O'zbekiston Respublikasi Yozuvchilar uyushmasi Adabiyot jamg'armasi nashriyoti, 2008.
4. N. Mallayev. O'zbek adabiyoti tarixi. – T.: “O'qituvchi” 1976.
5. Navoiy Alisher. Majolis un-nafois. MAT. XX jildlik. XIII jild. – T.: Fan, 1997.
6. O'zbek adabiyoti tarixi. V jildlik. I jild. –T.: Fan, 1977.
7. Hayitmetov A. Temuriylar davri o'zbek adabiyoti. –T.: Fan. 1996.
8. Muborak maktublar. G'.G'ulom nomidagi Adabiyot va san'at nashriyoti, – T.:1987.

YETTINCHI MAVZU:

SAYID AHMAD HAYOTI VA IJODIY

Reja:

1. Sayid Ahmad hayoti va ijodi
2. “Taashshuqnoma” asarining kompozitsion tuzilishi
3. Asarda oshiq, ma'shuq va raqib obrazlari

TAYANCH TUSHUNCHALAR:

- | | |
|-----------------------|----------|
| • “Taashshuqnoma” | •ma'shuq |
| • “Majolis un-nafois” | •visol |
| • noma | •hijron |
| • tajnis | •raqib |
| • oshiq | •g'azal |

Sayid Ahmad - XIV asrning oxiri XV asrning I yarmida yashab, ijod etgan iste'dodli shoirlardan birdir. Temuriy shahzodalardan Mironshohning o'g'li bo'lgan Sayid Ahmad boshqa shahzodalardan o'z iste'dodi bilan ajralib turgan. Uning badiiy ijod sohasidagi iste'dodiga Alisher Navoiy yuksak baho bergan: “Sayid Ahmad Mirzo

– salim tab’ va pok zehn kishi erdi. Xili mashhur nazmlari bor. Ham g’azal, ham masnaviy, ham turkiy, ham forsiy g’azal tavrda devoni bor. Va masnaviy tavrda “Latofatnoma” aningdur. Bu turkcha matlai yaxshi vaqe’ bo’lubturkim:

Sayd etti firoqing meni murg’i sahariydek,
Qil odamiyliq, qilma nihon yuzni paridek.

Bu forsiy matla’ ham aningdurkim:

Maham gar pesh az in pinhon bimonad,
Ajab, gar bedilonro jon bimonad”⁷⁵.

Hazrat Alisher Navoiy Sayid Ahmad ijodiga baho berib, “Ham g’azal, ham masnaviy, ham turkiy, ham forsiy g’azal tavrda devoni bor”⁷⁶ degan ta’kidi uning iste’dodli shoir, sohib devon ekanligini dalillaydi. Biroq adabiyotshunos olimlarning fikrlariga qaraganda, uning devoni bizgacha yetib kelgan emas. Sayid Ahmaddan bizga yagona asari “Taashshuqnoma” yetib kelgan. Mazkur asar Xorazmiyning “Muhabbatnoma” va Xo’jandiyning “Latofatnoma” asariga tababbu tarzida yozilgan. Mazkur asarda 10 ta noma keltirilgan. “Taashshuqnoma” tuzilishi va uning tarkibidagi maktublar soni yuqorida ta’kidlangan asarlarga o’xshaydi. Maktublar g’azal va boshqa lirik janrlar bilan qorishiq. “Taashshuqnoma”ning Xorazmiy va Xo’jandiy nomasidan farqi shundaki, uning dostonida har bir g’azal ma’lum bir maqom bilan bog’langan⁷⁷.

“Taashshuqnoma”dan ayrim parchalarni 1927-yilda mashhur olim A.N. Samoilovich nashr ettirgan. 1959-yilda chiqqan “O’zbek adabiyoti”ning birinchi jildida ham “Taashshuqnoma”dan ayrim parchalar keltirilgan.

“Taashshuqnoma” asarining transkripsiyasidagi matni izohlari va lug’ati bilan turkshunos olim A.Shcherbak tomonidan 1973-yilda nashrga tayyorlanib, “Sharq yozuvi yodnomalari” to’plamida chop etilgan. “Taashshuqnoma”ning M.Abduvohidova, H.Muxtorova, B.Qosimxonov, O.Jo’rayevlar tayyorlagan to’liq matni 1987-yilda “Muborak maktublar” kitobida nashr qilindi. “Taashshuqnoma”ning yagona nusxada Londondagi Britaniya muzeyida saqlanmoqda (O’zFA QI fondi, fotonusxa, inv.18).

⁷⁵ Navoiy Alisher. Majolis un-nafois. MAT. XX jildlik. XIII jild.– T.: Fan, 1997. 160- b.

⁷⁶ O’sha manba, 160-b.

⁷⁷ Mallayev N. O’zbek adabiyoti tarixi. (XVII asrgacha). –T.: O’qituvchi, 1963. 206-b.

“Taashshuqnoma” o‘ziga xos kompozitsion tuzilishga ega. Asar “Munojot”, “Madhi nabi alayhissalom”, “Kitob sababi”, “Podshohi islom madhi” va o‘nta noma hamda xotimadan iborat. Nomalar masnaviy shaklda qofiyalangan. Har bir nomadan keyin g‘azal keltirilgan. Beshinchi, yettinchi va to‘qqizinchi nomadan keyin kelgan g‘azallar yetti, qolganlari besh baytdan iborat. Sayid Ahmadning nomasi o‘ziga xos bo‘lib, “u asardagi har bir nomani qurilma jihatidan uch qismdan – noma, g‘azal, so‘zning xulosasi qismlaridan iborat qilib tuzdi va bu holat asardagi nomalarda izchil saqlanadi. Nomalardagi bu uch qism mazmunan bir-biri bilan chambarchas bog‘langan bo‘lib, bir butunlikni tashkil etadi”.⁷⁸

Nomalarda keltirilgan g‘azallar Sayid Ahmadning yuksak iste’dodidan darak beradi. Sayid Ahmadga qadar yaratilgan nomalar tarkibidagi g‘azallarda taxallus qo‘llash ba’zi o‘rinlardagina kuzatiladi. “Taashshuqnoma”dagi barcha g‘azallarda taxallus qo‘llangan. Nomalar tarkibidagi g‘azallarda *Sayid*, *Saydi Ahmad*, *Saydi Ahmadiy*, *Saydi* kabi taxalluslar uchraydi. Bundan tashqari, ikkinchi nomaning har bir baytida tajnisli so‘zlarni mahorat bilan qo‘llashi uning so‘z san’atini chuqur egallaganligidan dalolat beradi:

Nigoro, **oldi** ko‘nglum yuzung **oli**,
Qiladur qasdi jon ham ko‘zung **oli**...
Karashma qilmoq ichra **qil yarorsen**,
Nekim jonimga qilsang **qil, yarorsen**.
Aningkim ol yuzinda **xoli bo‘lg‘ay**,
Qachon fitna qilurdin **xoli bo‘lgay**⁷⁹.

Birinchi baytda “**ol**” so‘zi “**olmoq**”, “**qizil**” va “**firib, hiyla**” ma’nosida; ikkinchi baytda “**qil yarorsen**” - “ayyor”, “**qil, yarorsen**” – qil, yaramoq (fe’l); uchinchi baytda “**xoli bo‘lg‘ay**” - “yuzdagi xol” hamda “**bo‘shamoq**” ma’nolarida qo‘llangan.

“Taashshuqnoma” asarining qahramonlari oshiq va ma’shuq. Shoir ma’shuqani insoniylik, go‘zallik timsoli sifatida ta’riflaydi. Uning yuzi oydan ziyoda, ko‘zi hammani shaydo qiladi, qora zulfi ko‘ngilga g‘avg‘o soladi.

Ayo zebo sanamlar ko‘krakbo‘yi
Qamuq shohlar gadoyingning gadoyi.

⁷⁸ Jamolova M. O‘zbek adabiyotida noma janri. – T.: Fan, 1992. -33 b.

⁷⁹ O‘zbek adabiyotidan namunalar. II jild. (XIY — XY asrning boshlari) Tuzuvchi, izoh va sharhlar muallifi: filologiya fanlari doktori, professor Nasimxon Rahmon.T.: Fan, 2007. 173-b.

Latofat mukining sohib kamoli,
Topar nuqson yuzingdin shoh kamoli.⁸⁰

Ma'shuqa sarv bo'ylik, lola yuzlik, ko'zlari jayron. U husnu latofatda hur-u parilardan ham ustun. Shuning uchun unga hamma maftun. Hatto quyosh ham uning go'zalligi oldida "yaroqon". Muallif ma'shuqaning insonni maftun etuvchi sifatlarini mahorat bilan tasvirlaydi:

Quyosh yuzing ko'rub, ey mohi tobon,
Xijolat topdiku bo'ldi yaroqon.
Qachonki la'alingiz bolsa shakarxand,
Nabot irining qoshida su bo'lur qand.

Shoir bunday go'zallikning yaratuvchisi Alloh ekanligi ta'kidladi:

Yuzingdir ey pari, firdavsi a'lo
Seni zebo yaratgan Haq taolo.

Mumtoz ijodkorlar inson umrining g'animatligi, umrni xushchaqchaq o'tkazish, hayot go'zalliklaridan bahramand bo'lish g'oyasini o'z qahramonlari orqali targ'ib qilganlar. Ayniqsa, oshiq obrazida o'z orzu – intilishlarini badiiy ifodalaganlar. Hayot ziddiyatlarini oshiq va ma'shuq tazodi orqali berishga harakat qilganlar. Xuddi shunday holatni "Taashshuqnoma"da ham ko'rishimiz mumkin. Asarda ma'shuqa butun borlig'idan kechib unga ko'ngil qo'yan insonga iltifot qilmaydi, jafo o'tini yoqib, uni hijronda kutadi. Oshiq esa o'z ma'shuqasining bu "illat"lardan xolos bo'lishini istaydi, umrni xushnudlik bilan o'tkazishga da'vat qiladi.

Necha javr-u jafo qilgaysan, ey yor,
Bilursankim qulungdurkim vafodor.

Umuman olganda, Sayid Ahmad ma'shuqa obrazini o'z salafлари va zamondoshlari kabi hayotiy go'zallikning ramziy sifatida har tomonlama go'zal, jozibali va maftunkor qiyofada talqin etishga muvassar bo'lgan.

Sayid Ahmadning "Taashshuqnoma" asarida oshiqning ma'shuqaga yozgan maktublarida ma'shuqa obrazi bilan birga, shu go'zal ma'shuqaga ko'ngil bergan, uning husn-u jamolini ta'rif va tavsif etgan, uning visoliga yetishga intilgan, bevafo ma'shuqaning jabr-u jafosi tufayli hijron, alam – izzatlariga giriftor bo'lgan, ammo hayotda umidsizlikka tushmagan oshiq obrazi ham gavdalanadi.

⁸⁰ Muborak maktublar. G'.G'ulom nomidagi Adabiyot va san'at nashriyoti, – T.: 1987. 124-b.

Oshiq yigit go'zal ma'shuqani jon – dili bilan sevadi, unga qalban e'tiqod qo'yadi. Hayotining mazmuni deb ma'shuqani biladi, uning visoliga intiladi, yoridan iltifot kutadi.

Manga sensiz kerakmas tanda jonim,
Chu sansan munis-u jon-u jahonim.

Yoki:

Manga sensiz kerakmas bu tiriklik,
Kishi istarmu o'ziga hech yiriklik.
Ko'ngul mehringdin o'zgani yovutmas.
Yiroq bo'ldi debon sizni unutmas,
Tilarman tun-u kun subhi visoling,
Bihamdillohki, ko'zdadur xayoling.

Oshiq - vafo va sadoqat timsoli. Ma'shuqa uni hijronga tashlasa ham u ishqiga sodiq bo'lib qoladi, ko'ngilga o'zganing muhabbatini yaqinlashtirmaydi, ahdidan qaytmaydi. Oshiq har qancha sabr toqatli bo'lsa, ham ma'shuqadan ayriliq dardi uni ruhan eza boshlaydi. Uning qalbida shikoyat, hasrat – nadomat paydo qiladi. Yor jafosi zamona beqarorligi tufayli yuzaga kelgan qiyinchiliklar bilan qo'shilib uning g'amiga – g'am, alamiga – alam qo'shadi.

Firoqing zulmidin mazlum bo'ldum,
Yiroqlik dardidin ma'lum bo'ldum...
Visoling davlati bo'lmas muyassar,
Firoqning zulmidin, ey voy, ey voy.

Mumtoz she'ritda oshiq va ma'shuq obrazlari bilan birga raqib obraziga ham tez-tez murojaat qilingan. Nomanavislik tarixiga nazar solsak, raqib obrazi "Taashshuqnoma"dan boshqa nomalarda uchramaydi.

Ma'lumki, raqib oshiq va ma'shuq ishqiga rahna soluvchi shaxs. U ma'shuq bilan yaqin bo'lishga, u bilan do'st tutunishga harakat qiladi. Bu esa oshiqning qalbiga g'ulg'ula soladi. Raqib - yomon niyatli shaxs. Uning fitnalari tufayli oshiqning ma'shuqa oldidagi e'tibori pasayadi va nihoyat, ma'shuqa dargohidan quviladi.

Tabug'i chu yo'qdur e'tiborim,
Raqibing quvlagay nochor bizni.

Oshiq ma'shuqa visoliga yetishishga g'ov bo'lgan raqibning ig'volari dastidan faryod qiladi:

Firoqing zulmidin dod istaram, dod,

Raqibing dastidan faryod, faryod.

Yuqoridagilardan ko'rinadiki, muallif raqib obrazi orqali insonlarning totuv munosabatlariga rahna soluvchi, ularning samimiy aloqalarni buzuvchi kuchlar timsolini gavdalantirishga muyassar bo'lgan. Shuni aytish kerakki, raqib va uning xarakteri haqidagi fikrlar nomalarda emas, balki ularga ilova qilingan g'azallarda badiiy talqin qilingan.

Shunday qilib, Sayid Ahmad o'z asarida oshiq va ma'shuqa obrazlari talqinida o'z salaflarining va zamondosh so'z san'atkorlarining izidan boradi, ularning an'analari davom ettiradi. Ma'shuqani go'zallik, oshiqni vafo va sadoqat ramzi sifatida tasvirlaydi.

"Taashshuqnoma"da keltirilgan g'azallar Sayid Ahmad ni lirik shoir sifatida baholashga imkon beradi. Lirik qahramon – oshiq. Oshiqning ma'shuqaga muhabbati orqali hayotsevarlik g'oyalari targ'ib qilingan.

Birinchi nomadan keyin kelgan besh baytli g'azalda ma'shuqaning ta'rifi mubolag'ali tarzda tasvirlanadi. Yor shunchalik go'zalki, uning dardidan butun olam sarosar (telba) bo'ldi. So'zi shunchalik shirinki, nabot-u shakkar uning oldida xijolatda, tishi esa bahrdagi yoqut-u ahmarni uyaltiradi:

Sening dardingdin, ey sho'xi musavvar,
Qamuq, olam xarob o'ldi sarosar.

Nechakim jahd etar bechora oshiq,
Visoling davlati bo'lmas muyassar.

Dudog'ing olida, ey so'zi shirin,
Nabot-u qand-u shakkardur mukarrar.

Tishingdin munfaildur bahr ichinda,
Yangoqingdin xijil yoquti ahmar.

Shaho, davringda javr-u zulm-u bedod
Bo'lubtur Saydi Ahmadqa mukarrar⁸¹.

⁸¹ O'zbek adabiyotidan namunalar. II jild. (XIY — XY asrning boshlari) Tuzuvchi, izoh va sharhlar muallifi: filologiya fanlari doktori, professor Nasimxon Rahmon.T.: Fan, 2007. 163-b.

Ma'lumki, temuriylar hukmronligidagi haqsizlik, toj-u taxt uchun kurashlar ijod ahillari o'rtasida norizolik kayfiyatini keltirib chiqargan. Shu ma'noda ishqiy mavzudagi g'azallarda ijtimoiy-siyosiy masalalarga daxl qilingan baytlar ham ko'zga tashlanadi. Yuqoridagi g'azal maqta'sida shu holat kuzatiladi. Ma'shuqaning husn-u latofatini vasf qilgan shoir maqta'da shohga murojaat qilib, jabr – zulm kuchayganini, bularning barchasi qayta va qayta (mukarrar) lirik qahramon (Sayid Ahmad)ga bo'layotganligidan shikoyat qiladi.

Nomadagi boshqa g'azallarda ham ma'shuqa ta'rifi, oshiq holati mubolag'ali tasvirlarda badiiy aks ettiriladi. Shoir nomadagi g'azallarni turli badiiy sana'tlar bilan bezaydi. Jumladan, uchinchi g'azalda mubolag'aning ig'roq turidan mahorat bilan foydalanadi. Ig'roq - aqlan, ya'ni tasavvurda mumkin, ammo amalda mumkin bo'lmagan mubolag'a turi.

Agar oh ursam ohim shu'lasindin,
Ezilgay Kof, erigay ko'hi Haybar.

Hayotiy qarashlari zaminida tug'ilgan xulosalarini tazod vositasida beradi:

Ayo Saydi, chu xo'blar *bevafodur*,
Alardin istama mehri *vafosen*.

Nomadagi oltinchi g'azalda esa takrir sana'ti ohangdorlikni ta'minlash bilan birga, har bir baytdagi g'oyaning ta'kidi uchun xizmat qilgan:

Inoyat chog'idur *ey yor, ey yor*,
Ki ko'p qildi jafo *ag'yor, ag'yor*.

Yoquqsuz to'kmagil qonimni oxir,
Bilursenkim aymas *xunxor, xunxor*.

Bo'lur o'z xijlatidin hayrat olib,
Ko'rub xusnungni dar *gulzor, gulzor*.

Bo'lur mushkin nafasning hasratidin,
Qachon bo'lgusi har *attor, attor*.

Ayo Saydi, sanamlar mashrabindin

Tam'a tutma vafo *zinhor, zinhor*⁸².

Xulosa qilib aytganda, "Taashshuqnoma" o'zbek adabiyoti tarixida noma janrining rivojida alohida o'ringa ega. XV asr o'zbek adabiy tilini o'rganishda muhim ahamiyatga ega.

XIV asr oxiri va XV asr boshlari turkiy adabiyotning tarixiy taraqqiyotida alohida o'ringa ega bo'ldi. Bu davrda adabiy tur va janrlar ko'lamini kengaytdi. Badiiy ijodda nazm ustuvorligi kuzatildi. G'azal janrining mavzu doirasi kengaytdi. Mazkur janrda majoziy, ilohiy ishq mavzusi bilan birga ijtimoiy – siyosiy mavzular qamrab olindi. Bu davr g'azalchilikda turkona ohang va uslub yetakchilik qildi. Aruzning mustamal bahrlari – hazaj va ramal keng istifoda etildi. Turkiy she'riyatning ixtirosi hisoblangan tuyuq janriga murojaat mumtoz janrlar ko'lamining taraqqiy qilganligidan dalolat beradi.

Fors-tojik adabiyotida Faxriddin Gurgoniy (11-a.), Avhadiy (1274 -1338), Xoja Imod Kirmoniy (XV)lar noma janriga asos solgan bo'lsa, turkiy adabiyotda bu janrning taraqqiyotida Xorazmiyning "Muhabbatnoma", Xo'jandiyning "Latofatnoma", Sayid Ahmadning "Taashshuqnoma", Yusuf Amiriyning "Dahnoma" asarlarida shu davr adabiyotining rivojida alohida qimmatga ega. Nomalar tarkibida turli janrlarga oid lirik asarlarning kiritilishi XIV asr oxiri va XV asr boshlari mumtoz she'riyatning rivoj topganidan dalolat beradi. She'riyatning shakllanishida xalq og'zaki ijodi asosiy manba sifatida xizmat qildi. Folklordagi o'lmas mavzular, obraz, motivlar, quyma iboralar, maqol-u matallar bu davr she'riyatining xalqchilligi va badiiyatini ta'minlashga xizmat qildi.

Mavzuni mustahkamlash uchun savol va topshiriqlar:

1. Sayid Ahmad qachon va qayerda tavallud topgan?
2. Alisher Navoiyning "Majolis un-nafois" asarida shoirga qanday ta'rif berilgan?
3. "Taashshuqnoma" asari boshqa nomalardan qaysi jihatlari bilan farqlanadi?
4. "Taashshuqnoma" asarining tuzilishi haqida nimalarni bilasiz?

⁸² O'zbek adabiyotidan namunalar. II jild. (XIY — XY asrning boshlari) Tuzuvchi, izoh va sharhlar muallifi: filologiya fanlari doktori, professor Nasimxon Rahmon.T.: Fan, 2007. 173-b.

5. “Taashshuqnoma” tarkibidagi gʻazallarda qanday mavzu yetakchilik qiladi?
6. “Taashshuqnoma”da shoirning tajnisdan foydalanishdagi mahoratini misollar bilan koʻrsatib bering.
7. “Taashshuqnoma”da ijtimoiy-siyosiy masalalarga daxl qilingan oʻrinlar mavjudmi?
8. Sayid Ahmad nomasida oshiq va maʼshuq obrazlarini boshqa nomalardagi shu tipdagi obrazlar bilan solishtiring. Oʻziga xos jihatlarini aniqlashga harakat qiling

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Valixojayev B. Oʻzbek epik poeziyasi tarixidan. Fan, – T.: 1974.
2. Vohidov R., Eshonqulov H. Oʻzbek mumtoz adabiyoti tarixi. Oʻzbekiston Yozuvchilar uyushmasi Adabiyot jamgʻarmasi nashriyoti. – T.: 2006
3. Rahmonov N. Oʻzbek adabiyoti tarixi. (Eng qadimgi davrlardan XY asrning birinchi yarmigacha). “Sano -standard” nashriyoti. 2017.
4. Jamolova M. Oʻzbek adabiyotida noma janri. – T.: Fan, 1992 .
5. Navoiyning nigohi tushgan. Gʻ.Gʻulom nomidagi Adabiyot va sanʼat, – T.: 1986.
6. Rasulov H. XIV–XV asrdagi sheʼriy nomalar. // Adabiy meros – T.: 1976. 6-son.
7. Muborak maktublar. Gʻ.Gʻulom nomidagi ASN. – T.: 1987.
8. Rahmonov N. Oʻzbek mumtoz adabiyoti namunalari. II jild (XIV–XV asrning boshlari). Fan, – T.: 2007.

SAKKIZINCHI MAVZU:

DURBEK VA UNING “YUSUF VA ZULAYXO” DOSTONI

Reja:

1. Durbek hayoti va ijodining adabiyoshunoslikda oʻrganilishi.
2. “Yusuf va Zulayxo” dostonining yaratilish tarixi.
3. Dostondagi obrazlar tahlili.
4. Doston badiiyati.

TAYANCH TUSHUNCHALAR:

- | | |
|-----------|----------------|
| • Yusuf | • ishq |
| • Zulayxo | • Balx |
| • qissa | • munojot |
| • Qur'on | • tush |
| • Yaqub | • Misr |
| • Yusuf | • Moliki Tojir |
| • Zulayxo | • Misr Azizi |

Durbek turkiy adabiyotning yirik vakillaridan biri. Uning hayoti va ijoiy merosi haqida to'liq ma'lumot saqlanib qolmagan. U taxminan XIV asrning oxiri XV asrning boshlarida yashab ijod qilgan. Uning yagona "Yusuf va Zulayxo" dostoni bizgacha yetib kelgan. Birgina mana shu doston uning yetuk ijodkor bo'lganligidan darak beradi. "Yusuf va Zulayxo" dostonidan ilk parchalarni Fitrat 1928-yilda o'zining "O'zbek adabiyoti namunalari" nomli xrestomatiyasida nashr qildirgan.

"Yusuf va Zulayxo" dostoni muallifi xususida olimlarimiz o'rtasida munozaralarga sabab bo'luvchi turli xil fikrlar – mulohazalar o'rtaga tashlandi. Munozaralarda doston muallifi Durbek emas, balki Ulug'bek, Homidiy Balxiy ekanligi bilan bog'liq fikrlar bildirilgan.

Tilshunos olim J. Lapasov 1971-yilda "Yusuf va Zulayxo" dostonining morfologiyasi" ustida nomzodlik dissertatsiyasini amalga oshirdi. Olim dostonning til xususiyatlarini tadqiq qilar ekan, asarning tili va badiiy xususiyatlari Alisher Navoiy asarlari uslubiga o'xshashligini ta'kidlaydi va asarning muallifi Durbek ekanligiga shubha bilan qaraydi.

Alisher Navoiy ijodining tadqiqotchilaridan biri E.Shodiyev ilmiy va adabiy manbalarda Durbekniki deb kelinayotgan "Yusuf va Zulayxo" dostonining muallifi masalasida yozgan maqolasida "Shu choqqacha Durbekka nisbat berilib kelayotgan "Yusuf va Zulayxo" dostonining muallifi ko'pchilik adabiyotshunoslarimizning bahs-u munozaralariga sabab bo'lmoqda. Ba'zilar Durbek – Mirzo Ulug'bekning adabiy taxallusi desa, boshqa birlari "Yusuf va Zulayxo" dostonini Homidiy Balxiy, gohida Sayfiy, goh Ahmadiy qalamiga mansub, deb ko'rsatishmoqda. Afsuski, bu fikrlar ishonchli emas", –

deb yozadi hamda O'zbekiston Fanlar akademiyasining Sharqshunoslik institutida "Yusuf va Zulayxo" dostonining eng mukammal nusxalaridan biri deb qaraladigan qo'lyozmada "Durbek" taxallusi biror marta ham qayd etilmaganligi to'g'risidagi ma'lumot, shuningdek, ushbu qo'lyozmada keltirilgan bir ta'rixda asarning yozilgan vaqti 1469-70-yillar deb chiqishini hisobga olgan holda, bu doston Alisher Navoiy qalamiga mansub bo'lishi kerak, degan taxminni ilgari surgan edi.⁸³

"Yusuf va Zulayxo"ning muallifi xususidagi bahsga kirishgan akademik B. Valixojayev samarqandlik Abduhamid Po'lodiy degan kishining uy kutubxonasida saqlanib kelayotgan "Yusuf va Zulayxo" dostoni qo'lyozmasidagi "Ayladi bu nusxani Durbek nazm" degan jumlagi asoslangan holda mazkur asarning muallifi Durbekdir, degan xulosaga keladi.

1974-yilda "O'zbek tili va adabiyoti" jurnalining 1-sonida E. Fozilov hamda J. Lapasovlarning "Yusuf va Zulayxo" dostoni haqida" nomli maqolasi e'lon qilinadi. Mazkur maqolada mualliflar dostonning nisbatan qadimiy nusxalarida "Durbek" ismi uchramasligi, ayrim nusxalarda, masalan, Turkiya nusxasidagi Balx qamali bilan bog'liq lavhada Husayn Boyqaro madhi berilganligi, asarning yozilish ta'rixi bilan aloqador baytlardagi chalkashliklar ana shunday munozaraning yuzaga kelishiga sabab bo'lganligini ta'kidlab o'tadilar.⁸⁴ Munozaraga munosabat bildirgan olim Fozila Sulaymonova "Yusuf va Zulayxo" dostonining Parij qo'lyozmasi Alisher Navoiyga nisbat berilishi xatoligini ilmiy dalillaydi va asar 1409-yilda Durbek tomonidan yozilganligini ta'kidlaydi.⁸⁵

Bunday munozarali fikrlar o'zbek adabiyotining yirik vakillari, adabiyotshunos olimlar E. Y. Bertels, H. Zaripov, P. Shamsiyev, Oybek, M. Shayxzoda, G'. Karimov, A. Haytmetov, N. Mallayev kabi olimlar tomonidan asosli ravishda rad qilinadi va asarning muallif Durbek ekanligi ta'kidlandi.

Dostonning bir nechta qo'lyozma nusxalari yetib kelgan. Jumladan, Toshkentda saqlanayotgan beshta, Samarqanddagi ikkita

⁸³ Bu haqda qarang: Babadjanova Nazokat. Durbekning «Yusuf va Zulayxo» asarini kim yozgan? <https://zenodo.org/records/6793032>

⁸⁴ Fozilov E., Lapasov J. "Yusuf-u Zulayxo" dostoni haqida // O'zbek tili va adabiyoti. 197. №1, 24-28-betlar.

⁸⁵ Sulaymonova F. "Yusuf va Zulayxo" dostonining Alisher Navoiyga nisbat berilgan Parij qo'lyozmasi haqida. Adabiy meros, 1973-y. №3. 152-157-betlar.

hamda 1516-yilda (hijriy 922) ko'chirilgan Istambuldagi To'pqopi saroyi kutubxonasida mavjud bo'lgan Hirot nusxasi va 1563-yilda (hijriy 971) ko'chirilgan Parij Milliy kutubxonasida saqlanayotgan nusxalari ma'lum.

Sharq xalqlari orasida mashhur va keng tarqalgan ishq qissalaridan biri "Yusuf va Zulayxo"dir. Mazkur qissaning asosiy manbasi ilohiy kitoblardir. Mazkur qissa haqida Tavrot, Injil va Qur'oni karimda ma'lumot keltirilgan. Diniy manbalardagi mazkur go'zal qissa asosida Abulqosim Firdavsiyning "Yusuf va Zulayxo" dostoni, Abu Ali ibn Sinoning "Yusuf qissasi", Qul Alining "Qisai Yusuf", Shayyod Hamzaning "Yusuf va Zulayxo", Rabg'uziyning "Qissai Yusuf Siddiq alayhis-salom" kabi qissalari yaratilgan. Durbek "Yusuf va Zulayxo"si ham shu asarlar sirasiga kiradi.

Qur'oni karimdagi go'zal qissa deb ta'riflangan "Yusuf va Zulayxo"ga qizishning balandligi tufayli bo'lsa kerak, Abdurahmon Jomiyning shu nomdagi dostoni XIX asrda Ogahiy tomonidan o'zbek tiliga tarjima qilingan. Bundan tashqari, Hamza Hakimzoda Niyoziyning "Qiroat" kitobida qissaning bolalarbop bayoni berilgan.

Qur'oni karimda aytilishicha, Yusuf go'zallik va yuksak fazilat sohibi. Uning o'n ikki ukasi orasida alohida o'rni bor va otasi Yoqub uni juda yaxshi ko'radi. Ammo akalari hasad qilib, Yusufni quduqqa tashlab, keyin karvon bilan Misrga jo'nataдилar.

Misrda Zulayxo ismli go'zal ayol Yusufni sevib qoladi. Zulayxo Yusufga bo'lgan ishtiyoqini izhor qiladi, lekin Yusuf bu holatdan qochadi va Allohdan panoh tilaydi. Yusuf Xudoga va uning pokligiga sodiq qolgan holda Zulayxoning vasvasali takliflarini rad etadi. Zulayxo sevgisini rad etganidan keyin Yusuf zindonga tashlanadi. Bu voqea orqali muallif Zulayxoning unga bo'lgan his-tuyg'ularini, Yusufning esa hisr va nafs qutqulardan xoli shaxs ekanligini ta'kidlaydi.

Yusuf Zulayxo tomonidan soxta ayblovgacha uchragach, u zindonga tushadi. U yerda o'zining donoligi va qobiliyatlarini namoyon qiladi, natijada zindondan ozod bo'ladi va buyuk martaga erishadi. Doston so'ngida Yusuf og'a-inilari bilan topishadi. Og'alari unga qanchalik jabr qilgan bo'lmasin, u kechiradi.

"Yusuf va Zulayxo" qissasida vafo, iffat, sabr-toqat, Allohga tavakkul kabi g'oyalar ilgari surilgan. Shuningdek, qissada

sinovlarga qanday sabr qilish kerakligi haqida muhim saboq beradi. Shuning uchun bu qissaga Sharq xalqlari adabiyotida ko'p murojaat qilingan.

Doston 1409-yilda Balx qamali davrida yozilgan bo'lib, an'anaviy boblar bilan boshlanadi.

Dostonning qisqacha tafsiloti quyidagicha: Muallif muqaddimada Balx qamali xususida yozar ekan, shaharning do'zaxga aylanganini ta'kidlaydi. Bu qamal uch oy davom etadi. "Ummul bilod" bo'lgan shahar do'zaxga aylanadi.

Qal'ayi Balx o'ldi chu darvozaband,
Poyayi zulm o'ldi bag'oyat baland...
Shahr chu do'zax kibi zindon edi,
Tashqari chun ravzayi rizvon edi...
Goh o'qur erdim zi kalomi iloh,
Goh kutub ichra qilur erdim nigoh.
Goh boqar erdim zi kitobi qisas
Goh ichar erdim zi sharobi g'usas.
Lek qisas ichra vale mayli jon,
Qissayi Yusufda edi ul zamon...
Nasr edi, bu qissa dag'i porsi,
Erdi anga jon ko'zi nazzorasi.
Bor edi ko'ngulda burundin bu azm,
Turki tili birlamu qilsam bu nazm.⁸⁶

An'anaviy bobda muallif asarning yozilish sabablarini bayon qiladi. Turkiy tilda Yusuf va Zulayxo qissasini yozishni istagan shoir maqsadini shunday bayon qiladi:

Qo'yma talab ustida ta'bingni sust,
Ayla bu azmingni tamomi durust.
Qissai Yusufni tamom ayla nazm,
Turki tili birla qilib azmu jazm.⁸⁷

Dostonning ilk fasli "*Yusuf va Zulayxo*" kitobining ibtidosi" deb nomlangan. Faslda Yusuf Yaqub payg'ambarning o'n o'g'lidan biri ekanligi, uni "nabuvvat guli", "husnda osmondagi "mohi badr", "insu malak iziga hayron", "boshdin oyoq ilohning lutfi" ekanligini ta'kidlanadi.

⁸⁶ Uch bulbul gulshani. -T.:Adabiyot va san'at nashriyoti, 1986. 7-b.

⁸⁷ Yuqoridagi manba, 11-b.

Yusuf edi o'rtada chun sham'i jam,
O'zgasi parvona-u ul erdi sham.
O'zgalari kavkabu ul moh edi,
O'zgalari xodimu ul shoh edi.
O'zgalari zarrau ul oftob,
Borcha sadaf, ul edi durri hushob.
O'zgalari jism-u o'shal jon edi,
Insu malak iziga hayron edi.⁸⁸

Ana shunday ilohiy go'zallik sohibi bo'lgan Yusufni otasi bir daqiqa ham yonidan uzoqlashtirmas edi. Biroq akalari qalbidagi hasad bir lahza ham so'nmaydi. Dostonning "*Yusuf og'olari yomon sog'ing'onlari*" faslida akalar qalbidagi hasadning olovlangani quyidagicha bayon qilinadi.

Yusuf alayhissalom tush ko'radi:
Sham-u qamar bori bu o'n bir nujum
Yer yuziga tushdiyu, qildi hujum.
Borcha kelib olina qildi sujud,
Qa't qilib masnadi charxi kabud.
Seskanib uyg'ondi bu tush vahimidin
Rangi tag'ayyur bo'lib o'z-o'zidin⁸⁹

Bu tushni eshitgan otasi:

Qildi otasig'a bu tushdin xabar,
Dedi otasi: "halo joni padar,
Tengri berur senga tumon izzu noz,
Dema bu tushung kishiga, saqla roz.
Dema og'olaring hasadi beadam.
Davlatu izzat tushidi ushbu tush,
Tenri aroldin senga bergan ulush
Kelgu bu tushdin senga jonu jahon,
Mehnatu g'am dedi kelur har zamon."⁹⁰

Tushning buyuk bir bashorat ekanligini anglagan ota, bu tushni hech kimga, ayniqsa, akalariga aytmaslikni ta'kidlaydi. Biroq bu tush haqida Yusuf akalariga aytib beradi. Akalar qalbidagi hasad o'ti kuchaya boradi. Otalaridan ukalari Yusuf bilan sayrga chiqishni

⁸⁸ Yuqoridagi manba, 10-6.

⁸⁹ Yusuf va Zulayxo. Kitobda: Uch bulbul gulshani. -T.: Adabiyot va san'at nashriyoti, 1986. 11-b.

⁹⁰ Yuqoridagi manba, 11-b.

iltimos qilib so'raydilar. Ota noiloj rozi bo'ladi. Sayrga olib chiqqan og'alar Yusufga ko'p ozor beradilar va bo'yniga pichoq tortadilar:

Bir og'osi qo'pti, suturdi pichoq,
Keldi aning ko'ksina qo'ydi ayoq.
Kim boshini qilsa tanidan juda,
Yusuf edi hamdami yodi xudo
Yusuf mehnatzadai notavon,
Kuldi og'osiga boqib ul zamon.
Dedi og'osiki: - Ne kulmak turur?
Sanga bu hasrat ila o'lmak turur.
Dedi: - Ko'runur menga sun'i iloh
Sizni dedim o'zuma pushtu panoh.
Tengrini unutib o'shal lahza pok,
Ushbu gunoh uzra bo'lurman halo.⁹¹

Yusufni o'ldirish fikridan qaytgan akalari uni chohga tashlashga qaror qilishadi. Shaddodi Od degan choh bor edi. Uni ilonlar o'ziga vatan qilgan. Akalari Yusufni qo'llarini bog'lab, chohga tashlashadi.

Yusuf chohda Allohga munojot qiladi. Uning munojoti Allohga yetib boradi. Alloh uning huzuriga farishta Jabroilni yuboradi. Jabroil orqali u taomlantiriladi va shunday deydi:

Dediki: - Tengri senga aydi salom,
Seni qilur xalqi jahong'a imom.
Bir necha kun cheksang agar ranj-u choh,
Seni qilur Misr elina podshoh.

Yusufni chohga tashlagan akalari uning ko'ylagini o'g'loqning qoni bilan bo'yab, dod – faryod qilib, uyg'a qaytdilar. Bunday fig'ondan hayron bo'lgan ota sababini so'raydi. Akalar Yusufni gurg sagi (bo'ri) yeganligi aytadi. Ota fig'on tortadi. Tong otdi... Ota qon bo'lgan ko'ylakni ochib ko'rdi va shunday dedi:

Butun edi pirahani sar – basar,
Zarra jarohatdin anga yo'q asar
Qildi tabassum, dedi xush mehribon,
Bo'ri emasdur, dedi, tuzdi fig'on.
Yemish esa yozida Yusufni pok,
Pirahani bo'lur edi chok-choq.⁹²

⁹¹ Yuqoridagi manba, 16-b.

Otalarini ishontirmoqchi bo'lgan akalar, bo'rini olib kelishlarini aytishadi. Olib kelingan bo'ri tilga kirib, Yusufni yemagani aytadi:

Men yemadim Yusufi siddiqni,
Senga de olman dog'i tahqiqni
Meni bu o'g'lonlaring ushbu zamon
Tuttilar-u qildilar og'zimni qon.
Ushbu jamoat bori osiy erur,
Yusufunga borchasi joni erur

Quduqqa tashlangan Yusufni esa Misrlik Molik ismli savdogar tortib oladi. Quduq yoniga kelgan akalar turli tuhmatlar bilan Yusufni ayblab, savdogarga uni 20 dirhamga Moliki Tojir sotib yuboradilar.

Yusuf haqidagi badiiy asarlarda mavjud eng ta'sirchan va hayajonli lavhalardan biri Yusufning onasi qabri ustidagi holati tasviridir.

Yusuf onasining qabriga bosh qo'yib, ahvolni bayon qiladi. Onaning qabridan ovoz keladi:

Senga chu meros erur bu alam,
Tengriga sig'in, yemagin o'zga g'am.
Tengri berur jamla muroding tamom,
Shohsen, o'g'lim, seni kim der g'ulom.

Shundan so'ng Yusuf o'zga dinga mansub bo'lgan xalqlar mamlakatiga kirib boradi. Bu o'lkaning hokimi bilan suhbat quradi. Yusufning husniga o'lka hokimi ham, barcha xalq ham mahliyo bo'lib qoladilar. Yusuf o'z husni hamda aql-zakovati bilan ularni maftun etadi. U o'lka hukmdorini adolatli, xalqni hamjihat bo'lishiga da'vat etib nasihatlar qiladi va yo'lga ravona bo'ladi.

Dostonning shu o'rnida Zulayxo bilan bog'liq tafsilotlar davom etadi.

Mag'ribda doimo zafar yo'ldoshi bo'lgan shoh Taymusning qizi Zulayxo tushida Yusufni ko'rib, unga g'oyibona oshiq bo'ladi. Zulayxo uyg'ongach, o'zini yangi bir olamga kirib qolgandek his etadi. U ishqning asirasiga aylangan edi. Zulayxo xayolini tushida ko'rgan yigit egallagan edi. Dostonda uning holati shunday tasvirlanadi:

Erdi aning og'zida Yusuf oti,
O'rtadi boshdin - oyog'i ishq o'ti.

⁹² Yuqoridagi manba, 22-6er.

Dardi kundan-kun alangalanadi. Tushida Yusufning “Misr elida shahriyor” ekanligini bilgach, Misrga borishga ahd qildi, ota-onasi uni Misr Aziziga uzatishadi. Biroq Zulayxoning tushida aytilgan soʻzlar kelajak haqidagi bashorat edi. U Misr Aziziga turmushga chiqqan boʻlsa-da, Yusuf ishq bilan yashaydi. Zulaho Misrga qarab yoʻlga tushadi. Uning Yusufga boʻlgan muhabbatining harorati bir daqiqa ham soʻnmagan edi.

Moliki Tojir Yusufni Misr Aziziga uning boʻyidan ham baland keladigan “yoqut ila duru guhar” evaziga sotadi. Shu bois, taqdir taqozosi bilan Yusuf ham Misrga kelib qoladi. Yusufni sotib olgan Misr Azizi uni jufti haloliga qul sifatida emas, balki farzanddek koʻrishi soʻraydi. Zulayxo ilk marta Yusufni Misrdagi koʻshk ustida koʻradi. Uning Yusufga boʻlgan ishq yana olovlanadi. Biroq enagalarining pand-u nasihatlarini, sabrga undovchi oʻgitlariga tan berishdan oʻzga chora topa olmaydi.

Yusufga boʻlgan munosabati oshkor boʻlib, ayollarning malomatlariga qoladi. Yusufga tuhmat qilishga majbur boʻladi. Qiyinchiliklarni sabr bilan yengadi va oxir-oqibat Yusufga turmushga chiqadi. Yusuf va Zulayxo Mishom va Farohim ismli oʻgʻil va Rohima ismli qiz farzandlar koʻradi.

Asarda ramziylik xususiyati kuchli. Undagi alohida epizodlar ilohiy maʼrifat ifodasi sifatida ham namoyon boʻladi. Jumladan, taqdiri ilohiyning barhaq ekanligi, Tangri suygan bandalarini azobda sinashi haqidagi va boshqa bir qator aqidalar oʻzining goʻzal, taʼsirli va eng muhimi hayotiy ifodasini topgan. Yusuf zindonga tushgach, Zulayxo zindonbondan uni kaltaklashni soʻraydi va oʻzi eshik oldiga borib uning ovozi eshitish bilan sogʻinchi, ishqiga taskin beradi. Zero, Zulayxo ozodlikda boʻlsa-da Yusufdan oʻn chandon ortiq azoblanayotgan edi.

Yusuf akalarining nodonligi, xiyonati, vahshiylikni kechiradi. Chunki u qavmini qahatchilikda qirilib ketishdan saqlab qolishi uchun uning Misrga borishi shart edi. Demak, uning Misrga sotilishi ilohiy taqdir. Asarning boshida koʻrilgan tush ijobati bilan yakun topishi ham ramziylikning oʻziga xos namunasi.

Asarda bir qator ikkinchi darajali va epizodik obrazlar ham mavjud boʻlib, ular ham doston badiiyatida munosib oʻringa ega. Boʻrilar sardori, Yusufning onasi (qabri ustida Yusuf onasining ruhi

bilan so'zlashadi) kabi to'qima timsollar shular jumlasidan bo'lib, an'anaviy syujetning badiiy takomili, ta'sirchanligini oshirishga xizmat qilgan. Dostonning yetakchi qahramonlari Hazrati Ya'qub, Yusuf va Zulayxolar hisoblanadi. Shu bilan birga asar tarkibida to'qsonga yaqin nomlar uchraydiki, ular ham dostondagi muayyan g'oya va maqsadni ravshan ko'rsatishda hissa qo'shgan. Dostondagi bu timsollarning voqealar rivojida o'zni birday emas, albatta. Ulardan ayrimlari voqealar rivojida bir necha marta tilga olinsa; ba'zilari muayyan lavhalardagina ishtirok etishadi. Shunday bo'lishiga qaramay, ularni nazardan chetda qoldirish also mumkin emas. Chunki o'sha nazarga ilinmaydigan qahramonlarsiz ham asarning yaxlitligini tasavvur qilish qiyin. Shu qahramonlar tufayli Ya'qub, Yusuf, Zulayxo va boshqa faol timsollar sarguzashti, qiyofasi, ruhiy – ma'naviy olami, fe'l-u atvori, tabiati mukammallik kasb etadi.

“Yusuf va Zulayxo”da xalq og'zaki ijodining kuchli ta'siri seziladi. Tush ko'rish, tushni ta'birlash, behad go'zallik, hayvonlarning gapirishi, bir zarb bilan toshni ko'tarib otish, yig'laganda giyohlarning unishi, yig'lay-yig'lay ko'zning ko'r bo'lishi, farzandining ko'ylagini ko'ziga surtishi bilan ko'r ko'zning ochilishi kabi tasvirlar folklorning ta'siri natijasidir.

Durbekning “Yusuf va Zulayxo” dostoni tahlili asosida shunday xulosa kelish mumkin:

- “Yusuf va Zulayxo” o'zbek mumtoz dostonchiligi taraqqiyotiga alohida o'ringa ega. Asar diniy manbalardagi rivoyat asosida yaratilgan bo'lib, Sharq adabiyotida diniy qissadan badiiy syujet darajasiga ko'taril;

- Mazkur syujetning turkiy xalqlar orasida shuhrat qozonishi, xalq kitoblari, qissalarining yuzaga kelishida turtki bo'ldi;

- Dostonda o'z ifodasini topgan diniy, milliy va umuminsoniy axloqiy qadriyatlar barcha davrlar uchun tarbiya vositasi bo'la oladi.

Xulosa qilib aytganda, Durbek doston davomida badiiy asarning shakl va mazmun butunligiga alohida e'tibor beradi. Doston tarkibida *rivoyat, hadis, she'r, bayt, g'azal, oyat va tush* namunalarini berib, uning o'qishlilikini, kitobxonga katta zavq berish orqali o'zining insonsevarlik ruhidagi qarashlarini ta'sirchan yetkazishga muvaffaq bo'lgan.

Mavzuni mustahkamlash uchun savol va topshiriqlar:

1. “Yusuf va Zulayxo” dostonning o‘rganilishi doir qanday tadqiqotlar yaratilgan?
2. “Yusuf va Zulayxo”ning muallifi masalasiga doir munozalarga munosabat bildiring.
3. “Yusuf va Zulayxo” dostonning diniy manbalari haqida nimalarni bilasiz?
4. Dostonda qaysi davr voqealarini aks ettirish bilan boshlanadi?
5. Dostonda Yusuf obrazi orqali qanday g‘oyalar ilgari surilgan?
6. Yusuf va uning aka-ukalariga munosabatiga e’tibor qarating. Ularning munosabati orqali qanday axloqiy g‘oyalar targ‘ib qilingan?
7. Zulayxonning ishqqa munosabati dostonning qaysi o‘rinlarida bo‘rtib ko‘ringan?
8. Dostonda tush motivi qanday vazifani bajargan?
9. “Yusuf va Zulayxo”dostonida qanday badiiy tasviriy vositalar qo‘llangan?
10. “Yusuf va Zulayxo”ning turkiy dostonchilikdagi ahamiyatiga baho bering.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. 1.Rahmonov N. O‘zbek adabiyoti tarixi. (Eng qadimgi davrlardan XV asrning birinchi yarmigacha) – Toshkent: “Sano-standart” nashriyoti, 2017.
2. O‘zbek mumtoz adabiyoti namunalari. II jild. (XIV–XV asrning boshlari). Tuzuvchi, izoh va sharhlar muallifi: filologiya fanlari doktori, professor Nasimxon Rahmon. –T.: Fan, 2007.
3. Vohidov R., Eshonqulov H. O‘zbek mumtoz adabiyoti tarixi. – T.: O‘zbekiston Respublikasi Yozuvchilar uyushmasi Adabiyot jamg‘armasi nashriyoti, 2008.
4. Uch bulbul gulshani. O‘zbek she’riyati bo‘stoni. G‘. G‘ulom nomidagi ASN, –T.: 1986.
5. Qurbonov Abdulhamid. “Yusuf va Zulayxo” qissasining ijodiy talqinlar // O‘zbek tili va adabiyoti, 1997. №1, 47-50-betlar.
6. Rasulov.X. Durbekning “Yusuf va Zulayxo” dostonida folklor an‘analari va novatorlik. Adabiy meros, 1974. №9, 15-22-betlar.

7. Sulaymonova F. "Yusuf va Zulayxo" dostonining Alisher Navoiyga nisbat berilgan Parij qo'lyozmasi haqida. Adabiy meros, 1973. №3. 152-157-betlar.
8. Fozilov E., Lapasov J. "Yusufu Zulayxo" dostoni haqida // O'zbek tili va adabiyoti. 1974. №1, 24-28-betlar.
9. Haydarov S. Durbek ijodini o'rganish tarixidan // O'zbek tili va adabiyoti masalalari. 1961. №5, 50-52-betlar.
10. Hasanov N. "Qisasi Rabg'uziy"da Yusuf payg'ambar obrazi talqini // O'zbek tili va adabiyoti, 1996-y. 193-bet.
11. Shodiyev E. "Yusuf va Zulayxoni kim yozgan?" // Sharq yulduzi, 1990. №7, 151-154-betlar.
12. Qobilov U. O'zbek adabiyotida "Yusufnoma" mavzusi: qiyosiy- badiiy tahlil. "Sharq yulduzi" jurnali, 2015. 5-son.

TO'QQIZINCHI MAVZU:

HAYDAR XORAZMIY HAYOTI VA IJODI

Reja:

1. Haydar Xorazmiyning hayoti va ijodi.
2. "Gulshan ul - asror" dostonining kompozitsion tuzilishi va mundarijasi.
3. "Gul va Navro'z" dostonida ishq mavzusining badiiy ifodasi

TAYAN TUSHUNCHALAR:

- | | |
|------------------------|--------------------|
| • "Maxzan ul-asror" | • falsafiy-axloqiy |
| • "Gulshan ul - asror" | • so'z ta'rifi |
| • Sulton Iskandar | • oqil |
| • adabiy an'ana | • orif |
| • "Xamsa" | • hikoyat |
| • xamsanavislik | • Hotam Toy |
| • ijtimoiy-siyosiy | |

Haydar Xorazmiy XIV asrning oxiri XV asrning boshlarida yashab ijod etgan turkiyo'g' shoir. U haqida juda oz ma'lumotlar yetib kelgan. Alisher Navoiyning "Muhokamat-ul-lug'atayn" asarida turkiy tilda ijod qilgan ijodkorlar qatorida Haydar Xorazmiy nomini sanab o'tilgan: *"Shohruh sulton zamonining oxirigacha turk tili bilan shuaro*

paydo bo'ldilar. Va ul hazratning avlod va ahfodidin ham xushtab' salotirie zuhurg'a keldi; shuaro Sakkokiy va Haydar Xorazmiy va Atoyi va Muqimiy va Yaqiniy va Amiriy va Gadoiydeklar...".⁹³ "Tazkirat-ush-shuaro" muallifi Davlatshoh Samarqandiy (XVI asr) quyidagilarni qayd qilib o'tadi: "Sulton Iskandar hukmronligida fozil kishilardan Mavlono Muiniddin Natanziy va Mavlono Haydarlar bor ekan. Mavlono Haydaring turkiy va forsiy tillarda bitgan yaxshi she'rlari bor va u Nizomiyning "Maxzan ul-asror"iga o'zbek tilida javob yozib, uni shahzoda Iskandar otiga bag'ishladi". Haydar Xorazmiy Nizomiyning "Maxzan ul-asror" asariga javobiya tarzida yozgan asariga "Gulshan ul - asror" deb nom bergan. Biroq ba'zi tadqiqotlarda yoki internet ma'lumotlarida Haydar Xorazmiy asarining nomi "Mahzan ul-asror" tarzida berilgan. Jumladan, "Haydar Xorazmiyning "Maxzan ul-asror" asari Nizomiyning "Maxzan ul-asror" asaridan ilhomlanib yozilgan".⁹⁴ Albatta, bunday yangilish ma'lumotlar o'quvchini chalg'itishi tabiiy. Xorazmiy o'z asarining nazm etilish sababi to'g'risida yozganda ham asarning Nizomiyning "Maxzan ul-asror"dan ilhomlanib yozganligini ta'kidlaydi:

Ulfat ila begi ulandi alif,
Vuqusidin qofiya topti radif.
"Mahzani asror" - bu ramz erdi, bil,
Notiq bu ko'zgudin o'grandi til.

Haydar Xorazmiy, asosan, Xorazmda yashagan va og'ir hayot kechirgan. Birmuncha vaqt Hirotda temuriylardan Umar shayxning o'g'li Sulton Iskandar (XV asr) saroyida yashagan. Alisher Navoiy "Majolis un-nafois" ning 7-majlisida Sulton Iskandar haqida to'xtalar ekan, uni sakkiz yil hukmronlik qilganini ta'kidlash barobarida Haydar Xorazmiyni ham tilga olib o'tadi. Haydar Xorazmiy uning nomiga "madh" qilganligini qayd qiladi. Manbalarda qayd etilishicha, Sulton Iskandar (1408-1414) Iroq va Fors o'lkalarida hukmronlik qilgan. Bu davrda Sheroz shahri ilm-fan, adabiyot, madaniyat markaziga aylangan. Temuriy amirzodaning o'zi ham Iskandar Sheroziy taxallusi bilan o'zbekcha g'azallar bitgan. Alisher Navoiyning "Majolis un-nafois"dagi ta'kidi fikrimizni

⁹³ Navoiy A. Muhokamat ul-lug'atayn. MAT. – T.: Fan, 2000. 36-b.

⁹⁴ Rahmonov. N. O'zbek adabiyoti tarixi. (Eng qadimgi davrlardan XY asrning birinchi yarmigacha). "Sano -standard" nashriyoti. 2017.439-bet.

tasdiqlaydi. "Sulton Iskandar derlarkim, tab'i nazm erdi. Va bu tuyuqni andin naql qilurlarkim:

To'lun oyg'a nisbat ettim yorumi,
Ul xijolatdin kam o'ldi yorumi.
Tori mo'yungning zakotin men beray,
Yo Misrni, yo Halabni yo Rumi.⁹⁵

Faxriy Hiraviy "Ravzat us-salotin" asarida Iskandar Sulton saltanati ma'nolar xazinabonlaridan biri sifatida ta'riflaydi. Bu esa ulug' shoir Alisher Navoiyning fikrlarining to'g'riligini tasdiqlaydi. "Maxzan ul-asror" va "Gul va Navro'z"ning muallifi bo'lgan Mavlono Haydar (Xorazmiy) turkigo'yu (Iskandar Sheroziy)ning nazmgo'yi edi va o'sha kitob ("Gulshan ul-asror")ni yaxshi aytgan va uning nomiga bitgan".

Ma'lumki, Sharq adabiyotida qator an'analar shakllandi. Bu an'analar asrlar osha adabiyotning taraqqiyoti uchun beminnat xizmat qilib keldi. Xo'sh, an'ana nima? **Adabiy an'ana** - dunyoni badiiy idrok etish va ifodalash sohasida davrdan-davrga, avloddan-avlodga o'tib kelgan tajribalar yig'indisi - estetik qarashlar, tildagi obrazlilik, emotsionallik va uslubdagi rang-baranglik. Zamonlar sinovidan o'tgan, barhayot, ilg'or an'analar barcha adabiyotlar uchun taraqqiyot omili sanaladi. Adabiyot va san'atda an'ana tarixiy hodisa bo'lib, muayyan davr ijtimoiy-badiiy xususiyatlarini aks ettiradi. Adabiy an'ana tushunchasi novatorlik bilan uzviy bog'liqdir. Ilg'or adabiy an'ana doimo novatorlikka yetaklaydi. Biz uchun an'ana hisoblangan adabiy hodisa o'z vaqtida yangilik sanalgan bo'lishi mumkin. Masalan, Nizomiy Ganjaviy uchun ma'lum ma'noda yangilik hisoblangan "Xamsa" yaratish Alisher Navoiy uchun an'ana bo'lgan. Shu bilan birga Alisher Navoiy "Xamsa"si salaflarining takrori, taqlidi emas, unda o'ziga xos g'oyaviy-estetik masalalar yoritilgan va xamsachilik an'anasi yangi bosqichga ko'tarilgan. O'zbek adabiyoti tarixida devon, tazkira, bayoz, adabiy-tarixiy asarlar yaratish kabi an'analar mavjud bo'lib, ular millatning ma'naviy-ma'rifiy va madaniy saviyasi taraqqiyotiga sezilarli ta'sir ko'rsatganligi shuhbasiz. *"Sharq mumtoz adabiyotida an'anaviylik ustuvor. Bu badiiy tasvirda ham, obrazlar olamida ham, mazmun va mundarijada ham kuzatiladi. Ammo, zohiran qaraganda, bir xillik, o'xshashlik bo'lib tuyuladigan bu*

⁹⁵ Navoiy A. Majolis un-nafois. MAT. XX jildlik. XIII jild. – T.: Fan, 1997.157-b.

holat zamirida ham har bir ijodkorning individual, o'ziga xos poetik ifoda usullari shakllanib borgan. Zotan, mashhur allomalarimiz ijodkorning mahorati va o'ziga xosligi asarda nimani ifodalashiga qarab emas, balki voqelikni qanday tasvirlashiga qarab belgilanishini ta'kidlashadi".⁹⁶

Demak, adabiy an'ana har bir xalqning uzoq tarixiy taraqqiyoti natijasida to'plagan tajribalar mahsuli. Bu tajribalar davr o'tishi bilan o'z ahamiyati va dolzarbligini yo'qotmaydi, balki aksincha ularning qimmatini davrlar o'tishi bilan osha boradi. Biroq esdan chiqarmasligimiz kerakki, o'tmish adabiyotida erishilgan barcha yutuqlar emas, balki asrlar suronidan o'tgan, muayyan davr ijodkorlari tomonidan tan olingan hamda yuksak baholangan, erkin, ijodiy ergashilgan hamda o'z ijodiy faoliyatlarida namuna deb foydalanilgan tajribalargina an'ana tusini olishi mumkin.

Sharq adabiyoti zaminida shakllangan o'lmas an'analarning davom etishida Haydar Xorazmiyning ham alohida o'rni bor. U sharq adabiyotida Nizomiy Ganjaviy boshlab bergan xamsanavislik an'anasini o'ziga xos tarzda davom ettirdi. Xamsanavislik tarixiga nazar tashlasak, ijodkorlar Nizomiy "Xamsa"ga javob qaytarishda turli xil munosabatda bo'ldilar. Qaysidir ijodkorlar "Xamsa"ning ikkita, qaysidir mualliflar birta dostoniga javobiyalar bitdilar. Haydar Xorazmiy Nizomiy "Xamsa"si tarkibidagi dastlabki doston – "Maxzan ul-asror"ga javobiya tarzda asar yozdi va unga "Gulshan ul-asror" deb nom berdi.

Nizomiy Ganjaviyning "Xamsa"si tarkibidagi dastlabki doston didaktik asr bo'lib, 1173-1176-yil oralig'ida yozilgan. Asar yagona syujetga ega emas. Asar 59 bob: 18 muqaddima, 20 maqolat va ularga ilova tarzda keltirilgan 20 hikoyat va xotimadan iborat.⁹⁷

Haydar Xorazmiyning "Gulshan ul - asror" asari 1409 -1414-yillarda yaratilgan. Asarning umumiy hajmi 639 bayt bo'lib, 23 bobdan tashkil topgan. Asarning dastlabki 7 fasli an'anaviy muqaddimaviy boblardir. *Alloh hamdi, payg'ambar na'ti, xalifalar ta'rifi, Sulton Iskandar madhi, musannifning vasfil-holi* kabi masalalarga bag'ishlangan. Dostonning asosiy qismi 16 bobni o'z ichiga oladi. Asarning syujeti va g'oyaviy yo'nalishi jihatidan ham

⁹⁶ Adizova I. Uvaysiy she'riyatida poetik tafakkurning yangilanishi. Filol. fanlari doktori (DSc)... diss. – T., 2020. – B.124.

⁹⁷ Nizomiy Ganjaviy. Maxzan ul -asror. Jamol Kamol tarjimai."Kamalak nashriyoti. 2016. 16-bet.

Nizomiy dostoniga yaqin. Shoir o'z dostonida "Maxzan ul - asror" vaznini ham saqlab qoladi. Har ikkala doston ham aruzning sare' musaddasi matviyi makshuf' vaznida (muftailun /muftailun /foilun) vaznida yozilgan.

Haydar Xoramiyning "Gulshan ul - asror" dostoni Nizomiy Ganjaviy asarining tuzishidan farq qiladi. "Maxzan ul-asror"da dastlab maqolotlar, keyin ularni tasdiqlovchi hikoyatlar keltirilgan. Biz xuddi shunday tuzilishni Alisher Navoiyning "Hayrat ul-abror"ida ham ko'rishimiz mumkin. Haydar Xorazmiy o'z asarida esa avval hikoya, so'ng shu hikoyadan kelib chiqadigan xulosa va fikrlarni umumlashtiruvchi bobni keltirib o'tadi.

"Gulshan ul - asror" dostonining qo'lyozma nusxalari London, Parij, Vena, Qozon kutubxonalarida, fotonusxalari O'zbekiston Fanlar akademiyasi Sharqshunoslik institutida saqlanadi.

"Gulshan ul-asror" dostonining har bir maqolotida ma'lum bir ijtimoiy-siyosiy, falsafiy-axloqiy, ta'limiy masalalar qo'yilgan. Bilamizki, sharq adabiyotida so'zga juda katta e'tibor qaratiladi. Albatta, buning asosi bor. Islom dinining asosiy manbasi bo'lgan Qur'oni karimda butun olam birgina "Bo'l" kalimasi orqali xalq qilinganligi ta'kidlangan. Shu sababdan, Sharq adabiyotida olamning yaratilishi, hatto yakuni ham so'z bilan bog'liq ekanligini inobatda olgan qalam ahllari o'z asarlarida so'z ta'rifiga alohida bob ajratganlar. Haydar Xorazmiy ham o'z asarida shu an'anaga sodiq qolgan. Dostonning "*So'z ta'rifining bayoni*" bobida so'z qudratiga baho beradi. Oqil-u oriflarning so'zga munosabatini keltirish orqali so'zning qudratin ulug'laydi.

Oqil agar so'z bila so'zni yopar,
Orif o'shul so'zda o'zini topar.
Ulki bilur so'z guhari qiymatin,
So'zda topar so'zlaguvchining otin.
Ahli nazar shevasini so'z bilur,
Nuri basar mevasini ko'z bilur.

Shoir so'zda so'zlaguvchining shaxsi namoyon bo'lishini badiiy ifodalar ekan, so'z - ko'z, so'z - hol, so'z - qol, so'z - botin tushunchalarini parallel keltirish orqali insonning so'zga munosabatini ko'rsatib beradi:

Soʻz koʻzidur ulki koʻrar holni,
Oʻz soʻzidur ulki soʻrar qolni.
Soʻzda koʻzu soʻzlaguchida nazar,
Yoʻq esa soʻz koʻzlaguchida xabar.
Zohiru botin xabari soʻzdadur,
Oʻzgada yoʻq, har neki bor oʻzdadur.

Shoir oqil va oriflarning soʻzga munosabati bilan birga, soʻz qadrini, mohiyatini bilmaydigan shaxslarni tanqid qiladi:

Ul kishikim topmadi soʻz ganjini,
Qildi habou hadar oʻz ranjini.
Kimki nazar manzaridin yumdi koʻz,
Qoʻymadi meros oʻzidin gʻayri soʻz.

Shoir oʻz fikri tasdigʻi uchun juda chiroyli tashbehlardan foydalanadi. Yaʼni soʻz qadrini bilmaydigan, “soʻz ganjini topmaydigan” kishilarni oʻz “ranj”lari uchun “behuda qon toʻkuv”chi (hadar) deb taʼriflaydi.

Shoir “Soʻz taʼrifining bayoni” faslini quyidagi bayt bilan yakunlaydi:

Umri garonmoya chu boʻlgʻay talaf,
Soʻz durur soʻz dunyoda qolgʻay xalaf.

Haydar Xorazmiy inson umri “talaf” (oʻlmoq, yoʻq boʻlmoq) boʻlsa-da, uning oʻrniga soʻzi (xalaf) oʻrinbosar boʻlib qoladi, deydi. Bu bilan shoir insonlarga soʻz va uning qudratini uqtirishi bilan birga, ulardan yaxshi soʻz qolishini targʻib qiladi.

Dostonning keyingi fasli anʼanaga muvofiq “*Musannifning vasfi holi*” deb nomlanadi. Mazkur faslda muallif oʻzining tarjimai holini bayon qiladi. Hayoti gʻam bilan oshno boʻlganligini, ulfati ham, hamsuhbati ham gʻam ekanligidan afsuslanadi. Uning koʻz yoshidan - boda, bagʻridan - kabob, yurak dardidan - nuql (gazak), figʻonidan - rubob kuyi yaralganligini mubolagʻali tarzda bayon qiladi:

Koʻz yoshidin boda, bagʻirdin kabob,
Durdi dilim nuqlu figʻonim – rubob.
Qaydagʻi andeshalarim joʻsh urub,
Bir yoʻli boshdan-ayoq ogʻoʻsh urub.
Ohi jigarsoʻz sunub dasti zoʻr,
Nolai dilsoʻz qilib sharri shoʻr...

Umr o'tub ko'rmayin uyquda tush,
Nolalarimdin uyumay qurtu qush.
Charxi falak tashna bo'lib qonima,
Dunyai dun qasd qilib jonim-a.

Faslda dastlab shoir o'zining tarjimayi holini tushkun kayfiyatda badiiy talqin qilgan bo'lsa-da, shu ruh bilan faslni yakunlamaydi.

Er esang erdek yuraging tishlagin,
Kechgan eranlarning ishin ushlagin.
Tut g'amu mehnat bila ko'nglungni xush,
Oqil esang marhamu darmoning ush!
Omi sifat bo'lma farog'atparast,
Xas bikin bo'l oyoq ostinda past.
Sabr ila Ayyubqa hamdast bo'l,
Jura'sining sarqutidin mast bo'l.
Sidq namozin qilur ersang ado,
Yusufi Siddiqqa qil iqtido.

Haydar Xorazmiy insonlarga "g'am-u mehnat bila ko'nglungni xush tutish" lozimligini asoslash uchun haqiqiy eranlar timsolidan foydalanadi. Bunday kishilarni oqil deb ta'riflaydi. Ularni sabr – bardoshda Ayubga, toat ibotada Yusufi Siddiqga mengzaydi.

Fasl davomida Nizomiy asarini "ummon"ga o'zini esa "g'avvos"ga qiyoslaydi. "Nizomiy bu ganj"iga yeta olishidan umidvor bo'ladi.

Jon tishi birla qozib ul konni,
Qildim o'zum g'avs bu Ummonni.
Ul kishi qo'yg'ay chu Nizomiy bu ganj,
Qozg'ana olg'ay guhari dast ranj...
Bu ne fusun, bu ne afsonadur,
Bu ne un nag'mai mastonadur.
Tutti jahon zamzamai Haydariy,
To'ldi sado gunbazi nilufariy.

Dostoning keyingi fasli "*Kitob yozilishining bayoni*" tarzida nomlangan. Shoir Nizomiy asariga talabgor ekanligini, uning siridan voqif bo'lish uchun "tebranmoq" ya'ni harakat qilmoq zarurligini, bu yo'l uzoq, lek rag'bat qilinsa "bir qadam" ekanligi bilan bog'liq fikrlarini bayon qiladi.

Eyki bu ma'nida talabgorsan,
Tebran agar voqifi asrorsan.

Borg'anicha yo'ldur uluqdin uluq,
Boshdin-oyoq kelguliku borg'uluq.
Garchi senga asru yiroqtur bu dam,
Rag'bat etar bo'lsang erur bir qadam.

Shoir maqsadiga yetishning ma'lum bir talablari borligini ta'kidlaydi. Inson o'z maqsadi yo'lida eranlardek bo'lishi, g'aflat ishidan yiroq bo'lishi zarurligi bilan bog'liq fikrlarini quyidagi baytlarda bayon qiladi:

Qilg'in eranlartek o'zungni fido,
Oshiqu Majnung'a yetar bir sado.
G'aflat ishin aql etarsenki ne?
Nukta bila naql bitarsenki ne?

Muallif Nizomiy asarining erkin-ijodiy tarjimasiga kirishar ekan, o'z oldiga yuksak talablarni qo'yadi. Fikrning badiiy ifodasi uchun quyidagi baytda ajoyib tashbehni keltiradi:

Urma o'z olinda bu devor kaj,
Sotma iyor ahlina me'yor kaj.

Nizomiy Ganjaviy asari buyuk bir "devor". "Sen g'aflatda qolib, bu "devor" oldida egri, qalbaka (iyor) bir devorni urma",-deydi. Bu esa muallifning o'z ijodi oldiga qo'ygan muhim talabidir.

Yo'lda turur yuz mahaki imtihon,
Zaxmi parokandayu nishi nihon.

"Mahak" – oltin, kumush kabilarning sifatini aniqlaydigan tosh, sinov toshi. Shoir "mahaki imtihon" deganda Nizomiy oldida o'zini imtihon qiladi. Bu imtihonning og'ir ekanligini bilsa-da, umidini so'ndirmaydi.

"Bo'z to'quvchi kampir va bazzoz hikoyati". Hikoyatning nasriy bayoni quyidagicha:

Kufa shahrida ilohiy ilmlarni egallagan bir shayx bozorga bordi. U yurib borib, bir bazzozning do'koni qarshisida o'tirdi. Bazzozning do'koni asl mollar bilan to'la ekanini ko'rdi. Bazzozning butun umri savdo bilan o'tgan edi. Shu payt bazzozning oldiga bir qari, arang nafas olayotgan, so'zlashga ham madori yo'q, ko'zlaridan hayot uchquni so'ngan kampir oyog'ini sudrab kelib qoldi. Kamir qo'ynidan bir parcha bo'zni chiqarib bazzozga uzatarkan: "Manovini olgin-u bahosini aytgin", dedi. Bazzoz bo'zni qo'liga olib, kampirga bir talay yolg'onni so'zlay ketdi: "Bo'zingizning momig'i past, iplari ham dag'al

ekan. To'n qilishga ham yaramaydi, yuvsa ishdan chiqadi. Bu matongizdan ko'ylak ham tikib bo'lmaydi, tuzukroq narxga arzimaydi". Shundan keyin kampir do'kondor bazzozga dardini to'kib soldi: "Ey sohib karam xojam, boshing omon bo'lsin, bu dunyoda aslo g'am ko'rmagin. Men bir bechora tul ayolman, ojiz, bechoraman. Jonimni jabborga berib, ikki hafta shu bo'zni to'qidim. Bir nechta farzandim yo'limga termilib o'tiribdilar. Mayli, nima desang, deyaver. Xudoga soldim. Qancha baholasang, bo'пти, pulini bergin". Bazzoz o'lchagich gazini olib, matoning bo'yi-yonidan harna urib qoldi va kampirga bir-ikki dirham berdi. Kampir oyog'ini arang sudrab bosganicha, uyiga yo'l oldi. Shu payt bo'z sotib olgani bir odam kelib, do'kondorga dedi: "Ey xojam, menga shunday bo'z kerakki, bu dunyoda undan yaxshisi bo'lmasin. Mayin, tekis to'qilgan bo'lsin, ipida aslo nuqsoni boimasin". Do'kondor bazzoz qaysi bo'zni ko'rsatsa, xaridor aybini topaverdi. Shunda do'kondor: "Shoshmay turing, hozir sizga shunday bo'z berayinki, ilgari bunaqasini ko'rmagansiz. Momig'i pillaning tolasidan ham mayin, iplari nihoyatda nozik". Xaridor bo'zni ko'rgandan keyin, lol bo'lib qoldi va bahosini so'radi. Bazzoz bo'zni ancha qimmat bahoga sotib olib, o'z yo'liga ketdi.

Shunda Haq yo'lini tutgan pir bazzozning oldiga kelib dedi: "Ey birodar, ijozat bersang, do'koningga kiray. Agar menga o'xshaganini istasang, yer yuzini qidirib topolmaysan. Mening a'molim zohiriy va botiniy ilmlardir, o'zim bir mo'minman. Bu olamni qancha kezdim, ammo sen singari komil avliyoni ko'rmagan edim. O'sha bo'z matoning momig'i, seningcha, ravshan emas, ipi nursiz, mato xuddi bo'yraga o'xshaydi. Sen bo'z matoga bir nazar solding-u eng nafis matodan ham a'lo bo'z ekanini bilgan eding. Bo'zning momig'i bilan ipi bir xilda nafis, mayin, bir tekisda to'qilgan edi". Parning bu gaplaridan bazzoz qattiq xijolat bo'ldi va bu qilig'ini tark etdi.

E'tibor bersak, hikoyatda uchta obraz bor: *kampir*, *bazzoz*, *pir*. Kampir- mehnatkash, halol rizq bilan umrini o'tkazuvchi xalq timsoli. *Pir*-komillikka erishgan, Haq yo'lida umrini bag'ishlagan so'fiylarning ramzi. *Bazzoz* – makr hiyla bilan rizq teruvchi shaxs. Hikoyada uning bu qiyofasi darveshning o'tkir va achchiq so'zlari orqali fosh bo'ladi:

Dedi: - Bu sanduq ichiga, ey falon,
Bergil ijozat, kirayin bir zamon.

Kim tilasang sa'y ila sarbasar,
Topmag'aysen dunyoda mendin asar.
Zohiru botin ila oshufta men,
Mo'min egach, kofiru nuhufta men.
Muncha savome'gaki qildim guzar,
Sa'y ila tobmadi naqdim iyor.
Har necha kezdim bu ulug' dunyoni,
Qutbi mukammal seni ko'rdum, seni.
Bo'zkim, erdi momug'i xud besafo,
Ipligi betobu o'zi bo'riyo.
Senikim anga bir nafas etding nazar,
Bo'ldi katondin dog'i ham mo'tabar.
Kim momig'u piylatek o'ldi yipak,
Suftalig'u ravshanu hamvortak.
Lol bo'lib xojoi oshufta dil,
Qoldi xijolat evinda munfail.
Jazb qilib topti muammo kushoy,
Urdu nekim hosilini pushti poy.

Hikoyatda tasavvufiy g'oyalarga alohida urg'u berilgani ko'rish mumkin. Tasavvufning asosi masalalari sifatida *nafs*, *halolik*, *to'g'rilik*, *karam*, *saxovat*, *Haqni tanish* kabi muammolarga urg'u berilgan. Ayniqsa, hikoyatning oxirgi baytlarida shoir saxovatni baland pardalarda tasvirlaydi.

Xayr etagina uzun tut qo'lung,
Mo'ru malahdin ayama sorqutung.
Jomda sharbat nechakim bo'lsa kam,
Yerga to'kar jur'ani sohib karam.
Har necha toroji xazon ko'rsa raz,
Yerga to'kar atlasu iksuni xaz.
Xushtur eranlarga karam davlati,
O'lsa dog'i o'lmas emish himmati.

Asarning keyingi faslida Hotam Toy hikoyati keltirilgan. Ma'lumki, Hotam Toy Sharq adabiyotida saxovat timsoli sifatida tilga olinadi. Husayn Voizi Koshifiy qalamiga mansub "Risolai Hotamiya" asarida Hotam Toyini "yoshlik marosimining eng muhim ustunlari – saxovat va mardlik" timsoli sifatida ta'riflaydi va Arab va Ajam adabiyoti mazkur hikoyat mashhurligini ta'kidlab o'tadi. Mazkur

hikoyat sayyor syujet sifatida folklor va yozma adabiyot namunalari tez-tez ko'zga tashlanadi.

“Gulshan ul-asror”dagi Hotam Toy hikoyatining qisqacha mazmuni quyidagicha: *Arab mamlakatidan kelayotgan karvon, yo'lda oziq-ovqatdan qiynalib qolmaylik, deb o'ylab, Hotam Toy xonadoniga tushdilar. Karvon orasida bir tentak odam ham bor edi. U: “Ey Hotam, noming karaming tufayli olamga mashhur bo'ldi, biz ham bugun senga mehmonmiz”, dedi. U gapini tugatmagan ham ediki, karvonning semiz tuyalaridan biri xastalanib qoldi. Odamlar haligi tentakka, sen mehmonsan, tilingni tiysang, yaxshi bo'lardi, deb tanbeh berdilar.*

Xullas, Hotam tuyani so'yib, karvonni mehmon qildi. Erta tongda karvon yana yo'lga otlandi. Shu payt uzoqdan ot choptirib kelayotgan odamlar ko'rindi, ular bir tuyani ham olib kelayotgan edilar. Bu tuya kechagi tuyaning aynan o'zi edi. Karvon bu ahvolni ko'rib, otliqlardan so'radilar. Otliqlar shunday javob berdilar: “Kechasi Hotam tushimizga kiribdi, ko'zlari yoshlangan. U bizga aytdiki, bugun mehmonlar kelgan edi, men ulardan bir tuya qarz olib so'yib, ularni mehmon qildim dedi va tuyaning belgilarini so'zladi. Hotam bizga, tezroq bo'linglar, karvon tong otishi bilan ketadi, aynan ularning tuyasiga o'xshaganini olib kelib, karvonga yetkazinglar, deya bizni shoshirdi. Kechagi so'yib yegan tuyasidan ularga og'irlik kelmasin, menga esa halol bo'lsin, dedi”.

Hikoya hajman juda qisqa. Biroq Hotam Toy haqidagi boshqa manba va mualliflarning asarlaridagi singari uning saxiyligi, oliyjanoblighi targ'ib qilinadi. Bu targ'ib ostida esa butun jamiyat a'zolari saxovatli bo'lishga, borini boshqalar bilan baham ko'rishga da'vat qilinadi.

Hikoyatdan keyin ma'vizalar keltiriladi. Ma'vizalarda hikoyatda badiiy talqin qilingan mavzu yanada kengaytiriladi. Hotam Toy saxovat mahzabining valisi, saxovatlilarning imomi tarzida tasvirlagan shoir saxiyligining ziddi bo'lgan baxillik haqida ham o'z fikrlarini bayon qilib o'tadi:

Buxl aziz odamini xor etar,
El ko'zida it kibi murdor etar.
Ulki tilar xayr uchun dastgoh,
Sen ani bilgilkim emas xayrixoh.

Muallif ma'viza davomida dirhami bor inson boy emas, balki saxovatli, karamli inson boydir, deydi. Insonning asl dushmani nafsi ekanligidan ogohlantiradi:

Me'da tamug'ikim erur dushmaning,
To'ymag'usidur agar ichsa qoning.

Keyingi baytlarda pand – nasihat ruhi yana davom etadi. Saxovatli inson mevaga, yog'murga qiyoslanadi:

Odam atong'onga muruvvat kerak,
Orifu omi(g'a) futuvvat kerak.
Sarvtek ozoda bo'lu rostkor,
Yo o'riku olma bikin mevador.
Naf' tekur barchag'a yomg'ur bikin,
Yo tengiz o'rtasida jo'mdur bikin.

Nasibasidan ortig'ini yegan odam qusishi, uning qusig'idan itlar bahramand bo'lib, to'yishi bilan bog'liq tasvir insonlarni hushyorlikka chorlaydi:

Kimki nechuk yig'di aningdek qo'yar,
Ortiq usurgan qusar, itlar to'yar.

Ma'vizaning so'ngi bayti muallifning muruvvat haqidagi g'oyalarining tezisi bo'lib kelgan deyishimiz mumkin:

Olmoqu bermak bila xushtur jahon,
Olg'inu berginki, budur quti jon.

“Hotam Toy” hikoyatidan keyin kelgan ikkinchi ma'vizada muallifning falsafiy qarashlari yana davom ettiriladi. Mol – mulkni to'plash hammaga zavq bag'ishlaydi, biroq uni sarflash ranjdir, - deydi shoir:

Yig'moq uchun barcha talabgor erur,
Qo'ymog'u ketmak ishi dushvor erur.
Yig'sa bo'lur duzd nihon bo'lmasa,
Dilkash erur bog' xazon bo'lmasa.

Haydar Xoraziy o'z fikrini asoslash uchun shoh va gado timsolariga murojaat qiladi. Umr shohga ham gadoga ham vafo qilmaganligi ibrat qilib ko'rsatadi:

Xush nimadur umri baqosi qani?!
Shoxu gado birla vafosi qani?!...
Dunyoda kim kuldi xush, ey hushyor,
Kim so'ngida yig'lamadi sad hazor.

Qaysi ko'ngilkim nafas urdi shod,
Elga sovurdi kulini tundbod.

Ma'viza davomida inson umrining o'kinchiligi, inson bu dunyorga kelib ketguvchi ekanligi, rizq Allohdan bandasiga belgilangan ne'matligi bilan bog'liq falsafiy fikrlarga ham urug' berilgan.

Dostondagi yana bir hikoya Mahmud G'aznaviy haqida bo'lib, unda shoh Mahmud va pir obrazlari keltirilgan. Muallif shoh Mahmud va pirning suhbati orqali o'zi ilgari surmoqchi bo'lgan g'oyani ochib beradi. Ularning suhbati orqali pirining komillik sifatlariga ega ekanligini, ma'naviy jihatdan shohdan ham ustunligini ko'rsatib beradi.

Hikoyatning nasriy bayoni quyidagicha: Mahmud G'aznaviy a'yonlari bilan qish kunida ovga chiqdi. Ular bir xaroba kulba qarshisidan chiqib qoldilar. Mahmud G'aznaviy xarobaga kirib, sochlari to'zib ketgan, nihoyatda badbashara bir pirni ko'rdi. U Mahmudga e'tibor bermadi, "kel,o'tir" yoki "ket" deb ham aytmadi. Pir ibodatini tugatgandan keyin, Mahmuddan: "Oting kim? Nima uchun bu yerga kelding? Bu yerga hech kim kelmas edi", deb so'radi. Mahmud o'zini tanishtirdi. U pirga, "bunday sovuq kunda bu yerda yashashingiz umringizga zomin bo'ladi, sizga shahardan biron go'sha topib berayin," deb aytdi. Shunda pir:

"Bizki bu yo'l ustida o'tguchimiz,
Ayla kelduk , yana ketguchibiz.
Menki rahm javfido erdim junin,
Ne sen eding anda, ne ruh olamin.
Rizq iyosi yoz-u kuz-u va yo qish,
Vositasiz qildi meni parvarish.
Ulki yonar o'tni guliston kilur,
Emdi tog'i qish sovuqini bilur.
Faqr-u fano davlatida ul g'ani,
Qilmadi muhtoj seningtek mani.
Gar tama' etsam senga, sendin batar,
Rizq daminda kezayin darbadar.
Ey bu siya hol ichida shahrband,
O'g'ri kibin boshdin - oyoq darkamand.
Har so'ngakning bandida yuz ming gireh,

Silsila-u band, zireh dar zireh.
Toki ajal kelsa nechuk kilg'asen ?

Qay birini kat kilo bilasen?" deya javob berib, shohga ta'nalar qildi: "Yaratgan meni hech narsaga muhtoj qilmadi. Sen esa muhtojlikda yashaysan, men faqru fano davlatida to'qman, agar sendan biron narsa ta'ma qilsam, sendan battar bo'laman, undan ko'ra, rizq ilinjida darbadar kezganim yaxshi. Qani aytchi, mabodo ajal kelib qolsa, davlatingni qaytara olasanmi yoki ajalnimi?"

Shoh pirning bu gapidan qattiq xafa bo'lib, unga, agar sening boshingga

ajal kelib qolsa-chi, sen nima qilasan, deb savol berganda

Pir tabassum qilibon urdi jo'sh,
To'tisi uchtiyu qafas qoldi bo'sh.
Shoh bo'lib so'zlaganidin xijil,
Qo'pdiiyu ketti evina munfa'il.

Hikoyatdan keyin kelgan ma'vizada insonning zohiri emas, botini go'zal bo'lishi bilan g'oya ilgari surilgan. Shuning uchun shoir pirni "Surati vayronayu ma'nisi ganj" deb ta'riflaydi, pirni ganjga qiyoslaydi.

O'zgalarga o'xshamas abdol ishi,
Hargez alar tavrina yetmas kishi.
Sharbat-u xunob-u giza dard-u ranj,
Surati vayronayu ma'nisi ganj.
Garchi kezar chirkin-u uryon o'zi,
Lafzi iboratsiz aytkon so'zi.
Anglasa har ramzida ming siri bor,
Kim bilur ul ramzni juz bir-u bor.

Doston muallifning "So'ng so'z"i bilan yakunlanadi. An'anaga muvofiq o'z o'quvchilarining asarni yaxshi qabul qilishlaridan umidvor bo'ladi.

Dostonda qo'llagan tasviriy vositalar, ramz-u ishoralar Haydar Xorazmiyning yetuk shoir ekanligidan dalolat beradi. Jumladan, dostonning "*Musannifning vasfi holi*" bobida shoir o'z holatni berishda qator tashbehlarni qo'llaydi. Yuragini yonib turgan sha'mga, o'y-xayollarini shamning tutuniga, xayolga cho'mib o'tirgan holatini shamdon ostiga qo'yilgan laganga tashbeh qiladi.

Sham' sifatlik yurakim shu'lazan,
Dud – boshimda, oyoqimda – lagan.

Dostondagi har bir hikoyatda bir – biriga zid bo'lgan obraz va muammolar orqali o'z davrining muhim masalalarni badiiy aks ettiradi.

“Gul va Navro'z” dostonining yaratilishi va u haqdagi bahs-u munozaralar. Adabiyotshunosligimizda “Gul va Navro'z” dostonining muallifi masala uzoq yillar bahs-u munozaralarga sabab bo'ldi. Mazkur muammoga adabiyotshunos olim A. Haytmetov tomonidan Ahmad Taroziyning “Funun ul-balog'a” asarining fanga e'lon qilinishi bilan yechim topildi.

Shayx Ahmad Xudoydod Taroziy “Funun ul-balog'a” asarida bir necha bor “Mavlono Haydar” taxallusini keltiradi. U bir o'rinda tashbeh (at-tashbeh-ul-kinoyat) san'atiga Mavlono Haydardan quyidagi parchani keltiradi:

Kumush inju qilib gul yaprog'ini resh,
Asal ustinda ari chayqadi nesh.
Tong otquncha ayoq tutmoq, bosh urmoq,
Yuzuk o'ynamoq-u barmoq yoshurmoq.
Baliq bo'g'zidin oqti durri marjon,
Sadaf qursog'idin sachradi marjon...⁹⁸

Yuqorida keltirilgan baytlar esa Lutfiyga nisbat berib kelingan “Gul va Navro'z” asari tarkibda aynan keltirilgan.⁹⁹ Shuningdek, Zahiriddin Muhammad Bobur “Aruz risolasi” asarida Haydari Turkiyning “Gul va Navro'z” dostoni borligini aytadi va undan misol keltiradi. Mavlono Haydar, Haydari Turkiy - bitta shaxs, ya'ni Haydar Xorazmiydir.¹⁰⁰

“Gul va Navro'z” dostonida ta'kidlanishicha, asar 814/1411-1412-yillarda yozilgan bo'lib, muallif uni Iskandar Mirzoga bag'ishlaydi. Doston an'anaviy boblar bilan boshlanadi. Bular: *hamd*, *na't*, *madh*, “*Sababi nazmi kitob*” kabi fasllar.

“Gul va Navro'z” dostoni 595 baytdan iborat bo'lib, vazni aruzning hazaji musaddasi mahbun bahrida yozilgan. Dostoning o'n

⁹⁸ Rahmonov N. O'zbek adabiyoti tarixi. (Eng qadimgi davrlardan XY asrning birinchi yarmigacha). “Sano -standard” nashriyoti. 2017.451-b.449 –bet.

⁹⁹ Lutfiy. Devon. Gul va Navro'z. Doston. Toshkent. Badiiy adabiyot nashriyoti. 1965, 435-b.).

¹⁰⁰ Rahmonov N. O'zbek adabiyoti tarixi. (Eng qadimgi davrlardan XY asrning birinchi yarmigacha). “Sano -standard” nashriyoti. 2017.451-b.450 –bet.

birta qo'lyozmasi aniqlangan bo'lib, ular Budapesht, Parij, Vena, Istambul, London, Qozon kutubxonalarida saqlanadi.

Dostoning qisqacha mazmuni quyidagicha: Navshodning keksa podshosi Farrux o'g'il ko'radi. Bola Navro'zda tug'ilgani uchun unga Navro'z deb nom beradilar. Navro'z aqlli, baquvvat bo'lib voyaga yetadi. U Farxor o'lkasining shohi Mushkinning qizi Gulni tushida ko'rib, sevib qoladi. Gul ham Navro'zni tushida ko'rib, uning ishqiga girifgor bo'ladi.

Navro'z ko'p sarguzashtlarni boshidan kechirib, Farxorga yetib keladi. Biroq Mushkin Gulni Xitoy xoniga tortiq qilmoqchi bo'ladi. O'zaro ahdlashgan Gul bilan Navro'z Xitoy chegarasiga yaqinlashganda qochib ketadilar va sarguzashtlarni kechirib, bir daryoga yetib keladilar. Dahshatli to'liqin sevishganlarni bir-biridan ajratadi. Gul Adanga, Navro'z Yamanga tushib qoladi. Ikkalasi ham askar boshlig'i etib tayinlanadilar. Adam bilan Yaman o'rtasida urush boshlanadi. Yakkama-yakka jangda Gul Yamanlik pahlavon Bahromni yengadi. Jang maydoniga Navro'z chiqadi. U g'olib qahramon – Gul bilan olishishi kerak edi. Biroq Navro'z bilan Gul bir-birlarini tanib qoladilar, urush yarashga aylanadi. Navshod, Farxor, Adan va Yaman shohlari kengashadilar, to'rt davlatni birlashtirib, yagona davlat qilishga va Navro'zni shoh qilib ko'tarishga qaror qiladilar. Navro'z adolatli va ma'rifatparvar podshoh bo'ladi.

Doston "*Podshoh madhi bila kitob xotimasi*" fasl bilan yakunlanadi. Dostonni o'qish davomida muallifning shoirlik iqtidori va iste'dodi namoyon qiluvchi jihatlarlar yorqin ko'zga tashlanadi. Jumladan, asarda qo'llanilgan shaxs nomlari o'ziga xos ramziy ma'no tashiydi. Jumladan, *Yaldo* – qish mavsumidagi eng sovuq, uzun va qorong'u kecha, *Farrux* - go'zal, baxtli, muborak, kutlug' niyatli, *Najd* - yerning baland qismi, to'siq, *Navro'z*- yangi kun, *Navjoz* -xalqi go'zallik va chiroyi bilan mashhur bo'lgan shahar nomi, *Farxor* - orasta, chiroyli va shinam joy, *Bahman* – qishning eng ayozli kunlari.

Asarda shoir turli xil tasviriy ifodalardan o'z o'rnida qo'llaganini ko'rishimiz mumkin. Jumladan, shoir Gulning ta'rifini berishda mubolag'a san'atidan mahorat bilan foydalangan:

Uzorin aksidan kun xira bo'lur,
Yuzu o'trusida oy tiyra bo'lur.¹⁰¹

¹⁰¹ Gul va Navro'z. Nashrga tayyorlovchilar: S. Dolimov va U. Dolimov. –T.: "O'qituvchi", 1974.

Quyidagi baytlarda Farxor ta'rifini berishda tashbeh san'ating go'zal namunasini yaratadi:

Bo'lib Farxor jannatdin namudor,
Bihishti adndek sahro-u gulzor.
Havo Iso damidek ruhparvar,
Yog'ochlar to'biyu oqar suv kavsar.¹⁰²

Quyidagi baytda ta'did (fikriy rivoj, ketma-ketlik, tadrijiylik) san'atidan foydalangan.

Oti *Farrux*, o'zi *farxunda* axtar,
Aning hukminda ul iqlim-u kishvar.

“Gul va Navro‘z” – ishqiy dostonidir. Dostonda xalq og‘zaki ijodining ta’siri yaqqol seziladi. Folklordagi farzandsizlik, tush va safar kabi motivlari mazkur dostonning asosiy syujetini harakatga keltiruvchi motivlar sanaladi. “XVII asrdan keyin yaratilgan romantik dostonlarning deyarli hammasida “Gul va Navro‘z” dostonidagi motivlar bor. Jumladan, Nishotiyning “Husnu Dil” dostonidagi safar motivi bilan “Sanobar” xalq kitobidagi va ko‘plab xalq dostonlaridagi safar motivi yoki “Gul va Navro‘z”, Sayqaliyning “Bahrom va Gulandom” dostonidagi farzandsizlik motivi bilan “Oshiq G‘arib va Shohsanam” dostonidagi farzandsizlik motivi uyg‘unligini misol qilib keltirish mumkin”.¹⁰³

Xulosa qilib aytganda, Haydar Xorazmiy qoldirgan ijodiy meros XV asr adabiyoti tarixini o‘rganishda muhim manba hisoblanadi. “Gulshan ul- asror” hamda “Gul va Navro‘z” dostonlari o‘z davri an’analarini aks ettirishi bilan birga muallifining yuksak iste’dodi haqida ma’lumot beruvchi asarlardir.

Mavzuni mustahkamlash uchun savol va topshiriqlar:

1. Haydar Xorazmiy haqida qaysi manbalarda ma’lumotlar keltirilgan?
2. “Gulshan ul- asror” asarida shoirning tarjimayi holiga oid qaydlar uchraydimi?
3. “Gulshan u- asror”ning yaratilishi haqida nimalarni bilasiz?
4. “Gulshan ul-asror” dostonning tuzilishi, mavzular olami haqida so‘zlab bering.

¹⁰² Gul va Navro‘z. Nashrga tayyorlovchilar: S. Dolimov va U. Dolimov. –T.: “O‘qituvchi”, 1974.12-bet.

¹⁰³ Rahmonov N. O‘zbek adabiyoti tarixi. (Eng qadimgi davrlardan XY asrning birinchi yarmigacha). “Sano -standard” nashriyoti. 2017.451-b.

5. “Gulshan ul-asror”dagi “Hotam Toy” haqidagi hiqoyatni Nizomiyning “Maxzan ul - asror” hamda Alisher Navoiyning “Hayrat ul-abror”dagi hikoyalar bilan qiyosiy tahlil qiling va hikoyatlarning o‘ziga xos xususiyatni izohlab bering.
6. “Gulshan ul-asror”da so‘zga qanday ta’rif berilgan? Oqillar va oriflarning so‘zga munosabatini izohlang.
7. “Gulshan ul-asror”dagi “Bo‘z to‘quvchi kampir va bazzoz” hikoyati mazmunini so‘zlab bering. Hikoyatda qanday g‘oya ilgari surilgan?
8. “Mahmud G‘aznaviy haqida hikoyat”da qanday masalalar ko‘tarilgan?
9. “Gul va Navro‘z” dostonining o‘rganilishi bilan bog‘liq qanday tadqiqotlarni bilasiz?
10. “Gul va Navro‘z” haqida qaysi manbalarda ma’lumotlar keltirilgan?
11. Muallif dostonida qanday motivlardan foydalangan?
12. “Gul va Navro‘z” dostonining badiiyati xususidagi fikrlaringizni misollar bilan asoslashga harakat qiling.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Vohidov R., Eshonqulov H. O‘zbek mumtoz adabiyoti tarixi. – T.: O‘zbekiston Respublikasi Yozuvchilar uyushmasi Adabiyot jamg‘armasi nashriyoti, 2008.
2. O‘zbek mumtoz adabiyoti namunalari. II jild. (XIV–XV asrning boshlari). Tuzuvchi, izoh va sharhlar muallifi: filologiya fanlari doktori, professor Nasimxon Rahmon. –T.: Fan, 2007.
3. Rahmonov N. O‘zbek adabiyoti tarixi. (Eng qadimgi davrlardan XY asrning birinchi yarmigacha). “Sano -standard” nashriyoti. 2017
4. Gul va Navro‘z. Nashrga tayyorlovchilar: S. Dolimov va U Dolimov. –T.: “O‘qituvchi”, 1974.
5. Nizomiy Ganjaviy. Maxzan ul-asror. Jamol Kamol tarjimai.”Kamalak nashriyoti. 2016.
6. Hayitmetov A. Temuriylar davri o‘zbek adabiyoti. Toshkent, 1991.
7. Hayot vasfi. G‘ulom nomidagi ASN, –T.: 1988.

O'NINCHI MAVZU:
ATOYI HAYOTI VA IJODI

Reja:

1. Atoy hayoti va ijodining o'rganilishi.
2. Shoir lirik merosi, mundarijasi va mavzular olami.
3. Atoyining badiiy mahorati.

TAYANCH TUSHUNCHALAR:

- | | |
|-----------------------|--------------------|
| • “Majolis un-nafois” | • raqib |
| • devon | • diniy-tasavvufiy |
| • oshiqona | • irsoli masal |
| • diniy-tasavvufiy | • badiiyat |
| • obraz | |
| • ma'shuqa | |

XV asrning birinchi yarmiga kelib o'zbek mumtoz she'riyati shiddat bilan taraqqiy eta bordi. Bu davrda yashab, o'zbek mumtoz adabiyoti rivojiga munosib hissa qo'shgan ijodkorlardan biri **Atoyidir**. U XIV asr oxiri va XV asrning birinchi yarmida temuriylar hukmronligi davrida yashab, ijod qildi. Turkiy she'riyatda g'azal janrining taraqqiyotiga munosib hissa qo'shgan Atoy haqida juda oz ma'lumot saqlanib qolgan. Alisher Navoiy shoir haqida o'zining “Majolis un-nafois” asarida quyidagi ma'lumotlarni yozib qoldirgan: “Mavlono Atoy – Balxda bo'lur erdi. Ismoil ota farzandlaridindur, darveshvas va xushxulq, munbasit kishi erdi. Turkiygo'y erdi. O'z zamonida she'ri atrok orasida ko'p shuhrat tutti. Bu matla' aningdurkim:

Ul sanamkim, suv qirog'inda paridek o'turur,
G'oyati nozuklugidin suv bila yutsa bo'lur.

Qofiyasida aybg'inasi bor. Ammo Mavlono ko'p turkona aytur erdi. Qofiya ehtiyotig'a muqayyad emas erdi. Qabri Balx navohisidadur”.¹⁰⁴ Shu o'rinda, hazrat Navoiy fikrlarini sharhlab o'tishga to'g'ri keladi. Avvalo, biz Navoiy tilga olgan “turkona”lik, ya'ni turkona uslubni aniqlab olishimiz kerak. Turkona uslub fikr va kechinmalarni murakkab tashbehu istioralarsiz sodda va oddiy bayon

¹⁰⁴ Navoiy Alisher. Majolis un-nafois. MAT. XX jildlik. XIII jild.– T.: Fan, 1997. 58- b.

qilish; yengil vaznlarni (ko'proq ramal va hazaj bahrini) qo'llash; folklarga yaqin qofiyalar ishlatish; shuningdek, ko'proq tuyuq janri, tajnis san'atini istifoda etish kabi qator xususiyatlarga ega.¹⁰⁵

Adabiyotshunoslar hamda tarixiy manbalardagi qaydlarga qaraganda, Atoyining nasl-nasabi mashhur shayxlar - Ismoil ota, Ibrohim ota, Ahmad Yassaviylarga borib taqaladi.

Faxriddin Ali ibni Husayn Voiz Koshifiy "Rashahot" asarida shunday yozadi: "... Ismoil ota rahmatullohi taolo Sayyid otaning katta xalifalaridan va yaqin kishilaridan bo'lgan... Ota Sayram va Toshkent o'rtasidagi Xuziyon degan joyda turar ekan". Shu manbada ta'kidlanishicha, Ismoil ota Sayyid otaning, Sayyid ota Zangi otaning ikkinchi xalifasi, Zangi ota Hakim otaning, Hakim ota Xoja Ahmad Yassaviyning to'rtinchi xalifasi bo'lgan.¹⁰⁶

Alisher Navoyining "Nasoyim ul-muhabbat" tazkirasida ta'kidlashicha, "Ismoil ota - Xoja Ahmad Yassaviyning Ibrohim ota otlig' inisining o'g'lidur va xojaning muridi va nazar qilgonidur va anga murid va as'hob ko'p bo'lubtur va karomat va maqomot va xavoriqi odot benihoyat va yoshi yuzga yaqin va avlodi o'n yetti yo o'n sakkiz bor erdi va olamdin o'tarda avlodi orasidin Is'hoq otani o'z qoim maqomi qilib, olamdin o'tubtur".¹⁰⁷ Demak, manbalarda keltirilgan Atoyi bilan bog'liq tarixiy ma'lumotlar, birinchidan, uning nasl – nasabi, ikkinchidan, taxallusiga oydinlik kiritishi bilan ahamiyatli. Bu haqda Atoyi ijodining yirik tadqiqotchisi S. Rafiddinov shunday yozadi: "Demak, Atoyi nasl-u nasab jihatidan bir-ikki avlod orqali Ahmad Yassaviyga yaqin turgan va mashhur shayxlar otalar avlodidan bo'lganligi uchun ham o'ziga Atoyi taxallusini tanlagan."¹⁰⁸

Atoyi ijodi A.Samoylovich H.Zarif, E.Rustamov, S. Sayfulloh, I. Haqqul kabi olimlar tomonidan o'rganilgan. 1926-yilda A.Samoylovich shoir g'azallaridan namunalarni nashr qildiradi. A.Fitrat, H.Zarif, E.Rustamov kabi olimlar ham shoir lirikasiga doir nashrlarni amalga oshirganlar. "Navoiyning nigohi tushgan", (1986), "Hayot vasfi" (1988) kabi to'plamlarda ham shoir g'azallaridan namunalar berilgan. 2008-yilda shoir devoni "Devoni Shaxzoda

¹⁰⁵ Is'hoqov Y. Navoiy va o'zbek she'riyatidagi uslublar masalasi. – "O'zbek tili va adabiyoti", 1990, 5-son, 5-b.

¹⁰⁶ S.Rafiddinov. Majoz va haqiqat. – T.: Fan, 1995.

¹⁰⁷ Navoiy Alisher. Nasoyim ul-muhabbat. MAT. XX jildlik. XVII jild. – T.: Fan, 2001. 141-b.

¹⁰⁸ Rafiddinov S. Majoz va haqiqat. – T.: Fan, 1995. 7-b.

Atoyi”¹⁰⁹ nomi ostida nashr qilindi. Mazkur nashr S. Rafiddinov tomonidan tayyorlangan. Nashrda olimning Atoyi ijodiga doir yirik maqolasi (so‘zboshi) hamda lug‘at va izohlar ham berilgan.

Mavlono Atoyidan bizgacha 260 ta turkiy g‘azalni o‘z ichiga olgan yagona devoni yetib kelgan. Bu devon hozir Sankt-Petrburgdagi Sharqunoslik institutining Sharq qo‘lyozmalari bo‘limida 22 V-1456 raqami ostida saqlanadi.

Atoyi shoirning taxallusi bo‘lib, uning to‘liq ismi, tug‘ilgan va vafot etgan yillari ma‘lum emas. Shoirning 260 ta g‘azalini o‘z ichiga olgan yagona devoni bizgacha yetib kelgan. Shoir she‘rlari mavzu jihatdan:

- a) oshiqona;
- b) diniy-tasavvufiy;
- v) peyzaj xarakteridadir¹¹⁰.

Atoyi lirikasi mavzu jihadan rang-barang. Uning g‘azallari oshiqona, ma‘rifiy, diniy - tasavvufiy mavzularda bitilgan. Shoir she‘rlariga Qur‘on va hadislar mazmuni singdirilgan. Muqaddas mabalardan iqtiboslar keltirilgan. Tasavvufdagi *may*, *qadah*, *mayxona*, *zulf-u xol*, *qosh*, *ko‘z*, *bel*, *zunnor*, *sanam* kabi istilohlar vositasida murakkab ma‘no-mazmun ifodalangan. U Navoiy ta‘biri bilan aytganda “majoz tariqi bilan haqiqat asrorini” kuylagan shoir. Uning har bir satridan oshiqliği, darveshliği, din-u iymonda sobitliği sezlib turadi¹¹¹.

Ishq-muhabbat mumtoz ijodkorlar singari Atoyi g‘azaliyotning yetakchi mavzusi. *“Ishq inson ruhiy-ma‘naviy olamida his-tuyg‘ular vositasida namoyon bo‘ladigan murakkab jarayon bo‘lib, har bir oshiq ko‘nglidan kechirgan bunday voqelikni o‘zicha talqin etadi. Badiiy ijod insonning botiniy kechinmalarining ham obrazli in‘ikosi bo‘lganligi bois o‘sha xilma-xillik so‘z san’atkorlarining badiiy tafakkuri mahsuli namunalarida adabiy ifodasini topadi”*.¹¹² Shoir g‘azallarida ilohiy va majoziy ishq bir-birini to‘ldiradi. Shoir salaflari singari **oshiq**, **ma’shuqa** va **raqib** obrazlari vositasida ISHQ masalasiga doir qarashlarini g‘azallari mag‘ziga singdirib yuboradi. Oshiq barcha sitam va ozorlarga sabrli. U shunchaki oshiq emas – *u qul oshiq, u*

¹⁰⁹ Devoni Shaxzoda Atoyi. T.: Fan, 2008.

¹¹⁰ Rafiddinov S. Majoz va haqiqat. – T.: Fan, 1995. 29-b

¹¹¹ S. Sayfullloh. Mavlono Atoyi. Kitobda: Devoni Shayxzoda Atoyi. T.: Fan. 2008. 11-b.

¹¹² Eshonqulov H. Alisher Navoiy g‘azaliyotida ishq poetikasining qiyosiy-tipologik tahlili (“Xazoyin ul-maoniyy” misolida). Filol. fan. dokt. (DSc) ... diss. – Buxoro: 2020. 60-b.

gado oshiq. U shunday oshiqki, ma'shuqaning "qulim" deb tan olishidan boshi ko'kka yetadi, u shu so'zning o'ziga banda (qul) bo'lishga tayyor.

Shaho, bizga nazar qilsang ne bo'ldi?

Gadoni mo'tabar qilsang ne bo'ldi?

Yoki

"Faloni qullarimdindur" demushsen,

Atoyi ushbu so'zga banda bo'lsun.

G'azal janrining yaratilishiga asos bo'lgan maqsad va muddao, ya'ni "ayollarga xushomad qilish", ularning nuqsonsiz ta'rif-u vasfini berish Atoyi lirikasida ham ustunlik qiladi. Shoir yorning qaddi-qomati, *yuzi, ko'zi, qoshi, sochi, kipriklari, og'zi, labi, xolini* ta'rif-tavsif qilar ekan, ularga mos tashbehnlarni topib ishlatadi. Jumladan, mumtoz she'riyatda ma'shuqaning beli qilga, chumolining beliga tashbeh qilinadi. Shoir bu borada ham hayotiy detallarni topib, o'ziga xos original tasvirlarni yaratadi. Yorning belini arining beliga o'xshatadi:

Saningdek husn ila hur-u pari yo'q,

Labi qand-u asal, beli ari yo'q

Ma'lumki, mumtoz g'azallarda ma'shuqaning tashqi qiyofasi nihoyatda go'zal tasvirlarda beriladi. Biroq uning ichki dunyosiga berilgan "ta'riflar" ham bir-biriga o'xshamaydi. U qalbi qattiq, zolim va jafokor, nomehribonga mehribon, ag'yorga do'st. U qotil, qonxo'r...

Labing qonim to'karga tashnalabtur,

Dami Iso-yu o'lturmak ajabtur.

Ma'lumki, har bir payg'ambarga Alloh taolo tomonidan bir mo'jiza berilgan. Iso alayhissalom o'lganlarni tiriltirishi bilan mashhur bo'lgan. Shuning uchun unga **Masih** – jon ato etuvchi, silovchi laqabi berilgan. Atoyining ta'kidicha, qizning labi oshiq qonini to'kishga tashna. Lablarining nafasi esa - Iso Masihdir, ya'ni oshiqqa jon ato etuvchidir.

"Masih timsolining o'zbek mumtoz adabiyotidagi badiiy talqini" mavzusida yirik tadqiqot yaratgan adabiyotshunos olim U. Qobilov Alisher Navoiy g'azaliga oid tahlilida shunday yozadi: "*Yorning labidan yog'ilayotgan kalom shu qadar dilkash, dilraboki, bunday jonfizolik Masih nafasida ham yo'q. Baytda talmeh san'ati sifatlash uchun xizmat qildirilib, tajohulu orifona san'atini vujudga keltirgan. Natijada*

*she'rdagi badiiyat unsurlari g'oya mukammalligini ta'minlagan"*¹¹³. Demak, har bir ijodkor Iso Masih obraziga diniy manbalarga tayangan holda o'ziga xos uslubda yondashgan.

Atoyi g'azallari tili shirali, sodda. Buning uchun u xalq tiliga suyandi, folklor motiv va obrazlaridan unumli foydalandi. Natijada favqulodda tasvirlar, ohorli tashbehlar, bejirim timsollar yaratadi. Xalq maqol va iboralari shoir g'azallarining xalqchilligini ta'minlashning asosiy vositasi bo'lib xizmat qilgan. Fikrimizni quyidagi g'azal tahlili misolida asoslashga harakat qilamiz:

Yuz sari bo'ldi ravon ikki ko'zumdin juy bor,
Sarvi diljo'yum, ne bo'ldi, bir buyon qilsang guzor.

Sen o'shal sultoni husunsen, ki bo'stonlar aro,
Davlatingdin **gul eshigin el ochibon, el yopor.**

Bo'ldi bag'rim suv g'amingdin, **yaxshilik qil, sol sug'a,**
Oxir, ey gulu xirmanni albatta, **har ekkan o'ror.**

Qildi jonimga meni shirin labing zavqi, bale,
Bu masaldurkim, **"kishi bol tutsa, bormog'in yolor"**

Davlatingdin ko'kka yetdi barcha qullarning boshi,
Ushbu ne toli'dur, oyim, bizga yetsang tong otor?

Orzingizni har necha so'rdum, tiladim, topmadim,
Go'yiyo bu so'z g'alatdurkim, **"tilogonlar topor".**

Zulfungizdin gar Atoyi, boshqa ko'rsa, ne ajab
Kim, ko'rarmen **"bir sinog'onni yana ikki sinor"**¹¹⁴.

Oshiqona mavzuga bag'ishlangan mazkur g'azalda irsoli masal san'atidan mahorat bilan foydalanilgan. **Irsoli masal** – arabcha so'z bo'lib, **"maqol keltirish"** degan ma'nolarni bildiradi. Mumtoz

¹¹³ Qobulov U. Masih timsolining o'zbek mumtoz adabiyotidagi badiiy talqini (XII-XV asrlar). Filol. fan. nomz. ... diss. – S., 2001.

¹¹⁴ Devoni Shaxzoda Atoyi.T.: Fan, 2008. 93-b.

poetikaga doir manbalarda bu san'atga shunday ta'rif berilgan: "Irsoli masal gapda yoki she'rda maqol, matal va hikmatli so'zlarni muayyan maqsadda tamsil yo'li bilan ishlatish san'atidir". Maqollar fikr tasdig'i uchun keltirilar ekan, aytilayotdan fikr tinglovchida e'tiroz tug'dirmaydi.

G'azalning dastlabki baytida oshiqning holi zabun ekanligi mubolag'ali tarzda tasvirlanadi. Ma'shuqa yo'lga intizor bo'lgan lirik qahramonning ikki ko'zi ariq (jo'y) ga qiyoslangan. Ya'ni "sarvi diljo'y" oshiq sari "bir buyon guzor qilmasligi" sababli oshiq ko'zlaridan to'kilgan yoshlar ariqdagi suv kabi ravon bo'lgan.

Ikkinchi baytda husni ta'lil san'atining go'zal namunasi yaratilgan. Ma'shuqa - husn elining shohi. Uning davlati (husni)dan gulzorda gul eshigini (bargini) shamol ochib, yopadi.

Bir donishmanddan "Nimani esda saqlab, nimani unutmoq kerak?"- deb so'rabdilar. U: "Agar kishilar senga yaxshilik qilgan bo'lsalar, ularni unutma, agar sen birovga yaxshilik qilgan bo'lsang unut" deb, javob beribdi. Shu pand-nasihatdagi g'oya g'azalning uchinchi baytiga singdirilgan. Ma'shuqa g'amidan "bag'ri suv bo'lgan" (mubolag'a) oshiq umidini uzmaydi, yaxshilik qilishda davom etadi. U yaxshilikning, albatta, yaxshilik sifatida qaytishiga ishonadi. G'azalda fikr tasdig'i uchun esa shoir "har kim ekanini o'radi" maqolidan foydalandi. G'azalning to'rtinchi baytida ham "Bol tutgan barmog'ini yalar" maqoli to'liq shaklda keltirilgan. Oshiq qanchalik ozor, ranj topmasin, ma'shuqa visolidan umid uzmaydi. Ya'ni bu "ozorlar" bir kun kelib "bol" - visolga aylanishiga ishonadi.

Insonni o'z maqsadi yo'lida mashaqqatlardan qochmasligi, ishonch bilan harakat qilishi bilan bog'liq juda ko'p maqollar yaratilgan. Ana shulardan biri "Tilagan - tilaganini topar". Ma'shuqa davlatidan, ya'ni marhamatidan boshqalarning boshi ko'kka yetgan, biroq bu muruvvatdan lirik qahramon mahrum. U tilaganini topolmaydi. Shunday bo'lsa-da, u "tilaganini topishga" ishonadi.

Xalqda: "Ot sinovi bir bo'lar, do'st sinovi ming bo'lar",- degan maqol bor. Maqolda do'stlikning sinovlarda toblanishi, sinovlardan o'tgan do'stlik haqiqiy hisoblanishi ta'kidlangan. G'azal ma'tasida ham oshiq o'z ishqining sofligini, haqiqiylikini ta'kidlash uchun **"bir sinog'onni yana ikki sinor"** maqolidan foydalanadi. Zulf so'zi orqali ma'shuqaga ishora qilingan. "Agar sendan boshqani ko'rsam,

ishqimni yana bir sinab ko‘r” tarzidagi fikr maqol orqali badiiy ifodalangan.

Zulfungizdin gar Atoyi, boshqa ko‘rsa, ne ajab

Kim, ko‘rarmen **“bir sinog‘onni yana ikki sinor”**.

Albatta, birgina g‘azalda shuncha maqol va iboralarni qo‘llash ijodkordan juda katta mahoratni talab qiladi.

Atoyi husni ta‘lil san‘atidan ham mahorat bilan foydalangan. Bu san‘at to‘g‘risida Atoulloh Husayniy “Badoyi’ us-sanoyi” asarida shunday yozadi: *“Husni ta‘lil uldurkim, bir nimaning bir sifatini iqrar qilurlar va ul sifatni isbot qilish uchun ul nimaning o‘ziga munosib bir illat-u sababini keltirurlarkim, haqiqatta ul sabab bo‘lmag‘ay, lekin lutf e‘tibori bila ani sabab qilg‘an bo‘lurlar”*.¹¹⁵ Demak, **Husni ta‘lil** – chiroyli dalil keltirish bo‘lib, shoirlar o‘z fikrlarini badiiy go‘zal shaklda asoslash uchun bu san‘atga murojaat qiladilar. Bunda keltirilgan dalil ifodalangan fikrning haqiqiy sababi bo‘lmay, shoirlar lutf yuzasidan uni sabab qilib ko‘rsatadilar. Jumladan,

Jamoling vasfini qildim chamanda,

Qizordi gul uyottin anjumanda

Yoki

Jamoling infiolindin qizil gul,

Qaro boshin olib ketdi chamandin.

Shoir anjumanda yorning go‘zalligini vasf qilar ekan, gullar xijolatdan, ya‘ni uyatdan qizarib ketdi. Baytda tashxis va husni ta‘lil san‘atlari birga kelgan. Ya‘ni gulning qizarishiga ma‘shuqaning go‘zalligini sabab qilib keltirish husni ta‘lilni hosil qilsa, gullarning xijolatdan – uyatdan qizarib ketishi tashxis san‘atini hosil qiladi.

Keltirilgan ikkinchi baytda ham ma‘shuqa jamolidan uyalgan (infiol) qizil gul holati husni ta‘lil san‘ati orqali berilgan. Gullar yor jamolidan uyalib, chamandan “qora bosh”larini olib ketdi. Mazkur baytda ham husni ta‘lil va tashxis san‘atlari birga kelgan.

Atoyi mahoratini ko‘rsatuvchi juda ko‘p ohorli baytlar borki, bu ulug‘ shoirning Alisher Navoiy ta‘kidlaganidek, xalq orasida alohida e‘tibor qozonishining asosiy sababidir. Shoir shuhratining yana bir omili uning “turkona” yozganligidir. Buning uchun u xalq tiliga yaqin bo‘lgan vaznlar (ramal, hazaj)dan foydalandi, xalq og‘zaki ijodiga astoyidil tayandi. Jumladan, xalq tasavvurida xazinalar vayronalarda

¹¹⁵ Atoulloh Husayniy. Badoyi’ us-sanoyi’.T.: G‘. G‘ulom nomida Adabiyot va san‘at nashriyoti, 1981. 136-b.

bo'lishi bilan bog'liq qarashlar mavjud, bu haqidagi qarashlar ertak va dostonlarga ko'chgan. Atoyi ana shu qarashlardan ma'shuqa ta'rifida mahorat bilan foydalandi:

Menu ko'nglumdase, ey husn ganji
Vale, har ganj erur vayronaga loyiq¹¹⁶.

Yoki

Chun muqarrardurki, sen husn-u malohat ganjisen,
Ayb emas, gar lutf etib kelsang bu vayron ko'ngluma.

Har ikkala baytda ham ma'shuqa malohat ganjiga, oshiq ko'ngli esa vayronaga qiyoslangan. Ganj esa vayronada – ya'ni oshiq ko'nglida pinhon bo'ladi.

Xulosa qilib aytganda, Atoyi lirikasi mavzu va g'oya, badiiyat jihatdan yetuk. U mumtoz she'riyatimiz xazinasiga munosib hissa qo'shdi, ayniqsa, turkiy g'azalnavislikda o'ziga xos maktab va uslub (turkiy) yaratib, keyingi davr turkiy she'riyatning taraqqiyoti uchun xizmat qiluvchi ijodiy meros yaratib qoldirdi. Quyidagi faxriya misralar buning dalilidir.

Atoyi so'zlari lutfiga yetmaguncha kishi,
Kamol-u zehn-u zarofatni ko'rmagantek edi.

Yoki

Quloq solsang Atoyi so'zlariga,
Nisor etgay sanga yuz durri maknun.

Atoyining “O'lturur erdi meni hijron xayoling bo'lmasa”, “Gardundin o'tar nolai zorim kechalarda”, “Jodu ko'zungki, bordir aning fitna qoshida”, “Boqar ohulayin har yon o'shal ikki qaro ko'zlar”, “Dilbar firoqida bu ko'ngul xastahol erur”, “Ey kamoli husni Yusufdin jamoling yodgor”, “Ey sarvi noz, qaysi chaman guluzorisan?”, “Bo'yung naxleki, rashk eltur base sarvi ravon andin”, “Jahondin telba ko'nglumning bor erdi xush tabarrosi”, “Ey soching zanjirining aqlu xirad devonasi” misralari bilan boshlanadigan g'azallari milliy qo'shiqchiligimizning oltin xazinasidan joy olgan.

¹¹⁶ Devoni Shaxzoda Atoyi.T.: Fan, 2008. 122-b.

Mavzuni mustahkamlash uchun savol va topshiriqlar:

1. Alisher Navoiyning “Majolis un-nafois” hamda “Nasoyim ul - muhabbat” asarlarida Atoyi haqida keltirilgan ma’lumotlar shoir shaxsiga doir qaysi jihatlariga oydinlik kiritadi deb o’ylaysiz?
2. Atoyi ijodini o’rganish bo’yicha qanday ishlar amalga oshirilgan?
3. Atoyi lirikasida qanday mavzular yetakchilik qiladi?
4. Oshiq va ma’shuqa obrazalari tasvirida Atoyining mahoratini misollar bilan asoslashga harakat qiling.
5. Shoir g’azallarida qo’llangan tajohuli orif, tamsil san’atlariga misol keltirib, baytlarni tahlil qiling.
6. Atoyining irsolu masal san’atidan foydalanishdagi mahoratiga baho bering.
7. Atoyi she’riyatida ilohiy va majoziy ishq qanday tasvirlagan?

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Navoiy Alisher. Majolis un-nafois. MAT. XX jildlik. XIII jild. –T.: Fan, 1997.
2. Atoyi. Devon Shayxzoda Atoyi. Nashrga tayyorlovchi, so’zboshi, lug’at va izohlar muallifi: Sayfiddin Sayfulloh. – T.: Fan, 2008.
3. Vohidov R., Eshonqulov H. O’zbek mumtoz adabiyoti tarixi. – T.: O’zbekiston Respublikasi Yozuvchilar uyushmasi Adabiyot jamg’armasi nashriyoti, 2008.
4. O’zbek mumtoz adabiyoti namunalari. 2-jild. (XIV–XV asrning boshlari). Tuzuvchi, izoh va sharhlar muallifi: filologiya fanlari doktori, professor Nasimxon Rahmon. – T.: Fan, 2007.
5. Rahmonov N. O’zbek adabiyoti tarixi. (Eng qadimgi davrlardan XY asrning birinchi yarmigacha). “Sano -standard” nashriyoti. 2017
6. S. Sayfulloh. Mavlono Atoyi. Kitobda: Devoni Shayxzoda Atoyi. T.: Fan. 2008.
7. Rafiddinov S. Majoz va haqiqat. – T.: Fan, 1995.

O'N BIRINCHI MAVZU:
SAKKOKIY HAYOTI VA IJODI

Reja:

1. Sakkoikiyning hayoti va ijodiy merosi.
2. Sakkokiy – qasidanavis.
3. Shoirning lirik merosi va uning mundariyasi.

TAYANCH TUSHUNCHALAR:

- | | |
|-----------------------|-----------|
| • “Majolis un-nafois” | • oshiq |
| • “Badoe’ ul-bidoya” | • ma’shuq |
| • devon | • raqib |
| • sohibdevon | • ishq |
| • qasida | • ramal |
| • g’azal | • hazaj |

Sakkokiy - o‘zbek mumtoz adabiyotining yorqin vakili. Betakror g‘azallar va qasidalar yaratgan yetuk iste’dod egasi, lirik shoirlardan biridir.

Adabiyotshunoslarning ma’lumotiga qaraganda, Sakkokiyni hayoti va faoliyati haqida bizgacha juda kam ma’lumot yetib kelgan. Uning tug‘ilgan hamda vafot etgan yili haqida ma’lumot saqlanib qolmagan. Samarqandda Xalil Sulton va Ulug‘bek hukmronligi davrida yashab, ijod etgan. U haqdagi ma’lumotlar o‘z devonida hamda Alisher Navoiy, Yaqiniy, Shayx Ahmad Taroziy asarlarida saqlanib qolgan. Shayx Ahmad Taroziy shoirni “Majma’ ul-aql”, “Zahir ul- mutaaxxirin”¹¹⁷ deb sharaflasa, Alisher Navoiy “Majolis un-nafois” asarida “...turkiygo‘y shuarodin, xoh Mavlono Lutfiy va xoh Mavlono Sakkokiykim, Movarounnahrda malik ul-kalom erdilar”¹¹⁸, “Badoyi’ ul-bidoya” muqaddimasida “Turkiy alfozining bulag‘osindin Mavlono Sakkokiy ham Lutfiylarkim, birining shirin abyotining ishtihori Turkistonda bag‘oyat va birining latif g‘azaliyotining intishori Iroq va Xurosonda benihoyatdudur”,¹¹⁹ - deya baho bergan. Yaqiniy “O‘q va yoy” asarida Sakkokiyni “turk (o‘zbek) shoirlarining mujtahili (g‘ayratlisi)” deb ta’riflaydi. Ana shu ta’riflarning o‘ziyoq

¹¹⁷ <https://kh-davron.uz/kutubxona/uzbek/sakkokiy-poetry-2.html>

¹¹⁸ Navoiy Alisher. Majolis un-nafois. MAT. XX jildlik. XIII jild.– T.: Fan, 1997. 171- bet.

¹¹⁹ Navoiy Alisher. Badoyi’ ul-bidoya. MAT. XX jildlik. I jild– T.: Fan, 1987. 11-b.

Sakkokiyning o'z zamonasining yetuk va zabardast shoirlaridan biri ekanligini bildiradi.

Sakkokiy - shoirning taxallusi. "Sakkok" - pichoqchi degani. Bundan shoirning hunarmand oilada tug'ilgan degan xulosaga kelish mumkin.

Sakkokiy XIV asrning ikkinchi yarmida yoki XIV asrning oxirgi choragida tug'ilganligini hijriy 810 (1407-1408) yilda Amir Temurning nabirasi Xalil Sultonga bag'ishlagan qasidasidagi:

Tarixqa sakkiz yuz dog'i o'n erdi-yu qadr axshomi,

Bir oy tug'uldi dunyoda kim mamalakatda xon erur¹²⁰ - misrasidan taxminan bilib olish mumkin. Sakkokiy ijodining gullagan davri Ulug'bek hukmronlik qilgan davrlarga (1409-1449) to'g'ri keladi. Shoir ilm va fan homiysi Mirzo Ulug'bek saltanatidan panoh topgan. Shuning uchun bo'lsa kerak, ma'rifatparvar podshoh bilan zamondosh bo'lganidan faxrlanib, shunday yozadi:

Falak yillar kerak sayr etsa-yu keltirsa ilkiga,

Meningdek shoiri turk-u seningdek shohi dononi¹²¹.

Malumki, bu davrda Samarqand poytaxt sifatida barcha ilm va adabiyot ahlini o'zida jamlagan edi. Sakkokiy mana shu shoirlar jumlasidan bo'lib, g'azalnavislikda sanatkorlik mahoratini yaxshi egallab, o'zbek qasidachiligining asoschilaridan biri bo'ldi. Navoiy "Badoe' ul-bidoya" devoni debochasida o'zbek shoirlaridan Sakkokiy va Lutfiyning kitobxonlarga manzur bo'lib, shuhrat qozongani haqida bunday deydi: *"Uyg'ur iborati fusahosindin va turkiy alfozining bulag'osindin Mavlono Sakkokiy ham Lutfiylarkim, birining shirin abyotining ishtihori Turkistonda beg'oyat va birining latif g'azaliyotining intishori Iroq va Xurosonda benihoyatdurur va devonlari mavjud bo'lg'ay."*¹²²

Alisher Navoining ta'kidicha, Sakkokiy-sohibdevon. Biroq adabiyotshunoslarning e'tiroficha, shoir devonining to'liq nusxasi haligacha topilmagan. Bizgacha Sakkokiy qasidalari va g'azallari jamlangan devonining 2 ta noto'liq, deyarli bir xil: Britaniya Muzeyida (taxminan XVI asr o'rtalarida ko'chirilgan nusxa) 2079, O'zbekiston FA Abu Rayhon Beruniy nomidagi Sharqshunoslik institutida (1937

¹²⁰ <https://ziyouz.uz/ilm-va-fan/tarix/manaviyat-yulduzlari/sakkokiy-xv-asr/>

¹²¹ <https://ziyouz.uz/ilm-va-fan/tarix/manaviyat-yulduzlari/sakkokiy-xv-asr/>

¹²² Alisher Navoiy. Badoe' ul-bidoya. MAT. 20 tomlik, 1-tom. T.:Fan, 1987. 14-b.

yil Shoislom kotib tomonidan ko'chirilgan nusxa) 7685 raqami ostida saqlanayotgan nusxalar yetib kelgan.¹²³

Adabiyotshuligimizda Sakkokiy lirik merosining nashrlari borasida qator ishlar qilindi. Jumladan, 1958-yilda Q.Munirov tomonidan nashrga tayyorlangan shoirning "Tanlangan asarlari"¹²⁴, "O'zbek adabiyoti bo'stoni" seriyasida nashr etilgan "Hayot vasfi"¹²⁵ kitobida shoir g'azallari nashr qilingan.

Qasida turkiy she'riyatning qadimiy janrlaridan biri. Bu janrning takomili Sakkokiy nomi bilan bog'liq. Uning Xoja Muhammad Porsoga, Xalil Sultonga atab bittadan va Ulug'bek Mirzoga atab 5 ta qasida yozgan. Ulug'bek Mirzoning Amiri kabiri Arslon Xoja Tarxonga ham 4 ta qasida yozgan.

Sharq she'riyatida devon tartib berishning o'ziga xos an'analari shakllangan. Navoiyga qadar devon tartib berilganda dastlab qasida janri joylashtirilgan. Sakkoiiy devonida ham shu hol kuzatiladi. Shoir devonda 22 baytlik sarlavhasiz hamd qasida keltirilgan.¹²⁶

Adabiyotshunosligimizda yaratilgan tadqiqotlarda Sakkoyi qasidalarining soni 11 ekanligi bilan bog'liq ma'lumot aytib kelingan. Biroq o'zbek adabiyotida qasida janrining tarixiy taraqqiyotini o'rgangan olim M. Hasanovanning e'tiroficha, "Shu kunga qadar shoirning *hamd va na't* qasidalar boshqa qasidalar qatoriga qo'shilmagan".¹²⁷ Olimaning ta'kidicha, uning hamd qasidasi 22 bayt, na't qasidasi 24 baytdan iborat. Demak, Sakkoiiyning jami qasidalar soni 13 ta.

Sakkokiy qasidanavis shoir sifatida shuhrat qozongan bo'lsa-da, g'azal janridagi asarlari o'zidan keyingi ijod qilgan shoirlar Lutfiy, Gadoiy, Atoyi, Navoiy ijodiga ham katta ta'sir ko'rsatgan.

G'azal – Sakkokiy she'riyatining yetakchi janri. Shoir lirik merosining asosiy mavzusi ishq-muhabbat ulug'lashdir. Ishq va muhabbat kalimalari arabcha so'z bo'lib, ma'no-mohiyatiga ko'ra har ikkalasi ham ko'ngilning mahbub tomon kuchli ishtiyoq bilan

¹²³ Hasanova M. XV asr turkiy she'riyatida qasida janri. Fil. fan. nom. ... diss. – Samarqand, 2018. 59-b.

¹²⁴ Sakkokiy, Tanlangan asarlar, Nashrga tayyorlovchi Munirov Q., T.: O'zSSR Davlat badiiy adabiyot nashriyoti, 1958.

¹²⁵ Hayot vasfi. O'zbek adabiyoti bo'stoni. -T.: G'.G'ulom nomidagi Adabiyot va san'at nashriyoti, 1988 yil, 227-285 betlar.

¹²⁶ Mavlono Sakkokiy devoni. – T.: Mumtoz so'z, 2017.1-16- betlar.

¹²⁷ Hasanova M. XV asr turkiy she'riyatida qasida janri. Fil. fan. nom. ... diss. – Samarqand, 2018. 63-b.

intilishini anglatadi.¹²⁸ Shoir gʻazallarida insoniy muhabbatni ulugʻlaydi, hayotdan zavq olishga, uning goʻzalliklaridan lazzatlanishga chorlash motivi ustunlik qiladi. Zamondosh shoirlar singari Sakkokiy gʻazallaridagi asosiy obrazlar – oshiq, maʼshuq va raqib obrazlaridir.

Oshiq – shoirning oʻzi. U sadoqat va vafoda tengsiz, ishq iztiroblaridan oʻrtansa-da, visol lazzatidan umid uzmaydi. Maʼshuqaning gul yuzini koʻrish ishtiyoqida uning koʻzi gulzor, shakkar irini tilagan joni afgor, oy yuzni koʻrish uchun koʻzlari jang (paykor) qilishga shay.

Gul **yuzungni** orzulab **yuz**, koʻzni gulzor ayladi,
Shakkar iriningni tilab jon tanni afgor ayladi.
Oymudur yuzung yoxud xurshedi tobon, ey sanam,
Bor aningtek shuʼlasi koʻzlarni paykor ayladi¹²⁹.

Shoirning mazkur gʻazali mumtoz gʻazalchiligimizning yorqin namunasidir. Gʻazal ishqiy mavzuda boʻlib, oʻziga xos tasviriy vositalar bilan bezangan. Buni gʻazalning daslabki baytida qoʻllanilgan tajnis sanʼati misolida ham kuzatishimiz mumkin. Sakkokiy **“yuz”** soʻzi orqali soʻz oʻyini qiladi. Yuz-son, yuz-inson yuzi maʼnosida. Misrada yuz son maʼnosidan tashqari “koʻp” maʼnoni anglatadi.

Eltti ogʻzingdin oʻgʻurlab pista torliqni, anga
Tuz suyin quydilar oncha ondin iqrar ayladi.

Ey Masihodam begim, bir dam bila bergil shifo,
Sheva birla koʻzlaring jonimni bemor ayladi.

Zohidikim koʻrdi zulfung kufrin, yimondin kechib,
Boʻynida tasbihini beliga zunnor ayladi.

Koʻnglum emganmas¹³⁰, bale, sen necha achchigʻ soʻzlasang,
hun yarotigʻda Oʻgʻon gul qoʻngshisin¹³¹ xor ayladi.¹³²

Sakkokiy tasvirida maʼshuqa nafaqat goʻzal va dilrabo, balki u Iso nafasli, yaʼni tiriltiruvchi, hayot bagʻishlovchi. Uning zulfini

¹²⁸ Komilov N. Tasavvuf. Birinchi kitob. –T.: Yozuvchi, 1996. 49 -b.

* *Emganmas-qiynalmas; qoʻngshi - qoʻshni*

¹²⁹ <https://kh-davron.uz/kutubxona/uzbek/sakkokiy-poetry-2.html>.

¹³⁰ *emganmas – qiynalmas*

¹³¹ *qoʻngshi – qoʻshni*

¹³² <https://kh-davron.uz/kutubxona/uzbek/sakkokiy-poetry-2.html>.

ko'rgan zohid iymonidan ayrilib, tasbehini beliga zunnor qilishga tayyor. Shoir bu bilan sharqda mashhur bo'lgan "Shayx Sa'non qissasi"ga tayangani shubhasiz. Yuqorida keltirilgan baytlarda mubolag'a (pista og'zining nozikligini ma'shuqa og'zidan olganligi), talmeh (Masih) san'atlaridan mahorat bilan foydalangan.

Ishq yo'lida ma'shuqa visolidan, muhabbatidan umidvor bo'lgan oshiq uning had-hisobsiz jabr-u jafolaridan aziyat chekadi:

Ishq ishin Sakkokiy avval bilmayin oson ko'rub,
Oxiri o'z jonining ishini dushvor ayladi¹³³.

Oshiq ishq yo'lni azoblardan chekinmaydi. Aks holda u haqiqiy oshiq emas, balki bulhavas oshiqqa aylanadi. Shuning uchun shoir lirik qahramoni azoblarga bardoshli, sabr-matonatli. Uning ishq Farhodning Shiringa bo'lgan ishqidan kam emas. Agar Farhod ma'shuqasining ishqida "Ko'hkan" bo'lgan bo'lsa, Sakkokiy ta'rifidagi oshiq bu yo'lda "jonkan" bo'lishga tayyor.

Agar Shirin uchun Farhod ishq ko'hkan bo'lsa,
Ne tong Sakkokiy ham, jono yo'lingda jonkan bo'ldi¹³⁴.

Sakkokiy g'azaliyotida mumtoz shoirlar singari ma'shuqaning nuqsonsiz tasvirini berish, uning husnda tengsizligi, latofatda o'xshashi yo'qligini vasf qilish ustuvor. Sarv va sanobar uning qomati olida xijolatda, zulfiga sunbul-u rayhon tenglasha olmaydi. Ayniqsa, shoir g'azallarida ma'shuqa ko'zlari ayricha muhabbat bilan tasvirlanadi.

Ta'kidlash kerakki, mumtoz ijodkorlar ma'shuqaning ko'zini ohuga, nargizga tashbeh qilib, uning fitnagarligini, jodu - jon oluvchiligini ham tasvirlashda o'ziga xos tashbehlar tanlaydilar. Shu orqali ma'shuqaning jafokorligiga e'tibor qaratadilar. Sakkokiy ijodida ham ko'z tasviri ayricha muhabbat bilan vasf qilingan.

Ko'z yuzni yuzing shavqida yaxshi chaman etti,
Erning aqiqi orzusi ko'zni Yaman etti.

Yoki

Chinu hind elin parishon ayladi zulfung, vale,
Qildi yag'mo ko'zlaring majmui Turkistonni.

¹³³ <https://kh-davron.uz/kutubxona/uzbek/sakkokiy-poetry-2.html>.

¹³⁴ <https://kh-davron.uz/kutubxona/uzbek/sakkokiy-poetry-2.html>.

Oshiq ko'zlari ma'shuqa yuzini ko'rgach yuzlari chamanga, aqiq lablarining orzusidagi ko'zlari esa Yamanga aylangan. Albatta, bu o'xshatishlar o'z asosiga ega. Yaman joy nomi. Yaman aqiqi - bu qizil rangli qimmatbaho tosh. Mumtoz adabiyotda ma'shuqa labi aqiqqa o'xshatiladi. Shoir oshiq ko'zini Yamanga o'xshatishida, ma'shuqaning oshiq ko'zida o'rnashganiga ishora qiladi.

Ikkinchi baytda shoir ma'shuqaning ko'z bilan zulf uzvlaridan keladigan "ozor"larga to'xtaladi. Mumtoz she'riyatda zulf parishonlik va hijron ramzi. Ma'shuqa zulfi Chin va hind elini parishon aylagan bo'lsa, ko'zlari Turkistonni talan - taraj (yag'mo) ayladi.

Shoir bu tasvirlar orqali oshiqning vujudida paydo bo'lgan ishqning kuydiruvchi, holini zabun qiluvchi xususiyatlarini ta'kidlash bilan birga, ma'shuqaning husn-u latofatda tengsiz, yagonaligini mubolag'ali tasvirlashga erishadi.

Sakkokiyl she'riyatida ma'shuqa ta'rifi bilan birga oshiqning ruhiyl holati, iztiroblari ham mubolag'ali tasvirlarda berilgani kuzatiladi. Bu jihatdan shoirning **"Furqatingda, ey pari, tan kuydi-yu jon yig'ladi"** misrasi bilan boshlanuvchi g'azali e'tiborni tortadi. G'azal ramali musammani mahzuf vaznida yozilgan. G'azalning qahramoni ayriliqda kuygan oshiq. Dastlabki baytida shoir mubolag'adan mahorat bilan foydalangan:

Furqatingda, ey pari, tan kuydi-yu jon yig'ladi,

Dambadam xud qayg'udin ikki ko'zum qon yig'ladi.

"Qon yig'ladi" ibora. Mazkur ibora o'zbek tilining izohli lug'atida "Qattiq ezilib kuyib yig'lamoq, qattiq azobli holatda bo'lmoq"¹³⁵ ma'noda qo'llanishi ta'kidlangan. Mazkur ibora she'riyatda oshiqning turli holatdagi ruhiyatini ifodalash uchun qo'llanadi. Yuqoridagi baytda pari (ma'shuqa)dan ayrilgan oshiqning ishqdan tani kuyishi, qayg'udan ikki ko'zi qon yig'lashiga sabab bo'lgan. Bu esa mubolag'a san'atini hosil qilgan. "Jonining yig'lashi" esa tashxis san'atini hosil qilgan. Tashxis - arabcha so'z, shaxslantirish degan ma'noni anglatadi. Jonlantirish badiiy san'atining bir turi; turli narsalar, hayvonlar, qushlar, o'simliklar va boshqalarga insoniy xususiyatlarni ko'chirish san'ati¹³⁶.

¹³⁵ O'TIL, Y jild, 329-b.

¹³⁶ Hojiahmedov A. Mumtoz badiiyat malohati. -T.: Sharq, 1990. 150-b.

Gʻazalning keyingi baytlarida oshiqning holati tadrijiy rivojlantirib boriladi. Endi nafaqat oshiqning joni, koʻzi yigʻladi, balki dardiga davo topolmagan dor-u darmon, ishqidan hayratlangan shamʻ yigʻladi. Bu oʻrinda ham tashxis (shamʻ va doru darmon yigʻlashi) sanʼatidan foydalanigan.

Hech davo yoʻq dardkim jonimda bor, oni koʻrub,
Toʻnin chok etti tabib-u dor-u darmon yigʻladi.
Dur tishinggu gul yuzung vasfidin kechti hadis,
Shamʻ hayrat oʻtina yondi-yu soʻzon yigʻladi.

Mumtoz gʻazallardagi kabi Sakkokiy sheʼriyatida ham oshiq, maʼshuq, raqib obrazalari yonma-yon qoʻllanadi. Raqib shavqatsiz, zolim, u oshiq va maʼshuq ishqiga rahna soluvchi obraz sifatida namoyon boʻladi. Sakkokiyning mazkur gʻazalida raqib “rahmdil”, u oshiq holatidan “chinmu yolgʻon” yigʻlaydi.

Eshikingda it bikin bostim necha yil qovrulub,
Ushbu holimni koʻrub kofir, musulmon yigʻladi.

Yigʻladi hatto raqibning kelgʻondan rahmi manga,
Bori ul qattiq koʻngulluk chinmu yolgʻon yigʻladi.

Bildilar yuzdin koʻrub Sakkokiy holin soʻrmayin,
Xos-u om-u shahr-u deh, dono-yu nodon yigʻladi¹³⁷.

It mumtoz sheʼriyatda koʻp uchraydigan obrazlardan. Oʻzbek folklorida it timsoli koʻpincha vafodor va sodiq hamroh, yoʻldosh, homiy-koʻmakchi poetik vazifalarida talqin qilingan. Mazkur gʻazalda ham it vafodorlik timsolida qoʻllangan. Gʻazal maqtaʼsida shoir oshiq holatni mubolagʻali tarzda ifodalab, uning holatiga “Xos-u om-u shahr-u deh, dono-yu nodon yigʻladi” deb xulosalaydi. Mubolagʻali tasvir bilan boshlangan gʻazal xuddi shu tarzda yakunlanadi.

Sakkokiyning baʼzi gʻazallarida it - raqib (agʻyor) sifatida talqin qilingan baytlarni ham uchratishimiz mumkin. Quyidagi baytlarda oshiqning hasratiga urgʻu berilgan. U hatto raqibini it kabi yor ostonasida zor boʻlishini, agʻyorning jafosi joniga yengil (sahl) boʻlar edi, qachonki yor u bilan yor (doʻst) boʻlsa. Shoir tajnisdan mahorat bilan foydalangan.

¹³⁷ <https://ziyouz.uz/ozbek-sheriyati/ozbek-mumtoz-sheriyati/sakkokiy>.

O'larda qolmag'ay erdi ko'ngulda bu hasrat,
Raqib it bikin eshikda zor bo'lsa edi.
Jonimg'a sahl erur erdi jafosi **ag'yorning**,
Agar ko'ngul bila ul yor yor bo'lsa edi.
Raqib tishlamas erdi seni, ey Sakkokiy,
Aning iticha sanga e'tibor bo'lsa edi.¹³⁸

Bundan ko'zlangan maqsad esa ishqning falsafiy va ijtimoiy mohiyatini lirik kechinmalar zamirida berish, lirik qahramonning real hayot haqidagi qarashlari, shulardan kelib chiqadigan hayotiy xulosalarini bo'rttirib tasvirlashdan iborat.

Sakkokiy she'riyati, undagi tasvir usullari o'zbek mumtoz she'riyatini badiiyat jihatidan yuqori pog'onaga yuksalishi uchun xizmat qilganligini dalillovchi juda ko'p misollarni keltirish mumkin. Jumladan,

Jonim fidosi aning, koshki mening bu tanim
Oti tuyuqidin uchqon g'ubor bo'lsa edi.
Ko'zum bag'ir qonidin yuz **nigor** qilmas edi,
Agar ko'ngulga muvofiq **nigor** bo'lsa edi¹³⁹.

Sakkokiy oshiq tani ma'shuqa otining tuyog'i g'uboriga aylanishini, ko'zi esa bag'ir qonidan nigor bo'lishini istaydi. Xuddi shunga yaqin tasvirni Alisher Navoiyning "Qaro ko'zum" g'azalida o'qiymiz:

Takovaringg'a bag'ir qonidin hino bog'la,
Itingg'a g'amzada jon rishtasin rasan qilg'il.

Shoir baytda ma'shuqa mingan otiga oshiqning bag'ir qonidan hino bog'lashni, itiga esa oshiq jonining rishtalaridan arqon yasashni iltijo qilish bilan Sakkokiy baytidagi mazmunni yanada kuchaytirgan.

Sakkokiy g'azallarining tili va uslubi sodda. Bu xususiyatlarni ta'minlagan asosiy omil ularning vazni hisoblanadi. Sakkokiy g'azallarining ko'pchiligi turkiy she'riyatda "ko'p va xo'p" qo'llangan ramal bahrída yozilgan. Mazkur bahr xalq she'riyatiga yaqin bo'lgan xususiyatlarni o'zida aks ettirganligi bilan boshqa bahrlardan farq qiladi. Alisher Navoiy "Mezonul avzon" asarida ramal bahrining xususiyatlari haqida quyidagilarni yozadi: "Yana surudedurkim, ani "turkiy" debdurlar, bu lafz anga alam bo'lubtur va ul g'oyatdan

¹³⁸ <https://ziyouz.uz/ozbek-sheriyati/ozbek-mumtoz-sheriyati/sakkokiy>.

¹³⁹ <https://kh-davron.uz/kutubxona/uzbek/sakkokiy-gazal-qasida.html>.

tashqari dilpisand va ruhafzo va nihoyatdin mutajoyiz aysh ahliga sudmand va majolis oro suruddur...”¹⁴⁰

Ramal bahrini hosil qilgan foilotun rukni xalq qo'shiqlariga xos ravonlik, o'ynoqilikni ta'min etadi. Demak, bunday xususiyat Sakkokiy she'riyati turkiy adabiyotning ildizi bo'lgan xalq og'zaki ijodidan oziqlanganligidan dalolat beradi. Sakkoiiy devonidagi g'azallar turkiy she'riyatida ko'p qo'llangan hazaj, rajaz bahrlarida ham yozilgan. Bunday bahrlar sodda bahrlar sanaladi. Biroq shoir devonida murakkab bahrlarda yozilgan g'azallar ham uchraydi. Masalan, *mustaf'ilun* + *foilotun* ruknlarining birikuvidan hosil bo'lgan mujtass bahridagi g'azallar ham shoir devonida mavjud. Bunga misol qilib quyidagi baytni keltirishimiz mumkin:

A-gar qo-shim/da o'-shal gul/ uzor(i) bo'l/sa edi,

G'ame yo'q er/di,g'amim gar/ hazor bo'lsa edi.

V – V – / V V– –/ V –V – / V V –

Mafoilun /failotun / mafoilun/ failun

Sakkokiy g'azallarining vaznini kuzatganimizda, ularda aruzga xos fonetik hodisalar u qadar ko'p kuzatilmaydi. Mumtoz she'riyatda tez-tez ko'zga tashlanuvchi *vasl*, *imola*, *iste'lof* kabi hodisalargina Sakkokiy g'azallarida uchraydi. Buni esa shoir g'azallaridagi ohangdoshlik va o'ynoqilikni ta'minlagan muhim omil sifatida baholashimiz mumkin.

Xulosa qilib aytganda, Sakkokiy o'z g'azallarida majoziiy (insoniiy) muhabbatni tarannum etdi, vafo va sadoqatni, shodlik va quvonchni ulug'ladi. Vafosizlik, riyokorlik, jabr-zulmni qoraladi. Shoir ijodiiy merosi mumtoz adabiyot taraqqiiyotida munosib hissa bo'lib qo'shildi.

Mavzuni mustahkamlash uchun savol va topshiriqlar:

1. Sakkoiiy hayoti va ijodi haqida qanday ma'lumotlar saqlanib qolgan?
2. Shoir haqida qaysi manbalarda ma'lumotlar berilgan?
3. Alisher Navoiyning qaysi asarlarida Sakkokiy haqida ma'lumot ketirilgan?
4. Shoir devonining janrlar tarkibida xususida ma'lumot bering.
5. Sakkokiy qasidalari xususida nimalarni bilasiz?

¹⁴⁰ Alisher Navoiy. Mezon ul -avzon. T.: 1967, 181-bet.

6. Shoir qasidaları adabiyotshunosligimizda kimlar tomonidan o'rganilgan?
7. Sakkokiy qasidalarida o'z davrining ijtimoiy –siyosiy hayoti aks etganmi?
8. G'azal janrining takomillida Sakkokiyning o'rnini qanday baholaysiz?
9. Shoir g'azallarining mavzu mundarijasi haqida ma'lumot bering.
10. Sakkokiy g'azallarining lirik qahramonlari xususidagi fikrlaringizni misollar asosida bayon qiling.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Alisher Navoiy, Badoe' ul-vasat. MAT, 20 tomlik, 5-tom. T.:Fan, 1987
2. Navoiyning nigohi tushgan. –T.: G'.G'ulom nomidagi Adabiyot va san'at nashriyoti, 1986.
3. 3 Rahmonov N. O'zbek adabiyoti tarixi. (Eng qadimgi davrlardan XY asrning birinchi yarmigacha). “Sano - standard” nashriyoti. 2017.
4. Sakkokiy. Tanlangan asarlar. Nashrga tayyorlovchi Munirov Q. T.: O'zSSR Davlat badiiy adabiyot nashriyoti, 1958.
5. Mavlono Sakkokiy devoni. – T.: Mumtoz so'z, 2017.
6. Mallayev N. O'zbek adabiyoti tarixi. Birinchi kitob. T.: O'qituvchi, 1976.
7. Shayx Ahmad ibn Xudoydod Taroziy. Funun ul-balog'a// O'zbek tili va adabiyoti, 2002, №1-6, 2003, №1-3.
8. Ergashxo'jayev M. Sakkokiy va uning devoni haqida.//O'zbek tili va adabiyoti, 2005, №3. 110-b.
9. Hayot vasfi. O'zbek adabiyoti bo'stoni. -T.: G'.G'ulom nomidagi Adabiyot va san'at nashriyoti, 1988.

O'N IKKINCHI MAVZU:

GADOIY HAYOTI VA IJODI

Reja:

TAYANCH TUSHUNCHALAR:

- | | |
|--------------------|------------------------|
| • Temuriylar davri | • taxallus |
| • turkiygo'y | • “Majolis un –nafois” |

- devon
- qo'lyozma
- g'azal
- iyhom
- xalq og'zaki ijodi
- manba
- badiiyat

XV asrdagi o'zbek adabiyotining zabardast ijodkorlaridan yana biri **Gadoiydir**. U o'zbek mumtoz adabiyotining yirik namoyandasi, sohibdevon shoir. Gadoiy haqda juda kam ma'lumotlar saqlanib qolgan. Ulug' shoir Alisher Navoiyning o'z davri yetuk ijodkorlari haqida ma'lumot beruvchi "Majolis un-nafois" tazkirasida Gadoiy haqida ham qimmatli ma'lumotlarni yozib qoldirgan: "Mavlono Gadoiy – turkiygo'ydur, balki mashohirdindur. Bobur Mirzo zamonida she'ri shuhrat tutti, bir nav'i aytur va uning mashhur matla'laridin biri budurkim:

Ohkim, devona ko'nglum muftalo bo'ldi yana,

Bu ko'ngulning ilgidin jong'a balo bo'ldi yana.

Mavlononing yoshi to'qsondin o'tubdur. Bu matla' aningdurkim:

Dilbaro, sensiz tiriklik bir baloi jon emish

Kim, aning dardi qoshida yuz o'lum hayron emish"¹⁴¹.

Hazrat Navoiy Gadoiyni baland pardalarda ta'rif qiladi. Uning turkiygo'yligini, ya'ni turkiy tilda ijod qilganligini va iste'dodini namoyon qiluvchi ikki baytni misol sifatida keltirib o'tadi.

Alisher Navoiy o'zining "Muhokamat ul-lug'atayn" asarida ham turkiygo'y shoirlar haqida fikr yuritganda Gadoiyni Sakkokiy, Haydar Xorazmiy, Atoyi, Muqimiy, Yaqiniy va Amiriylar qatorida tilga oladi: *"To mulk arab va sort salotinidin turk xonlarg'a intiqol topti, Huloguxon zamonidan sultoni sohibqiron Temur Ko'ragon zamonidin farzandi xalafi Shohrux Sultonning zamonining oxirigacha turk tili bilan shuaro paydo bo'ldilar. Va ul hazratning avlod va ahfodidin ham xushtab' salotine zuhurg'a keldi: shuaro Sakkokiy va Haydar Xorazmiy va Atoyi va Muqimiy va Yaqiniy va Amiriy va Gadoiydeklar"*¹⁴². Alisher Navoiydan keyingi davr adabiyotiga tegishli bo'lgan manbalarda Gadoiy haqida ma'lumot uchramaydi.

Gadoiyning tarjimai holi bilan bog'liq ma'lumotlar to'liq yetib kelmagan. Gadoiy uning taxallusi. Adabiyotshunoslarning e'tiroficha,

¹⁴¹ Navoiy Alisher. Mukammal asarlar to'plami. XX jildlik. XIII jild. "Majolis un-nafois". – T.: Fan, 1997. 98- b.

¹⁴² Navoiy Alisher. Mukammal asarlar to'plami. XX jildlik. XVI jild. Muhokamatul-lug'atayn. – T.: Fan, 1997. 98- b.

uning bunday taxallus qo'llashi, bir jihatdan, quyi tabaqa vakili ekanligi bilan bog'liq bo'lsa, ikkinchidan, shoirning ishq – muhabbat gadosi ekanligiga ishoradir.

90 yildan ortiq umr kechirgan Gadoiy Sharq she'riyatini puxta egallab, go'zal asarlar yaratdi. Hozircha yagona nusxada bizgacha yetib kelgan uning devoni qo'lyozmasidagi merosi shoir dunyoqarashini, turmush voqealariga bo'lgan munosabatini, ruhiy kechinmalarini, uning san'atkorlik mahoratini, uslubini, zamondoshlari va o'zidan keyingi shoirlarga ta'sirini aniqlashda g'oyat muhim manbadir. Gadoiy g'azallari sodda va ravon tilda yozilgan. 230 g'azalidan 164 tasi va 5 to'rtligi aruzning eng xalqchil bahri bo'lmish ramal bahrida ijod etilganligi uning yuksak san'atkor ekanligidan nishonadir¹⁴³.

Gadoiy ijodiy merosini nashr qilish ishlarini boshlab bergan olim S. G'aniyeva hisoblanadi. Olima 1965-yilda Gadoiy she'rlaridan namunalarni to'plam holida nashr qildirdi.¹⁴⁴ S. G'aniyeva o'zining "Shoir Gadoiy"¹⁴⁵ nomli maqolasida Gadoiyning mumtoz adabiyot tarixida tutgan o'rni, iste'dodiga yuqori baho beradi. Bundan tashqari, E.Rustamov, E.Ahmadxo'jayev, M.Rustamov kabi olimlarning tadqiqotlari ham Gadoiy ijodiy merosining targ'ibiga bag'ishlangan¹⁴⁶

Mavlono Gadoiy g'azallari rus tiliga ham tarjima qilingan. Uni turkshunos olim, prof. S.N.Ivanov amalga oshirgan. U shoir g'azallaridan dastlab o'ntasini tarjima qiladi va "Zvezda Vostoka" jurnalida chop ettiradi.¹⁴⁷

Gadoiy devonining qo'lyozmasi Parij Milliy kutubxonasida saqlanadi. Devonda shoirning 230 g'azali, 1 qasidasi, 1 mustazodi va 5 to'rtlikgi o'rin olgan.

Gadoiy turkiy g'azalchiligining taraqqiyotiga munosib hissa qo'shdi. Xususan, uning g'azallari mazmunan hayotiyli, badiiy va shaklan barkamolligi bilan ajralib turadi. U qaysi bir mavzuni qalamga olmasin, o'ziga xos tarzda badiiy ifodalashga erishadi.

¹⁴³ Ahmadxo'jayev E. Gadoiy (Hayoti va ijodiy merosi). – T.: Fan, 2000. 3-b.

¹⁴⁴ Gadoiy. She'rlar. T.: Badiiy adabiyot nashriyoti, 1965.

¹⁴⁵ G'aniyeva S. Shoir Gadoiy. "O'zbekiston madaniyati" gazetasi, 1962, 1-sentyabr.

¹⁴⁶ Рустамов Э.Р. Узбекская поэзия в первой половине XV века; Ahmadxo'jayev E. Gadoiy (Hayoti va ijodiy merosi): Filol. fan. nomz. diss. – Toshkent: 1972; Рустамов М. Лексика языка дивана Гадаи: Автореф. ...дисс. канд. филол. наук. – Ташкент: 1992.

¹⁴⁷ Гадоий. Газели // «Звезда Востока», 1973. - №2. - С. 150-151.

Gadoiy gʻazallarining koʻpchiligi 5-7 baytli. Gʻazallarining mavzular olami keng, ularda ijtimoiy hayotning badiiy ifodasi va unga shoirning real munosabatlarini ilgʻash qiyin emas. Shoir gʻazallarining yetakchi mavzusi ishq – muhabbat.

Maʼlumki, mumtoz sheʼriyatda shoh va gado tazodi tasviriga koʻp murojaaaat qilingan. Bu bilan nafaqat ijtimoiy hayotdagi muammolar tasvirlangan, balki insoniy muhabbat masalasiga ham daxl qilingan. Gadoiy sheʼriyatida ham ishq-muhabbat muammosiga shoh va gado obrazlari orqali munosabat bildirilgan. Shoirning eʼtiroficha, ishq oldida shoh ham, gado ham tengdir. Hatto shoir haqiqiy ishq egasi boʻlgan gadoni shohdan ustun qoʻyadi:

Gadoiy besh emasdur der raqibing,
Gadodurmen, vale sultondin ortuq.

Yoki:

Yorligʻi ishqing bila sultoni olammen, begim,
Nechakim boʻlsam faqir, ey husni mulkinda gʻani.

Mumtoz gʻazallarda ishq hijron motivi bilan yonma-yon tasvirlanadi. Gadoiy gʻazallarida ham ishqning ogʻir va mashaqqatli yoʻli visol va hijron oraligʻida tasvirlanganligi kuzatiladi. Shoirning taʼkidicha, ishq shunday daryoki, uning poyoniga yetib boʻlmaydi, u cheksiz. Shoir bu bilan ishqdan keladigan ozorlarning cheksizligiga ishora qiladi:

Har ne boʻlsa, ishq daryosinda tushdim oqibat,
Garchi yetmaydur kishi bu bahrning poyonina.

Biroq lirik qahramon ishq daryosining poyoni yoʻqligini bilsa-da, maqsadidan qaytmaydi, taqdiriga bitilgan nimaki boʻlsa unga isyon qilmaydi.

Vaslingga yetgay bu jon, yo zor oʻlturgay firoq,
Vodiyi ishqingga tushdim har ne boʻlsa, yo nasib.

Ishq shunday tuzoqki, undan qutilishning imkoni yoʻq. Undan xalos boʻlishni istagan koʻngilni esa ishq mushkdek oʻziga tortib turadi:

Domi ishqingdin nechuk boʻlsin xalos ushbu koʻngul,
Kim necha qochsam, yiroqdin tortar ul mushki tanob.

Hattoki, oshiq uchun dilrabosiz hayot, “baloyi jon”, bu dard oldida esa “yuz oʻlim” ham hayron.

Dilrabo sensiz tiriklik bir baloyi jon emish,

Kim, aning dardi qoshinda yuz o'lum hayron emish.

Shoirning ta'rificha, ma'shuqaning "jodu qarog'i" (ko'zi) jahonning ofati. Butun ulusni ol (yuzi) va go'zalligi (boshdan ayoqi) bilan kuydirgan.

Sen ne ofatsen jahonda, ey buti jodu qaroq,

Kim ulusni kuydurursen ol ila boshdin oyoq.

Baytda mubolag'a (ulusni kuydirishi) va iyhom san'atidan mahorat bilan foydalangan. **Iyhom** – arabcha so'z bo'lib, "**shubhaga solish**" degan ma'noni bildiradi va eng murakkab san'atlardan biri hisoblanadi. Baytdagi "ol" so'zi bir tomondan "qizillik" (yuz) ma'nosini anglatga, ikkinchidan "firib" ma'nosini anglatadi.

Xalq og'zaki ijodi Gadoiy ijodi uchun muhim manba bo'lib xizmat qildi. Shoir folklordagi o'lmas motiv va obrazlarga murojaat qilib, ohorli tasvirlar yaratdi. Jumladan, folklorda keng qo'llanilgan pari obrazi Gadoiy she'riyatida ko'p qo'llangan mifologik obraz.

Ul malaksiymo sanam, gar hur emastur yo pariy,

Bas nedur bu nasli odamdin aning yuz yo bariy?

Yoki

Topmadim har nechakim kezdim zarofat mulkini,

Sen parivash hurdek avlodi odamdin zarif.

Mumtoz adabiyotda Sharqda mashhur va keng tarqalgan ishqiy afsonalarning qahramonlari yoki diniy rivoyatlarga murojaat qilish an'ana tusini olgan. Bu an'ana Gadoiy ijodida ham o'ziga xos tarzda davom etganligini ko'rishi mumkin.

G'amza ta'limi bila band etti oxir sihr etib,

Sohiri Bobilni ul chohi zaxandoning seni.

Baytda diniy rivoyatga ishora qilingan. Unda aytilishicha, ayolga oshiq bo'lganlari uchun Horut va Morut Xudo g'azabiga uchrab, Bobildagi chohga tashlangan. Bu chohni sehr manbayi deydilar. Kimki sehr-jodudan saboq olmoqchi bo'lib, choh qoshiga borsa, bu farishtalar unga sehrgarlik ilmini o'rgatadi.

Zahan - yuzning iyak qismidagi chuqurcha. Go'zal iyakdagi ana shu chuqurcha sehr manbayi bo'lgan Bobil chohiga o'xshatilgan.

Shoir she'riyatida husni ta'lil san'atning go'zal namunalarini ham uchratirishimiz mumkin. Jumladan,

Oy yuzung nazzorasidin qolur ermish benasib,
Oning uchun kechqurun har kunda yig'lar qon quyosh.

Baytda husni ta'lil san'ati uchun quyoshning holati, harakati asos qilib olingan. Har kuni quyoshning qon yosh to'kishi (botishi)ga uning Oy yuzli ma'shuqaning husnidan benasib qolishi sabab qilib ko'rsatiladi.

Gadoiy lirik merosida "ayriliq", "zamon kulfatlari", "charx jafosi", "g'urbat va zahmat ozorlari"dan shikoyat motivlari ham ufurib turadi. Shoir bir g'azalida shunday yozadi:

Qaysi bir mehnatni tadbir aylasun miskin ko'ngul,
Yor firoqi, yo falakning javri, yoki tek raqib.

Gadoiy lirikasida falsafiy ruh ufurib turgan g'azal yoki baytlar ham anchagina. Shoir ularda olamning yaratilishi, insonning mohiyati, yaxshilik va yomonlik dunyosi haqidagi qarashlari va ulardan chiqargan xulosalarini badiiy aks ettiradi. Bu jihatdan shoirning quyidagi g'azali ahamiyatlidir.

Soqiyo, farrux zamondur zamoni subhdam,
Kamligimni avf qilg'in, chunki Sendadur karam.

Davri ishratni g'animat tutkim, ushbu zol erur,
Kim sovurdi yerga toj masnadi Zaxxoku Jam.

Yer yuzinda yaxshilarg'a yaxshiliqdin yaxshi yo'q,
Oxiri tuproq ichinda chunki bo'lg'ungdur adam.

Oqibat sog'inib miskinlarga rahm aylakim,
Qolmadi nomu nishoni zulmu bunyodi sitam.

G'ofil o'lma, ey Gadokim, nozaninlar jismidur,
Bu qaro tuproq uzra, har qayda bosarsen qadam¹⁴⁸.

G'azalning dastlabki baytida insonning "kamligi" ya'ni gunoh qilguvchi, Allohning esa karam egasi ekanligi ta'kidlangan. Bu bilan shoir inson umrining g'animatligini eslatib o'tadi. Shuning uchun g'azalning ikkinchi baytida fikr tasdig'i uchun Zaxxoku Jamni talmeh qilib keltiradi.

¹⁴⁸ Gadoiy. Devon. – T.: Adabiyot va san'at nashriyoti, 1973.

Ma'lumki, mumtoz adabiyotda "dahr" (dunyo) turli tashbehlar bilan tasvirlanadi. Ya'ni dunyoning qadimiyligi "kekxa, qari" kampirga (zol), dunyoning makri esa "makkori zol" (qari kampir makriga) tashbehleri bilan berilgan. Shoir ana shu an'anani qo'llab, dunyoning o'tkinchiligi va vafosizligini tasvirlaydi va bunga misol qilib tarixda o'tgan Zaxxok va Jam (Jam - Jamshid ismining qisqartirilgani) kabi podshohlarni misol qilib keltiradi.

Alisher Navoiy "Tarixi muluki Ajam"da Zaxxok haqidagi ma'lumotlarga o'rin ajratar ekan, unga Eron tarixida mash'um iz qoldirgan hukmdor sifatida baho beradi. Jamshidni esa shodlik-xursandlikni odil podshoh "adolat savt-u sadosi olamga muntashir qilgan"ligini ta'kidlab o'tadi. Navoiy qoldirgan ma'lumotlardan angdashilyaptiki, Zaxxok o'z zulmi bilan, Jamshid esa adolati bilan tarixda qolgan. Shuning uchun Gadoiy g'azalning uchinchi baytida insonlarni yaxshilik qilishga chorlaydi. Chunki barcha insonlar adam (yo'qlik) olamida tuproq ostidadir, deydi.

Shoir g'azalning to'rtinchi baytida ijtimoiy muammolar haqida fikr yuritadi. Ya'ni miskin (bechora, fiqr)larga rahm qil, chunki zulmsitam qilganlardan ham nom-u nishon qolmadi, deb pand – nasihat beradi. G'azal maqta'sida insonning tuproqdan yaralib, yana tuproq bo'lishi bilan bog'liq tasavvufiy qarash singdirilgan.

Umuman olganda, Gadoiy g'azallarining tili shirali va ravon. Shoir g'azallari mazmunan hayotiyli, badiiy barkamolligi bilan mumtoz adabiyotimiz tarixida o'z o'rniga ega. Uning g'azallarida badiiy topilma va poetik vositalarning o'ziga xos namunalari uchdaydiki, bu shoirning yuksak salohiyati va iqtidoridan darak beradi.

O'zbek mumtoz g'azalchilik taraqqiyotiga munosib hissa qo'shgan Sakkokiy, Atoyi va Gadoiylar qoldirgan lirik meros adabiyotimiz tarixida o'ziga xos o'ringa ega. Ijodkorlar tomonidan kuylangan o'lmas mavzular, badiiy san'atlar va timsol yaratish mahorati keyingi davr she'riyatining rivojlanishida maktab vazifasini o'tadi.

Xulosa qilib aytganda, "Klassik adabiyotimiz tarixida alohida ahamiyatga ega bo'lgan XV asrga kelib o'zbek she'riyati o'zining yuqori pog'onasiga ko'tarildi. Shu davrda shuhrati hamma yoqni egallagan fors-tojik poeziyasi bilan bimalol musobaqalasha oladigan qudratli

turkiy she'riyat yaratildi. Bu she'riyatning kamolotini Atoyi, Sakkokiy, Lutfiy, Gadoiy kabi o'nlab san'atkorlarning she'riyatisiz tasavvur etish qiyin"¹⁴⁹.

Mavzuni mustahkamlash uchun savol va topshiriqlar:

1. Gadoiy haqida qaysi manbalarda ma'lumotlar saqlanib qolgan?
2. Navoiyning "Majolis un-nafois" asarida keltirilgan ma'lumotda shoir ijodiga qanday baho berilgan?
3. Gadoiy hayoti va ijodiga doir qanday tadqiqotlar yaratilgan?
4. Gadoiy lirikaning qaysi janrlarida ijod qildi?
5. Gadoiy g'azallarida qanday mavzular yetakchilik qiladi?
6. Shoirning ishqiy mavzudagi g'azallarida ma'shuqa qanday tasvirlangan?
7. Gadoiy lirikasida oshiq va ma'shuq tasviridagi an'anaviylik va ijodiylikni misollar asosida izohlab bering.
8. Gadoiy ijodida qaysi badiiy san'atlar asosiy o'rin tutadi? Misollar bilan tushuntiring.
9. Shoir g'azallarida ijtimoiy-siyosiy muammolarga munosabat kuzatiladimi?
10. Gadoiy g'azallari aruzning qaysi bahrida yozilgan?
11. Shoir she'rlarida qo'llangan qofiya turlari va qofiya san'atlarini aniqlab, izohlashga harakat qiling.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Vohidov R., Eshonqulov H. O'zbek mumtoz adabiyoti tarixi. O'zbekiston Yozuvchilar uyushmasi Adabiyot jamg'armasi nashriyoti. – T.: 2006.
2. O'zbek mumtoz adabiyoti namunalari. II jild. (XIV–XV asrning boshlari). Tuzuvchi, izoh va sharhlar muallifi: Nasimxon Rahmon. –T.: Fan, 2007.
3. Rahmonov N. O'zbek adabiyoti tarixi. (Eng qadimgi davrlardan XY asrning birinchi yarmigacha). "Sano -standard" nashriyoti. 2017.
4. N. Mallayev .O'zbek adabiyoti tarixi. T.: "O'qituvchi" 1976.

¹⁴⁹ Ahmadxo'jayev E. Gadoiy (Hayoti va ijodiy merosi). – T.: Fan, 1978. 50-b.

5. Ahmadxo'jayev E. Gadoiy (Hayoti va ijodiy merosi). – T.: Fan, 1978.
6. Rustamov M. Gadoiy devonining lug'ati va matni. O'zFA Alisher Navoiy nomidagi Davlat muzeyi tahrir bo'limi. – T., 2007.
7. Рустамов Э.Р. Узбекская поэзия в первой половине XV века. –А.- М., 1963.

O'N UCHINCHI MAVZU: **LUTFIY HAYOTI VA IJODI**

REJA:

1. Lutfiyning hayoti va ijodi.
2. Lutfiy lirik merosining mundariyasi.
3. Lutfiyning badiiy mahorati.

TAYANCH TUSHUNCHALAR:

- | | |
|--------------------|----------------|
| • malik ul-kalom | • janr |
| • turkiygo'y, | • devon |
| • mumtoz she'riyat | • g'azal |
| • xalqona | • tuyuq |
| • uslub | • maqol |
| • badiiyat | • husni ta'lil |

Mavlono Lutfiy – Alisher Navoiyga qadar o'zbek adabiyotining yirik vakili. U o'zining o'zbek va fors-tojik tillaridagi merosi bilan mumtoz adabiyotining taraqqiyotiga ulkan hissa qo'shgan san'atkordir. O'z davrining yetuk ijodkori bo'lgan Lutfiy haqida zamondoshlari Davlatshoh Samarqandiy, Shamsiddin Somiy, Xondamir, Abdulla Kobuliy kabilarning asarlarida muhim e'tiroflar va mulohazalar mavjud. Bular orasida ustoz va shogirdlik rishtalari bilan bog'langan Alisher Navoiy asarlarida keltirilgan ma'lumotlar g'oyat qimmatlidir.

Alisher Navoiy o'zining “Majolis un-nafosi”, “Muhokamat ul-lug'atayn”, “Holoti Pahlavon Muhammad” asarida qimmatli ma'lumotlarni qayd qilib o'tgan. Alisher Navoiy “Holot”da ustoz Pahlavon Muhammadning “Savolimiz budurki, turkiygo'y, shuarodin ulcha she'rlari ro'zgor safhasida sabtdur, qaysi yaxshiroq aytibdurlar? Va sening aqidang aning yaxshi aytmoqig'a borur, sen begonursen?”

degan savoliga ulug' shoir "Mavlono Lutfiy holo musallamdurlar va bu qavmning ustodi va malik ul-kalomidur", - deb javob berishi Lutfiyga berilgan yuksak baho edi. Navoiyning Lutfiy haqidagi qaydlarini "Majolis un-nafoiy" asarida o'qiymiz: "Mavlono Lutfiy o'z zamonining malikul-kalomi erdi, forsiy va turkiyda naziri yo'q erdi. Ammo turkiyda shuhrati ko'prak erdi va turkcha devoni ham mashhurdur va mutaazzirul javob matla'lari bor, ul jumladin biri budurkim:

Nozukluk ichra belicha yo'q tori gisuyi,
Uz haddini bilib, belidin o'ltirur quyi.

Yana biri bukim:

Sayd etti dilbarim meni oshufta sochtin,
Soldi kamand bo'ynuma ikki qulochtin.

Va Mavlononing "Zafarnoma" tarjimasida o'n ming baytdin ortuqroq masnaviysi bor, bayozg'a yozmag'on uchun shuhrat tutmadi va lekin forsiyda qasidago'y ustodlardin ko'pining mushkul she'rlarig'a javob aytibdur va yaxshi aytibdur. To'qson to'qquz yashadi va oxir umrida radifi "oftob" she'ri ayttikim, zamon shuarosi barcha tatabbu' qildilar, hech qaysisi matla'ni oncha ayta olmadilar va ul matla' budurkim:

Ey zi zulfi shab misolat soyaparvar oftob,
Shomi zulfatro ba joyi moh dar bar oftob.

Va o'tar vaqtida bu g'azal matla'inkim, tuganmaydur erdi, hazrati Mahdumiy Nuran tugatib, o'z devonlarida bitisunlar. Ul hazrat ham tugatib, o'z devonlarida bitibdilar va ul matla' budurkim:

Gar kori dili oshiq bo kofiri Chin aftad,
Beh z-on ki ba badxo'i bemehri chunin aftad.

Mavlono yigitligida ulumi zohiriyni takmil qilg'ondin so'ngra Mavlono Shihobiddin Xiyoboniy qoshida so'fiya tariyqida ham suluk qilg'ondur. Aziz va mutabarrak kishi erdi.

Bu faqir borasida ko'p fotihalar o'qubtur. Umed ulkim, chun darvesh kishi erdi, ba'zi mustajob bo'lmish bo'lg'ay.

Mavlononing qabri shahr navohisida Dehikanordakim, o'z maskani erdi, andadur".¹⁵⁰ Diqqat qilsak, Alisher Navoiy Lutfiy haqida, uning shaxsi va ijodi haqida to'liq taassurotga ega bo'lish mumkin bo'lgan ma'lumotlarni qisqa va lo'nda bayon qilib o'tgan.

¹⁵⁰ Navoiy Alisher. Mukammal asarlar to'plami. XX jildlik. XIII jild. "Majolis un-nafois". – T.: Fan, 1997. 56- b.

Lutfiy haqidagi ma'lumotlarni o'sha davrning ulug' tarixnavislaridan bo'lgan Xondamir ham "Makorim ul-axloq" asarida yozib qoldiradi. Bu asar Alisher Navoiyga bag'ishlangan bo'lsa-da, Xondamir Navoiy va Lutfiy munosabatlariga doir go'zal lavhalarni tarix sahifalariga muhrlaydi. Kitobning "She'rning fazilati va ulug' shoirilar ta'rifida" deb nomlangan uchinchi faslida shunday yozadi: "Mavlono Lutfiy so'z lutfida yagonai davron edi. Undan ilgari hech kim turkiy tilda she'rni undan yaxshi ayta olmagan. Oliy Hazrat (Navoiy) yoshlari endigina to'lib, yigitlik davri boshlangan paytlarda, bir kuni Lutfiy xizmatig'a bordi. Lutfiy: *"O'z nozik fikrlaringizning natijalaridan yuzaga chiqqan bir g'azalni o'qish bilan bizni bahramand qilsangiz"*, - deb iltimos qildi. U hazrat bir g'azal o'qidi, uning matlai mana bu:

*Orazin yopg'och, ko'zumdin sochilur har lahza yosh,
Bo'ylakim, paydo bo'lur yulduz, nihon bo'lg'och quyosh.*

*Mavlono (Lutfiy) janoblari bu alangali g'azalni eshitish bilan hayrat dengiziga cho'mib, shunday dedi: "Valloh, agar muyassar bo'lsa edi, o'zimning forsiy va turkiy tillarda aytgan o'n-o'n ikki ming baytimni shu g'azalga almashtirardim va buni o'zimning katta yutug'im deb hisoblardim".*¹⁵¹

Yuqorida Alisher Navoiy va Xondamir tomonidan yozib qoldirilgan qaydlarni bir-biriga qiyoslasak, ma'lumotlar va e'tiroflarning bir-biriga hamohangligi kuzatiladi. Bu esa Lutfiyning iste'dodi o'z davridayoq tan olinganligidan dalolat beradi.

Adabiyotshunos olimlarimiz tomonidan Lutfiyning boy badiiy merosi keng o'rganilgan va o'rganilmoqda. Jumladan, Hodi Zarif, A. Hayitmetov, E. Rustamov, shuningdek, Y. Is'hoqov, H. Rasulov va E. Ahmadxo'jayev kabi olimlarning tadqiqotlarini ko'rsatib o'tish mumkin.

Mavlono Lutfiy 1366-yili Hirot chekkasidagi Dehikanor qishlog'ida tavallud topgan. U boshlang'ich tahsildan keyin madrasalarda o'z davrining dunyoviy va shariat bilimlarini chuqur o'rganadi. Lutfiy Mavlono Shihobiddin Xiyoboniy huzurida tasavvuf ilmlarini mukammal egallaydi. Navoiy ta'kidlagandek, *"darveshlik tariqini dag'i ilikdan"* chiqarmagan edi. Lutfiy tariqat amallarini to'liq bajarib, ulug' darajaga erishganligini Navoiyning ulug' tasavvuf shayxu avliyolariga bag'ishlangan "Nasoyim ul-muhabbat" asarida

¹⁵¹ Xondamir. Makorim ul-axloq. T.: 1967, 45-b.

yoʻzib qoldirgan quyidagi maʼlumoti ham tasdiqlaydi: “Tahsil ayyomida Mavlono Shihobuddin Xiyoboniy xizmatiga etar ekandur va odobi tariqat sulukini andin kasb qilur erkondur. Agarchi shoirlik tariqida maʼruf va mashhur boʻldi, ammo darveshlik tariqini dagʻi ilkidin bermadi”¹⁵².

Lutfiy ijodining kamolotida turkiy adabiyot bilan birga fors-tojik adabiyotining taʼsiri katta boʻlgan. U Hofiz, Kamol Xoʻjandiy merosiga katta hurmat va eʼtibor bilan qaragan. Temuriylar davlatining markazlari hisoblangan Xuroson va Movarounnahrda roʻy bergan siyosiy markazlashuv natijasida shakllangan adabiy muhit Lutfiyni ham oʻz maydoniga tortdi. Uning gʻazallari xalq orasida mashhur boʻla bordi. Kamtarona hayot tarzi, oʻzi eʼtiqot qilgan tariqat talablariga amal qilib, darveshlarga xos xokisorlik bilan hayot kechirgan shoir dunyoqarashi ana shunday soddalik va samimiylik bilan oʻz sheʼrlariga koʻchdi. Shoirning turkiydagi devoni oʻz davridayoq Xuroson va Movarounnahrdan tashqarida ham maʼlum va mashhur boʻlgan. Lutfiy ijodini chuqur oʻrgangan Erkin Ahmadxoʻjayevning taʼkidicha, shoirning hozirgacha topilgan adabiy merosi 2274 bayt (5548 misra)dan iborat boʻlib, 3 ta qasida, 372 ta gʻazal, 115 ta toʻrtlik, 60 ta fard va 22 bayt hajmidagi parokanda sheʼrlardan iborat¹⁵³.

Taʼkidlash kerakki, Lutfiy lirik shoir sifatida Sharq sheʼriyatida oʻziga qadar shakllangan adabiy-estetik anʼanalarni oʻz ijodida takomillashtirdi, xalq ogʻzaki ijodi tajribalaridan unumli foydalandi. Bu esa shoir asarlarining xalqonalgini taʼminlagan muhim omil boʻlib xizmat qildi. Natijada shoir lirikasida insonning qalb tugʻyonlari, ichki kechinmalari: muhabbat- nafrat, visol-ayrilik, yaxshilik va yomonlik, borlik va yoʻqlik, qaygʻu va shodlik kabi hislari oʻziga xos tasvirlarda, rangin boʻyoqlarda qogʻozga tushgan.

Lutfiy devoni Sharq sheʼriyatining yetakchi janrlaridan boʻlgan gʻazal, ruboiy, tuyuq, qitʼa va fard kabi janrlarni oʻz ichiga oladi. Lutfiy lirik asarlarning yetakchi mavzusi - ishqdir. Uning ijodida dunyoviy va ilohiy muhabbat uygʻunlashib, biri-birini toʻldirib keladi. Shu tarzda ular majoz va haqiqat birligini tashkil qiladi.

¹⁵² Navoiy Alisher. Nasoyim ul-muhabba. MAT. XX jildlik. XYII jild. – T.: Fan, 1997. 472- b.

¹⁵³ Ahmadxoʻjayev E. Turkiy nazmning sehgari (Lutfiy haqida adabiy-tarixiy, ilmiy manbalar). – T.: “Fan”, 1992.

Shoir lirikasining bosh qahramoni oshiq. U shunday oshiqki, yorsiz bahor uning uchun xazon, boshiga qilich kelsa ham ishqidan voz kechishni ixtiyor qilmaydi, ma'shuqa otining tuyog'i tuprog'i bo'lish uning orzusi...

Bo'lmasa gar ul sanami gul'uzor
Bizga xazontek o'la bu navbahor,
Yordin agar kelsa qilich boshima,
Zarra firoq etmagamen ixtiyor.
Yo'lida tuproq o'layin ot uchun
To manga qilg'ay guzar ul shahsuvor.

Lirik qahramon shahsuvorining birgina qoshi uchun jon berishga shay. U mozorida yolg'iz emas. Ming nola-u faryod-u bilan birga.

Qoshi uchun jon beruram, do'stlar!
Toq qo'poringiz yosog'onda mozor.
Yolg'iz emas, Lutfiykim, ul gul uchun
Nola-u faryod qilur sad hazor¹⁵⁴.

Xalqona ruh ufurib turgan mazkur g'azal orqali insoniy muhabbat kuylangan, shu orqali insonni ulug'lash g'oyalari targ'ib qilingan.

Shoir lirik qahramonning ruhiy holati va kayfiyatini berishda go'zal manzalar yaratadi, shu orqali kitobxon qalbida zavq uyg'otadi. Lutfiy tasvirlamoqchi bo'lgan voqea – hodisa uchun tanlangan tasviriy vositalar hayotiy va real. Oddiy hayotiy holat va hodisalar shoir lirikasida o'zga xos badiiyat namunasi sifatida ko'zga tashlanadi. Jumladan, mumtoz she'riyatda it oshiq, *do'st*, *raqib* obrazlarida talqin qilinadi. Lutfiy lirikasida ham bu obrazga tez- tez murojaat qilingan.

Ko'nglum eshigi itlarining mansabin tilar,
Xonliq tilar, bu himmati oliy gadoni ko'r.

Juda ko'p mumtoz ijodkorlar oshiq (lirik qahramon)ni ma'shuqa ostonasini qo'riqllovchi itiga tenglashtiradilar. Lutfiy esa yuqoridagi baytida oshiqning ko'ngli ma'shuqa itining mansabini, ya'ni daraja, maqomini, o'zi esa uning eshigida shohliq (xonliq) istaydi.

Hatto ma'shuqa eshigining itiga hamroh bo'lgan oshiq o'zini sultonga tenglashtiradi:

¹⁵⁴ Lutfiy. Sensan sevarim. – T.: Adabiyot va san'at nashriyoti, 1987. 86-b.

Eshigin itina kim bo'lsa yo'ldosh,
Oning iqboli sultondan qolishmas.

Ma'shuqaning zulfi kufr-u zalolatga bois bo'lsa-da, uning oydek yuzida ilohiy nur tajalliy qilgan. Lutfiy bu bilan Allohning ilohiy sifatlari insonda aks etishi bilan bog'liq qarashlarga urg'u beradi va shu orqali insonning ulug' va mukarramligini ta'kidlaydi:

Yor zulfi agarchi kufr-u zalolatga dol erur,
Oydek yuziga boqqil-u nuri Xudoni ko'r¹⁵⁵.

Lutfiy lirikasida oshiq – raqib tazodi orqali haqiqiy ishq masalasiga doir qarashlarga oydinlik kiritadi. Uning ba'zi baytlarida it raqib, dushman sifatida ham talqin qilingan.

Qo'ymagil har dam raqibimni qoshingda, sur, begim,
Kim qo'tir itning damidin barchag'a nuqson erur.

Quturgan it xalq tilida “qutuz”, “qutuz ochgan” iboralari bilan yuritiladi. Hatto xalq orasida “qutuz ochgur” degan qarg'ish ham bor. Chunki, quturgan it qopgan odam ham quturish kasalliga chalinadi va oradan qirq kun o'tgach, u ham itdek odamlarga tashlanib, tishlashga intiladi. Shuning uchun odamlar quturgan it va odamdan hamma vaqt qochib, ehtiyot bo'lishgan.

Lutfiy husnu malohatda tengsiz ma'shuqa ta'rifini diniy manbalar va xalq og'zaki ijodi an'analari omuxta qilib, o'ziga xos takrorlanmas tasvirlar yaratganligining shohida bo'lamiz:

Zotinga Haq izhori kamolot qilibtur,
O'z nuri bilan suratingni yaratibtur.
O'n juzv turur erdi bori husnu malohat,
Qismat kuni Haq to'qqiz ulush sizga beribtur.
Bir juzvki Yusufga tegib erdi, chu bordi,
Oning uchun ul ham senga meros qolibtur.

Keltirilgan baytlarda diniy rivoyatga ishora qilingan. Haq o'z husni jamolini ko'rish uchun butun koinotni, unda esa eng mukarrami qilib insonni yaratdi. Demakki, Allohning ilohiy sifatlari yaratishlar ichida insonda ko'proq zuhr etgan. Dastlabki, ikki baytida ana shu g'oya ilgari surilgan. Bundan ko'zlangan maqsad esa Allohni ulug'lash va uning xalifasi bo'lgan insonni qadrlashdir. Keyingi ikki baytda ilohiy kitoblardagi rivoyatlarga tayanilgan. Ta'kidlanishicha, olamdagi barcha go'zalliklar o'n qism bo'lsa, shundan to'qqiz qismi

¹⁵⁵ Lutfiy. Devon. G'. G'ulom nomidagi nashriyot-matbaa ijoiy uyi.T.: 2012.108-b.

Yusuf (a.s)ga, qolgan bir qismi butun koinotga berilgan ekan. Shu bois, Sharq adabiyotida Yusuf (a.s) go'zallik timsoli sifatida tilga olinadi. Lutfiy diniy rivoyatda ta'kidlangan ma'lumotni (go'zallikning to'qqiz qismi Yusuf (a.s)ga nasib qilganligi) o'zi ta'riflayotgan ma'shuqaga ko'chiradi. Bundan ko'zlangan maqsad esa u vasf qilayotgan ma'shuqa go'zalligi Yusuf husnidan ham ortiq ekanligini mubolag'ali tasvirlashdir. Lutfiy zaminiy go'zalni ulug'lash orqali Allohning buyuk qudrati va yaratuvchanligini mahd etadi. Shu orqali majoziy ishq ilohiy ishq uchun ko'prik vazifasini bajarishini eslatib o'tadi.

Lutfiy lirikasida Xizr talmeh sifatida qo'llangan baytlar ham anchagina. Ma'lumki, xalq afsonalarida Xizr yer osti mulkiga tushib, "obi hayvon", ya'ni "tiriklik suvi"ni topib, undan ichishga muyassar bo'lgan va shu tariqa mangu tiriklikka erishgan epik qahramon sifatida gavdalantiriladi. Yana Xizr mushkul ahvolda turgan biror-bir insonga g'oyibdan yo'liqib, unga yo'l ko'rsatuvchi, adashganni to'g'ri yo'lga soluvchi epik ko'makchi, sirli karomatlar sohibi sifatida tasvirlanadi.

Shoir ma'shuqani "ko'ngil kishvarining xoni", "husnu latofat tanining joni", "falak mohitoboni" sifatida ta'riflaydi. Hatto uni Xizr payg'ambarga tenglashtirib, uni ko'rganlarni esa "mangu yashovchilar" deb ta'rif qiladi:

Mangu yashar kimki ko'rar sizni bir,

Vah ne Xizr chashmai hayvonisiz .

Ta'kidlash kerakki, dunyoviy mavzularda mahorat bilan qalam tebratgan Lutfiy ayni paytda diniy va tasavvufiy mavzularni ham maroq bilan kuyladi. Natijada uning ijodida dunyoviy mavzular diniy-tasavvufiy mavzular bilan uyg'unlashib, bir-birini to'ldiradi.

Diniy manbalarda ta'kidlanishicha, dastlab faqat Alloh mavjud edi. Keyin unda o'zini o'zi tomosha qilish istagi paydo bo'ladi va o'z husnining ko'zgusi qilib olamni, uning oshig'i qilib Odamni yaratadi. Xalq qilingan olamlar ichida Alloh insonni mukarramlilik sifati bilan bezadi, unga O'zining yerdagi xalifasi rutbasini berdi. U husn bobida ham "mazhari sun'i ilohdir". Inson qalbida, ayniqsa, yuzida Iloh nuri aks etadi. Bunday fikrlar Lutfiyning quyidagi baytida o'z ifodasini topgan:

Ulki husn etti bahona elni shaydo qilgali,
Ko'zgudek qildi seni o'zini paydo qilgali.¹⁵⁶

Ma'lumki, tasavvuf she'riyatida fikr-g'oyalar ramzlar orqali talqin qilinadi. Bu esa kitoxonni mushohadaga, ramz orqali haqiqat sirlarini bilishga chorlaydi. Mumtoz shoirlar ijodida qo'llangan ana shunday ramziy obrazlardan biri zulfdir. **Zulf** – tasavvufning muhim istilohlaridan bo'lganligi bois juda ko'p manbalarda unga izoh berilgan. Jumladan, "Mir'oti ushshoq" ("Oshiqlar ko'zgusi") nomli so'fiyona istilohlarning izohli lug'atida zulfning tasavvufiy ma'nosi haqida shunday deyiladi: "Zulf deb jaloliy sifatlar va jamoliy tajalliyotga aytilurki, ular mutlaq jamol vahdati yashirin qolishining sababchisidir". Lutfiyning quyidagi baytida ham zulfning tasavvufiy g'oya targ'ibi uchun xizmat qilganligi kuzatiladi. Shoirning ta'kidicha, yuz jamoliy, zulfning esa jaloliy tajalliy ekanligiga ishora qilingan.

Jaloliy sifat va jamoliy tajalliyotga keladigan bo'lsak, Haqning lutf sifatlari va qahr sifatlari bo'lib, so'fiyona falsafada lutf sifatlari Allohning o'z jamolini olamdagi narsalarda namoyon qilishi, qahr sifatlari esa uni olamdagi narsalarning pardasi ortiga yashirishidir.¹⁵⁷

O'g'onki, qudrat ichinda kamol ko'rguzdi,
Yuzungnung oyinasinda jamol ko'rguzdi.
Jahonni o'rtadi ul damki yuzu zulfungdin,
Tajalliyoti jamol-u jalol ko'rguzdi.

Mazmuni: Ey yor, Parvardigor ulug' qudrati bilan yuzingning oynasida o'z jamolini zohir ayladi. Yuzu zulfing bilan jahonni o'rtagan chog'da yuzingda jamoliy, zulfingda esa jaloliy tajalliyot namoyon bo'ldi.

Demak, Lutfiy she'riyatida tasavvufiy g'oyalarning turli ramz va ishoralar orqali ifodalanishi uning lirikasida ilohiy va majoziy ishqning birlashib ketishi tarzida anglash mumkin. Shoir birgina soch, zulf detallari orqali ma'shuqa ta'rifini go'zal badiiy tasviriy vositalar orqali berganligiga ham shohid bo'lamiz.

Hazrat Alisher Navoiy "Majolis un-nafois" asarida Lutfiy dahosiga baho berar ekan, shoirning mashhur baytini keltiradi:

Nozukluk ichra belicha yo'q tori gesuyi,

¹⁵⁶ Lutfiy. Devon. G'. G'ulom nomidagi nashriyot-matbaa ijoiy uyi.T.: 2012.314-b.

¹⁵⁷ Abdulhamid Qurbonov. Zulf – so'fiyona istilohda olam ramzi. kh-davron.uz/kutubxona/alisher-navoiy/abdulhamid-qurbonov-zulf-oy-zuhal.html

O'z haddini bilib, belidin o'ltirur quyi¹⁵⁸.

Keltirilgan baytda “Mahbubamning soch torlari noziklikda uning beli bilan tenglasha olmaydi, shu tufayli ular o'z haddini bilib, belidan quyi o'ltiradilar” tarzidagi ohorli tasvir husni ta'lim asosida yuzaga chiqqan.

Alisher Navoiy ulug' ustoz Lutfiy mahoratini birgina bayt misolida ko'rsatishga erishgan. Bu esa Alisher Navoiyning ulug' salafiga bo'lgan yuksak hurmat va ehtiromidan darak beradi.

Mumtoz she'riyatda ma'shuqaning sochi ta'rifida ham goh tasavvufiy, goh xalqona qarashlar aks etganligi kuzatiladi. Xalq og'zaki ijodi namunalari soch (zulf) ilon yoki ajdaho tashbehi orqali berilgan. Ta'kidlanganidek, ajdaho folklorga xos mifologik obrazlardan biri bo'lib, uning qo'llanishi qadim miqlarga borib taqaladi. Xususan, xalq ertaklarida ajdaho salbiy timsol sifatida qo'llanadi va ko'rinishi juda haybatli, vahimali, og'zidan olov purkovchi maxluq sifatida tasvirlanadi. U ko'pincha xazinalarni ko'riqlaydi. Ajdar xalq tasavvurida ilonning kattasi. Shuning uchun xalqda “Ilon qirq yil yashasa, ajdar bo'ladi” degan qarash ham mavjud¹⁵⁹.

Mumtoz she'riyatda zulf yoki sochning ilonga tashbeh qilinishida xalqda shakllangan qarashlar asos bo'lib xizmat qilganligi kuzatiladi. Lutfiyning quyidagi baytida ma'shuqa yuzi ganj - xazinaga, yuzi uzra sochilgan zulflari ganj ustida yotgan ilonga tashbeh qilingan.

Yuz uza zulfung erur ganj ustida yotqon yilon,

Vah, o'shul ganj orzusidur bizni vayron aylagan.

Lutfiy lirikasi sodda va samimiy ruh ustuvor. Shoir she'riyatida qo'llanilgan badiiy tasviriy vositalar hayotiyli, notakrorligi bilan alohida ajralib turadi. Lutfiy buning uchun xalq ijodining o'lmas namunalari - maqolu matallarga, quyma iboralarga murojaat qiladi. Shoir devonidagi g'azallarni ko'zdan kechirsak, ularda qo'llangan har bir so'z, badiiyat unsurlari o'z o'rnida qo'llangan bo'lib, kishida beixtiyor zavq uyg'otadi.

El yuziga boqsalar o'larmen,

Xurshidni netay yoshursa bo'lmas.

¹⁵⁸ Navoiy Alisher. Mukammal asarlar to'plami. XX jildlik. XIII jild. “Majolis un-nafois”. – T.: Fan, 1997. 56- b.

¹⁵⁹ Rajabova M. B. Alisher Navoiy ijodida folklor janr, motiv va obrazlari stiltsaziyasi: Filologiya fanlari d-ri... (DSc) dissertatsiyasi avtoreferati. – T., 2020. 19-b.

Shoir lirikasida oshiqning ishq iztirob-u qiynoqlariga bardoshligi badiiy aks ettirilar ekan, uning ishq borasidagi rashki ham shoir nazaridan chetda qolmaydi. Hatto shor bu rashkni mubolag'ali qilib tasvirlaydi. Fikr isboti uchun esa xalq maqoliga murojaat qiladi. Xalqda *"Oyni etak bilan yopib bo'lmas"*, *"Cho'g'ni o'rab berkitib bo'lmas"* kabi qator maqollar mavjud bo'lib, unda kishi biror bir voqea-hodisani qanchalik yashirishga urinmasin, oshkor bo'lishi ta'kidlangan. Maqoldagi ana shu g'oyadan Lutfiy mahorat bilan foydalangan. Ma'shuqa quyoshga qiyoslanib, uning latofati mubolag'ali tarzda tasvirlangan.

Ishq yo'li – mashaqqatli yo'l, bu yo'lda oshiq chekkan iztiroblar uning ruhini pok, vujudini illatlardan forig' qiladi. Bu yo'lda rohat - farog'at yo'q. Shu bois, mumtoz shoirlar oshiqning bu boradagi sabr-u bardoshini ta'kidlash orqali ularning bulhavaslikdan yiroq ekanligini ta'kidlaydilar. Fikr tasdig'i uchun shoir yana xalq maqoliga murojaat qiladi:

Yerga kirsam koshki chun yetmas ul oyga ilik,

Mushkul ahvole tushubdur: "yer qatig'u, ko'k yiroq".

Mumtoz adabiyotda inson ko'ngil ulug'lanadi. Shu bois, uni masjidga, Ka'baga qiyos qilish an'ana tusini olgan. Bu ikkala maskan Allohni zikr qilish maskani. Ko'ngilni tavof qilish shu ikki muqaddas dargohni ziyorat qilish kabidir. Lutfiy ham shu an'anani davom ettiradi:

Ko'nglumuz vayron-u qosh-u ko'zda chindur bu masal,

Kim: "Qolur masjid agar buzulsa, mehrobi aning".

Ma'shuqa ko'z-u qoshi sabab oshiqning ko'ngil vayron. Bu yerda shoir oshiqning "ko'ngil uyi" vayron bo'lsa ham, unda ma'shuqaning ishq qoladi, degan fikrni tasdiqlash uchun "Masjid buzilsa ham, mehrobi qoladi" maqolidan foydalangan.

Lutfiy ijodida bunday o'tkir so'z va "tesha tegmagan" iboralar, nozik qochirim-u latif lutflar, hayratomuz tashbehlarni qatorlashtirib keltirish mumkin. Shoir liriksida tazod, tajnis, tashxis, mubolag'a, husni ta'lil, tanasub, ishtiyoq, laff va nashr, iyhom, tajohuli orifona, intoq, istiora, iqtibos, savolu javob kabi ko'pdan-ko'p badiiy san'atlardan ham mahorat bilan foydalanilgan. Jumladan, quyidagi baytda ma'shuqaning shirin dudog'idan muhiblar (do'stlar)ning joni suv, bag'ri kabob bo'lishini

mubolag'a san'ati orqali tasvirlashga erishgan:

Sening shirin dudog'ing hasratidin,
Muhiblar joni suv-u bag'ri qondir.

Quyida keltirilgan baytda esa tajohul ul-orif san'atining go'zal namunasi yaratilgan. "Tajohul ul-orif" arabcha so'z bo'lib, biluvchining bilmagan bo'lib ko'rinishi. Bu haqda zarif adabiyotshunos Atoulloh Husayniy "Badoyi' us-sanoyi'" asarida shunda yozadi. "Tajohul ul-orif" andin iboratturkim, so'zlaguvchi bir nimani bilur, ammo bir nukta bila o'zini bilmagandek ko'rsatur"¹⁶⁰.

Yo Rab, ul turranm-u yoxud dud-u ohimdur mening,
Yo magar ashhabni egninga hamoyil qildilar.

Turkiy she'riyatda tuyuq janrining shuhrat qozonishida Lutfiyning xizmatlari beqiyos. Uning devonidan o'rin olgan tuyuqlarda turkiy tilning nafis ma'no tovlanishlari o'ziga xos mahorat bilan namoyon bo'lgan.

Men sening ishqingdin,ey dil, **bandaman**,
Vah,qachon eytkayman ul **dilbanda man**.
Bevafolarg'a meni qilding asir,
Sen menga sultonsan,ey dil, **bandaman**.¹⁶¹

Tuyuqning uch misrasida "dilbandamen" so'zi qo'llangan. Bu so'z ajratilib va qo'shib yozilgan. Birinchi misrada **bandamen** – "bog'langanmen", ikkinchi misrada – "ma'shuqa" (dilband), to'rtinchi misrada "qulmen" ma'nolarida qo'llangan.

Lutfiy g'azallari aruzning turli-tuman bahrlarida yozilganligi uchun bo'lsa kerak, Z. M. Bobur o'zining "Aruz" risolasida Alisher Navoiy keyin Lutfiy lirik merosiga ko'p murojaat qiladi. Shoir g'azallariga xos bo'lgan yana bir xususiyat ularning hajm jihatidan ixchamligidir. Shoirning devondagi g'azallari deyarli 5-7 baytli. Lutfiy g'azallari xalq qo'shiqlariga yaqin bahrlardan tashqari, murakkab bahrlarda ham yozilgan. Uslub soddaligi, ifodalarning xalqonaligi, she'r vaznining xalq qo'shiqlariga yaqinligi Lutfiy lirikasining shuhratini ta'min etgan muhim omillardan biridir.

Xulosa qilib aytganda, Sharq adabiyotida shakllangan adabiy an'analar, timsol va obrazlar, mavzu va g'oya ifodasi, qolaversa, badiiy san'atlarga murojaatda ham fikr tiniqligi va so'z o'yinlariga alohida

¹⁶⁰ Atoulloh Husayniy. Badoyi' us-sanoyi'. T.: G'. G'ulom nomida Adabiyot va san'at nashriyoti, 1981.132-b.

¹⁶¹ Lutfiy. Devon. G'. G'ulom nomidagi nashriyot-matbaa ijoiy uyi. T.: 2012.375-b.

e'tibor qaratgan Lutfiy lirik merosi turkiy she'riyat xazinasiga munosib hissa bo'lib qo'shildi.

Mavzuni mustahkamlash uchun savol va topshiriqlar:

1. Alisher Navoiy qaysi asarlarida Mavlono Lutfiy haqida ma'lumot keltiradi?
2. Lutfiy va Alisher Navoiy munosabatlariga doir nimalarni bilasiz?
3. Alisher Navoiyning Lutfiy haqidagi *“darveshlik tariqini dag'i ilikdan chiqarmagan edi”* degan fikrini qanday izohlaysiz?
4. Lutfiy lirik merosning hajmi qancha?
5. Shoir qanday janrlarda qalam tebratdi?
6. Mavlono Lutfiy she'riyatining g'oyaviy mazmuni va mohiyati haqida o'z mulohazalaringizni bayon eting.
7. Shoir g'azallarining xalqchilligini ta'minlagan omillar haqida so'zlang.
8. Lutfiy g'azallarining bosh qahramoni kim?
9. Shoir g'azallarida qanday badiiy san'atlar qo'llanilgan?
10. Lutfiyning tuyuqnavisligi haqida nimalarni bilasiz?

TAVSIYA ETILADIGAN ADABIYOTLAR:

1. Ahmadxo'jayev E. Turkiy nazmning sehrigari (Lutfiy haqida adabiy-tarixiy, ilmiy manbalar). – T.: “Fan”, 1992.
2. Ahmadxo'jayev E. Mavlono Lutfiy. – T.: Fan, 1991.
3. Valixo'jayev B. Malikul-kalom Mavlono Lutfiy. Samarqand, 1999.
4. Valixo'jayev B. Mumtoz siymolar. Abdulla Qodiriy nomidagi xalq merosi. – T.: 2002, 84-171-betlar.
5. Vohidov R., Eshonqulov H. O'zbek mumtoz adabiyoti tarixi. – T.: O'zbekiston Respublikasi Yozuvchilar uyushmasi Adabiyot jamg'armasi nashriyoti, 2008.
6. Rahmonov N. O'zbek adabiyoti tarixi. (Eng qadimgi davrlardan XY asrning birinchi yarmigacha). “Sano -standard” nashriyoti. 2017
7. O'zbek mumtoz adabiyoti namunalari. 2-jild. (XIV–XV asrning boshlari). Tuzuvchi, izoh va sharhlar muallifi: Nasimxon Rahmon. – T.: Fan, 2007.

8. Mallayev N. O'zbek adabiyoti tarixi. T.: O'qituvchi, 1976.
9. Lutfiy. Sensan sevarim. – T.: Adabiyot va san'at nashriyoti, 1987.

XULOSA

Ta'kidlash kerakki, jahon tamadduni rivojida san'aning eng qadimiy turi bo'lgan adabiyotning o'rnini hech narsa bilan o'lchab bo'lmaydi. Shu bois, jahon adabiyotshunosligida madaniyat va san'at tarixi, xususan, sharq adabiyoti, uning yirik vakillari hayoti hamda ijodiga bo'lgan qiziqish kun sayin ortib bormoqda.

Dunyo tamadduni tarixida Sharq xalqlari qoldirgan ma'naviy merosning alohida o'rne bor. Markaziy Osiyo mintaqasi xalqlari o'zlarining betakror boy adabiy merosi va milliy qadriyatlari bilan dunyo xalqlarini o'ziga jalb qilib kelmoqda. O'sib kelayotgan yoshlar qalbida vatanga muhabbat, ajdodlariga hurmat ruhida tarbiyalashda mumtoz adabiyotimizning yirik vakillari qoldirgan o'lmas asarlar asosiy manba bo'lib xizmat qilishi inkor qilib bo'lmaydigan haqiqatdir.

Bugun axborotlar tahdidi kuchaygan bir davrda sog'lom fikrli, ma'naviy barkamol shaxsni tarbiyalash muhim va dolzarb muammo bo'lib qolmoqda. Ayniqsa, globallashuv davrida "ommaviy madaniyat" niqobi ostida shakllanayotgan "yod qadriyatlar", "ma'naviy tahdid"lar ta'siridan o'sib kelayotgan yosh avlodni asrashda ajdodlarimiz qoldirgan ma'naviy meros bag'ridagi ezgu g'oyalar targ'ibidan samarali foydalanish qo'l kelmoqda. Bunday ulkan vazifani bajarishda adabiyotning roli nihoyada katta.

"O'zbek adabiyoti tarixi"dan yaratilgan ushbu qo'llanmada mumtoz adabiyotimizning yetuk namoyandalari - Pahlavon Mahmud, Nosiriddin Rabg'uziy, Xorazmiy, Sayfi Saroyi, Yusuf Amriy, Sayid Ahmad, Durbek, Haydar Xorazmiy, Atoyi, Sakkokiy, Gadoiy, Lutfiy kabi so'z san'akorlarining hayoti va ijodi o'rganilgan. Shu bilan birga ushbu qo'llanmada mumtoz matnlarni, ayniqsa, g'azal janridagi she'rlarni tahlil qilish, mavzu va g'oyasini anglash, tasviriy vositalar, vazni haqida tasavvurga ega bo'lish kabi masalalarga keng to'xtanilgan.

“O‘ZBEK ADABIYOTI TARIXI” FANIGA OID GLOSSARIY

AN’ANA – o‘tmishdan kelajakka meros qoladigan, avloddan avlodga o‘tadigan, jamiyat hayotining turli sohalarida namoyon bo‘ladigan moddiy va ma’naviy qadriyat.

ADABIY AN’ANA – dunyoni badiiy idrok etish, bilish sohasida davrdan davrga, avloddan-avlodga o‘tib kelgan adabiy tajribalar: estetik qarashlar, tasviriy vositalar, tildagi obrazlilik, emotsionallik va uslubdagi rangbaranglik.

ADABIY TA’SIR – bir ijodkorning boshqa bir qalam sohibi asaridan ta’sirlanishini anglatadi. Bunday ta’sir uning asarida hayot va qahramon ifodasida sezilib turadi.

BADIIY ADABIYOT – ijtimoiy ong shakllaridan biri. Badiiy adabiyot – insonning ruhiy faoliyati mahsuli. Adabiyotda borliq badiiy obrazlar vositasida idrok etiladi.

JANR – (frans. genre – jins, tur) – san’at turlarida tarixan shakllangan ichki bo‘linish hamda mazkur bo‘linishni ifodalovchi tushuncha; shakl va mazmun birligidagi o‘ziga xos xususiyatlariga ega bo‘lgan san’at asarining alohida turi. San’at asarlarining janr guruhlariga bo‘linishi turli (tanlangan mavzu, badiiy-g‘oyaviy mazmun, shakl jihatlari va b.) mezonlarga tayanib amalga oshiriladi; har bir san’at turida janr tasnifi o‘ziga xos tizimni tashkil etadi.

OBRAZ – badiiy obraz - voqelikni faqat san’atga xos usulda o‘zlashtiradigan va o‘zgartiradigan xarakterlovchi estetik kategoriya. Shuningdek, badiiy asarda ijodiy qayta yaratilgan har qanday voqea ham obraz deb yuritiladi.

NASRIY BAYON – nazmiy matnni nasr yo‘li bilan bayon qilish.

NOVATORLIK – (lot. novator – yangilovchi, yangilanuvchi) – adabiy jarayon bilan bog‘liq kategoriya, adabiy jarayonda an’ana bilan har vaqt dialektik aloqada mavjud bo‘lgan hodisa, adabiyot taraqqiyotining muhim ichki omili, badiiy tafakkur rivojiga sezilarli ta’sir o‘tkazib, keyinchalik an’anaga aylanuvchi muhim badiiy-estetik yangilik.

KOMIL INSON – tasavvuf falsafasining asosiy tushunchalaridan biri. Har jihatdan yetuk kishi. Axloqiy jihatdan oliy poklikka erishgan, borliq va Allohni anglashda to‘liq bilimga ega bo‘lgan va natijada

Haqqa yetishgan (yoki Qur'on oyatlarining tub mohiyatini tushunadigan) inson.

RAMZ – (arab. – ishora qilmoq) (badiiy adabiyotda) – voqelikni badiiy aks ettirishning shartli usuli; badiiy shartlilik shakllaridan. Ramz majozdan farq qilib, mazmuni obrazli qurilishi bilan bog'liq bo'ladi va ko'pma'noliligi bilan ajralib turadi. Ramz barcha xalqlar folklori va adabiyotida qadimdan mavjud. Ramziy obrazlar muayyan tizimni tashkil etadi va ayrim hollarda ko'pchilik xalqlar adabiyoti va san'atida mushtarak mazmunni ifodalaydi. Mas, sher – mardlik, tulki – makkorlik, bo'ri – ochko'zlik va boshqalar.

SAN'AT – ijtimoiy ong va inson faoliyatining o'ziga xos shakli. San'at qadimiy tarixga ega bo'lib, u jamiyat taraqqiyotining ilk bosqichlarida mehnat jarayoni bilan, kishilar ijtimoiy faoliyatining rivojlanishi bilan bog'liq holda vujudga kela boshlagan.

G'AZAL – (arab. – ayolni sevish, unga oshiqona munosabatda bo'lish) Sharq adabiyotida eng keng tarqalgan lirik janr. G'azal atamasi dastlab VI-VII asrlarda arab she'riyatida paydo bo'lgan. So'ng O'rta Osiyo va Sharq xalqlari adabiyotlariga o'tib, XIII-XIV lara to'la shakllangan. Ilk bayti matla' yoki mab'da, oxirgisi maqta' deb ataladi. Agar ikkinchi baytning misralari ham o'zaro qofiyalansa, zebi matla'yoki husni matla' deyiladi. G'azalning paydo bo'lishi va rivojlanishi musiqa san'ati bilan chambarchas bog'liq. Dastlab g'azalga taxallus qo'yilmagan, bu keyinchalik an'anaga aylangan.

QOFIYA – (arab. ergashish, izidan borish) – she'riy misralarning muayyan o'rnida ohangdosh so'z yoki so'z birikmalarining izchil takrorlanib kelishi. Qofiya she'rning mazmuni, janri, shakli va kompozitsiyasida muhim o'rin egallaydi. Qofiya hosil qiluvchi so'zlarning ohangdoshligi o'zak bilan o'zak yoki qo'shimcha bilan qo'shimcha o'rtasidagi uyg'unlik tufayli yuzaga keladi.

FOYDALANILADIGAN ADABIYOTLAR:

I. Ijtimoiy-siyosiy adabiyotlar:

1. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining «O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi huzurida O'zbekistondagi Islom madaniyati markazini tashkil etish chora-tadbirlari to'g'risida» 2017 yil 23 iyundagi PQ-3080-son qarori.

2. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyevning «Adabiyot va san'at, madaniyatni rivojlantirish – xalqimiz ma'naviy olamini yuksaltirishning mustahkam poydevoridir» mavzusida O'zbekiston ijodkor ziyolilari vakillari bilan uchrashuvdagi ma'ruzasi // Xalq so'zi. – 2017 yil, 4 avgust.

3. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining «O'zbekiston Respublikasining «Davlat tili haqida»gi Qonuni qabul qilinganligining o'ttiz yilligini keng nishonlash to'g'risida»gi PQ - 4479-son qarori. Lex.uz internet nashri. – 2019 yil, 5 oktabr.

4. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining «Buyuk shoir va mutafakkir Alisher Navoiy tavalludining 580 yilligini keng nishonlash to'g'risida» gi 2020 yil 19 oktyabrdagi PQ-4865-son qarori. (www.lex.uz), 2020 yil 20 oktabr.

5. I. Karimov. Yuksak ma'naviyat-yengilmas kuch. – T.: «Ma'naviyat», 2016.

II Ilmiy adabiyotlar:

1. Adabiyot nazariyasi. Ikki jildlik. I jild. – T.: «Fan», 1978. – 418 b.

2. Adabiyot nazariyasi. Ikki jildlik. II jild.-T.: «Fan», 1979. – 449 b.

3. Atoullloh Husayniy. Badoye` us-sanoye'. –T.: G`.G`ulom nomidagi Adabiyot va san'at nashriyoti, 1981. – 398 b.

4. Boltayev H. Sharq mumtoz poetikasi. O`zbekiston milliy ensiklopediyasi. –T.: Davlat ilmiy nashriyoti. 2008 – 424 b.

5. Boboyev T. She`r ilmi ta`limi. – T.: O`qituvchi, 1996. – 343 b.

6. Vohidov R., Eshonqulov H. O`zbek mumtoz adabiyoti tarixi. – T.: O`zbekiston Respublikasi Yozuvchilar uyushmasi Adabiyot jamg`armasi nashriyoti, 2008. – 528 b.

7. Rahmonov N. O'zbek adabiyoti tarixi. (Eng qadimgi davrlardan XY asrning birinchi yarmigacha). "Sano -standard" nashriyoti. 2017.
8. Is'hoqov Y. So'z san'ati so'zligi. – T. "Zarqalam". 2006. 125 b.
9. Rahmonov V. She'r san'atlari. –Leninobod. 1972.
10. Shayxzoda M. Asarlar. VI jildlik. IV jild. – T. G'afur G'ulom nomidagi Adabiyot va san'at nashriyoti. 1972.
11. Hotamov N., Sarimsoqov B. Adabiyotshunoslik terminlarining ruscha-o'zbekcha izohli lug'ati. – T. 1979.
12. Hojiahmedov A. Mumtoz badiiyat malohati. –T.: "Sharq" nashriyot- matbaa konserni bosh tahririyati. 1999 yil, 237 b.
13. Shayx Ahmad ibn Xudoydod Taroziy. Funun ul-balog'a. O`TA, 2002 yil, 1,2,3,4,5,6 – son, 2003 yil, 1,2-sonlar.
14. O'zbek mumtoz adabiyoti namunalari. II jild. (XIV–XV asrning boshlari). Tuzuvchi, izoh va sharhlar muallifi: filologiya fanlari doktori, professor Nasimxon Rahmon. –T.: Fan, 2007.
15. O'zbek adabiyoti tarixi. 5 tomlik. –T.: 1977.

III. Badiiy adabiyotlar:

1. Atoyi. Devon. Nashrga tayyorlovchi, so'zboshi, lug'at va izohlar muallifi: Sayfiddin Sayfulloh. – T.: Fan, 2008.
2. Gadoiy. Devon. Nashrga tayyorlovchi va so'z boshi muallifi Erkin Ahmadxo'jayev. – T.: Adabiyot va san'at nashriyoti, 1973.
3. Navoiyning nigohi tushgan. G'.G'ulom nomidagi Adabiyot va san'at, – T.: 1986.
4. Navoiy Alisher. Badoye' ul-bidoya. Mukammal asarlar to'plami. XX jildlik. I jild.– T.: Fan, 1987.
5. Hayot vasfi. G'ulom nomidagi ASN, –T.: 1988.
6. Sakkokiy. Tanlangan asarlar. Ikkinchi nashri. Nashrga tayyorlovchi: Qavomiddin Munirov. – T.: Davlat badiiy adabiyot nashriyoti, 1960.
7. Lutfiy. Devon. G'. G'ulom nomidagi nashriyot-matbaa ijoiy uyi. Toshkent. 2012.
8. Lutfiy. Sensan sevarim. – T.: Adabiyot va san'at nashriyoti, 1987.
9. Uch bulbul gulshani. -T.: Adabiyot va san'at nashriyoti, 1986.
10. Muborak maktublar. G'.G'ulom nomidagi Adabiyot va san'at

nashriyoti, – T.: 1987.

11. Sayfi Saroyi. Sher'lar. Guliston. Toshkent: 1968.

12. Sayfi Saroyi. Suhayl va Guldursun. Kitobda: Uch bulbul gulshani. O'zbek she'riyati bo'stoni. G'. G'ulom nomidagi ASN, –T.: 1986.

MUNDARIJA

KIRISH	3
1-MAVZU: Yassaviy hayoti va ijodi.....	5
2-MAVZU: Pahlavon Mahmud hayoti va ijodi.....	18
3-MAVZU: Nosiriddin Rabgʻuziy va uning "Qissasi Rabgʻuziy asari ..	29
4-MAVZU: Xorazmiy hayoti va ijodi.....	39
5-MAVZU: Sayfi Saroyi hayoti va ijodi.....	46
6-MAVZU: Yusuf Amriy hayoti va ijodi.....	63
7-MAVZU: Sayid Ahmad hayoti va ijodi	79
8-MAVZU: Durbek va uning «Yusuf va Zulayxo» dostoni.....	87
9-MAVZU: Haydar Xorazmiy hayoti va ijodi.....	98
10-MAVZU:Atoyi hayoti va ijodi.....	116
11-MAVZU: Sakkokiy hayoti va ijodi	125
12-MAVZU:Gadoiy hayoti va ijodi.....	135
13 - MAVZU: Lutfiy hayoti va ijodi	142
XULOSA.....	<u>155</u>
FANIGA OID GLOSSARIY.....	156

**O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI OLIY TA'LIM, FAN VA
INNOVATSIYALAR VAZIRLIGI
BUXORO DAVLAT UNIVERSITETI**
O'zbek tili va adabiyoti kafedrası

**MA'RIFAT RAJABOVA
ZILOLA AMONOVA**

O'ZBEK ADABIYOTI TARIXI
(XIII – XV asrning birinchi yarmi)
(o'quv qo'llanma)

“ FAN ZIYOSI ” nashriyoti
Litsenziya № 171 , 16 dekabr 2024.
2024 yil 16 dekabrda bosishga ruxsat etildi.
Bichimi 60x90, Bookman Old Style garniturası,
10-shartli bosma taboq, soni 25 nusxa.
Muhammad To'ra bosmaxonasida chop etildi.
Manzil: Buxoro shahar Mustaqillik ko'chasi 28 uy
E-mail: *ya.duna2012@yandex.ru duna_poligraf@bk.ru*

**KBK 84.(50'zb)2.567 R-35
UO'S 84.(50'zb)2.567 R-35
ISBN 978-9910-746-42-0**